

Birgina aybi - yonidagi hujjatini yo'qotib qo'ygani uchun o'zga yurtda g'aroyib uqubatlarni boshidan kechirgan yigitning sevgi qissasi.

\* \* \*

Ertalab barakka brigadir Matchonov bilan yana birkishi kirib keldi. Yo'q, Hakim Nazarich emasdi. Unga qaraganda yoshroq, lekin xuddi Hakim Nazarichday baland bo'lyli, qosh-ko'zlari qop-qora, gavdasi o'ljasiga tashlanmoqchi bo'lgan qoplonday tik va shijoatli, barvasta bu yigit Po'lat Damirovich ekan. Hakim Nazarich bu yerda katta ish boshqaruvchi vazifasini bajarsa, Po'lat Damirovich xavfsizlik ishlariga javobgar shaxs edi. Unvoni kapitan ekan, lekin men uni biror marta ham formada ko'rmadim. - Yangi kelgan kishi qani? - deb so'radi o'sha kuni ertalab Po'lat Damirovich umumiy salom-alikdan so'ng brigadir Matchonovdan. Matchonovning javobini kutmasdan bir qadam oldinga chiqib:

- Men, - deb ovoz berdim.

Po'lat Damirovich menga boshdan oyoq sinchkovlik bilan nazar tashladi. Billsangiz kerak, xavfsizlik ishlarida ishlaydigan kishilarning ko'z qarashlari qattiq va o'ta sinchkov bo'ladi.

- Familiyangiz? - deb so'radi u mendan.

- Davron, - deya ismimni aytdim.

- Men sizdan familiyangizni so'rayapman, - dedi Po'lat Damirovich ovozini xiyol ko'tarib.

- Qo'limda hech qanday hujjatim yo'q, shunday ekan, to'g'ri kelgan familiyani aytaversam ishonasizmi?

Po'lat Damirovichning yuziga qizil yugurdi, bilmadim, jahli chiqdimi yo uyalib ketdimi, ammo o'zini yo'qotib qo'ymasdan darrov javob qaytardi:

- Gap bunday, o'rtoq Davron, bu yer sizga sirk maydoni emas! Bu yerning o'z qonun-qoidalari bor. Shu qonun-qoidalarga so'zsiz ravishda amal qilsangiz kelishib ketamiz siz bilan, aks holda...

- Aks holda?

- Aks holda siz bilan shtabda gaplashishga to'g'ri keladi! - Po'lat Damirovich shaxd bilan Matchonovga yuz burdi: - Ketdik!

Ular chiqib ketishgach, Nurali yaqin kelib:

- Siz haliyam uch-to'rt kundan keyin bu yerdan jo'nab ketishingizga ishonaysizmi? - deb so'radi.

- Albatta.

Nurali indamadi. Lekin qarashlari yoqmadi bu yigitning. U allaqanday istehzo bilan, yo'q, aniqrog'i, bu odam ovsar emasmi, degandek boqardi menga.

Nonushtadan keyin Matchonov hammani hovliga to'plab, safga turg'azdi. Menga safning oxiridan joy tegdi. Keyin yoshgina soqchi yigit hamrohligida yo'lga tushdik.

- Bu nimasi, oshna, - dedim Nuraliga soqchi yigitni ko'rsatib. - Biz mahbuslarmizmi soqchi qorovulligida ishga oborishyapti?

- Hujjatsiz odamning mahbusdan nima farqi bor? - savolga savol bilan javob berdi Nurali.

Jiddiy qabul qilmaslikka qancha urinmayin, bu yerdagi g'ayritabiiy hol meni har qadamda hayratga solardi, shu bilan birga ham qiziqishim ortardi, ham qandaydir xavotir tuyg'usi chulg'ardi.

Birinchi ish kunimda aytarli, esda qolarli voqea-hodisa yuz bermadi. Ammo bir kunning o'zida ancha-muncha gapdan boxabar bo'lganim esimda. Avvalo shuni aytib qo'yay, bu yerda ellik-oltmish chog'li ishchilar brigadasi allaqachon shakllanib bo'lgan, ellik-oltmish chog'li odamning har birining o'z hunari, o'z vazifasi va o'z ish normasi bor edi.

Misol uchun Nuralini olaylik. U duradgor edi. Eshik-rom o'rnatish vazifasi va u-bu vazifani juda o'rniga qo'yib, bekamu-ko'st ado etardi, chunki Nurali o'z kasbining haqiqiy ustasi edi. Ish maydoniga kelganidan keyin "Menga qanday vazifa yuklatarkan?";, deb kutib turmasdi, shartta ishga tushib ketardi. Besh kishidan iborat uning o'z kichik brigadasi bor edi. Abduvali esa elektrik edi. U ham o'z vazifasini aniq bilardi va bir daqiqa ham vaqtini behuda sarflamasdan ishga sho'ng'irdi...

"Qanaqa qurilish edi?"; - deb so'rayapsizmi? Darvoqe, men bu haqda hali sizga gapirmadim-a? Aytishlaricha, uch korpusdan iborat, hali qurilishi nihoyasiga yetkazilmagan, ishchilarning taxminicha qandaydir zavodga mo'ljallangan, ammo arxitektura jihatdan kichikroq fabrika va yotoqxonaga o'xshab ketadigan bu qurilish inshooti Ahmadbey degan turk korchaloniga tegishli ekan. Ahmadbeyning o'zini yoki suratini ishchilar hatto tushlarida ham ko'rishmagan. Shuning uchun Ahmadbeyning yoshi, saxt-sumbati haqida hech qanday ma'lumot bera olishmadi. Faqat uning "juda katta boy, millioner"; ekanligini ta'kidlashdi. O'rmonning qoq o'rtasida zavod yoki fabrika (nima farqi bor, yo unisi, yo bunisi!) qurishdan o'sha millioner bey qanday maqsadni ko'zlagan ekan? Axir, bu yerlar aholi kam yashaydigan chekka hudud bo'lsa. Xudo biladi, yaqin-atrofdagi birorta qishloq yoki xutor uchraydimi-yo'qmi? Birinchi ish kunim to qosh qorayguncha shu holda bosh qotirganim, oxir-oqibatda bir to'xtamga kela olmaganimdan asabiylashib: "E onasini!"; deya so'kinib yuborganim esimda.

Men shu choqqacha umuman so'kinmasdim, o'sha kungi qilig'im esa muhit ta'siriga tezda beriluvchan odam ekanligimning isboti edi. O'lay agar, u yerda deyarli hamma so'kinib gapirardi. Qo'lidan bolg'asi tushib ketsa ham bolaxonador qilib so'kinishardi.

Men o'ylay-o'ylay, nihoyat bir qarorga kelib, Abduvali ta'kidlaganiday "... eng oson ish"; ohak kuydirish ishini tanlagandim. "Baribir bu yerda uzoq qolmayman, ko'nglim sezib turibdi, hech qanday javob kelmagan taqdirdayam nimadir bo'ladi-yu, bu yerdan ketaman. Ammo hunar o'rganib qo'ysam yomon bo'lmas";, derdim ichimda yangi mashg'ulot jarayonini kuzatib, nomiga bo'lsa-da, oz-moz qo'l tekkizib ko'rib, shu ishni eplab keta olishimga ishongan holda xuddi majburiy mehnatdan qaytayotgan mahbuslar singari saf bo'lib, qosh qorayganda kazarma... e, barakka qaytarkanmiz.

Bu yerdagilarning nazarida ohak pishirish eng oson ishdek tuyiladi. Lekin bilmagan odam uchun bit o'ldirish ham qiyin, deganlaridek, eng oson ishning ham o'ziga yarasha zahmatlari bor edi. Biz to'rt kishi bo'lib, maxsus o'choqlardagi maxsus idishlarni ohaktoshlar bilan to'ldirib tagiga olov yoqardik. Ba'zida katta-katta bo'laklardan iborat ohak toshlarni urib maydalashga to'g'ri kelardi.

Kun davomida olov yonida turganim bilan havo sovuq, yer zax bo'lganidan oyoqlarim muzlab, barmoqlarim tarashadek qotib bukmaydigan bo'lib qolgandi. "Qaniydi issiq hammom bo'lsa!.."; deya orzuga ham berilardim yo'l-yo'lakay.

- Nurali, bu yerda hammom bormi? - deb so'radim barakka yaqinlashganimizda sherigimdan.

- Hammom?.. Bor, lekin u ishchilar uchun emas.

- Yuvinish xonasi yo'qmi? - deb so'radim kapalagim uchib.

- Bor. Dush. Hammom kontoradagilar uchun.

- Dush bo'lsayam bor ekan-ku.

Azaldan suvni, cho'milishni yaxshi ko'rardim. Uyda vannaga kirivolib soatlab suv ichida yotardim. Balki bu baliq burji ostida tug'ilganim tufaylidir?

O'sha kuni kechqurun dushga kirib oldim-u, obdo-on cho'mildim. Tepadan shovullab tushayotgan suv ostida uz-zoq turdim. Charchog'im chiqib, onadan yangi tug'ilganday yengil tortib yemakxonaga kirib kelganimda... u yerda na Nurali, na Abduvali bor edi. O'n-o'n besh chog'li kishi yemakxonaning u yer-bu yerida o'tirgancha konCHByak qo'shilgan qahva "kokteylCHB"; ho'plab o'tirishardi.

"Kokteyl";ni ishchilar ermak yoki olifalik uchun emas, sovuqqa o'zlarini oldirib qo'ymaslik uchun pulga sotib olib ichishardi.

"Meni kutishmabdi... Shuncha uzoq qolib ketdimmi dushda?.."; - qizil karamli sho'rvadan ko'nglim tortmasdan totinarkanman, beixtiyor Saodat pishiradigan ovqatlar esimga tushib ketdi. Xotinimning qo'li shirin edi.

Ovqatlanib bo'lgach, barakka qaytdim. Lekin u yerda ham na Nurali, na Abduvali bor edi. Uch-to'rt kishi adyolga burkangancha uxlab yotishardi. Shu payt Matchonov eshikdan bosh suqdi.

- Siz shu yerdamisiz? - dedi u hayron bo'lib.

- Ha. Nima boshqa yerda bo'lishim kerakmi?

- Bundan chiqdi, ikkinchi smenada ishlashni xohlamaysiz, to'g'rimi?

- Tushunmadim.

- Ana shunaqa-da!

Matchonov ustimdan g'alaba qozongandek va "o'zingni bilag'on ko'rsataverma, bilmaydigan narsang ko'p hali!";, deya ta'kidlayotgandek g'olibona nazar tashlagancha ichkariga qadam qo'ydi. Uning aytishicha, bu yerda ish uch smenada tashkil etilgan ekan. To'g'ri, qish mavsumida qurilishda ayrim ishlar to'xtatiladi. Chunki davom ettirishning iloji yo'q. Lekin bino ichkarisidagi ishlarni bemalol bajaraversa bo'ladi. Shuning uchun ish uch smenada tashkil qilingan. Lekin bir shart bilan: ikkinchi, uchinchi smenada faqat o'z ixtiyori bilan ishlovchilar ishlaydilar. Buning uchun ularga kunduzgiga qaraganda ikki baravar ko'p ish haqi to'lanadi ("Darvoqe, bu haqda Hakim Nazarich sizga hech nima demaganmidilar?"). Agar istasam, men ham hoziroq borib ishlashim mumkin ekan. Lekin kechki smenada Matchonov emas, boshqa kishi brigadirlik qilarkan.

- Eh-he! Zo'r-ku bu yog'i! - dedim Matchonovga qarab. - Ko'rinmas bey afandining kallasi zo'r ekan!

Matchonov nimadir deyishga chog'landi, lekin gapirolmadi, allaqanday sarosima ichida yuzimga tikilib qoldi. U menga ham boshqalarga muomala qilganday, tepadan qilib gapirishga urinardi-yu, nima uchundir sira eplay olmasdi yoki botinolmasmidi?

- Demak, Nurali bilan Abduvali ovqatlanib bo'lib, ikkinchi smenaga ketishibdi-da, - deb so'radim Matchonovdan.

- Ha. Ishlagani ketishdi. Buning nimasi yomon? Normani bajarishadi-yu qaytishadi.

- Norma? Bu yana qanaqasi?

- Kechki smenada ishlayotganlar uchun norma belgilangan.

- E, shunaqami?

- Xo'sh, siz ham ishlaysizmi? - betoqatlik bilan so'radi Matchonov.

- Bilmadim. Hakim Nazarich bilan maslahatlashib ko'ray-chi, - dedim atay.

Matchonovning yana popugi pasaydi. Tezgina xayrlashdi-yu, chiqib ketdi. Safsata sotib biroz chigilimni yozmoqchi edim.

Matchonov qochib qoldi. Negadir shu odamni mayna qilgim kelaverardi. Matchonov bu yerlarning o'z odami bo'lib qolgan,

g'ashiga tegaversam biror yomonlik qilishi ham mumkin, bu qo'lidan keladiyam, shuni bila turib ham, negadir unga jiddiy muomala qilgim kelmasdi. Jo'rttaga Hakim Nazarichning nomini tilga olganimning sababi ham shunda, aslida Hakim Nazarich ham xuddi Matchonov singari menga begona, qolaversa, uning maslahatiga kunim qolgani yo'q, qolmasin ham! Men

Matchonovning xameleon singari turlanib turishini kuzatib, huzurlanish uchun ish boshqaruvchining nomini tilga olardim.

Ikkinchi yoki uchinchi smenada ishlash masalasiga kelsak, ikki barobar ko'p haq uchun har qanday qiyinchilikka chidashga tayyor bo'lsam-da, negadir ko'nglim chopmayotgan edi. Ba'zi bir shubhali o'ylarga borganim tufayli ehtimol o'zimni ortiqcha urintirgim

kelmagandir. Shubhali fikrlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Buning ham o'z sababi bor.

Odamlar xuddi qadim zamonlardagidek jamoa bo'lib yashab, ter to'kib mehnat qilayotgan bu g'ayritabiiy oilada gap yotmas ekan. Dastlabki ish kunlarim davomida shunchalik ko'p ma'lumotga ega bo'ldimki, asti qo'yaverasiz. Eng qizig'i, men hech kimdan hech narsa so'ramasdim. Ularning o'zlari oldimga kelib meni men bilmagan gaplardan ogoh etishardi.

Ertalab qurilishga borganimizdan keyin odamlar to'rt-besh kishidan iborat mayda brigadalarga bo'linib, har yoqqa tarqashardi.

Nurali o'z sheriklari bilan ikkinchi korpusning birinchi qavatida ishlardi. Abduvali esa birinchi korpusning ikkinchi qavatiga

chiqib ketardi. Boshqalar ham shu taxlit ish joylarini egallashardi.

Men dastlabki kundanoq sal-pal yaqin bo'lib qolgan Nurali bilan Abduvalidan ayrilgim kelmasdi. Lekin bizning

"mutaxassisligimiz"; to'g'ri kelmagani uchun boshqa-boshqa joylarda ishlashga majbur edik. Yuqorida aytganimdek, eng oson ish bo'lgani uchun men ohak so'ndiruvchilar brigadasiga kelib qo'shilgandim. To'rt kishi edik. Bitta brigadir, uchtamiz ishchi.

Ishimizning yaxshi tomoni shunda ediki, biz anovilarga o'xshab taxa, bo'yoq, kuyindi hidlari anqiyotgan dim xonalarda emas,

ochiq havoda, ochiq osmon ostida ishlardik. Ohak kuydiruvchi qozonlarimiz tashqarida edi. Havo goh ochiq, goh bulutli,

sovuqdan sovuq bo'lsa-da, har qalay toza edi. Ishdan qo'ling bo'shagan mahal zamirida allaqanday sir, dardchil hasrat to'la

allanima mavjud bo'lgan yovvoyi va begona manzarani kuzatish imkonini tug'ilardi.

Bir necha qadam naridan quyuy o'rmon boshlanadi. O'ngga qarasangiz ham, chapga yoki to'g'riga, hatto ortga qarasangiz ham

o'rmon, qisqasi, oyog'ingiz tegib turgan qorli maydon chegarasidan o'tganingizdan keyin sizni nima kutib turibdi, qayoqqa yurishingiz kerak, birorta qishloq yoki stansiyaga olib boradigan yo'l bormi-yo'qmi, bari-bari noma'lum va sirli bo'lgan, nafaqat

bulutli kunlar, balki bepoyon, oppoq qor sathida quyosh yarqirab nur sochgan paytlar yanada begona, sirli ko'rinadigan maskan...

Ko'zlaring yoshlangancha tikilib turarkansan beixtiyor: "Qani endi qushga aylanib qolsamu, har lahzada qadri bilinayotgan

qadrdon yurt tomon uchib ketsam!"; degan o'y yurakni, nafaqat yurakni, balki butun vujudni junbushga keltiradi.

O'sha kuni men xuddi shunday kayfiyatda qor bosgan o'rmonga tikilib turganimda sheriklarimdan biri Husan yonimga kelib:

- Manzara zo'r-a? - dedi kulib.

- Zo'r-ku, lekin begona-da, - dedim mahzun kayfiyat ta'sirida.

- Hali bir kun ham bo'lmasdan zerikdingizmi? - so'radi Husan.

- Ha.

- Eh-he, bizga o'xshab bir yarim yil yursangiz...

- Sizga o'xshab bir yarim yil yurmasam kerak!

Husan jahlim chiqqanini sezdi, yuzimga bir necha daqiqa so'zsiz tikilib turdida, so'ng:

- Menimcha, yursangiz kerak, - dedi ishonch bilan.

- Ularning so'rovnomasiga javob kelishi bilan...

Husan kuldi. Boshini xiyol qiyshaytirib, chakkasini qashish asnosida yana kuldi, keyin boyagiday ishonch bilan:

- Javob kelmaydi yoki kelgan taqdirdayam ular bizga ko'rsatishmaydi, - dedi.

Yuragim orqaga tortib:

- Nahotki? - deb yubordim beixtiyor.

Husan javob berishga ulgura olmadi. O'zimizdan chiqqan brigadir Qilichbek nariroqda turgandi, bizning suhbatlashayotganimizni ko'rib qolib shitob bilan yetib keldi.

- Bu yerga hangoma qilish uchun kelmagansanlar, yigitlar, gapni bas qilib, ishga kirishinglar! - dedi u.

Biz qilt etmay turaverdik.

- Yigitlar, nima deyapman?! - dedi Qilichbek endi ovozi bir parda ko'tarib. - Judayam gaplashgilaring kelayotgan bo'lsa, kechqurun barakda xumordan chiqquncha gaplashasanlar!

- Nega bizga buyruq beryapsiz? - dedim endi rosmana jahlim chiqib Qilichbekka qarab. Holbuki, kecha kechqurun meni ochiq chehra bilan qarshi olgan, eng ko'p savol bergan yigit shu Qilichbek edi. - Kim sizga bu huquqni berdi?!

- Ishla, degan yomonmi? Pulini qurtday sanab olasanlar-ku! - dedi Qilichbek jangga hozirlanayotgan dakang xo'rozday yelkalarini uchirib.

- Ha, yomon! - deb baqirdim Qilichbekka javoban, ayni chog'da qo'yib bersa brigadir bilan yoqalashib ketishga ham tayyor edim, go'yo hammasi uchun shu odam sababchidek ko'zimga balo-qazodek ko'rinayotgandi.

- Ketdik, - Husan yengimdan tortib nariga olib ketdi.

- Uning bizga buyruq berishga haqqi yo'q! - deya endi Husanga qarab baqirdim. - Pulini qurtday sanab olganimizdan keyin o'z ixtiyorimiz bilan ishlashimiz kerak!

- Psixmi nima balo? - degani eshitildi Qilichbekning ortimizdan.

- O'zing psix! - deya xezlangandim Husan qo'limdan tutib qoldi.

- Yaxshi odam emas ekan bu odam, - dedim hayajondan o'zimni bosa olmay, hansiragancha Husanga qarab.

- Brigadir bo'lmasdan oldin yaxshi odam edi. Keyin aynidi, - dedi Husan kulimsirab. - Yuring, yaxshisi tosh maydalaymiz.

Biz ishchilar tilida "kuvalCHB"; deb ataladigan, men jo'ngina temir to'qmoq deydigan ish qurolimizni qo'lga olib ishga kirishdik.

Temir to'qmoqni qulochkashlab kuch bilan ohak toshga urarkanman, gumbirlagan ovozga qo'shilib yuragimdagi alam ham tashqariga otilib chiqib ketayotgandek tobora yengil tortardim.

- Sizni hali shtabga chaqirishmadimi? - deb so'radi Husan dam olishga cho'nqayganimizda.

- Chaqirishlari kerakmi?

- Menimcha, yigirma kunlardan keyin sizni shtabga chaqirishadi-da, shartnoma asosida ishlashni taklif qilishadi.

- Unchalikka borishmas, - dedim hali ham umidimni uzmasdan.

- Borishsa-chi?

- Rozi bo'lmayman!

- Unda tekandan tekin ishlayverasizmi?

- Ketaman! Baribir ketaman!

Husan men bilan tortishish befoyda ekanligini, o'zi yoqlagan tarafni hech qachon bermaydigan chiranchiqligimni fahmladi chog'i, indamay qo'ya qoldi.

Tushlik vaqti yaqinlashardi.

Meni oshqozon tashvishi bezovta qila boshladi. Husanga qarayman, xotirjam; ikkinchi sherigim Fayzining yuziga zimdan razm solaman, qorni to'q odamday beg'am, uchinchi sherigim Toshpo'lat g'ing'illagancha qo'shiq xirgoyi qilyapti...

Oxiri sabrim chidamadi.

- Tushlikka barakka boramizmi? - deb so'radim Husandan.

- Yo'q, tushlik shu yerda bo'ladi, - deb javob berdi Husan.

- Qanday qilib?!

- Halizamon uch-to'rtta xotin kelib, pirashka-mirashka sotib ketadi.

- Bundan chiqdi, shu yaqin-atrofdan qishloq bor ekan-da? - dedim jonlanib.

- Shunaqa shekilli. Anchadan buyon qatnashadi-yu, lekin biz bilan ochilib gaplashishmaydi. Shunday buyruq olishgandir, - dedi Husan.

- Birortasini sevib qolsangizgina sizga e'tibor berishadi, - deya gapga aralashdi Fayzi.

- O'ylab gapirsang-chi, - deya unga tanbeh berdi Husan. - Bilib-bilmay...

- Nega bilib-bilmay bo'larkan, - dedi Fayzi shartta. - Hakim Nazarich ham aslida bizga o'xshaganlardan bo'lgan. Marjalardan bittasini sevib qolib, uylanganidan keyin unga ishonishib yuqori amal berishgan, bilmasang bilib qo'y!

- Bu shunchaki mish-mish bo'lishi ham mumkin-ku, - dedi Husan Fayziga emas, menga yuzlanib.

- Nega unda Po'lat Damirovich haqida bunday mish-mish gap yo'q? - dedi Fayzi bo'sh kelmasdan. - Chunki u haqiqatan ham shu yerning odami! Moskvada tug'ilgan, Moskvada o'qigan, milisa, xotinboz milisa!

- Birorta xotin bilan yetaklashib yurganini ko'rganmisan?

- Ko'rmaganman, lekin eshitganman.

- Quloqning tambasi yo'q, hamma narsani eshitaveradi-da.

- Matchonovga nima deysan? - dedi Fayzi qizishib.

- E, bas qilsang-chi!

- Nega bas qilarkanman? Kerak bo'lsa o'sha Matchonov bu yerga kelib turadigan haligidaqa ayollardan biriga uylangan!

- E, bor-e!

Husan qo'l siltagancha nari ketib Fayzidan qutuldi.

Yoshi o'ttizga ham bormagan, malladan kelgan, hech qachon qorni to'yib ovqat yemagan odamday haddan tashqari ozg'in, ramaqjon Fayzining qiziq fe'li bor edi.

Agar siz indamasangiz, Fayzi ham miq etmay yuraveradi. Ishonasizmi, bir kuni biz ertalabdan kechgacha bir og'iz ham

gaplashmasdan ishlaganmiz. Ammo bexosdan bir savol berib qo'ysangiz bormi, undan qutulishingiz qiyin. Yana shunisi qiziqki, uzilib qolgan suhbatni ikki kundan keyin ham kelgan yeridan davom ettirib ketaveradi.

Husan ham Fayzi tengqurob, lekin unga o'xshab ramaqijon emas, kelishgan yigit. Xotinlar haqidagi mish-mishlarni yoqtirmaydi, ammo o'zaro hangoma-gurungni yaxshi ko'radi.

Umuman olganda, bu yerdagilarning deyarli barchasi bir xil dardga yo'liqishgan: ular boshqalar haqida, o'zlari bilan yonma-yon ishlayotgan sheriklari haqida shu qadar ko'p ma'lumotlarga egalarki, birining ko'zi pana bo'lishi hamon ikkinchisi g'iybatni boshlab yuboradi. Mana, birinchi ish kunimning o'zidayoq qancha ma'lumotga ega bo'lganimni o'zingiz eshitdingiz-ku. Biroq ular hech qachon o'zlari haqida gapirmaydilar. Mana shunisi qiziq.

Ha, yana bir gap esimga tushib qoldi. Shu kuni ish vaqti tugashiga yaqin birdan Husan ko'rinmay qoldi.

Ikkala sherigimiz bilan brigadir Qilichbek safga turadigan maydonimiz - qurilish hovlisi tomon yo'rg'alab qolishgandi. Men Husanni kutib turmoqchi bo'ldim. Shu yigitning nimasidir menga ma'qul bo'la boshlagandi-da.

Shu vaqt kimdir chaqirganday bo'ldi, aniqrog'i, nimadir deganday bo'ldi. Qarasam, Toshpo'lat nimalardir degancha men tomon kelyapti.

- Eshitmadim, nima deyapsan? - deb so'radim u yaqin kelgach.

- Husanni kutib turibsizmi, deyaрман.

- Ha. Qayoqqa ketdiykin?

- Hojatga ketgan, - dedi Toshpo'lat va yonimga kelib turib oldi.

- Siz ketavering, - dedim uni yo'ldan qoldirmaslik uchun.

- Mayli, hozir ketaman, - dedi Toshpo'lat. - Lekin avval sizga bir gapni aytib qo'yay degandim.

- Qanaqa gap?

- Bu yigit bilan ko'p osh-qatiq bo'lavermang, - dedi shunda Toshpo'lat dabdurustdan. Men uning Husanni nazarda tutayotganini anglab turardim. - Bu yigit qamalib chiqqan, zek!

Men nima bo'пти, deganday xotirjamlik bilan qaradim Toshpo'latning yuziga. Shunda u meni qo'rqitish uchunmi yanada vahimali gap aytdi:

- Husan qotil! Odam o'ldirgan!

Shu gapdan keyin menda qandaydir o'zgarish paydo bo'ldi, buni o'zim ham sezdim.

- Institutda o'qib yurganida o'rtog'i bilan bir qizni kvartiralarga oborib, avval ob-do-on... navbati bilan... keyin o'ldirib, bu kamlik qilganday, jasadni mayda bo'laklarga bo'lib!.. Keyin anhora tashlab yuborishgan!!! - Toshpo'lat shunday vahimali ta'kid bilan so'zlardiki, go'yo bundan huzurlanayotgandek. - Buni qarangki, qizning jasadi bo'laklangan holda anhorning turli qismidan suvga tashlangan bo'lsa-da, ular oqib kelib bir yerga to'planib qolgan ekan! Shundan keyin Husanniyam, o'rtog'iniyam atigi o'n besh yilga qamashadi. Bitta odamning xuni o'n besh yil ekan-da! Bu oz emasmi? Lekin Husan qamoqda bor-yo'g'i ikki yil o'tiradi. Otasi katta amaldor va boy odam bo'lgani uchun pulni rosa sovurib, uni qutqarib qoladi. Barcha aybni sherigiga yuklashadi. Pulning kuchini qarang, otasi Husanni nafaqat qamoqdan qutqargan, balki uning peshonasidan "sudlangan"; degan tamg'ani ham oldirib tashlagan. Chunki Husan yolg'iz o'g'il, ota-onasining undan boshqa farzandi bo'lmagan. Husanning egizagi Hasan ham bo'lgan-u, lekin u chaqaloqligida olamdan o'tgan ekan. Otasi Husanning chala qolgan o'qishini ham tiklagan, ammo u o'qishni xohlamagan. Daydib yurib bu yoqlarga kelib qolgan. Ana shunaqa! Xo'p, men ketdim.

Toshpo'lat sheriklarining ortidan yugurdi.

Meni ikki narsa hayratga solardi. Avval ikkinchisini ayta qolay, a? Qiziq, Toshpo'lat shuncha ma'lumotni qayerdan oldi? Har qalay Husanning o'zi maroq bilan so'zlab bermagandir? Inson eng tuban qilmishlari haqida osonlikcha og'iz ochmaydi, mening fikrimcha. Tag'in ham kim biladi, deysiz?

Men bir vaqtlar o'zi ancha yoshga borib qolgan odamning yosh qizga uylangani va nikoh oqshomi keksaligi pand berib qo'yib, qo'lidan hech ish kelmagani haqida o'sha kishining o'zi og'iz ko'pirtirib, maqtanib gapirayotganini o'z qulog'im bilan eshitgandim. U so'zlar ekan, shu yoshida yoshgina qizbolaga (axir, bu sharaf!) uylanganini zo'r berib isbotlashga, kimlarnidir ishontirishga urinardi, lekin aslida o'zining ojizligini fosh qilib, o'zini o'zi sharmanda qilayotganini fahmlamasdi! Demoqchimanki, hayotda shunday odamlar ham uchraydi, biroq bu boshqa masala, qotillik bilan tenglashtirib bo'lmaydi buni!

Endi ijozatingiz bilan meni hayratga solgan birinchi sababga o'tsam. Yuqorida aytganimday, Husan nihoyatda kelishgan yigit edi. Ayniqsa, uning ko'zlari meni larzaga solardi. Bilasizmi, Husanning katta-katta, chiroyli (xuddi qizlarniki kabi), qorachiqlari bir laxcha cho'g'day yonib turuvchi ko'zlari go'yo go'dak bolaning ko'zlaridek nihoyatda beg'ubor va ma'sum edi! Hamsuhbatiga beozorlik bilan jovdirab boqardi. Yuzi shu qadar tiniq ediki, birorta nuqson sezilmasdi. O'shandan keyin men Husanni ko'p kuzatadigan bo'ldim. O'ziga sezdirmasdan-da. Va har gal: "Toshpo'lat yolg'on gapirdi-yov!"; degan fikrdan nariga o'tolmasdim. Esingizda bo'lsa, Bahodir haqida ham shunga o'xshash gaplarni gapirgandim. Lekin oqibati nima bo'ldi? Demak, bundan chiqdi, inson qiyofasidan olingan taassurot aldanchi ekan-da?!

Nima bo'lishidan qat'i nazar, o'sha kuni men Husanni kutdim. U kelganidan keyin saf maydoniga birga qaytdik.

\* \* \*

Kunlar o'ta boshladi.

Ertalab ishga kelamiz, kechqurun qaytamiz.

Ikkinchi kun birinchi kunga qaraganda xiyla yengil o'tdi. Uchinchi kun bundan-da behroq. To'rtinchi-beshinchi kunlarga borib, men o'zimni anchadan buyon shu yerda yashayotgandek his eta boshladim. Insonning yashovchanligi uning ko'nikuvchanligida, tez moslasha olishiga ham bog'liq, degan fikr tug'ilgandi menda o'sha vaqtda.

Har kuni ertalab Hakim Nazarichni kontora eshigi oldida turganini yo ichkariga kirib ketayotganini ko'rib qolaman. Uning ham menga nigohi tushadi, lekin o'zini menga hech qanday gapi yo'q odamday tutadi. Shundan bilamanki, demak, hech qanday xabar yo'q! Hafsalam pir bo'lib, ishga jo'nayman. Baxtinga sheriklarimning munosabati yomon emasdi. O'zaro san-manga borib janjallashib turganlariga qaramasdan menga ko'zlari tushishlari bilan hurmatimni joyiga qo'yishardi; mojaroni bas qilishib, men bilan suhbatlashishga oshiqardilar; ular ko'p narsalar haqida so'rashardi; yuragim siqilganidan o'zimni qo'yarga joy topolmay turgan bo'lsam-da, ularning savollariga astoydil javob berardim.

Sho'rliklarning ko'pchiligi tirikchilik vajidan uylaridan chiqib ketganlariga bir-ikki yil bo'lgan, shuncha vaqtdan buyon bola-chaqasining mehridan, ro'y bergan yangilik va o'zgarishlardan bebahra edilar.

Suhbatlarimiz ko'pincha yarim kechaga dovur cho'zilib ketganidan uyquga to'ymasdik, natijada ertalab ko'zlarimiz kirtayib, charchog'imiz yozilmagan bir ahvolda ishga jo'nardik. Mabodo men ham nima haqdadir so'rab qolgudek bo'lsam, sheriklarim buni o'zlariga sharaf deb bilgandek, jon-jon deb javob berishardi. Bundan men allaqanday lazzat tuyardim. Bu odamlar mening raftorimda hech kimnikiga o'xshamagan qandaydir xislat ko'rishgan shekilli, deya ich-ichimdan g'ururlanardim. Ularning o'zlari esa bir-birlari bilan juda ko'p jiqqillashib qolardilar. Bexosdan tegib ketilgan turtki ham katta to'polonga sabab bo'lardi. Misol deysizmi? Istagancha misol keltirishim mumkin. Bir kuni ertalab (ertalab deganda men tonggi to'rtini nazarda tutyapman. Bu yerda tartib shunday. Hamma tonggi soat to'rtida o'rnidan turishi shart. Soat beshgacha nonushta, keyin ishga marsh!) Rayimberdi degan tokarning yerda yotgan shippagini ikkinchi qavatdagi nardan tushayotgan sherigi Abdulla degan yigit oyog'ining uchi bilan turtib ancha nariga uchirib yuborgan ekan. Bo'ldi janjal, bo'ldi qiyomat!

Gaplarini eshitng:

- Sen jig'imga tegish uchun atay shunday qilding! Shippagimni olib kelib oyog'imga kiydirib qo'yasan!
- Atay qilganim yo'q, nega tushunmaysan?!
- O'tgan oy ko'proq pul olganim uchun menga tish qayrab yuribsan! Ko'rolmaysan meni!
- Sening nimangni ko'rolmayman?! Bir safar ko'p pul olsang olibsan-da!
- Alam qilgani yo'qmi?
- Qilgani yo'q, deyapman-ku senga! Alam qilgani yo'q!
- Nega unda shippagimni tepib yubording?! Atay janjal chiqarish uchun shunday qilding!
- Ahmoq! Miyasi yo'q eshak!
- Kim eshak?!
- Sen! Sen! Sen...

Ana shundan keyin ikkala erkak quturgan itdek bir-birlariga tashlanadilar. Boloxonador so'kinishlar avjiga chiqadi.

Eng qizig'i - hech kim ularni ajratishga shoshilmaydi. Hamxonalarimiz zo'r tomosha ko'rishayotgandek maroq bilan janjalkashlarni kuzatishadi. Ikki soqchi hamrohligida Matchonov kirib kelgandan keyingina jang to'xtaydi. Qon to'kilmagan bo'lsa, soqchilar ogohlantirish bilan cheklanadilar. Aks holda janjalkashlarning ikkalasini (balki uch-to'rttasini) ham shtabga olib ketishadi. U yerda Po'lat Damirovich tomonidan ularga jazo choralari belgilanadi.

Shunday to'polon-janjal yuz bergan kezlarda men bu odamlarni tushunmay qolardim. Axir, shippakning bexosdan turtib yuborilgani mushtlashuvga arzimaydi-da! "Bu o'ta janjalkash va ichi tor kimsalar, - derdim ichimda o'zimcha mulohaza yuritarkanman. - Ularning o'rnida men bo'lganimda sira ham bunday qilmasdim!"; Ularning favqulodda jizzaki, urishqoq bo'lib qolishlarining sababini ko'p narsalarni tushunmasliklarida, chuqur fikr yuritmasliklarida deb bilardim. Nega deganda, bularning deyarli hammasi (Husan chalamullani hisobga qo'shmaganda) chala-chulpa olingan o'rta ma'lumot bilan cheklangan, diplom taklif qilingan taqdirda ham uni keraksiz matoh, deb hisoblab rad qiluvchi, har jihatdan o'rtamiyona kishilar bo'lib, azbaroyi tirikchilik tufayli issiq ko'rpasini tark etgan darbadarlar edi.

Bu odamlar orasida ikki kishigina mening e'tiborimga sazovor bo'lishgandi: Nuralini jiddiy va mehribonligi tufayli, Husanni (garchi qotil bo'lsa-da) fikr doirasi keng bo'lgani uchun o'zimga yaqin olardim. U bilan dunyoviy mavzularda bemalol suhbatlashish mumkin edi.

Bir kuni kechki payt "kontora"; xizmatchisi kelib meni Hakim Nazarich yo'qlayotganini aytdi. Bu vaqtda men Husan bilan, yuqorida aytganimday, dunyoviy mavzularda gurunglashib o'tirardik. Barakda faqat ikkimiz qolgandik, boshqalar ikkinchi smenaga ketishgandi.

- Birga boraymi? - deb so'radi Husan xizmatchining gapini eshitganidan keyin.
- Shart emas.
- Menimcha, ular sizga shartnoma bo'yicha ishlashni taklif qilishsa kerak, - dedi Husan.
- Nafasingni issiq qilsang-chi!

Husanga shunday dedim-u tashqariga chiqdim. Ajoyib xushxabar kutayotgandek yuragim gurs-gurs urardi.

- Necha kundan buyon ishlayapsiz? - deb so'radi Hakim Nazarich xonasiga kirganimda.
- Bir hafta bo'lib qoldi.
- Biz so'rovnomaga jo'natdik, lekin hech qanday javob kelmadi. Nima qilaysiz, mahbus singari bir so'm olmasdan ishlab yuraverasizmi yoki shartnoma bo'yicha ishlamoqchimisiz?
- Shartnomaga rozi bo'ldim deylik, xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ladi?
- Biz sizga belgilangan tartib bo'yicha maosh belgilaymiz. Maoshning ma'lum bir qismi ehtiyojgizga qarab qo'lingizga beriladi, qolgani siz bergan adres bo'yicha uyingizga, yaqinlaringizga yuboriladi.
- Kim yuboradi?
- Biz. Shu ish bilan shug'ullanuvchi shaxs!
- Maoshning hammasini o'z qo'limga olsam bo'lmaydimi? - dedim quvlik qilgan kishi bo'lib.
- Bo'ladi. Lekin qanday eplaysiz? Bankka qo'ya olmasangiz. Pochtaga bora olmaysiz. Sababi o'zingizga ma'lum, yoningizda hech qanday hujjatingiz yo'q. Shaharda bir qadam yurolmaysiz! To'g'rimi?
- To'g'ri... - dedim bo'shshib.

- Ana shunaqa! - Hakim Nazarich qo'llarini yoniga kerdi.

- Meni bu yerda ushlab turishga haqingiz yo'q! Qonunni juda yaxshi bilaman. Hech qanday hujjati bo'lmagan, o'zga davlat fuqarosi bo'lgan odam mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborilishi kerak! - dedim yotib qolguncha otib qol, qabilida, qolaversa, pichoq borib suyakka yetgan, sovuq va begonalik hukm surgan bu makonni iloji boricha tezroq, tezroq va yanada tezroq tark etgim kelganidan nihoyatda asabiylasha boshlagandim.

- Qonunni juda yaxshi bilarkansiz! - dedi Hakim Nazarich istehzoli kulimsirab.

- Har qalay go'l emasman!

- Siz balki ashaddiy jinoyatchidirsiz? - dedi shunda Hakim Nazarich ko'zlari sovuq yaltirab. - Ehtimol, qotildirsiz?! O'n ikkita ayolni avval zo'r lab, keyin vahshiylarcha o'ldirib, qochib yurgan manCHyak balki sizdirsiz?! Ehtimol, siz interpol qidiruvidagi odamdirsiz?!

Hakim Nazarich shunday dahshatli narsalarni so'zlayotgandiki, yuragim orqaga tortib ketdi.

- Qo'ying-e, nimalar deyapsiz?.. Qo'ying-e... - derdim nuqul gap topolmay esankirab qolganimdan.

- Yaqinda PodmoskovCHedan o'ttiz yashar yigitning jasadi topildi, - deya sovuqqonlik bilan davom etdi Hakim Nazarich. - Murdaga hech qanday zarba berilmagan, xuddi uxlayotgandek beozorgina bo'lib yotibdi. Lekin mundaq tekshirib ko'rishsa, uning na jigari, na buyragi, na yuragi bor! O'sha yigitning qotili ehtimol sizdirlar?! Asablarim, vujudimdagi yetmish ikki tomirim qaqshab ketdi.

- Nimalar deyapsiz?! Nimalar deyapsiz?.. Axir men... shu qo'llarim bilan odam o'ldiramanmi?!

- Qo'llaringizga nima bo'пти? Bu qo'l bilan har qanday ishni bajarish mumkin. Baquvvat, chayir qo'llar... - dedi Hakim Nazarich kesatgandek bo'lib.

Indamadim. Boshimga tushgan kulfat zalvorini ko'tara olmagandek umurtqam mayishib bukchayib qoldim. Ha, men haqiqiy fojiani tub mohiyatini ayni shu lahzada anglab yetgandim. Umidlarim yig'lay-yig'lay ko'nglimni tark eta boshladi...

- Men harbiy odam emasman, - dedi Hakim Nazarich bir mahal. - Shuning uchun sizga harbiycha muomala qilmadim. Kelishib olamiz deb o'ylagandim. Afsuski... sizni yaxshisi Po'lat Damirovich ixtiyoriga yubora qolay, a, nima dedingiz?

Hakim Nazarich nimaga sha'ma qilayotganini tushundim.

- Shartnoma bo'yicha ishlashga roziman, - dedim yerdan bosh ko'tara olmay.

- Demak, gap bunday...

Hakim Nazarich menga haq olish tartibini tushuntira boshladi. Uning e'tirof etishicha, menga ham xuddi boshqalar qatori "ishbay"; tartibda maosh to'lanarkan. Eng kam ish haqi oyiga to'rt yuz dollar! "Ammo to'rt yuz dollarning hammasi ham qo'lingizga berilmaydi. Har oy oxirida ehtiyojingga qarab pulning ma'lum qismi beriladi. Qolgani adres bo'yicha uyingizga yuboriladi. Shu bahonada sizning haqiqiy manzilingizni bilib olamiz. Mabodo noto'g'ri adres bergan bo'lsangiz, pul o'zimizga qaytib keladi. Agar hech qanday yaqinlaringiz, ya'ni oilangiz bo'lmasa, u holda sizning daromadingiz kontora buxgalteriyasi hisobida turadi. Qachonki, shartnoma muddati tugasa, bir rubliga ham xiyonat qilinmagan holda o'z qo'lingizga topshiriladi!"; Ehtiyojga qarab olinadigan pul uchun esa navbatda turish kerak ekan...

- Yaqinda kelganingiz va yoningizda sariq chaqa ham yo'qligini hisobga olgan holda sizni navbatning boshrog'iga yozib qo'yamiz, - dedi Hakim Nazarich so'zining oxirida.

- To'rt yuz dollar ko'p emasmi? - deb so'radim unga sinovchan va xomush (xuddi taqdirga tan bergandek) tikilarkanman.

- Bizda mehnatiga qarab emas, qadr-qimmatiga qarab insonga haq to'lanadi, - deb javob berdi Hakim Nazarich hamsuhbatining ko'ngliga og'ir botuvchi kalondimog'lik bilan.

Indamasligim kerak edi. O'zimcha shunday fikrda edim. Ammo til qurg'ur pand berdi:

- Sizlarda inson qadr-qimmati oyiga to'rt yuz dollar turadimi?! Bir yilga to'rt ming sakkiz yuz doll...

- Haddingizdan oshmang! - ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib stolga mushtladi Hakim Nazarich.

- Ovqat puli ham shu hisobga kiradimi?

- Soqchi!

Eshik ochilib soqchi yigit otilib xonaga kirdi. Men unga parvo qilmadim, biroq vujudimni iskanjaga olgan jazavani kuch bilan bosib, Hakim Nazarichga sokin va xotirjam nazar tashlaganicha tik qarab turaverdim. Ayni shu daqiqada mening haqiqiy qiyofam namoyon bo'lgandir ehtimol. Birdan kutilmagan hol yuz berdi.

- Sen boraver! - soqchiga javob berdi Hakim Nazarich.

Soqchi ortiga qaytib eshikni yopdi.

Hakim Nazarich stol g'aladonini titkiladi, go'yo meni unutganday...

- Xayr.

- Xayr, - dedi Hakim Nazarich bosh ko'tarmasdan.

Eshik tomon yurdim.

Shu chog' eshik shaxt bilan ochilib Po'lat Damirovich shaxdam qadamlar bilan ostona hatlab ichkariga kirib kelarkan, meni turtib o'tdi yonimdan.

- Hakim Nazarich, - dedi u qichqirgudek ovozda mendan uzr so'rashni xayoliga ham keltirmasdan. - Vaqt bo'ldi. Tayyormisiz?

- ShestCH sekund, - dedi unga javoban Hakim Nazarich.

Tashqariga chiqdim.

Havo sovuq, buning ustiga izg'irin shamol esardi. "Kontora"; tepasida muallaq turgan oy ham sovuqqa dosh berolmay, dildirayotgandek ko'rinardi.

Barakka kirgim kelmasdi.

Taxta to'siq yoqalab ketgan yo'lak bo'ylab yurib ketdim. Izg'irin shamol burnimni chimchilar, ko'zlarimga nina sanchar, quloqlarim sovuqqa qotib qolganidan, barmog'ingiz tekkan zahoti uqalanib ketadigandek ular jonsiz va mo'rt bo'lib qolgandi.

Taxta to'siq yonidagi yo'lak bo'ylab asta-sekin odimlarkanman, go'yo rangpar to'lin oy ham menga hamroh bo'lgisi kelib suzayotgandek tuyulardi. Birdan yuragim hapriqib ketdi shunda. Men to'siqning narigi tomonidagi, soqchilar hech qachon qo'riqlay olmaydigan ozod va nurafshon hayotni sog'ingandim. Taxta to'siqdan sakrab o'tib ketishdan zo'rg'a o'zimni tiyib turardim. Bilaman, taxta to'siq bo'ylab dam oldinga, dam orqaga yurib turgan soqchilar nafaqat meni, hattoki qushni ham taxta to'siqdan oshib o'tishga yo'l qo'ymaydi!

Men o'zimni bir umrlik qamoq jazosiga hukm qilingan mahbusdek his etardim. To'g'ri-da, bu yerning qamoqxonadan nima farqi bor? Hatto qamoqxonadan ham beshbattar. Beshbattarligi shundaki, bu yerdagi hayot qamoqxonadagiga ham o'xshab, ham o'xshamaydigan, alohida qonun-qoidalari mavjud bo'lgan, ta'bir joiz bo'lsa, yo'ldan adashganlar tiriklayin ko'milgan tirik odamlar qabristoni edi.

"Mana, qanoat qilmaslikning oqibati! - derdim yuragim qon bo'lganicha adadsiz o'y-xayollardan boshim g'ovlab, yo'lak bo'ylab borib-kelarkanman. - Mana, nihoyasiga yetay deb qolgan ilmiy ishni tashlab, hovliqqancha yetib kelgan manzirim! Meni ilmning uvoli tutdi!..";

O'z-o'ziga azob berish va bundan allaqanday huzur-halovat tuyish kasali menda o'sha kunlari paydo bo'lgandi.

To'siq yonidagi yo'lak bo'ylab naq yigirma marta u yoqdan bu yoqqa borib kelganimdan keyingina barakka qaytdim. Bu vaqtda ikkinchi smenada ishlayotgan sheriklarimizning ba'zi birlari normalarini bajarib ishdan qaytishardi. Temir to'shakda yotganday, bezovtalanganimdan uyqum qochib bedor yotarkanman, ishga ketayotganlarida sheriklari bilan birga ketib, qaytishda yolg'iz o'zi barakka kirib kelgan ishchilarni kuzatish asnosida bir narsaga amin bo'ldim: ko'rinmas Beyning iqtidori shunda ediki, u odamlarni astoydil ishlatishning yo'lini biladi! Ishning og'ir-engilligidan qat'iy nazar, belgilangan normani ko'p kuch sarflab bo'lsa-da, qisqa

fursatda bajara solib yotoqxonaga qaytish har qanday ishchi uchun qulay-da. Ikki baravar haq to'lanishi esa nur ustiga nur!

\* \* \*

Xayol surib yotgancha ko'zim ilingan ekan.

Bir mahal allaqanday xirqiragan tovush qulog'imga chalinganday bo'ldi. Tushim yoki o'ngim ekanligini anglolmay yotarkanman, xirqiroq tovush endi ayanchli ingroq bo'lib qulog'imga chalindi: "Voy jonim!.. Essiz jonim!..";

Kimdir alahlayapti, degan o'yda indamay yotaverdim.

Xona zim-ziyo qorong'ilikka chulg'angan edi. Pechning tafti pasayganidan xona ichi sovub ketgan, uxlayotgan bandalar hatto uyquda ham sovqotganlaridan qunishibgina yotardilar. Betartib nafas olish, xurrak tortish, alahsirashlar xonani tutib ketgandi. Tosh qotib uxlayotgan odamning xuddi afsus chekayotgandek chuqur xo'rsinganiga ko'zingiz tushganmi? Yonginamdagi o'rinda yotgan Nurali shunaqa, uyqusida nimadandir afsus chekib, chuqur xo'rsinib qo'yardi. Bir mahal haligi xasta ovoz yana qulog'imga chalindi: "Kim bor?.. Muzday suv beringlar... Ichim kuyib ketyapti?.."; Bu endi shunchaki aljirash emasdi. Kimdir yordam so'rayapti.

- Nurali, - deya sherigimni uyg'otdim. - Birovning mazasi qochdimi, deyman.

Nurali shu zahoti irg'ib o'rnidan turdi. Qorong'ida faqat bir-birimizning ko'zlarimizning ko'rib turardik.

- Sham... Sham qayerda edi-ya? Men hozir...

Nurali pastga tushib, paypaslangancha nari ketdi. Ishchilar tunda g'arazli maqsadda elektr tokidan foydalanmasliklari uchun xavfsizlik xizmati xodimlari tomonidan elektr simlari uzib qo'yilardi. Zarurat tug'ilib qolgandagina soqchilar chiroqni yoqib berishardi, boshqa paytlarda mayda-chuyda ishlar uchun ishchilar shamdan foydalanishardi.

Eshik ochilib-yopildi.

Birozdan keyin Nurali g'udrangancha yonimga keldi.

- Sham ham, govurt ham tashqarida qolib ketgan ekan, yonmayapti...

Ikkovlashib urinib bir amallab shamni yoqdik. Keyin lipillayotgan shamni uxlayotgan kishilarning yuz-ko'zlariga tutib, bemorni qidirdik. Nihoyat, topdik uni.

- Majid aka, sizga nima bo'ldi?

Nurali g'ujanak bo'lgancha qaltirab-titrab yotgan kishining ustiga engashdi.

- S-suv be...r...r... - tomog'i yirtilib, tovush paychalari lat yeganday xirqiroq ovozda gapirdi Majid aka.

- Hozir... - Nurali uning peshonasiga qo'lini qo'ydi-yu, shu zahoti: - Voy-bo'y! Isitmangiz ko'tarilib ketibdi-ku, aka! - dedi.

- Yana... ko'tarilibdimi?..

Elliklarga borgan, siyrak sochlari qordek oppoq bu odamning shu qadar tinka-madori qurigan ediki, gapirishga holi kelmasdi. Ikki og'iz so'zni ham xuddi suvsiz qolgan baliqdek og'zini katta-katta ochib, hansiragancha so'zlagandi.

- Sizda issiqni tushiradigan dori yo'qmi? - deb so'radi Nurali mendan.

Men bosh chayqadim.

- Darvoqe, sizda qayoqdanam bo'lsin?.. O'zi yaqinda keldingiz-ku, - dedi Nurali, keyin Majid akaning peshonasini silarkan: - Eh, Majid aka! Kecha sizga aytuvdim-ku, bir-ikki kun ishga chiqmang, deb. Mana, oqibati! - dedi afsus chekkanday bo'lib.

- S-suv-s... - deya ingrandi Majid aka.

- Suv olib kelaymi? - deb so'radim Nuralidan.

- Nimalar deypsiz?! Sovuq suv mumkinmas! Hoy, kimda dori bor?! - bor ovozi bilan baqirdi Nurali.

Allakimlardan: "Yo'q-q"; degan javob eshitildi. Kimlardir bemahalda bezovta qilishganidan achchiqlanib boloxonador qilib so'kindi. Ammo hech kim o'rnidan turmadi.

- Soqchini chaqirib kelaymi? - dedim Nuraliga.

- Foydasi yo'q, - qisqa javob berdi Nurali.

- Nega? Axir... hech bo'lmasa... ambulatoriyaga...

- Davron aka, keyin tushuntiraman. Hozir jim turing, - dedi Nurali, ovozidan asabiylashgani sezilib turardi.

- Su-uv... Ichim... kuy...di...i... - Majid aka tobora holsizlanayotgan, nafas olishi og'irlashayotgandi.

- Hoy musulmonlar! - deya qichqirdi Nurali. - Bir bechoraning ahvoli yomon, tursalaring-chi! Shunday vaqtda bir-birimizning kunimizga yaramasak, nima qilib yuribmiz bu dunyoda?! Abduvali! Husan! Fayzi! O'lib qolmadinglarmi mabodo?!

Shundan keyin birin-sirin Majid akaning atrofiga odam yig'ila boshladi. Kimningdir termosini bor ekan, bir chashka choy berdi.

Yana biri dori... Biroq dori Majid akaga kor qilmadi. Azob tortib, qiynalib, oh-voh tortib yotib... tongda jon taslim qildi.

Uni o'ladi deb sira ham o'ylamagandim. Sovuq o'tib shamollagandir, uch-to'rt kun ishga chiqmasa o'tib ketadi, degan xayolda edim sham tutib tepasida turganimda. Buni qarangki...

Shu yoshga dovur o'limga bu qadar yaqin kelmagandim. Shuning uchunmi, kutilmagan hol ruhiyatimga favqulodda yomon ta'sir qildi. Dard chekib, azobdan qiynalib yotganida uning pajmurda yuziga qarashga asablarim dosh bergandi. Ammo... joni uzilgandan keyin endi bu dunyoga tegishli emasligini bildirganday, haddan tashqari ko'karib ketgan yuziga qarashga jur'atim yetmadi. Deraza oldiga borib turdim.

Kimdir xabar bergan chog'i, xonaga avval brigadir Matchonov, keyin Hakim Nazarichning yolg'iz o'zi, Po'lat Damirovich esa ikki soqchi hamrohligida kirib kelishdi. Ishchilar bilan boshliqlar o'rtasida qisqa savol-javob bo'lib o'tdi. Majid akaning nimadan o'lganligi ma'lum bo'lgach, Hakim Nazarich Matchonovga yuzlanib:

- Endi nima qilmoqchisizlar? - deb so'radi.

- Nima qilmoqchisizlar? - Matchonov chaqchaygancha Nurali bilan Husanga qaradi.

- Iloji bo'lsa, jasadini uyiga yuborsak bo'lardi... - dedi Husan Hakim Nazarichga qarab.

- Uyiga-ya?! - Hakim Nazarichni chetga surib o'rtaga chiqdi Po'lat Damirovich. Uning chiroyli yuzi bo'g'riqib ketgandi.

- Ha, uyiga, - takrorladi Husan.

Boshqalar nafas chiqarmay turishardi.

- Qanday qilib?! - mavridi emasligiga fahmi yetmadimi yo atay qildimi, Po'lat Damirovich mazaxomuz kuldi.

- Samolyot bilan...

Husanning gapi chala qoldi.

- Samolyotda jo'natish uchun to'rt ming dollar kerak! Topib berasanmi?! - Po'lat Damirovich Husanga yeb yuborguday tikildi.

- Ilojini qilarmiz... Hammamiz pul tashlab...

Kutilmaganda Po'lat Damirovich qah-qah urib kulib yubordi. Bu shunday o'rinsiz, xunuk kulgi ediki, umrim bino bo'lib bunday shafqatsizlikka duch kelmagandim.

- "Hammamiz pul tashlab?!"; Qancha pullaring bor o'zi? Menga ham biroz qarz berib tursanglar, degandim!

Shu chog' Husan bir qadam oldinga chiqdi. Oldinga chiqarkan, uning yuzi oppoq oqarib ketgandi:

- Qancha kerak?!

Shunda ikkita bir-biridan chiroyli, ammo qiyofalarida ikki xil, bir-biriga o'xshamaydigan ifoda kezinayotgan yigit yuzma-yuz turib qolishdi.

Husanning muloyim yuzi oppoq...

Laxcha cho'g'day yonuvchi ko'zlari g'ussaga to'la...

Po'lat Damirovichning xushbichim oqish yuzi ayni lahzada qip-qizarib ketgandi. Ko'zlari shafqatsizlik bilan yonardi.

Shu chog':

- Gap bunday, - degancha ularning o'rtasiga suqildi Hakim Nazarich. U o'zini ko'rsatish uchun qulay vaqtni poylab turganday tuyuldi menga. - Murda mahtal bo'lib qoldi. Sizlar rasm-rusumlaringizni qilaveringlar. Bu yog'ini biz hal qilishga urinib ko'ramiz.

- Men va'da bera olmayman, - dedi Po'lat Damirovich keskin ohangda. - Hakim Nazarich, agar malol kelmasa, o'z nomingizdan va'da bering.

- Men hali hech kimning nomidan va'da berganim yo'q, - dedi unga javoban Hakim Nazarich. - Faqat bir narsani iltimos qilgandim. Murdaning oldida shovqin ko'tarmanglar, yaxshimas bu axir!

Boshliqlar birin-ketin chiqib ketishdi.

Ular chiqqan zahoti xonada g'ala-g'ovur ko'tarildi:

- Sho'rlikni qanday qilib bo'lmasin, uyiga jo'natish kerak! O'z tuprog'iga ko'milganga nima yetsin?!

- O'ziniyam yig'ib yurgani bordir. Cho'ntaklarini qarash kerak!..

- Kontoradan, Hakim Nazarichdan yordam so'rash kerak. Hakim Nazarich yomon odammas!..

- E, o'lgandan keyin qayerga ko'mishning nima farqi bor? Ko'milding nimayu, ko'milmading nima?! O'lding-o'chding! Bu dunyoda yo'qsan, tamom-vassalom!..

Boya, bundan bir necha daqiqa ilgari boshliqlar shu yerdaligida jim turganlar endi gapga tushib ketgan, bir vaqtning o'zida xonada necha kishi bo'lsa, hammasi gapirar, baland ovozda o'z fikrlarini aytib, shovqin solardi. Biroq hal qiluvchi so'zni hech kim aytmasdi. Faqat Husan jim, muzday devorga suyanganicha o'tirar, yuzi yanada oqargan, ayb ish qilib qo'yganday, ko'zlarini yerdan uzmasdi.

Kir-chir parda to'rlari orasidan bulutli, ammo nihoyatda sovuq kunning ma'yus yorug'i tushayotgan deraza ostidagi taxta karavotda esa Majid aka yotardi. Go'yo foni dunyoga tegishli emasligidan xotirjam bo'lganday uning ko'kimtir yuzi sokin tortib qolgandi.

- Siz nima deysiz? - deya yonimga kelib so'radi Nurali.

- Iloji bo'lsa uyiga yuborish kerak.

- Bunday qilsak-chi, hammamiz baholi-qudrat o'rtaga pul tashlab, yig'sak-da, bir kishini vakil qilib, kontoraga yuborsak...

- Nurali, - dedim past, ammo keskin ohangda. - Masalaga real ko'z bilan qarash kerak, menimcha. Biz topganimizni yig'ib berdik, deylik, - yoningizda qancha pul bor o'zi?! - kontoradagilar yetmaganiga qo'shib, murdani (yo tavba, kechagina u Majid aka edi-ya!) uyiga yuborishga rozi bo'lishdi ham deylik; ammo haqiqatan ham murda yuboriladimi yoki biror xilvat yerga oborib ko'mib tashlanadimi?! Hamma gap mana shunda!

- Yo'g'-e? - ishonqiramagandek qaradi Nurali. - Juda bo'lmasa uyimizga yuborilayotgan maosh hisobidan...

- Bunchalik sodda bo'lmang, Nurali!

- Axir, nimadir qilish kerak-ku!

- Qilish kerak. Lekin, ochig'i, nima qilish kerakligini men bilmayman, - dedim yuragim siqilib. - Yaxshisi, boshqalar bilan maslahatlashing.

- Ko'pchilik bilan hech narsani hal qilib bo'lmaydi, - dedi Nurali kuyinib. - Hakim Nazarich bilan gaplashish kerak. Yolg'iz o'zi bilan. U insofli odam. Biror yo'l-yo'riq ko'rsatishiga ishonaman!

- Shunday qila qoling...

- Ikkalamiz birga boramiz!

Rozi bo'ldim.

- Ammo bir shart bilan, - dedim Nuraliga sekin. - Husan ham biz bilan birga boradi.

- Qo'ysangiz-chi uni, qo'ying-e, - dedi Nurali ovozi o'zgarib. - U yo'q yerdan janjal chiqarib yuradi. Boya ham ko'rdingiz-ku!

- Shunday bo'lsayam... Har qalay, u menga qaraganda gapga usta...

- Mayli, lekin keyin afsus chekmasangiz bo'ldi.

- Majid aka kasalmidi yo birdan shunaqa... bo'lib qoldimi? - fursatdan foydalanib so'radim Nuralidan.

Chunki shu kungacha Majid aka bilan bitta xonada yashab kelayotgan bo'lsak-da, u haqda ismidan boshqa hech narsa bilmasdim.

Yanglishmasam, bu yerga kelgan kunim shovqin-suron ko'targancha barakka kirib kelgan ishchilar orasida birinchi bo'lib mana shu Majid akaning ko'zlari menga tushgandi. Qordek oppoq soch... pajmurda yuz...

- O'tgan yilgi qishda sovuqqa o'pkasini oldirib qo'ygandi. Isitmasi ko'tarilib, quv-quv yo'talsa ham ishdan qolay demasdi. Ishga chiqmagan kun uchun haq yozilmaydi-da!

- Medpunkt yo'qmi?

- Qayoqda! Bu yil haliyam birnav. O'tgan yili men kelmasdan avvalroq odamlarimiz tutday to'kilgan ekan. Sovuq-da. Tilsiz yov bu! Bizni hech kim bu yerga chaqirmagan ishlash uchun. Shuning uchun tilimiz qisiq! Aslida ularning bizga pul to'lamaslikka ham haqlari bor. Qonunan olib qaraganda! Ammo Hakim Nazarich zo'r odam! Shu kishining sharofati bilan o'zimiz bu yoqda bo'lsak-da, bola-chaqamizning kuni o'tib turibdi.

Nuralining Hakim Nazarichga hurmati baland ekanligini sezdim. Menda esa buning aksi, nazarimda, Hakim Nazarich yoqimli niqob bilan o'z-o'zini pardalab, bechorahol, o'rtamiyona bu kishilar sig'inadigan kimsaga aylangandi. Aslida esa bu odamni nafs alvastisi bu yerlarda yetaklab yuribdi. Nafs alvastisi qiyofasida yurgan turk korchaloni Hakim Nazarichning ham, anavi zolim Po'lat Damirovichning ham jilovidan mahkam tutgan, endi o'zlari istagan taqdirda ham nafs alvastisining changalidan qutula olmaydilar, bunga kuchlari yetmaydi, endi umrlarining oxiriga do'vur ikkalasi ham nafs alvastisi yetaklagan tomonga qarab



chopaveradilar, degan fikrda edim.

Shunday qilib, oradan chamasi ikki soatcha vaqt o'tgach, uch kishi - Husan, Nurali va men kontoraga yo'l oldik.

Biz kirib borganda xuddi atay qilgandek u yerda Po'lat Damirovich o'tirardi. Yanglishmasam, Hakim Nazarich ikkalasi shoshqol o'ynashardi.

Men bilan Nurali eshik oldida turdik, Husan bir so'z demasdan borib qo'lidagi tugunchani stol ustiga qo'ydi-da, yonimizga qaytib keldi.

- Bu nima? - shoshqol donalariga tikilganча kulimsirab o'tirgan Po'lat Damirovich birdan jiddiy tortib, zardali ohangda Husandan so'radi.

Husan unga emas, Hakim Nazarichga qaragancha javob berdi:

- Pul. Uni qanday bo'lmasin uyiga jo'natish kerak!

Po'lat Damirovich irg'ib o'rnidan turib qarshimizga keldi-da, aynan Husanning yuziga yuzini tekkizguday bo'lib vajohat bilan:

- Uni axlatxonaga irg'itib yuborish kerak! - dedi.

Husanning musht bo'lib tugilgan qo'lidan qattiq siqdim. Har tugul, u o'zini bosdi.

- Po'lat Damirovich, men bu kishilar bilan gaplashib olsam, degandim, - dedi Hakim Nazarich o'rnidan turib shoshqol donalarini yig'ishtirarkan.

- Men xalaqit beramanmi? - surbetlik bilan so'radi Po'lat Damirovich.

- Xalaqit bermaysiz. Bu masala baribir sizensiz hal bo'lmaydi. Hali oldingizga o'taman, - Hakim Nazarich yaltoqlanib gapirdi.

- Ovora bo'lmang!

Po'lat Damirovich eshik tomonga yurdi.

- Bu yoqqa, - Po'lat Damirovich chiqib ketishi bilan Hakim Nazarich bizni stol yoniga chaqirdi. - Gap bunday, men u yoq-bu yoqni surishtirdim. Samolyotda jo'natishning iloji yo'q. Ochig'i, tashvishi ko'proq buning. Yaxshisi, poyezdda jo'natish kerak.

- Qanday qilib? - so'radi Nurali, u boyadan buyon Hakim Nazarichdan ko'z uzmasdan tikilib turardi.

- Bu yoqdan mol olib ketayotganlar bilan kelishamiz-da, qo'lga pulni berib, birortasining gilam-palosiga murdani o'rab! - Hakim Nazarich "qoyilmisizlar?"; deganday har birimizga ko'z yugurtirarkan qo'shimcha qildi: - Ham qulay, ham oson!

Mening nafasim qaytdi. Majid akaning murdasini emas, meni gilamga o'rab-chirmashayotganday yuragim tez-tez urib ketdi.

Sheriklarim ham, aytidan, bunday "taklif";ni kutishmagan chog'i, yuzlari o'zgarib, qarashlari mahzunlashdi.

- Boshqa yo'li yo'qmi? - so'radi Husan.

- Yo'q.

- Shunaqa... hojatbaror odam bormi? - dedi Nurali.

- Topiladi.

Uchalamizning nigohlarimiz to'qnashdi.

- Begona yurtda qolib ketgandan ko'ra... - Nurali shunday dedi-yu, gapining yarmini ichiga yutdi.

- Bu yog'ini o'zlaring hal qilinglar, - dedi Hakim Nazarich.

- Bo'пти, deyaveramizmi? - Bir menga, bir Husanga jovdiradi Nurali.

- Boshqa iloji yo'q ekan... rozi bo'lishdan o'zga chora yo'q, - dedim.

- Husan...

Nurali savol nazari bilan qaradi Husanga.

- Mayli, - dedi Husan bo'shashib. U boyagi jahldor yigitga umuman o'xshamay qolgandi.

Murdani soat o'n ikki yarimga tayyorlab qo'yishga va'da berib kontoradan chiqarkanmiz... qismatimni la'natladim. Vaholanki, men qalban xudojo'y edim. Ba'zi xudojo'ylarga o'xshab qiroatxon yoki aqidaparast emasdim, yimon-e'tiqod haqida hech yerda ma'ruza qilmasdim, ammo taqdir, qismat degan tushunchalarga ishonardim. Har qalay, ich-ichimda xudoni tildan qo'ymasdim. Ayni lahzada esa e'tiqod deb atalmish qal'amga darz ketgan, men na xudoga, na qismatga ishonardim...

Shu kuni uch-to'rt kishi ishga chiqmadik. Soat o'n ikki yarimga qadar baholi qudrat barcha rasm-rusularni ado etib, marhumni so'nggi manzilga tayyorlab qo'ydik. Tobutni olib ketish uchun ikki kishi mashinada kelishdi. Bizdan ham ikki kishi stansiyaga bormoqchi edi, Hakim Nazarich ruxsat bermadi. Shaharga chiqish uchun ruxsatnomamiz yo'qligini ro'kach qildi. Buni o'zimiz ham bilardik...

Kechqurun Hakim Nazarich yana meni kontoraga chaqirib, qo'limga biroz pul berdi. Keyin oylik maoshimni kimning nomiga yuborishimni so'radi. Men xotinim Saodatning manzilini berdim.

Eshikdan chiqayotib, yana Po'lat Damirovichga duch keldim. U yonimdan o'tayotib tag'in meni turtib o'tdi. Uning bepisandligi qonimni qaynatdi, ammo tarozi pallasiga qo'yishsa, qay birimiz posongini bosib ketishimizga aqlim yetganidan yana o'zimni bosdim.

Hovlida menga tanish o'sha yo'lakda Husan yurgan ekan. Yoniga bordim.

- Pul berishdimi? - deb so'radi u go'yo hammasini ko'rib-bilib turgan folbinday.

- Ha. Siz qanday bildingiz?

- Shunchaki so'ragandim, siz rostini aytdingiz-qo'ydingiz, - dedi Husan chiroyli yuziga yarashadigan tabassum bilan. - Darvoqe, pulingizga ehtiyot bo'ling. Olg'irlar ham yo'q emas.

- Unchalikka borishmas.

- Ixtiyoringiz.

Husan agar ro'yxushlik bersa, men u bilan gurunglashmoqchi edim. Lekin Husan men bilan gaplashishni istamagandek qo'llarini cho'ntaklariga solgancha nari ketdi.

Keyinchalik ham men uni har qancha kuzatib, qo'yniga qo'l solib ko'rmay, u bilan ochiqchasiga chin yurakdan gaplasha olmadim.

Husan hech qachon menga nisbatan manmanlik qilmagan, suhbatlashishdan bo'yin tovlamasdi, bizning gurunglarimiz yig'ilsa semizgina bir kitob bo'lishi mumkin, ammo qancha gaplashmaylik, uning gap ohangida vahshiy qotilga xos shafqatsizlikni sezmadim, u so'zlar ekan, yuzidan bolalarga xos soddadil va musaffo tabassum arimasdi. Va men har gal unga qarab turib, shunday beozor yigit qanaqasiga qotil bo'lsin, deya hayron bo'lardim.

Husanning qo'li qon qotil ekanligiga ishonmagan bo'lsam-da, uning folbinlikdan xabari borligiga tez kunlarda amin bo'ldim. Men Hakim Nazarich bergan pulni oradan ikki kun o'tgach, o'g'irlatib qo'ydim!..

Kim olganiga sira aqlim yetmasdi, hatto kimdan gumonsirashni ham bilmasdim. Nazarimda, hamma o'zi bilan o'zi ovoradek,

oramizda imonsizlar yo'qdek tuyulardi. Shunday bo'lsa-da, pul o'g'irlandi. Men bir necha kun, to sheriklarim bu sirdan ogoh bo'lguncha tushlikda och qoldim. O'sha kunlarda pul men uchun faqat tushlikda zarur bo'lardi.

Yuqorida, gap orasida qistirib ketgandim, agar esingizda bo'lsa, qanaqadir ayollar tush payti kelib "pirashka-mirashka"; sotib ketishlari haqida. Nari borsa, o'ttiz-o'ttiz ikkilarga kirgan, moviy ko'zlari shahlo, mallasochli bu ayollar har kuni tushlik vaqtida savatlari bilan qurilish maydonida paydo bo'lishardi. Bir necha bor ularni gapga solishga urinib ko'rdim, ammo men shoxida yursam, ular bargida yuradiganlar xilidan ekan, tutqich berishmadi. Noto'g'ri xayolga bormang, mening bor-yo'g'i maqsadim, ular bilan gaplashib, jilla qursa o'zinning qayerda ekanligimni bilib olish edi.

Xatti-harakatlarimdan Fayzi ham qandaydir boshqa ma'no izlagan shekilli, o'sha kunlarning birida:

- Davron aka, xafa bo'lmang, bular o'zi shunaqa, - deb qoldi dabdurstdan. - Avvaliga o'zlarini taroziga solishadi, chekinmasdan hujumga o'taversangiz, oxiri taslim bo'lishadi. Yuz gramm quyib bersangiz, voobsh'e rohat-farog'atga ko'milasiz!

- Siz meni noto'g'ri tushunibsiz, - deya endi gap boshlagan edim, Fayzi yana gapni ilib ketdi.

- Hov anavi kishi bor-ku, - deya u qo'lini qo'shni brigadada ishlayotgan o'rta yashar, tepakal, ko'zlari olma terib turadigan Qadamboy og'aga bigiz qildi. - Shu odam bittasiga qarmoq solib yuribdi. Anovi tiqmachodqay xotin bor-ku, tuyaqushga o'xshab lo'killab yuradigan, o'shani anchadan buyon aylantirayapti. Menimcha, uylansa kerak.

- Laqqa baliq oyimcha ham osongina qarmoqqa ilinadiganga o'xshamaydi, - deya oraga gap qo'shdi Toshpo'lat.

- Ilinmay qayoqqa borardi, hammasiyam ersirab yurgan megajinlar! - dedi Fayzi.

- Har qalay, ko'chada qolganlaridan bu yerga kelmayotgandirlar, - dedim.

- Shunaqalariyam bor, ishonmasangiz kechqurun Qadamboy og'adan so'raymiz, u hech narsani yashirmaydi, - dedi Fayzi shaxt bilan.

- Shart emas.

Suhbatimizga faqat Husan aralashmadi. U xayol daryosiga g'arq bo'lgancha o'y surib o'tirardi.

Kechqurun oshxonada o'tirganimizda Fayzi Qadamboy og'ani stolimizga boshlab keldi.

- Qadamboy og'a, - dedi Fayzi bizlarga ko'z qisib qo'yarkan. - Manavi yigitlarga anovi laqqa baliqchangiz haqida gapirib bergandim, ular ishonishmayapti. Shunday ofatijon Qadamboy og'aga qayrilib ham qaramasa kerak, deyishyapti. O'zingiz gapirib bering bularga!

Qadamboy og'a deganimiz qoyilmaqom ish qilgan odamday kerilgancha stulga o'tirarkan:

- Nega ishonishmaydi? Nimaga ishonishmaydi? Nima, biz erkak emasmizmi? - dedi hammamizga bir-bir olazarak nazar tashlarkan.

- Nimalar deyapsiz? - deya xitob qildi Toshpo'lat. - Biz faqat bir narsaga tushunmayapmiz, to'g'rirog'i, hayron bo'lyapmiz, shunday ko'hlik, yoshgina ayolni qanday qilib o'zingizga qaratib oldingiz? Biz gap otsak, qayrilib ham qaramaydi-da!

Husan "piq"; etib kulib qo'ydi. Aftidan, u Toshpo'lat ta'riflagan "... ko'hlik, yoshgina ayolning"; haqiqiy qiyofasini ko'z oldiga keltirdi chog'i.

- Ha, betayin, - erkalagandek Husanni koyidi Qadamboy og'a, chamasi uning kulgisini ishqibozlik oqibati, deb bildi-yov. - Senlarga shunaqa gap bo'lsa!

- Tajribangizni o'rtoqlashing, deyapmiz-da, - deya yana pishang berdi Fayzi.

- Unga rostdan ham uylanmoqchimisiz? Tegaman, dedimi?! - ishonqiramagandek so'radi Toshpo'lat.

Bu yigitlar Qadamboy og'aning fe'l-atvorini obdon o'rganishgan chog'i.

- Tegaman deyishga-ku degan, - dedi shunda Qadamboy og'a kerilib. - Men taklif qilmasimdan burun o'zi og'iz solgan. Faqat bir-ikkita sabab yo'limizga g'ov bo'lib turibdi-da.

- Qanday sabab? Eri bormi?!

- Yo'g'e. U tomondan hech qanday g'ov yo'q. Faqat kafillikka olishga ikkilanayotganini aytmaganda...

- A-ha, demak, u sizni kafillikka olishi kerak? Shundaymi? Shundan keyin kontoradagilar unga uylanishingizga ruxsat berishadi, a, shundaymi?

- Shunday, - Qadamboy og'a boshini solintirdi.

- Oson ekan-u, - dedi Toshpo'lat.

- Mening u yoqda bola-chaqam bor-ku, - dedi shunda Qadamboy og'a boshini ko'tarib Toshpo'latga qararkan. - Bunga uylansam, u yoqdan voz kechishim kerak...

- Zato ozodlikka erishasiz. Xuddi Matchonovga o'xshab! - atay tantanavor ohangda gapirdi Fayzi.

- Shunday qilsammikin?.. - Qadamboy og'a ko'zlarini jovdiratdi. - To'g'risi, bu yer toza jonimdan o'tib ketdi! Ariston bo'lib ariston emasmiz, ishchi bo'lib ishchi emasmiz...

- Uylanganingizdan keyin laqqa baliqchangizga aytsangiz, sizni olamdan o'tdi, deb xat yozvoradi uyingizga...

Fayzi mayna qilishda davom etarkan, men asta o'rnimdan turib, davradan sirg'alib chiqdim. Eshik oldiga yetganimda ortimdan "gur"; kulgi ko'tarildi. Yigitlar shafqatsizlarcha Qadamboy og'ani mazax qilishni davom ettirishyapti chog'i.

Nafsilamrini aytganda, Qadamboy og'aning gapida jon bor. Biz haqiqatan ham mahbus bo'lib mahbus emas, ishchi bo'lib ishchi emasmiz. Ishchi bo'lsak, mahbusdek tutqunlikda yashamasligimiz lozim. Mahbus bo'lsak, bizga ish haqi to'lanmasligi kerak. Kim bilsin, kontoradagilar ehtimol bizni ikkala "unvon";dan ham pastroq nom bilan ro'yxatga tirkab qo'yishgandir? Umuman, ro'yxatda bormizmi?!

Odatdagidek, to'siq yonidagi yo'lakda kezib yura-yura hovurim bosilgandan keyin barakka kirarkanman, janjalning ustidan chiqdim.

- Bu choriq kimniki?! Kimniki deyapman?! - deya baqirardi Po'lat Damirovich bu vaqtda o'zining hamisha yaltirab turuvchi etigi bilan allakimning yerda ag'darilib yotgan, titilib ketgan etigini zarb bilan teparkan.

Barakdagilar turgan yerlarida haykal bo'lib qolishgan, hech kimdan sado chiqmasdi.

- Kimniki deyapman? Nima balo, tillaringni yutvorganmisanlar?!

Po'lat Damirovichning ovozi shu qadar jarangdor ediki, baayni quloq pardasini teshib yuborardi.

Hamma jim.

Savoli javobsiz qolganidan Po'lat Damirovich battar achchiqlandi, yuzi bo'g'riqdi.

- Siznikimi?! - deya do'q aralash so'radi u o'ziga yaqinroq turgan kishidan.

- Yo'q, yo'q, mana mening etigim, oyog'imda turibdi, - dedi jonholatda haligi kishi va shosha-pisha ortiga tisarildi.

- Siznikimi?! - Po'lat Damirovich yana bir kishiga yuzlandi.

Shu payt xona to'ridan:

- Meniki! - degan dag'al ovoz eshitildi.

Hamma o'girilib o'sha tomonga qaradi. "Husan!";

Husan xona to'rida butini kergancha bir poy etiksiz turardi.

Raqibining qon tomiridan tishlashga shaylangan o'qilonday g'oz turgan Po'lat Damirovich sezilarli darajada seskanib tushdi.

- Etik meniki, - dedi Husan endi bosiq ovozda. - Xo'sh, nima bo'пти shunga?

- Nega u bu yerda yotibdi?!

- Qayerda yotsa yotavermaydimi, axir u poyabzal-ku, - dedi Husan kulimsiragancha.

- Hoy bola! - Po'lat Damirovich uning ustiga bostirib bordi. - Nega mening jig'imga tegmoqchi bo'lyapsan?

- Men sizga bir nima dedimmi? - dedi Husan bir tuki ham qilt etmasdan.

- Axir, men unga qoqilib ketdim. Yiqilib tushishim ham mumkin edi!

- Yiqilib tushmaslik uchun yerga qarab yurish kerak! Yoki bo'lmasa... - Husan qiziq gap aytmoqchi bo'lgandek yon-veriga quvnoq nigoh tashladi. - Yoki bo'lmasa, eshikdan avval soqchilarni kiritish kerak. Ular yo'lingizni tozalab...

- Soqchi!!! - deya qichqirdi Po'lat Damirovich.

Holbuki, uning baqirishiga asos yo'q edi. Ikkala soqchisi ham uning yonida edilar, Po'lat Damirovich to'xtasa to'xtashardi, yursa yurishardi.

- Qo'rqqoq! Uni qaranglar, qo'rqqoqligidan har doim soqchilar bilan birga yuradi! - deya baqirdi Husan ham ovozini ko'tarib.

- Shtabga olib boring! - g'azab bilan buyurdi soqchilarga Po'lat Damirovich va otilib xonadan chiqdi.

Ikki soqchi Husanni qo'ltig'idan tutib tashqariga sudradi...

Barak suv quyganday jimjit bo'lib qoldi.

Ancha vaqtgacha hech kimdan sado chiqmadi.

Hamma Po'lat Damirovichning bostirib kelib qolishidan xavotirda, yurak hovuchlagancha eshikka tikilib turardi.

Nihoyat, xatarli daqiqalar ortda qoldi. Po'lat Damirovich qaytib kelmadi. Holbuki, hali u yo'qlama qilishga ulgurmagandi. Po'lat Damirovichning kutilmagan bir vaqtda xonaga Azroilday bostirib kirib shaxsan o'zi yo'qlama qiladigan odati bor edi. Yo'qlama chog'ida hamma xonada bo'lishi shart edi. Aks holda, boshiga balo yog'ilardi. Po'lat Damirovich yo'qlama vaqtida xonada bo'lmagan kishini "Shtab";ga chaqirib olib, tinka-madori quriguncha tergov qilardi. Uning goh ilmoqli, goh tuturiqsiz, bema'ni savollariga sabr-toqat bilan javob berganlar xiyla oson qutulardilar. Sarkashlik qilganlarning sho'ri qurirdi.

Ma'lum bo'lishicha, o'sha kech Po'lat Damirovich odatdagidek yo'qlama qilish uchun barakka kelgan va ostona hatlagan zahoti yerda yotgan bir poy etikni ko'rmasdan qoqilib ketgan ekan.

- U atay etigini o'sha yerda qoldirgan, - degandi Nurali menga o'shanda shivirlab. - Shu bolaga tushunmayman, o'lay agar!

Basharasiga qarasang, musichaday beozor, lekin har doim Po'lat Damirovichning jig'iga tegish payida bo'ladi!

- Uni yoqtirmasa kerak, - dedim menam past ovozda.

- Yoqtirmasa shunaqa qilish kerakmi? - hayron bo'lib qaradi Nurali. - O'ziga-o'zi jabr qilyapti-ku!

- Ha, to'g'ri, - deya unga yon berdim.

Shu payt kimdir:

- Husanni olib kelishyapti! - deya xabar berdi.

Hushyor tortdim.

Ikki daqiqa ham o'tmasdan boyagi ikki soqchi Husanni qo'ltig'idan tutib sudragancha xonaga olib kirishdi va shundoq ostonaga tashladilar-u, bir so'z demasdan chiqib ketishdi.

Bir zumda Husanning atrofida odam to'plandi.

- Nima bo'ldi? Boplashdimi?

- Ta'ziringni yedingmi?

- Boshqa bunday hazil qilmassan endi?

Savol ustiga savol yog'ildi.

Biroq Husandan sado chiqmadi. U behush edi. Yuzi qontalashgan, bo'yni, bilaklari momataloq, chap qoshining yorilgan joyidan qon sizib oqardi.

Nurali ikkovimiz uni to'shagiga olib o'tdik.

- Shu bolaga hech ham tushunmayman, - deya yana takrorladi Nurali Husanning yonida o'tirganimizda. - Po'lat Damirovichning fe'lini bila turib uning g'ashiga tegadi. Etikniyam atay yo'l ustiga qo'ygan, bugun Po'lat Damirovichning shaxsan o'zi yo'qlama qilishini bilardi-da.

Husanning yuziga termildim. Qo'limizdan kelgancha uning yara-chaqalariga malham dori surgan bo'lsak-da, joni azobda ekanligi bujmaygan yuzidan sezilib turardi.

- Shu yigit haqiqatan ham odam o'ldirganiga ishonasizmi? - deb so'radim past ovozda Nuralidan.

- Kim bilsin, - dedi Nurali o'ychanlik bilan. - Mulohazali yigitga o'xshab ko'rinadi menga.

- Menga ham shunday...

- Eh! Odamzod o'zini-o'zi fosh qilmasa uning qandayligini bilish qiyin, - dedi Nurali.

Shu kecha biz galma-gal Husanga qarab chiqdik.

Ertalab Husan qovoq solgancha o'rnidan turib ishga jo'nadi.

- Uch-to'rt kun ishga chiqmay tursa bo'lardi, - dedi Nurali uning ortidan qarab qolarkan. - Kecha tizzasiga ko'zingiz tushganmidi?

- Momataloq edi...

- Tizzasi sinmasa ham mundayroq bo'lgan. Hozir issig'ida sezmayotgandir. Tag'in bir baloni orttirib olmasin.

- Oqsoqlanib yurishiga qaraganda og'riqni sezyapti. Lekin kimgadir o'chakishganday, atay o'zini-o'zi azoblayotganga o'xshayapti...

Menimcha, Po'lat Damirovichning rahmini keltirmoqchi!

- Huv anavi etikni ko'ryapsizmi? - Nurali pechka yonida turgan bir juft yap-yangi etikni ko'rsatdi.

- Ha. Darvoqe, bu etik kimniki?

- Kamoliddin degan yigitniki.

- O'lganmi?

- Yo'g'-e, nimalar deydiniz? Kamoliddin tirik, to'g'risi, oxirgi marta ko'rganimizda tirik edi. Kim bilsin, hozir qayerda, qay ahvolda ekan? Eshitishimcha, uni Hakim Nazarich o'z panohiga olganmish...

- Unga nima bo'lgan o'zi?

- Ha, darvoqe... Kamoliddinning asli kasbi rassom bo'lgan. Rassomchilikdan omadi yurishmaganidan keyin o'zini qora ishga urgan. O'rtog'i bilan o'n tonna piyozni KamAZga ortishganu "Qaydasan, Rossiya?!"; deb yo'lga chiqishgan. Tamojniydan qochib "chyorniy xod"; orqali yuramiz deb o'rmonda adashib qolishgan. Bu yerning o'rmonlarini bilasiz-ku. Na boshi, na keti bor! Buning ustiga, mashina buzilib qolgan. Bir haftacha mashina ichida jon saqlashgan. Yo'lga olgan ozuqalarini yeb bitirishgandan keyin ahvollari og'irlashgan. Kun sovuq, hamma yoq qor. Qo'llarida kompas bo'lmasa?! Piyozni sovuq urib chiriq boshlagan. Bundan ikkalasi yanada dahshatga tushishgan. Axir, o'n tonna piyozning pulini birovdan olishgan! Bir yerda o'tiraversak, birov kelib bizga yordam berarmidi, deyishib, oxiri mashinaniyam, piyozniyam tashlab poyi-piyoda yo'lga tushishgan. Ikki kun yo'l yurib mundoq qarashsa, yana o'sha yerda, o'zlarining KamAZlarining oldida turishgan! Yeguliklari butunlay ado bo'lgan, qorinlari och, sillalari qurigan... O'rtog'i suv o'rniga ham, ovqat o'rniga ham qorni kappalayvergan. Kamoliddin muzlab qolgan piyozning murtagini kavshagan. Butunlay holdan toyganlaridan keyin kun-tunning farqiga bormay qolishgan. O'rtog'i shamollab qolib, o'sha yerda olamdan o'tgan. Shundan keyin Kamoliddin oyoqlari muzlab qolganiga qaramasdan emaklagancha yo'lga tushgan. "Eng yomon o'lim ochlikdan tirishib o'lish ekan, - derdi Kamoliddin shu yerdaligida. - O'limni kutib yashash esa undan ham og'ir ekan. Men o'layotganimni sezmaslik uchun ham emaklab yo'lga tushdim. Emaklab keta turib jonim chiqib ketganini sezmay qolsam zora, deb o'ylardim..."; Kamoliddin o'zining qancha yo'l yurganini eslay olmasdi. "Hushdan ketganimni eslayman, - derdi u yana. - Men buni o'lim deya o'ylaganman. O'lyapman. O'lim shunaqa bo'larkan-da? Darvoqe, bu holat o'lim bo'lsa, Azroil hazratlari qani, deya taajjublanganim ham yaxshi esimda"; Xullas, muzlatilgan go'shtday yaxlab yotganida uni Hakim Nazarich topib olgan ekan. Avval shu yerga olib kelgan. Ahvoli og'ir ekanligini bilganidan keyin uyiga olib ketgan. Sho'rlik Kamoliddinning ikkala qo'liyu oyog'ini sovuq urib ketgan ekan, do'xtirlar kesib tashlashga majbur bo'lishgan... Hakim Nazarich unga uyiga qaytishi uchun qancha yordam kerak bo'lsa, ayamasligini aytgan, lekin Kamoliddin ko'nmagan. "Bu ahvolda uyga borganimdan ko'ra, o'lganim yaxshi. Agar chindan yaxshi odam bo'lsangiz, do'xtirlarga ayting, ukol bilanmi, zahar bilanmi meni o'ldirib qo'ya qolishsin!"; - deb iltimos qilgan. "Men uzoq yashashni orzu qilardim, lekin bu ahvolda emas! Hozir mening g'o'ladan farqim yo'q. Gapirovchi g'o'la!.. Jonli g'o'la!.."; - deya yig'lagan... Hakim Nazarichning o'sha yigitga qandaydir mehri tushgan ekan. Uni uyiga olib kelgan. Boshqalar bu mehribonlik boisini sal boshqacharoq ta'riflashadi, emishki, Hakim Nazarich o'rmonda qolib ketgan KamAZni imi-jimida o'ziniki qilib olgani uchun insof yuzasidan Kamoliddinni panohiga olgan! Menimcha, bu bo'lmag'ur gap. Agar Hakim Nazarich bu qadar saxovatli odam bo'lmaganida ham KamAZga egalik qilardi, ham... Kamoliddinni imi-jimida tinchitib qo'ya qolardi! Shundaymi? Hakim Nazarich esa bunday qilmaydi (men ishonaman, bunday qilish uning xayoligayam kelmagan! Bema'ni gaplarni esa g'iybatchilar o'ylab topishgan. Unaqalar ko'p bu yerda. Hali o'zingizam sezib olarsiz. Hammasi alamzada!). Kamoliddinni uyiga olib keladi. Xotining unchalik ro'yxushlik bermaganiga ham parvo qilmaydi. Lekin Kamoliddin bu yerda ham bezovta bo'laveradi. Ikki marta aravachasida qochib ketishga urinadi.

Baxtga qarshi, ikki martayam Hakim Nazarichga duch keladi. Hakim Nazarich nimanidir uyida qoldirgani esiga tushib yarim yo'ldan ortiga qaytayotgan bo'lgan. "Agar Hakim Nazarich kelib qolmaganida o'zimni mashina tagiga tashlamoqchi edim"; degandi Kamoliddin bizga. Hakim Nazarich uning siqilayotganini sezib kunlarning birida Kamoliddinni shu yerga olib keladi. Shu kuni Kamoliddin Hakim Nazarichning uyiga qaytib bormaydi. Unga bu yer yoqib qolgan ekan. Dastlabki kundanoq biz bilan barakda yashay boshladi. Hakim Nazarich kontoradan xona taklif qilganida ko'nmadi. Nihoyatda jiddiy, aqlli yigit edi u. Anovi bir juft etikni atay karavotiga qo'ydirgan. Lekin sababini aytmaydi. Bir-ikkitasi o'smoqchilab so'ragan ekan: "Aqlingni ishlatsang, sababini bilib olasan!"; - deb javob beribdi. Bu bilan u bizlarga nimanidir ta'kidlamoqchi bo'lyapti, aqlli yigit deyman-ku, buning ustiga, rassom! Lekin hozir sal g'alati bo'lib qolgan...

- Qani o'zi? Nega men ko'rmayapman uni?

- Siz kelmasingizdan sal avval shamollab qolgandi, Hakim Nazarich uni uyiga olib ketdi. Hademay yana kelib qolsa kerak.

- Yo tangrim! - deb yubordim beixtiyor.

- Kayfiyatingiz buzildimi?

- Undan batar.

Nurali indamadi.

"Qayerga kelib qoldim o'zi?! - deya xitob qildim xayolan o'zimcha saf qatorida qorni g'arch-g'urch qilganicha ish maydoni tomon ketarkanman. - Sho'rpehona odamlar to'dasi zo'rlik bilan keltirilib to'plangan va majburiy mehnatga jalb etilgan bu makon qamoqxona emasligi ko'rinib turibdi. Har birining zilday og'ir o'tmishi bo'lgan bu odamlar ham allaqanday jinoyatchilar emas, tirikchilik tufayli yo'ldan adashgan kimsalar ekanligi peshonalariga urilgan tamg'adek yuz-ko'zlarida yaqqol aks etgan - bu, ayniqsa, ularning ish desa o'zlarini tomdan tashlashga tayyor ekanliklaridan, qo'shimcha daromad evaziga jonlarini jabborga berib ikki-uch smenalab ishlashlaridan ham kunday ravshan; muammo - bu odamlar ustidan hukm yurgizish huquqiga ega bo'lgan anovi "noyob"; shaxslarning kim ekanliklarida, ish yuritishning bunday, ya'ni ta'bir joiz bo'lsa, iblisona sistemasini qanday o'ylab topganlari-da!

Axir, bu yerdan hatto qamoqxona ham afzal-ku. Har qalay, u yerda nima uchun jazolanayotganing yoki majburiy mehnatga jalb etilganing sababini bilasan. Qisqasi, sen u yerda qayta tarbiyalanypasan! Bu yerda-chi? Mahbus emassan, biroq mahbusdek kun kechirasan. Hatto eng kuchli tartib-qoidaga asoslangan qamoqxonada ham insonning inson sifatidagi huquqlari bu qadar poymol etilmagan. Kasal bo'lsang, kasalxonaga yuborishadi, har qalay! Bu yerda-chi? Oliy ma'lumotli shifokor u yoqda tursin, olti oylik kursni bitirgan tibbiyot xodimi bo'lganda ham sho'rlik Majid aka tirik yurarmidi? Alam qiladigani shundaki, bu yerda insonga inson sifatida emas, ishchi kuchi sifatida qaralishi, yaroqsiz bo'lib qolganidan keyin bir marta ishlatiladigan idish sifatida tashlab yuborilishi!.. Axir Tangri insonga koinot gultoji sifatida qaragan, shuning uchun ham insonni barcha boshqa tirik mavjudotlardan mukammal qilib yaratgan emasmi?"

O'y-xayollarim adoqsiz edi. Ikki odam zo'rg'a sig'adigan so'qmoqdan saf qatorida ketib borarkanman, bu yo'lning yanada uzoq-uzoqlarga cho'zilishini istardim, shu bilan birga ayni zamonda xayollarim g'arch-g'urch qilayotgan qorning kumush zarralaridek har tomonga sochilib ketmasligi uchun dunyoning narigi boshiga ham piyoda borishga-da rozi edim. Biroq shu kichkina orzuning ham umri qisqa edi. Biz manzilga yetib kelgandik.

- Hamma ish joyiga! - Matchonovning buyrug'i yangradi. - Imillamasdan, gap-so'zga chalg'imasdan chaqqon-chaqqon ishlanglar.

O'n besh kun ichida ikkinchi qavatni topshirib, uchinchi qavatga o'tishimiz kerak!

- Oylıktan darak bormı? - kimdir luqma tashladi.

- Hafta oxirida kontoraga kirib olishingiz mumkin, - deya javob bera boshladi Matchonov. - Lekin avval normani bajarganligingiz to'g'risida mendan spravka olishingiz kerak. Ana shundan keyin navbatingizga qarab maosh olasiz!

- Normani ikki-uch baravar qilib bajarib qo'yganimiz. Lekin navbatimiz kelmayapti-da! - dedi haligi kimsa.

- Sabr! Sabr! Sabr!

Matchonov shunday degancha nari ketdi.

- Sabrning ham uyi kuysin. Rosa nosning xumori tutyapti-da. Lariskadan sotib olay desam pul yo'q. Nosingdan bir kaftgina berib tur, G'iyos! - degani eshitildi haligi kimsaning.

Ha, nega kulgingiz kelyapti? "Nos"; deganimgami? Bu yerda nos nima qiladi, demoqchisiz-da. Afsuski, shunday. Bu yerda nafaqat nosni, balki boshqa kerakli narsalarni ham sotib olishingiz mumkin. Har kuni tushlik mahali keladigan sotuvchi ayollarga "zakaz"; bersangiz bas, ertasi kunıyoq aytganingizni muhayyo qilishadi. Faqat narxi osmonda bo'ladi.

Sotuvchi ayollar har xil qimmatbaho kiyimlarni ham olib kelishardi. Bu narsalardan faqat qishlik issiq kiyimlargina yaxshi ketardi. Jonidan sovuq o'tgan bandalar qancha pulga bo'lsa-da, shartta ko'zlarini yumib olishardi. Boshqa buyumlarga ortiqcha narsadek qarashardi. Tamaki mahsulotlari xaridorgir edi. Onda-sonda sotuvchılarning uddaburonligi tufayli aroq va vinodan ham oz-moz bahramand bo'lib qolardik. Umuman olganda, odamzod bor ekan va u odamligicha qolar ekan, nafs yo'lida har qanday ishni amalga oshirishning iloji topilarkan.

Nima uchun bunday deya pman, bilasizmi, u yerda... nima desam ekan... Xullas, xotinlar masalasidagi muammoni ham, har qalay... imkon qadar hal qilsa bo'lardi. Bu boradagi qiyinchilikni ayol kishi zimmasiga olishga to'g'ri kelardi, agar ikkala tomon o'zaro kelishib, dil-dilga to'g'ri kelib qolgan bo'lsa bas. Qulay joy topish, soqchılarni ko'ndirish ayolning ishi, bu ishlar uchun ketadigan xarajatni erkak o'z bo'yniga oladi. Qarabsizki, bir-biriga talpingan dillar orzusi ushaladi...

Lapas degan duradgor bo'lardi. Nihoyatda xotinboz edi. Buni hech kimdan yashirmasdiyam. Yaqinlashsangiz bas, xotinlar haqida gap ochardi. Avvaliga o'ynashlarini birma-bir sanab berardi, yana deng, nomma-nom, hatto o'ynashlarining ishxonalarini ham tilga olardi. Jazmanlarining biri bilan uning ishxonasida ishrat qilgan ekan-da.

Yoshi ellikni qoralab qo'yg'an, sochi tepadan to'kilgani bois, boshi gıyoh o'smaydigan taqir tepalikday yaltirab qolgan, jikkakkina bu odam o'zini Don Juan qilib ko'rsatishdan uyalmasdi. Ikkita gapining bittasi, albatta, xotinlar haqida bo'lardi. Hatto eng "qaltis lahza";lar haqida ham u bemalol, tortinmasdan, batafsil so'zlardi; so'zlarkan, suhbatdoshning nigohida allaqanday (mazaxli, kinoyali yoki nafratli, farqi yo'q) ifodani payqab qolsa bas, shartta gapini kelgan yerida to'xtatib: "Kichkina demang bizni! Kichkinalar chaqqon bo'lishadi. Ayollarga aynan kichkinalar yoqadi!"; deya pisanda qila ketardi. Ulfatlarini ishontirish uchun sotuvchi ayollardan biri (ismi Toshka edimi-ey, biz uni orqavoratdan Koshka deb atardik) bilan tanishib, rosa uning boshini aylantirgan, hatto: "Senga uylanib, shu yerlarda umrbod qolaman!"; deb va'da bergan, bechora qiz o'ttiz to'qqizga kirgan bo'lsa-da, hali turmushga chiqmagan ekan, darrov rozi bo'libdi. Soqchi yigitlardan biri Toshkaning uzoqroq qarindoshi ekan, ancha-muncha pul va ruslarning mashhur qishlik poyabzali - ikki juft valCHenka evaziga "sevgi otashida yurak-bag'ri kabob bo'lgan oshiq";ning taxta to'siqdan oshib o'tganini "ko'rmay qolgan!";.

Lapas duradgor shu ketgancha bir sutka qorasini ko'rsatmagan. Bu yoqdagılarning ahvolini tasavvur qilavering endi. Axir, ba'zilari ikki yillab xotin ko'rmay yurgan erkaklar-da!

Bir sutkadan keyin Lapas duradgor qaytib kelgan va ...ga to'yg'an xo'rozday g'o'ddaygancha sheriklarining so'lagini oqizgancha maqtana boshlaydi: "... sho'rlik Toshka hali qiz ekan... rosa qiynaldi o'ziyam... Ertalab qaragam, tipirchilayverib gilam patlarini yulib tashlabdi... Menga jin urarmidi?.. Munaqa ishlar chikora! Hadisini olvolganimiz-da, hadisini... Ammo birinchi marta... hammaga ham qiyin-da!";

Lapas duradgor juda kelishtirib, o'rniga qo'yib so'zlardi, nozik "sahna"; tafsilotlarini shu qadar tiniq tasvirlardiki, tinglovchi bechoralar beixtiyor bir guvranib olishardi. Ish vaqtida Toshka qurilish maydonida ko'rinishi bilan hamma Lapas duradgorga havas bilan qarar, o'zaro im qoqishib, pichir-pichir qila boshlardi. Lapas duradgor buni sezardi, hatto ba'zi pichir-pichirlar qulog'iga ham chalinardi, lekin nima uchundir barakdalik vaqtidagidek bu holdan yoyilib ketmas, aksincha, har xil gap-so'zlarni eshitmaslikka olar, u brigadadan narigi brigadaga o'tib "mo!";ini reklama qilib yurgan Toshka tomonga esa umuman qaramasdi, go'yo uni ko'rmayotganday, bosh ko'tarmasdan ishlayverardi.

O'zini hech qachon toliqmaydigan, tinib-tinchimas "to'shak qahramoni"; qilib ko'rsatgan Don Juanimizning siri sal keyinroq fosh bo'ldi. Sho'rlik qariqiz Toshkaning dugonasi, ish boshqaruvchimiz Hakim Nazarichning xotiniga ota tomonidan uzoqroq qarindosh bo'lgan, shuning uchun boshqalarga qaraganda bu yerlarga bemalol kirib-chiqib yuradigan Lariskaning gapiga qaraganda (u bu gaplarni Qadamboy og'aning "navnihol"; sevgilisiga kuyib-pishib gapirib bergan ekan), "... bu Lapas duradgor deganlari g'irt impotent ekan-ku! Toshka sho'rlikni rosa ovora qilibdi-da. Toshkaga juda qiyin bo'ldi-da. Shu bilan unga ikkinchi marta mijozı zaif erkak duch keldi. Omadsizligidan kuyib ketyapti bechora. Birorta manaman degan o'rtog'i yo'qmikan? Toshkani tanishtirib qo'yardik. Shu yerda qolishga rozi bo'lsa, birorta durustroq ish topib beradik...";

Bu gaplar og'izdan-og'izga o'tib ko'pchilikka ma'lum bo'lgach, Lapas duradgorning atrofida odam to'planmaydigan, uning oldida xotinlar haqida umuman gap ochilmaydigan bo'ldi. Sho'rlik duradgor aslida impotent ekan-u, ataylabdan o'zini Don Juan qilib ko'rsatarkan. Kim bilsin, balki bu ham bir kasallikdir?.. Lariskaning taklifiga esa negadir talabgorlar topilmadi. Lapas duradgor bo'lsa, bir qancha vaqt o'zini holdan toygan odamdek ko'rsatib yurdi-da, aloha kunlarning birida o'z-o'zidan shikoyat qilib qoldi: "Nimagadir o'zimni yomon sezadigan bo'lib qoldim. Ilgari bir vagon ko'mir tushirsam ham bunchalik charchamasdim. Bu yerning xotinlari yomon kasallikka chalinmaganmikin?..";

Shundan keyin Lapas duradgor og'ir xo'rsinib qo'ydi:

- Yomon kasallikka chalinib, bor boyligimdan ayrilib qolmay tag'in...

Unga javoban hech kim indamadi. Hamma nigohini olib qochardi negadir...

Xullas, o'sha kuni adoqsiz o'ylar girdobidan chiqa olmay, o'zim bilan o'zim ovora bo'lib qolganımdan ishni ham yolchitmadim.

- Bo'g'irsoq sotadigan ayol kelyapti, tushlik qilamizmi? - deb qoldi bir mahal Husan.

Kechagi kaltakdan keyin u bir og'iz ham gapirmagandi.

- Mayli, - dedim qo'limdan qo'lqopimni yecharkanman.

Shu vaqt bino ichkarisida allaqanday shovqin-suron, bezovtalik sezildi.

- Nima bo'ldiykin? - dedim o'sha tomonga sinchiklab tikilarkanman.

- Hozir anovi Bo'g'irsoqdan so'raymiz-da, - dedi Husan yaqinlashib qolgan sotuvchi ayolga ishora qilib.

Fayzi bilan Toshpo'lat ham ishini tashlab yonimga kelishdi. Ularning ham ikki ko'zi qurilish maydonida edi.

- Bir falokat bo'ldi-yov, - dedi Fayzi.

Husan sotuvchi ayoldan tushlikka kerakli oziq-ovqatimizni sotib olarkan, uni savolga tutdi. Afsuski, ayol ham u tomonda nima sodir bo'lganini aytib berolmadi. Shundan keyin biz shosha-pisha tik turgan holda bo'g'irsoqlarimizni baham ko'rdik-da, hammamiz birgalikda qurilish maydoni tomon yo'l oldik.

Yaqinlashganimiz sayin qulog'imizga shovqin-suron aniqroq eshitila boshladi. Allakim jon achchig'ida dod-faryod qilardi.

- Alisher degan bola tepadan yiqilib tushibdi, - dedi g'uj bo'lib turgan olomon orasidan sirg'alib chiqqan Nurali kayfiyatsiz tarzda.

- Alisher... bolam, o'zingni qo'lga ol. Qo'rqma, xavfli tushmading... Tizzang sal... darz ketibdi... - derdi elliklardan oshgan bir kishi chalqancha yotganicha oh chekayotgan yigitning ustiga engashgan ko'yi.

Bu kishi Alisherning otasi edi. Ota-bola deyarli hech kimga qo'shilmasdilar. Daromadning hammasi o'zlariga qolishi uchun to'rt kishi bajarishi lozim bo'lgan ishini ikkalasi zimmalariga olishgan, shuning uchun bosh ko'tarmasdan tinim bilmay ishlardilar.

O'g'il hali judayam yosh, nari borsa yigirmalarga borgandi. Bilasizmi, Tangri alohida mehr, betakror va beaded iste'dod bilan benihoya go'zal qilib yaratgan odamlar bo'ladi bu dunyoda. Bunday odamlarga qarab turib: "Tavba, shunchalar ham bekamu ko'st husn bo'ladimi?"; - deya beixtiyor hayratdan yoqa ushlaysiz. Alisher ana shunday nihoyatda ko'rkam yigiticha edi. Uning biror marta so'kinganini eshitmagandim.

Og'ir-vazmin, aqlli ekanligi chaqnab turgan beg'ubor ko'zlaridan shundoq sezilib turardi. Holbuki, bu yoshdagi yigitchalarning ko'pchiligi yengiltak, o'yinqaroq bo'lishadi. Axir erta-yu kech bosh ko'tarmasdan ishlash hamma yoshlarning qo'lidan kelmaydi. Buning uchun qanchalar sabr-bardosh, kuch-quvvat kerak. Qizlarni muzqaymoq bilan siylab, tungi barlarda, diskotekalarda asov otdek irg'ishlab sakrash, kayfu safo qilish kimga yoqmaydi? Alisher bunday "lazzat";lardan mahrum bo'lgan, mushtday boshidan mehnatga o'zini urgan yigit. Bundaylar ishlaganda alam bilan, xuddi birovga qasd qilganday, ishlashadi. Menimcha, bolaligi og'ir qiyinchiliklar bilan o'tgan odamlar ana shunday ashaddiy mehnatsevar bo'lishadi. Pulni mo'ljalidan sal ko'proq to'lab qo'yishsa bas, har qanday huzur-halovatdan voz kechib, jonlarini jabborga berib ishlashadi.

Alisherning otasi Karimboya aka ham og'ir-vazmin, kamgap kishi edi. O'g'lining yonidan bir qadam ham nari ketmasdi. Kechqurun suhbatlarga umuman qo'shilmasdi. O'g'lini ham o'zidan boshqa biror kishi bilan gaplashishga qo'ymasdi. Sho'rlik ota o'g'lining tarbiyasi buzilib ketishidan cho'chirdi chog'i. Ish vaqtida esa bir-birlarini shunchalik avaylashardiki, ko'rib beixtiyor havasizingiz kelardi. Og'irroq yukni ko'tarishga to'g'ri kelsa, bu vazifani, albatta, Karimboya aka o'z bo'yniga olardi. Men bir necha marta ularning tortishib turganining guvohi bo'lgandim. "Ota, shu ishini menga bering, odamni uyaltiryapsiz, axir!"; - deya zorlanardi Alisher. "Nima, meni qarib qoldi, deb o'ylayapsanmi? Nari tur! Hali senga o'xshagan yigitlarning to'rttasining kuchi bor menda. Yo pirim!"; deya Karimboya aka yukni orqalab jo'naydi. Yukni ko'tarayotganda uning sovuq urgan yuzi g'ijimlangan qog'ozdek burishib ketadi.

O'sha mehribon otaning aziz dilbandi ayni zamonda yerparchin bo'lib yotardi.

- Barakka oborish kerak! - dedi kimdir.

- Matchonovdan ruxsat so'rash kerak avval. Bo'lmasa baloga qolamiz!

- Alisher, bolam, ke, yelkamga qo'lingni qo'y...

Karimboya aka qor ustiga cho'k tushib engashganicha inqillab yotgan o'g'luga yelkasini tutdi. Yuzi qordek oqargan Alisher bir-ikki intildi, lekin nima uchundir gavdasini yerdan uza olmadi. Shundan keyin uni ko'plashib ko'tarib olishdi...

"Bola sho'rlikning umurtqasi lat yemadimikin?"; degan o'ydan yuragim uvishdi.

\* \* \*

Qish avjiga chiqqan kunlar.

Havo chunonam sovuq ediki, tuflasang tupuging yerga tushmay muzlab qoladi. Goh quyuv tuman qoplasa, goh charaqlagan quyosh nurlari qor bilan qoplangan o'rmon uzra yarqiraydi, biroq... havo baribir sovuqdan-sovuq...

Kunduzi vaqtimiz ishda o'tadi. Har qalay, ovunamiz. Lekin...

Kechalari uyqumizdan halovat yo'qoldi.

Og'riqqa chiday olmagan Alisher inqillab, oh-voh qilib tunda hech kimga uyqu bermasdi. Karimboya aka ishga chiqmasdan o'g'lining yonida o'tirardi. Erta-yu kech dilbandining yuziga termilar, goh majburlab, gohida yalinib-yolvorib bir cho'qim ovqat yedirar, tez-tez kiyimlarini almashtirib, yuvaradi. Bundan ortiq qo'lidan hech narsa kelmasdi. Yuqorida aytganimdek, bu yerda oliy ma'lumotli shifokor tugul, oddiygina hamshira ham yo'qligidan sho'rlik Alisherga loaqal birinchi tibbiy yordam ko'rsatishmadi.

Karimboya aka "kontora";ga zir qatnab, o'g'luga yordam berishlarini so'rardi.

Bir kuni uning "kontora"; eshigi oldida Hakim Nazarichga:

- Bolamni birorta kasalxonaga joylashtirishga yordam bering, iltimos. Agar uni kasalxonaga yotqizsangiz, ish haqini olmasdan ishlab beraman. Faqat o'g'limning jonini saqlab qoling, iltimos, - deya yalinib-yolvorayotganini eshitib qoldim.

- Bajonidil yordam berishga tayyorman, - derdi unga javoban Hakim Nazarich. - Lekin buning iloji yo'q! Shahar tugul, qishloqdagi birorta kasalxona sizni qabul qilmaydi.

- Qancha xarajat bo'lsa ko'taraman, uka!

- Gap xarajatda emas, tushuning...

- Jon uka, iltimos, bolam xarob bo'lmasin...

- Urinib ko'raman. Lekin va'da berolmayman.

"Ha"; degan tuyaga madad deganday, Hakim Nazarichning mujmal javobi Karimboya akaga dalda bo'ldi. Dastlabki kunlarga qaraganda o'zini ancha tutib oldi. Endi u o'g'lining tepasida yig'lab, ko'z yoshini selday oqizib o'tirmasdi.

- Ana, Hakimboya, yordam beraman, deb va'da qildi, ulim, - derdi u Alisherga. - Hademay tuzalib ketasan! Bu sen uchun uch-to'rt kunlik azob-da, endi, ulim, chidaysan.

Bu vaqtda Alisherning ahvoli ancha og'irlashib qolgandi. Buni uning isitmasi tushmayotganidan bilsa bo'lardi. Og'riq kuchaygan kezlarda u chiday olmasdan baqirishga tushardi:

- Enasini eshak... bu yerni! Meni ado qildi bu yer! Tamom qildi... Xarob bo'ldim... Nega keldim bu yerga o'zi?!

Bu bilan ham tinchlanmasdan mushtlari bilan nar chetlariga gurs-gurs mushtlardi, mushtlayverardi...

- Bolam... og'ir bo'l, bolam, - deganicha o'g'lini quchoqlardi Karimboya aka. - Erkak kishisan-ku, chidamli bo'l, bolam. O'zingni o'ylamasang, meni o'yla, bolam. Har gal chinqirganingda jonim chiqib ketganday bo'ladi...

- Chidolmayapman-da, otajon... Og'riq... o'v!.. A!.. A!..

Alisherning faryodi nafaqat quloqlarimni, balki yuragimni teshib o'tganday bo'lardi. Uxlay olmasdan tashqariga chiqib ketardim. Azob tortayotgan yigitchaga yordam berolmayotganimdan ich-ichimdan ezilardim. Ammo hamma birdek shu kayfiyatda deya olmasdim. Ertadan kechgacha va yana yarim tungacha eshakday ishlab, itday charchagan kishilar uyqularida halovat bo'lmayotganiga chiday olmaganlaridan bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiraverib, sho'rlik Karimboy akaning siqilgan yuragini battar siqishardi.

- Erkalik ham evi bilan-da, Karimboy aka! O'g'lingizga ayting, dardga sal og'irroq bo'lsin. Oyog'i singan odam ham shunchalik shovqin ko'taradimi?

- Yaxshisi uni boshqa xonaga olib o'tish kerak! O'zini o'ylamasa, bizni o'ylasin, axir o'larday charchab yurgan odamlar bo'lsak! Dam olishimiz kerakmi-yo'qmi?!

Shunday kezlarda Karimboy akaning yuziga qarab bo'lmasdi. Hamxonalarining jizzaki, betgachoparligidan ko'ngli og'rigani mung'aygan nigohlaridan sezilardi.

- O'g'limning ahvoli og'ir, - dedi u bir kuni dabdurustdan yonimga kelib. - Dardga yengilligidan baqirib yotgani yo'q. Umurtqasiam lat yeganmi, deyman... Belini ko'tara olmayapti-da...

- Xudo shifosini bersin, - dedim ko'nglim g'ash tortib.

- Hay... Hay... Hay... - Karimboy aka nadomat bilan bosh chayqadi. Keyin ko'zlari yoshlangancha qo'lini chap ko'ksiga qo'yarkan: - Mana shu yerim... tuz quyganday achishadiki... chidab bo'lmaydi, - dedi.

Bunday daqiqalarda tilimga tushov tushgandek gapira olmay qolaman. Durustroq taskin berish ham qo'limdan kelmaydi. Ichimni it tirnayotgan bo'lsa-da, o'zimni befarq ko'rsataman.

Qarshimda birdan bir yupanchidan judo bo'lib, hayoti chil-parchin bo'lgan, qayg'u nihoyatda abgor qilib tashlagan, bukchaygan jussasi lahza sayin kichrayib borayotganday, faromush bir kimsa turardi.

Aksiga olganday, o'sha kunlari Hakim Nazarich negadir ko'rinmay qoldi. Kimdir shikoyat qilib borgan, shekilli, bir kuni kechki vaqt hamma barakka to'plangan chog'i, Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Nimalar bo'lyapti bu yerda? Odamlarning tinchini buzayotgan to'polonchi qani? - dedi u xonaga ko'z yugurtirarkan. Hamma jim.

Karimboy aka gap nimadaligini fahmladi, shekilli, rangi bo'zday oqargan ko'yi asta o'rnidan turdi. Turdi-yu, yerga qaragancha indamay turaverdi.

- Nima bo'ldi? - deb so'radi Po'lat Damirovich latta-putta bilan o'rab tashlangan Alisherga imo qilib.

- Yiqilib tushdi...

- Yiqilib tushishiga kim aybdor? Birov itarib yubordimi?

- Hech kim... o'zi...

- Demak, bu ishda hech kim aybdor emas. To'g'rimi? Yoki... - ijkiladi Po'lat Damirovich. - Yoki shubhangiz bormi?

- Shubha yo'q... Kimdan shubha qilamiz? - dedi Karimboy aka sarosimalanib.

- Baxtsiz hodisa. Ehtiyotsizlik tufayli yuz bergan baxtsiz hodisa, shundaymi?

Karimboy aka allaqanday xavotirdan seskandi.

- Shundaymi? - takrorladi Po'lat Damirovich.

Karimboy aka bosh irg'adi.

- Demak, da'vo qilishga umuman haqingiz yo'qligini ham bilasiz?

Karimboy aka peshonasiga kaftini bosgancha indamay turaverdi.

- Nega javob bermayapsiz? - Po'lat Damirovichning ovozi o'zgardi.

- Uka...

- Men sizga uka emasman!

- Kechirasiz... Po'lat Damirovich... bizning hech kimga da'vomiz yo'q. Faqat o'g'limni davolatishga yordam bering, iltimos.

- Bu ish bilan Hakim Nazarichga murojaat qiling!

Po'lat Damirovich burildi, lekin shu zahoti yana Karimboy akaga yuzlanarkan:

- O'g'lingizni ogohlantirib qo'ying, agar yana dod-voy qilib, odamlarning tinchini buzadigan bo'lsa, shtab kazarmasiga oborib tashlaymiz! Tushudingizmi?! - dedi.

Karimboy akaning yuzi oqarib ketdi.

Po'lat Damirovich barakdan chiqdi.

Shayton qutqusiga uchgan kishilar to'plangan xonaga shu qadar dilgir sukunat cho'kdiki, beixtiyor yurak tars yorilib ketgudek.

Bir vaqt allakim oldimdan yugurib o'tdi va eshikka yaqin yerda devorga suyanib turgan kishi ustiga tashlandi.

- Sen borib chaqqansan, nomard! Endi ko'ngling joyiga tushdimi? Yo o'zim tushirib qo'yaymi?!

Yugurib o'tgan kishi Husan edi. Uning baquvvat qo'llari orasida tipirchilayotgan, ketma-ket tushayotgan tepkilar zarbiga chiday olmasdan baqirayotgan kimsa Karimboy akaga qo'shni nar egasi Alinazar ismli yigit edi.

- Men chaqqanim yo'q! O'lay agar, men chaqqanim yo'q! - deya ayyuhannos solardi u.

- Sen chaqqansan! Sendan boshqa hech kim emas! - derdi Husan uni tomog'idan g'ippa bo'g'ib olgancha. - Odamlarning puliniyam sen o'g'irlayapsan! Bilmaydi, deb o'ylayapsanmi?

- O'lay agar...

- O'lging kelayotgan bo'lsang, o'ldiraman! - quturib ketgan Husan kuchining boricha Alinazarni bo'g'a boshladi.

Sho'rlik chaqimchi nafas ololmay xirqirab qoldi.

- Hoy, musulmonlar! Nega jim turibsizlar? Axir, uni o'ldirib qo'ysa, boshimiz yana baloga qoladi-ku! - deya chinqirdi allakim.

Bir necha kishi Husanga yopirildi. Ammo Husan hech kimga kuch bermas, orakashlar qo'lidan tutsa, u oyoqlari bilan Alinazarni tepkilab qolar, juda bo'lmasa boshi bilan raqibining duch kelgan yeriga kalla solardi. Barak shaytonning janjalkash malaylari uyasiga aylangandi.

Endi aralashmaslikning iloji qolmagandi.

- Husan, bas qiling! - olomon orasini yorib o'tib Husanning qizarib-bo'g'riqib ketgan yuziga tarsaki tushirdim. Keyin uning qonga to'lgan ko'zlariga qattiq tikilgancha past, ammo qat'iy ohangda yana takrorladim: - Bas qiling, Husan!

Husan tutqanoq jazavasidan o'zini yo'qotib qo'yib, kutilmaganda hushiga kelgandek birdan qattiq seskandi. Menga yeb

yuborgudek, vahshiyona nazar tashladi. Bolalarnikiday beg'ubor ko'zlarini taniyolmay lol qoldim:

- Siz... - u meni birinchi marta ko'rayotgandek yuzimga tikildi.
- Tashqariga chiqaylik, Husan, - dedim ohista, keyin uning hamon titrayotgan bilagidan tutdim.
- Yo'q! - Husan shaxt bilan qo'lini tortib oldi va tashqariga otildi.

Men joyimga qaytdim.

Kimdir Alinazarni o'rnidan turg'azdi. Uning labi yorilgan, yuzi qonga bo'yalgandi.

Hamxonalarimiz endi unga ta'na toshlarini ota boshladilar:

- Hayf-e senga!
- Uyalmasdan shu ishni qildingmi?
- Erta bir kun o'zing shu ko'yga tushsang nima qilasan?
- O'margan pullaringni egalariga qaytar. Sening dastingdan necha kishi och qoldi!

Quloqlarimni bekitdim.

To'shagimga cho'zilib ko'zlarimni yumdim. Ammo sira uyqum kelmasdi.

Chiroq o'chdi. Xonani qorong'ilik chulg'adi. Allaqayerda musiqa yangradi. Zerikkan soqchilar gitarasini ting'irlatyapti chog'i.

Begona yurtning begona ohangi bo'lgani uchunmi, musiqa ko'nglimga yoqmadi, nazarimda, bu ohang deraza ortida pusib, tish qayrab turgan ajalning joduli nolasiday tuyildi. Beixtiyor deraza tomonga qaradim. Biznikiga o'xshamaydigan begona, sovuq va hissiz oyning xira yog'dusi ichkariga poyonoz bo'lib tushib turardi...

\* \* \*

Ertalab soqchilari hamrohligida Po'lat Damirovich yana barakda paydo bo'ldi. Undan sal avvalroq kirgan Matchonov bizni allaqachon safga turg'azib qo'ygandi.

- Siz nima uchun ishga chiqmayapsiz? - deb so'radi Po'lat Damirovich Karimboy akadan.

- O'g'lim...

- Nima o'g'lim?

- Unga qarayapman axir!

- Bunaqasi ketmaydi! Bilib qo'ying, barakda qolishga hech kimning haqi yo'q! Faqat nogironlargina qolishi mumkin.

- Men ishga chiqsam bolamning ahvoli nima bo'ladi?

- Oshpazlar qarab turishadi. Gapni ko'paytirishdan foyda yo'q. Hamma darhol ishga!

Karimboy aka yolveruvchi nigoh bilan atrofdagilarga nazar tashladi. Safdagilardan sado chiqmadi.

- Hakim Nazarich qachon keladilar? - deb so'rashga jur'at qildim men.

- Hakim Nazarich xizmat vazifasi bilan ketgan, qachon qaytishi noma'lum, - dedi Po'lat Damirovich meni birinchi marta ko'rayotgandek hayron bo'lib tikilarkan.

- Karimboy akaning o'rniga ishlab bermoqchimiz, u kishi o'g'lining yonida bo'la qolsin bir necha kun, - dedim yana biroz dadillanib.

Po'lat Damirovich kibrli nigohlari bilan meni boshdan-oyoq kuzatarkan, istehzo bilan so'radi:

- Shu jussangiz bilan ikki kishilik, yo'q, uch kishilik normani bajara olarmikinsiz?

- Puli to'lansa bo'ldi, har qanday ishni eplab ketaveramiz, - deya dangal javob berdim.

Po'lat Damirovich meni pul uchun o'zini tomdan tashlaydigan chapanilardan deb o'yladi chog'i yo diliga boshqa bir niyatni tugdimi, har qalay:

- Bo'pti, biz rozi, - dedi biroz yumshab.

Safdoshlarim hayratda, axir shu paytgacha hech kim Po'lat Damirovich bilan baqamti turib gaplasha olmasdi-da. "Undan allaqanday yovuzlik hidi keladi";, degandi Husan bir kuni Po'lat Damirovich haqida gapirarkan.

Yonimda turgan Nurali qo'limni siqib qo'ydi. Boshqalari ko'z qisib, iyak qoqib, o'z tabriklarini yo'llashdi.

- Faqat, - deya ortiga o'girildi Po'lat Damirovich eshik oldiga yetganida, - avval o'z normangizni, keyin ota-bolaning normasini bajarasiz. Har kunlik svodkani brigadir Matchonovdan shaxsan o'zim qabul qilaman!

- Xo'p bo'ladi, - deb javob berdim shu zahoti.

Po'lat Damirovich: "Bu qanaqangiB ";noyob"B telba ekan?"; - deya hayron bo'lganday, yuzimga qaray-qaray chiqib ketdi.

- Baraka toping, uka, - deya qo'limni siqdi Karimboy aka. - Yaxshiligingizni yaxshi kunlaringizda qaytaraylik.

- Alisher sog'ayib ketsa, bas, menga boshqa hech narsaning keragi yo'q.

- Alisher... Alisher... - degancha Karimboy aka o'g'lining yoniga ketdi.

Nurali bilan Husan yaqin kelishdi.

- Karimboy akaning ishini eplay olmaysiz, - dedi Nurali tashqariga chiqayotganimizda. - Lekin xavotirlanmang, biz yordam beramiz, a, Husan, to'g'rimi?

- Albatta.

- Karimboy akaga qiyin bo'ldi, - dedi Nurali. - O'zi yiqilib, mayib bo'lganidayam bunchalik qiynalmasdi.

- Ado bo'ldi, deyvering, - dedim.

Husan bo'layotgan gap-so'zlarga qo'shilmadan yerga qaragancha bizdan bir qadam oldinda ketib borardi.

Shunday qilib, umrim bino bo'lib, qo'l urmagan ishim - yog'och yo'nuvchilik kasbini o'rgana boshladim. Ish og'ir edi, qiynalardim, boshqalarga qaraganda ko'proq aziyat chekardim, ammo baribir ortga chekinmadim, shunga ahd qilgandim, nega deganda, ish haqi qancha to'lanishidan qat'i nazar - men bu haqda o'ylamay qo'ygandim hatto, - mehnat, faqat mehnatgina meni shayton uyasidagi tutqunlikda jonimga oro kirishi mumkin, degan xulosaga kelgandim. Aks holda, allaqachon telba bo'lib qolishim tayin edi.

Barakda yarim soatdan ortiq turib bo'lmasdi. Alisherning ahvoli og'irlashgan, isitmasi ko'tarilgan, og'riq kuchaygandi. Tez-tez hushdan ketib qolardi. Qadamboy og'a mallasoch ma'shuqasi orqali tinchlantiruvchi dorilar keltirib berganidan keyingina Alisher sal-pal o'ziga kelib qoldi.

- Arzimagan matah ekan-ku, shunga shunchalik zor bo'ldikmi? - derdi Karimboy aka tinchlantiruvchi dorilarga yoshli ko'zlarini tikkancha.

Biroq bu dorilarning ta'siri vaqtinchalik edi. Ma'lum muddat o'tganidan keyin Alisher yana bezovtalana boshlardi. Bir kuni



Karimboy aka yonidan bir dasta pul chiqarib:

- Qadamboy og'a, mana shu pullarning hammasiga tinchlantiruvchi dori opkeb bering, - deya yalindi.
- Ibi, muncha ko'p? - dedi Qadamboy og'a hayron bo'lib.
- Dorisi tugab qolsa, bolam yana bezovta bo'ladi...
- Mayli-ku-ya, lekin bu dorini hadeb yeyaverishdan foyda yo'q. Bu dori og'riq bo'layotgan yerni uxlatadi, xolos, davolamaydi!
- E, mayli, davolamasa ham mayli, og'riqni bildirmay tursa bo'lgani... - dedi Karimboy aka muztar ahvolda.
- Siz-chi, yaxshisi, Hakim Nazarich kelganlaridan keyin oldiga kiring, - deya aql o'rgata boshladi Qadamboy og'a qozilik qilish imkoni tug'ilganidan bag'oyat ruhlanib. - Bor gapni u kishiga ochiqchasiga aytg. Hakim Nazarich insofli odam. Bu yerdagilar orasida yakka-yu yagona insofli odam! U tushunadi ahvolingizni va ishonamanki, yordamini ayamaydi.
- Kelsin... kelganlaridan darrov oldilariga kiraman, - dedi Karimboy aka. - To'g'ri aytasiz, ahvolimizni u kishi tushunadi. Ungacha dori-pori bilan jon saqlab tursin, devdim-da.
- Dorini o'ylamang, pulini bersangiz bo'ldi, yerning ostidan bo'lsayam toptiraman. Bitta megajinga so'zimizni o'tkaza olmasak, erkak degan nomimiz qayoqda qoldi?
- Baraka toping, iloyim.

Karimboy aka bir necha kun avval Hakim Nazarichga uchrashgani haqida Qadamboy og'aga lom-mim demagani meni hayron qoldirdi.

Kunlar shu zaylda o'tardi.

Bu yerlarda qor tez-tez va mo'l-ko'l yog'ardi. Tumanli kunlar ko'p bo'lardi. Izg'irin, bo'ron... Sovuq kamida qirq besh-ellik daraja... Bunday ayovsiz qishni tushimda ham ko'rmagandim. Barakdagilar yoppasiga shamollay boshladilar. Tunni o'tkazish azob edi. Kimdir quv-quv yo'talgan, kimdir isitmadan alahlagan... Barak - kimsasiz orolga tushib qolib, hayotdan uzilgan, qarovsiz va tashlandiq kema misoli edi. Vaqt o'z mohiyatini yo'qotgandi...

\* \* \*

Alisherga dorilar ta'sir qilmay qo'ydi. Surunkali isitma va og'riq uning ozg'in vujudini tinimsiz larzaga solardi... Shamollash meni va Nurali bilan Husanni ham chetlab o'tmadi. Ammo biz yotib qolganimiz yo'q. Shamollashni spirt bilan davolab yubordik. Haqiqiy toza spirtni Husan topib keldi. Qayerdan, qanday qilib topganini u aytmadi, biz ham so'ramadik. Uyqu oldidan ozgina suv aralastirilgan spirtni sipqorardig-u, juldur ko'rpamizga o'ranib yotardik. Qarabsizki, ertalabgacha shamollashdan asar ham qolmaydi.

Bir kuni kechqurun ishdan qaytarkanmiz, hovlida yurgan ayollarga ko'zimiz tushdi. Ayollar ikkita edi. Biri oshxona eshigi oldida turardi, ikkinchisi kontora tomon ketib borardi. Orqavoratdan ikkalasi ham menga tanishday tuyildi.

- Yo tovba! - dedi Qadamboy og'a yoqasini ushlab. - Anovi xotinlar sizlarning ham ko'zingizga ko'rinyaptimi?!
- Ko'zingizga ko'rinyapti, - deya piching otdi allakim.

Hovliga dupur-dupur kirib kelgan erkaklarga ayollarning ham nazari tushdi.

- Nargiza?! - oshxona eshigi yonida turgan ayolni tanib ro'parasida to'xtadim.
- Kimsiz?! - ayol avvaliga qattiq seskanib, o'zini ichkariga oldi.
- Soch-soqolim o'sgan, rang-ro'yim bir ahvolda bo'lganidan Nargiza meni da'fatan tanimadi.
- Davronman... esingizdami?.. Poyezd... Sahroyilar...
- Iye... Voy o'lay... - Nargiza yuzimga sinchkov nazar tashladi. - O'sha Davronmisiz chindanam?..
- Chindanam o'sha Davronman, - dedim kulib.
- Yo tovba, ko'zlarimga ishonmayapman! O'rtog'ingiz qani? Ismi Safaralimidi?
- Bilmayman... O'zingiz bu yerda nima qilib yuribsiz?
- E... - Nargiza to'lib turgan ekan, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. - Keyin... aytib beraman...

Shu vaqt ortimdan:

- Nimani keyin aytib berasan? - degan tanish ovoz eshitildi.
- O'girildim. Ro'paramda Sanobar turardi.
- Davron! - u meni shu zahoti tanidi. Yaqin kelib eski tanishlardek qo'l berib ko'rishdi.
- Sheriklarim ang-tang bo'lib qolishdi.

\* \* \*

Nargiza bilan Sanobarning qismati ham biznikiga o'xshashroq. Ular pul solingan sumkachalarini o'g'irlatib qo'yishgan. Sumkachada pul bilan birga hujjatlari ham bo'lgan ekan. Shu yerlik tanishlari Olesyadan yordam so'rash uchun borayotganlarida qo'lga tushib qolishgan...

- Nima bo'lgandayam sizni uchratganimiz yaxshi bo'ldi, - dedi Nargiza. - Har qalay, ko'z tanish bo'lgani yaxshi-da.
- Qayerga kelib qoldik o'zi? O'lay agar, aqlim yetmayapti, - dedi Sanobar.
- Ayollar ancha-muncha qiynalishgan chog'i, rang-ro'ylari bir ahvolda edi. Meni uchratganlaridan ular xursand edi. Mening esa kayfiyatim buzildi.
- Birimiz oshpazlik qilarkanmiz, birimiz kir yuvarkanmiz, - dedi Sanobar burnini jiyirib. Keyin Nargizaga qarab: - Ko'rdingmi, anovi oyimchani atay o'zining yoniga olib qoldi, - dedi.
- Atay olib qolgani yo'q, shekilli, - dedi Nargiza.
- Atay qilgan bo'lmasa, nega uniyam bizga qo'shib qo'ymadi?! - dedi Sanobar o'jarlik bilan.
- Do'xtir do'xtirlik qiladi-da!
- Kim haqda gaplashyapsizlar o'zi? - deya ayollarning bahsiga aralashdim.
- Bu vaqtda biz - eski tanishlar oshxonada suhbatlashib o'tirardik.
- Hakim Nazarich degan kishi yaxshi odammi yo... - Sanobar shubhali nazar bilan qaradi.
- Hech narsaga tushunmayapman, o'lay agar!
- ... yo anaqa erkaklardanmi? - Sanobar ko'zlarini ola-kula qildi.
- Hozircha bir narsa deya olmayman, - dedim rostiga ko'chib.
- O'shanaqalardan bo'lsa anovining sho'ri quridi, - dedi Sanobar. - Ja, o'zini tutishi boshqacha edi-da. Battar bo'lsin!

Toqatim toq bo'ldi, ammo nachora, ayollarga bas kelib bo'larmidi, ayniqsa, qalbini hasad junbushga keltirgan bir vaqtda...

- Ha, haqiqatan ham yuragi katta juvon ekan, - dedi Nargiza yuragimni qizdirayotgan qiziqish oloviga moy sepgandek. - Birortasi shilqimlik qilib tashlanib qolmasaydi, deb biz ikkimiz yurak hovuchlab turibmiz, u bo'lsa qilt etmaydi-ya! Xuddi otasining chorbog'ida yurganday...

- Kimni gapiryapsizlar o'zi? - deb yubordim oxiri.

Xuddi shu vaqt oshxona eshigi sekin g'iyqillab ochildi. Va... Va ostonada... Yo'q, eng avval oppoq manglay... har tolasidan uchqun sachrayotgandek qop-qora, silliq sochlar... kamon qoshlar ostida butun dunyoni o'zida mujassam etgan dengizdek sokin va tubsiz bir juft qora ko'z yangi paydo bo'lgan yulduz misol "yarq"; etib ko'zga tashlandi. Keyin yoqasi ko'tarilgan odmi qora palCBto, uchi ingichka etik kiygan, benihoya sohibjamolligidan tashqari, nimasi bilandir bir qarashdayoq odamni o'ziga tortadigan navnihol ayol xonaga kirdi.

- Keling, Gulruh, - iltifot ila uni qarshi oldi Nargiza.

Ayol unga nimadir dedi. Men uning ovozi eshitdim, ammo so'zlarini ilg'ay olmadim. Nazarimda, xona kengayib, ulkan yalanglikka aylanib qolganday, anchadan buyon dilgir ko'nglim bexosdan yorishib ketganday bo'ldi. Ayolning ovozi shu qadar mayin va yoqimli ediki...

Qulog'imda qolgani shu.

Keyin ayol ketdi. Eshik yopildi. U xonaga kirgan chog'ida ham, ketar chog'ida ham men tomonga qaramadi. Ro'paradagi derazadan uning qordagi soyasiga ko'zim tushdi.

- Mana shu juvon haqida gapirayotgandim-da, - dedi Sanobar. - Ismi Gulruh...

- U ham sizlar bilanmidi? - so'radim undan.

- Birinchi marta uchastkavoyning xonasida uchratgandik. Keyin bitta kamerada bo'ldik. Shunda yaxshiroq tanishib oldik, - dedi Sanobar yana.

- O'zi sodda, kamsuqum ko'ringani bilan judayam dovyurak ekan, - deya gap qo'shdi Nargiza. - Uchastkovoy bilan gaplashganini bir ko'rsangiz edi! Hakim Nazarich bilan ham tap tortmasdan gaplashib keldi bu yerga kela-kelguncha...

- Savdoda yuraverib yuzi qotib ketgan-da, - dedim birdan qalbmni mubham kayfiyat chulg'ab olganini his etarkanman.

- Qayoqda! Bechoraning birinchi marta chiqishi ekan.

- Yolg'iz o'zi-ya?!

- Bizam shunisiga besh ketdik-da, - dedi Sanobar bozorchi ayollarga xos shartakilik bilan.

Sinchkovligim g'olib keldi. Gulruh haqida yana nimalarnidir bilib olish istagida gap kovladim:

- Tirikchilik toshdan qattiq deganlari shu-da. Yoshgina juvon bola-chaqam deb o'zini bozorga urgan, shekilli?..

- Ajrashgan, - deya gapni ilib ketdi Nargiza shu zahoti. - Oilasi yo'q o'zining. Kelin bo'lib tushgan joyi nochor ekan, oilani sal o'nglab olay, keyin farzand ko'rarmiz, deb bu bechora ishlab yuravergan, u yoqda eri boshqasi bilan...

- Tavba qildim, shu erkaklarga ham hayronman, - Nargizaning og'zidagi gapni yulib oldi Sanobar. - O'zi bir pulga qimmat bo'lsayam xotin zotiga past nazar bilan qaraydi-ya! Bitta xotinni eplab boqolmaydi-yu, boshqasiga ko'ngli sust ketganiga o'laymi?!

Mana, meni aytdi dersizlar, mana shu juvonning eri o'ziga umuman mos bo'lmagan! Aqlli erkak bo'lganida bu juvonni go'zalligi uchun ham boshiga ko'targan bo'lardi. To'g'rimi, to'g'rimi gapim? - Sanobar qizg'inlik bilan menga tikildi.

- Masalaning mohiyatini bilmay turib bir nima deyish qiyin, - deya mujmal javob qildim.

- Chiroyli ayollar baxtsiz bo'lishadi, deganlari rost, - deya gapini davom ettirdi Nargiza. - Endi bechora o'lgan akasining bolalarini boqish uchun tentirab yuribdi.

- Aytganча, nega u sizlar bilan emas?

- Asli kasbi hamshiralik ekan. Shuning uchun Hakim Nazarich uni kontorada olib qoldi. Alohida xona qilib berarmish. Kasal bo'lsalaringiz endi bemalol Gulruhning oldiga boraverasizlar. Biz...

- Voy-voy-ey, yuragim siqilib ketdi, bo'ldi, o'sha juvon haqida gapiravermang, - deya Nargizaning gapini cho'rt kesdi Sanobar. - O'zimiz haqimizda gaplashaylik. Menga qarang, Davron, siz anchadan buyon shu yerdamisiz?

- Nimaydi?

- Anavi Hakim Nazarich deganlaringiz, bu yerda ishlaganlaringiz uchun haq to'laymiz, dedi. Shu gap rostmi?

- Rost, shekilli. Uch-to'rt kundan keyin kontoraga chaqirib choychaqa beradi...

- Choychaqani biz allaqachon olib bo'ldik!

- Nahotki?

- Siz ayollar pulning yuzini ko'rmasangiz topshirilgan ishni ko'ngildagiday bajarmaysizlar, deb qo'limizga pul berdi o'sha Hakim Nazarich...

- E-ha...

- Qolganini adres bo'yicha uylaringga yuboramiz, dedi. Shu gap rostmi? - Sanobar ham, Nargiza ham ishonqiramaganday qarab turishardi.

- Bizga ham shunday deyishgan.

- Hammalaringizgami? - beixtiyor jo'r ovozdа so'radi ikkala ayol.

- Hammaga.

- Ha-a, - dedi Sanobar ko'nglida qoniqish tuyib. - Hammalaringizga shunday degan bo'lsa, bu gapga ishonsa bo'ladi. Axir, shuncha odamni aldab bo'lmaydi.

"Nega aldab bo'lmaydi?"; - deb yuborishimga sal qoldi. Ayollar bilan xayrlashib tashqariga chiqdim.

Qor uchqunlardi...

Barakda allaqanday jonlanish yuz berdi. Pala-partish, janjalkash, so'kong'ichu juldurvoqi erkaklar galasi favqulodda hodisa yuz bergandek kutilmaganda to'satdan o'zgarib qolishdi. Ustara nimaligini unutib yuborgan yonoqlarga ustara tegdi. O'rin-to'shak har kuni ertalab yig'ilib, kechasi yoziladigan bo'ldi.

Shaxsan men barakda ayol deb atalmish zot paydo bo'lganini dastlabki kungi kechki ovqatning ta'mi xushxo'rligidan bildim.

Odatdagiday, karam sho'rva edi, lekin u har kungidan butunlay boshqacha edi. Anchadan buyon ishtaha bilan ovqatlanmagandim, axir.

Nargiza osh-ovqatning ustasi, haqiqiy pazanda edi.

Sanobar vaysaqiroq xotin edi-yu, ammo o'ziga topshirilgan ishni sidqidildan bajarardi. Uning sharofati bilan irkit va juldurvoqi

ishchilarning engil-boshiga son kirdi. Sanobar kirni qor suviga yuvaradi. Bundan tashqari, u barakni ham tozalab, supurib-sidirib qo'yardi.

Bir kuni uning yo'l ustida Hakim Nazarichdan:

- Barakni tozalab turganim uchun ham ish haqi yozasizmi? - deb so'rayotganini eshitib qoldim.

- Albatta. Kak shtik! - deya javob berdi Hakim Nazarich.

- Xo'p desangiz, kontorangizniyam tozalab berardim.

- Hojati yo'q.

Mutlaqo kutilmagan, favqulodda hodisa ertasi kuni Gulruh barakka kirib kelgan kuni yuz berdi. Mendan boshqa deyarli hamma Gulruh haqida bilmasdi-da.

Uni Hakim Nazarich barakka boshlab kelgandi.

- Bugundan e'tiboran "kontora"; qoshida medpunkt ish boshladi. Kimki tibbiy yordamga muhtoj bo'lsa, bemalol murojaat etishi mumkin. Gulruh tajribali hamshira. O'ylaymanki, barcha savollaringizga undan javob olasiz...

Hakim Nazarich yana allanimalar haqida so'zlashdi, ammo aminmanki, hech kim uning gaplarini eshitmadi hisob. Deyarli ellik-oltmish chog'li kishining ochko'z nazari Gulruhga qadalgandi. Rostini aytsam, o'zim ham undan ko'z uzolmay qolgandim. Yo'q, bu inson farzandi emas, farishtalardan bunyod bo'lgan maloika edi!

- Savollar bormi? - murojaat qildi Hakim Nazarich barakdagilarga.

Daf'atan hech kimdan sado chiqmadi. Barak suv quygandek jimjit edi. Bir mahal allakimni qattiq va to'xtovsiz yo'tal tutib qoldiyu, sukunatga darz ketdi. G'ala-g'ovur qo'pdi.

- Bolamni hoziroq olib o'tsam bo'ladimi?..

- Yo'talga qarshi dori bormi?

- Kasallarga spravka beriladimi?

Pala-partish, to'xtovsiz savollar yomg'iri yog'ildi.

Gulruh shoshmasdan, aniq va sodda qilib savollarga javob bera boshladi. U so'zlar ekan, kipriklari asta-sekin ko'tarilib, sokin nigohlari xona uzra kezindi. Qarashlari nihoyatda muloyim edi.

Pirovardida u menga tikilib qolganday tuyildi. Seskanib ketib, yerga qaradim.

Shu vaqt Husan shartta bilagimdan tutib:

- Yuring, unga kaftingizni ko'rsatamiz, - deb qoldi.

Shosha-pisha qo'limni tortib olarkanman:

- Boring-e! Nimalar deyaapsiz?! - dedim shivirlab.

- Axir kaftingizni... bolta yalab ketgandi-ku!

- Allaqachon bitib ketgan, - deya yolg'on so'zladim.

Bir necha kun ilgari yog'och yo'nish chog'ida uquvsizligim tufayli boltaning o'tkir yuzi chap kaftimni yalab ketgandi. Spirt bilan tozalab, artib, gazak oldirib qo'ymaslik uchun latta-puttalar bilan bog'lab yurgandim.

- Aldayapsiz, - dedi Husan shu chog'. - Jarohatingiz yiringlab ketganiga ko'zim tushgandi.

- Nega menga tirg'alib qoldingiz?!

- Jonon bilan ikki og'iz gaplashish sharafiga muyassar bo'lish ilinjida edim.

- Borib gaplashavering, buning hech qiyin yeri yo'q-ku.

- Biror bahona bo'lganida...

Nurali Husanning yelkasiga qo'l tashlarkan:

- Qo'ya qol, og'ayni, u seni gap bilan o'tqazib qo'yadi, - deya popugini pasaytirdi. - Ko'rmayapsizmi, o'ziga juda ishongan ayolga o'xshaydi.

Husan indamay qoldi.

Nuralining gapida jon bor. Axir badjahl va serzarda ekanliklari ochofat qashqirning ko'zlariday chaqchaygan nigohlaridan yaqqol sezilib turgan ellik-oltmish chog'li kishi qarshisida hadiksirayotganini bildirmasdan, xotirjam va ulug'vor qiyofada turishning

o'ziyoq hammaning qo'lidan kelavermaydigan ish-ku!

Qiziqishim ortdi.

Shu payt barakka soqchilari hamrohligida Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Iye, siz bu yerdamingiz? - u Hakim Nazarichga murojaat qilardi-yu, ikki ko'zi Gulruhda edi.

- Hamshirani ishchilarga tanishtirayotgandim. Mana, yig'inimiz ham tugab qoldi. Ketdikmi, Gulruh Qosimovna? - Hakim Nazarich shoshilganicha Gulruhni tashqariga boshladi.

Eshik yopilguncha Po'lat Damirovich ularning ortidan qarab qoldi...

Ikki kundan keyin barakda yana bir kishi paydo bo'ldi. Bu Kamoliddin edi. Ikki qo'li, ikki oyog'i yo'q, maxsus aravachada o'tirgan yoshgina yigit... yigitning... g'o'ladan farqi yo'q edi. Tilli-jag'li g'o'la...

- Mehnatkashlarga shon-sharaflar bo'lsin! - deya shang'illaganicha kirib keldi u kechki payt.

U bilan yaxshiroq tanish bo'lgan bir necha kishi istiqboliga chiqib, hol-ahvol so'rashishdi. Unga parvo qilmasdan to'shagida yotganlar ham bor edi. Kamoliddin ularning e'tiborsizligidan og'rinmadi, aravachasini "g'iyq-g'iyq"; qilganicha har bir kishining oldiga borib astoydil so'rashib chiqdi.

- Sizni qayerdadir ko'rganman, lekin eslolmayapman, - dedi u mening qarshimda to'xtab.

- Dunyo tor, - deya kulimsiradim.

- Ha, dunyo tor, - dedi Kamoliddin gapimni ma'qullab. Keyin yuzimga sinchiklab tikilarkan: - Hozir bu kishining kim ekanligini aytib beraman! - dedi baland ovozda. - Hey, barakdagilar, eshityapsizlarmi?! Bu kishi... Bu kishi... Bu kishi... rassom bo'lmasa-da, shunga yaqinroq birorta san'atga yaqin kishi. Men bir qarashdayoq payqadim buni. Shundaymi? Javob bering, shundaymi?!

Shovqin-suron ko'tarib, baland ovozda gapirayotgan Kamoliddinning aksi o'laroq bosiq-vazminlik bilan:

- Yanglishdingiz, - dedim.

Kamoliddin hayrat bilan yuzimga tikildi.

- Nahotki? Nahotki men yanglishgan bo'lsam? Men-a?!

- Ha.

Shunday dedim-u, o'rnimdan turib tashqariga chiqdim. Gapirayotgan "g'o'la";ga qarash og'ir edi.

- Davron.

Oshxona derazasidan boshini chiqarib gapirayotgan Nargiza edi. Beixtiyor shu tomonga yurdim.

- Siz uchun ozgina go'sht qovurib qo'ygandim, yeb oling, - Nargiza stol ustiga likopcha qo'ydi.

- Qanday bo'larkin...

- O'ylanmang, qani, oling, tez-tez yeb oling, - Nargiza qarshimga o'tirib olib, qistay boshladi.

- Sanobar ko'rinmaydimi?

- Gulruhga yordamlashgani ketdi. Qanaqadir idishlarini qaynatish kerak ekanmi-ey. Davron, bu yog'i nima bo'ladi endi?

- Nima bo'lardi...

- Bizni qo'yib yuborisharmikin?

- To'g'risini aytsam, bilmayman.

- Uydagilarning holi ne kechdiykin? - Nargizaning ko'zlari g'iltilladi.

- O'zingizni o'ylasangiz-chi!

- Uyga bir og'iz xabar yetkazishning iloji yo'qmikin?

- Yo'q.

- Nima, shunaqa qilib yuraveramizmi?

- Ha.

- Hazillashmayapsizmi?

- Hazilning o'rni emasligi ko'rinib turibdi-ku.

- Voy xudoyim! Qanday kunlarga qoldim?.. Shu yerda bir umr qolib ketsak-a? - dahshat ichida tikildi Nargiza.

- ...

- Davron, qochishning iloji yo'qmikin? - ovozini pasaytirib so'radi Nargiza.

- Hamma yoqqa soqchi qo'yib tashlangan-u...

Nargiza likopchani oldimga yanada yaqinroq surib qo'yarkan:

- Mabodo biror ish qilsangiz... men bexabar qolmayin-a? Xo'pmi, iltimos. Bilasizmi, - deya Nargiza oldinga engashib, ovozini yanada pasaytirdi, - anovi Sanobar ancha tullak xotin ekan. Hakim Nazarichga uning xushomad qilganlarini bir ko'rsangiz edi! U yoqqa o'tsayam ketidan yuguradi, bu yoqqa o'tsayam! O'sha Hakim Nazarich Gulruhga yordamlashib turing, degani uchun ham mana hozir medpunktga ivirsib yuribdi.

- Yordam?!

- Ha, yordam. Nega hayron bo'lyapsiz?

- Hayron bo'layotganim yo'q.

- Kunduzi bu yerda bo'lmaysiz-da, ko'p narsalardan bexabar qolyapsiz.

- Sanobarning niyati ko'proq pul ishlash.

- Sanobarni aytayotganim yo'q. Mayli, u jonini jabborga berib ishlayversin. Menga mana shu oshxonaning o'zi yetadi. Ertalabki ishlarimni bajarib bo'lganimdan keyin anovi deraza oldiga tubaretka qo'yvolib, tashqariga tikilib o'tiraman. Avval Po'lat Damirovich degani medpunktga kiradi. Kiradi-yu, ko'p o'tmasdan chiqib ketadi. Zum o'tmasdan Hakim Nazarich deganlari xonasidan chiqib eshik oldida turgancha u yoq-bu yoqni kuzatgan bo'ladi-da, yana ichkariga kirib ketadi. Tushlikdan keyin Po'lat Damirovich deganlari yana medpunktga kirib ketadi. Bu safar darrov qaytib chiqmaydi. Biror o'n daqiqa chamasi o'tadi. Shu vaqt orasida Hakim Nazarich uch-to'rt martalab tashqariga chiqadi-kiradi, kiradi-chiqadi. Sezishimcha, ikkalasiyam xotinboz!

- Uch kun ichida shuncha axborot to'plabsiz-a.

- Bunaqa ishlarni payqash uchun uch kun emas, bir qarashning o'zi kifoya. Chiroyli xotinga erkaklar darrov qopqon qo'yishadi-da!

- Mayli, men bora qolay.

- O'tiring birpas.

- Charchaganman, dam olsam degandim.

- Aytganday, oyog'i singan yigitni medpunktga olib o'tishibdi-a?

- Ha. Darvoqe, o'sha bechoradan bir xabar olishim kerak. Eslatganingiz yaxshi bo'ldi. Yaxshi dam oling.

Tashqarida sayr qilish niyatim bor edi. Lekin havo shu qadar sovuq ediki, chidab bo'lmasdi. Shunday sovuqda ikkinchi smenada ishlayotganlarning joniga to'zim bersin. Pul nimalarga qodir! Ammo odamzodning yerdan bosh ko'tarmay qo'ygani alamli-da.

Barak tomon yurdim.

Alisherni medpunktga olib o'tishganidan buyon xona tinchib qolgan, kechalari bemalol uxlayotgandik.

Kirib borishim bilan "gur"; kulgi ko'tarildi.

To'rt-besh kishi yig'ilib olib latifa eshitayotgan ekan. Latifago'y Kamoliddin...

- Davron, keling, siz uchun yap-yangisidan aytib beraman, - dedi Kamoliddin.

- Rahmat.

- Keling endi!

- Charchaganman!

To'shagimga cho'zildim.

Negadir yuragim siqilardi. Nargiza... Sanobar... Betoqat Hakim Nazarich... Po'lat Damirovich... anovi gapirayotgan "g'o'la..."; va yana...

Kechasi bilan chap qo'lim zirqirab chiqdi.

Ertalab ishga ketdim.

Ammo ishlay olmadim. Chap qo'lim yelkamga dovur zirqirab og'rirdi. Mening o'rnimga ham Husan ishladi.

Kechqurun hamma ovqatga o'tirgan vaqtda men medpunktga yo'l oldim. Eshik oldida Po'lat Damirovichga duch keldim. U bilagiga barmog'ini bosgancha chiqib ketayotgandi. "Lop"; etib ko'z oldimga Nargiza keldi: "Ayollar g'irt vahimachi bo'lishadi-da";

- Mumkinmi?

- Keling, - jilmayib qarshi oldi Gulruh.

"Hammani shunday kutib olarmikin?";

- Kaftim... umuman, qo'lim ikki kundan buyon lo'qillab og'riyapti, - dedim lattaga o'ralgan qo'limni oldinga cho'zib.

- Nega og'rir ekan?

Gulruh shunday degancha qo'limdagi lattani tuxum po'chog'ini archiganday tez-tez yechib ola boshladi. Lattaning oxirgi qismi kaftimga yopishib qolgan ekan, ko'chirib olish qiyin bo'ldi.

- Biroz og'riydi, chidaysiz-da, - dedi Gulruh muloyimlik bilan. Keyin kichkinagina shishadagi qanaqadir suyuqlikni kaftimga surdi. - Besh daqiqa kutamiz. Anavi yerga o'tiraqoling.

- Xo'p, - Gulruh ko'rsatgan stulga o'tirdim.

Besh daqiqa kutish kerak edi...

Shishalar va yana allambalolar terib qo'yilgan stolning naryog'ida Gulruh qandaydir dori tayyorlayapti. Unga tikilib qarashga jur'atim yetmadi. Xonani ko'zdan kechirdim. Xona kattagina, yorug' va ozoda edi. O'ng tomonda yonma-yon qo'yilgan oynavand javon ichida har xil dori-darmonlar terib qo'yilgan. To'r tomon parda bilan to'silgan. Deraza tomonda allaqanday kumush idishlar turardi.

- Anchadan buyon shu yerdamisiz?

- A?

- Anchadan buyon shu yerdamisiz, deb so'ragandim, - Gulruh stolni aylanib o'tib qarshimda to'xtadi. - Qani, qo'lingizni bering-chi.

- Bir oydan oshdi kelganimga.

- Ishlagani kelganlardanmisiz yoki...

- ... yoki adashib, deng.

- Ha, menga o'xshab, - kuldi Gulruh.

- Menimcha, hamma adashganlar shu yerda, shekilli.

- Biznesmenmisiz?

- Shunaqaroq...

- Siz biznesmandan ko'ra ilm bilan shug'ullanadigan kishilarga o'xshaysiz.

- Peshonamda birorta yozuv o'qimadingizmi mabodo?

- Peshonangizda o'qimadim-u, lekin kaftingizga qarab aytdim-da. Jismoniy og'ir mehnat qiladigan kishilarning qo'li boshqa, qog'oz-qalam bilan ishlaydiganlarning qo'li boshqa bo'ladi.

- Hozir mardikordan farqimiz qolmadi.

- Shunday deysiz-u, bu baribir sezilib turadi. Eh-he! - deb yubordi Gulruh birdan yopishib qolgan latta parchalarini ko'chirib olib jarohatimga tikilgan. - Yana lo'qillab og'riydi, deysiz-a? Shunchalik bo'ladi-yu, og'rimsinmi?!

- Ishga chiqsam bo'ladimi?

- Yo'q. Hozir yaxshilab tozalab, dori qo'yaman. Ikki-uch kun ishga chiqmaysiz. Qo'rqmang, spravka yozib beraman.

- Gap spravkada emas. Nima, kun bo'yi barakda o'tiramanmi?

- Dam olasiz.

- E! Shu agar dam olish bo'lsa!..

Gulruh quyuq kipriklarini pipiratgan. Yuzimga tikilib turdi-da:

- To'g'ri aytasiz, - dedi. - Ish bilan vaqtning ko'zini o'ymasangiz, bu yerda jinni bo'lib qolish hech gapmas.

Gulruhga tikilib qoldim. U aynan ko'nglimdagi gapni gapirgandi.

- Mayli, ishga chiqaversiz, lekin har kuni ertalab va kechqurun perevyazkaga kelib turasiz, xo'pmi? - dedi Gulruh qo'limni bint bilan o'rarkan.

- Aytgan. Oyog'i singan yigitning ahvoli qanday? Uni shu yerga yotqizdinglarmi?

- Alisher uxlayapti. Ana, parda orqasida.

- O'tsam maylimi?

- Mayli.

Havorang parda ortida jips qilib qo'yilgan uch-to'rt karavotdan birida Alisher uxlab yotardi. Tabib qo'li tekkanligi sezilib turibdi, rang-boshi toza, ancha o'ziga kelib qolgan, pishillab uxlarida bola bechora.

- Uyg'onganida kelganimni aytib qo'yarsiz, - dedim eshik tomon yurarkanman.

- Kim keldi, dey?

- Davron akang, desangiz bas. Umuman, ahvoli yaxshimi o'zi?

- Hozircha bir nima deya olmayman.

- Xo'p, xayr, yaxshi dam oling.

- Xayr.

Hovliga chiqdim-u, o'zimning "yo'lkam"; bo'ylab yurib ketdim. Osmonda oy barkashdek osilib turar, yulduzlar charaqlar, havo baribir sovuq edi.

Vujudimni allaqanday parisonlik, armon va g'am-g'ussa chulg'ab oldi. O'zimni yolg'iz va nochor his eta boshladim.

Yo'lkada Husanga duch keldim. U ham po'stinining cho'ntaklariga qo'lini solgan. Aylanib yurardi.

- Bugun qanaqa kun, Husan? - deb so'radim undan.

- To'g'risi, bilmayman... Menimcha, yakshanba bo'lsa kerak.

- Avvallari yakshanba kunlarini o'tkazishim qiyin bo'lardi.

- Ishga o'rganib qolganingiz uchun-da.

- Bu yerda-chi? Bu yerda nima xalaqit beryapti?

Husan chuqur xo'rsindi. Keyin:

- Xalaqit beradigan narsa ko'p. Lekin men bu haqda o'ylamaslikka harakat qilaman. Kun tugayotganiga xursand bo'laman, - dedi.

- Men ham...

- Yana biroz aylanamizmi?

- Yo'q. Barakka qaytaman. Bugun negadir shashtim pastroq.

- Bo'p turadi.

Husan yo'lkada qoldi.

Men barakka yo'l oldim.

Hovli tepasida koptokday oppoq oy osilib turardi. Birozdan keyin sovuq shamol turdi...

Odatdagidan erta uyg'onib barakdan chiqdim.

Zo'raygan shamol tunni oldiga solib quva boshlagan, osmonning bir cheti oqarinqirab turardi.

Medpunkt chirog'i yoniq edi. Eshikni qiya ochib ichkariga bosh suqdim.

- Salom.

- Keling. Qo'lingiz qalay?

- Bir nav.

- Qani-i... - Gulruh bintni yechib kaftimni ko'zdan kechirdi. - Yaxshi. Ikki-uch kun dori surib tursak ancha durust bo'lib qoladi.

Gulruh dori va bint olish uchun javon sari yurdi. Shu vaqt xonaga Po'lat Damirovich shaxd bilan kirib keldi.

- Bu yerda nima qilyapsiz? - deb so'radi u xo'mraygancha mendan.

- Qo'limni davolatgani keldim.

Po'lat Damirovich o'zini gapimni eshitmaganday tutib bo'sh stulga borib o'tirdi. Oyoqlarini chalishtirgancha Gulruhga qaradi.

- Xayrli kun, Gulruh xonim! - dedi u allaqanday kinoyali ohangda.

- Xayrli kun, - javob berdi Gulruh mutlaqo jiddiy tarzda.

- Bemoringizning jarohati jiddiymi yoki shunchaki bahonami?..

- Jiddiy.

Gulruhning gul yaprog'iday nafis yuzi qizarinqiragan, demak, kinoyali ohangni payqagan, lekin hech narsa bo'lmaganday, o'ziga qattiq tikilib, har bir xatti-harakatini oshkora kuzatayotgan Po'lat Damirovich go'yo bu xonada yo'qday, o'zini erkin tutgancha jarohatimni tozaladi, malham surib bog'ladi. Keyin:

- Kechqurun yana kirib o'tishni unutmang, - deb tayinladi.

- Kechqurun kelish shart emasdir. Arzimagan yara ekan-ku! - dedi Po'lat Damirovich, ovozidan allaqanday g'arazning hidi kelardi.

- Kelishi shart, - dedi Gulruh qat'iy ohangda.

- Nima zarur sizga! Shunaqasi daf bo'lavermaydimi?!

Gulruh nimadir deganday bo'ldi. Lekin men eshitmadim. Tashqariga chiqib qo'ygandim allaqachon.

Hovlida Karimboy aka va yana besh-olti kishiga duch keldim. Ular medpunktga borishayotgan edi. Bular orasida Asliddin degan yigit e'tiborimni tortdi.

- Siz ham kasalmisiz? - deb so'radim undan atay.

- Iye, hali xabaringiz yo'qmi? - dedi u yurishdan to'xtab.

- Aftingiz kasalga o'xshamayapti-da.

- Kasalimiz ichimizda, ichimizda, - deganicha Asliddin yo'lga ravona bo'ldi.

O'ttiz beshlarga borgan, ko'zlari o'ynab turuvchi bu yigitni yoqtirmasdim. Birinchidan, chaqirilmagan mehmonday duch kelgan davraga suqilib ketaverardi. Ikkinchidan, yengil tabiatligi shundoq yuz-ko'zidan aniq-taniq aks etib turardi. Uchinchidan, o'tgan yili sotuvchi ayollardan biriga dabdurustdan tashlanib qolganini eshitgandim. To'rtinchidan... darvoqe, nega unga tirg'alib qoldim? Nonushta qilish uchun yemakxonaga burildim. Lekin ishtaham yo'q edi. Bir chashka qaynoq choy ichdim-u, ishga jo'nash tadorigini ko'rdim.

Shamol yanada zo'raygan, qorning kumush zarralarini uchirardi.

Ish vaqtida Husan bilan gurunglashmoqchi bo'lib yoniga o'tdim. Lekin uning gaplashgisi kelmayotganini, mashqi pastligini payqab ortimga qaytdim. Husan allaqanday o'ychan, odamovi bo'lib qolgandi.

Kechga borib shamol bo'ronga aylandi.

Ikkinchi smenaga hech kim chiqa olmadi. Buning ustiga, chiroq o'chib qoldi. Faqat ikkitagina sham lipillab yonib turgan xona nimqorong'i edi. Bo'ron uchirayotgan qor uchqunlari deraza oynalariga chirs-chirs urilardi.

O'shanda bo'ron bir kechab" kunduz xuruj qildi. Ishga borish tugul tashqariga chiqishning iloji bo'lmay qoldi. Chunki qor uyumlari uylarning derazalariga qadar ko'tarilgan, yurib bo'lmasdi. Nihoyat ko'plashib bir amallab eshik ochib tashqariga chiqqanimizda bo'ron tingan, quyosh charaqlab turardi.

Bo'ron turgan oqshom "kontora";da Hakim Nazarich navbatchi edi. Odatda, ular Po'lat Damirovich ikkisi galma-galdan navbatchilik qilishardi-da. Navbati o'tgan kishi ertalab uyiga jo'nardi. To ertasi kuni ertalabgacha uning qorasi ko'rinmasdi. Shu kuni ertalab Hakim Nazarich ham uyiga ketishi kerak edi. Lekin u bunday qilmadi. Olti-etti chog'li kishini barakda olib qolib, qo'llariga kurak tutdi.

- Tushlikkacha qordan asar ham qolmasin, - dedi u qor uyumlarini ko'rsatib.

Boshqalar ishga ketishdi.

Qor kurovchilar orasida men ham bor edim. Kaftimdagi jarohatim hali yaxshi bitmagani uchun kurakni tutishga xalaqit berardi. Shunday bo'lsa-da, indamasdan, jon-jahdim bilan qor kurashga kirishdim.

Azaldan qor kurashni yaxshi ko'rardim. Kechga borib qo'lim ishdan chiqqan hisob, tuz quyganday achishib og'riyotgan kaftimga qarab bo'lmasdi. Jarohatim tez tuzalayotganidan xavotirda edim. Mana endi yana ancha kun medpunktga qatnash imkoni bor...

Kechqurun hammadan keyin oshxonaga kirdim.

Nargiza yig'lab o'tirardi.

- Nima bo'ldi?

Nargiza battar ho'ngradi. Uning o'rniga Sanobar javob berdi:

- E o'lsin! Anovi qirchang'i xachirlaringizdan bittasi tegajoqlik qilibdi-da. Shunga xafa bo'lib yig'layapti. Yig'lash o'rniga boplab ta'zirini berish kerak edi!

- O'sha qirchang'ining ismi nima ekan?

- Asliddinmi, nima edi? - Sanobar Nargizaga yuzlandi.

Nargiza o'pkasini tutolmay yig'larkan, yig'i aralash yozg'irdi:

- Allaqayoqdagi... qalang'i-qasang'idan gap eshitdim... Nima haqi bor edi menga bunday deyishga?!

- Qiziq gaplarni gapirasana? - dedi Sanobar jahli chiqib. Dugonasini yosh boladay avrash joniga tekkan shekilli. - Har xil gaplarni eshitmayin desang, uyingda o'tir edi.

- Hammasiga... hammasiga... Erim sababchi... Erim... Erim uquvli bo'lganida...

Yuzimdan issiq chiqib ketdi. Yo xudo, eridan nafratlanmaydigan ayol bormikin bu dunyoda?!

Jahl bilan barakka kirib bordim. Asliddin yerga to'shalgan isqirt sholcha ustida sheriklari bilan qarta o'ynab o'tirgan ekan. Shartta

yelkasidan tutib kuch bilan o'rnidan turg'azdim.

- Iye, tinchlikmi, bratan? - Asliddin bez bo'lib yuzimga tikildi.

- Oshpaz ayolni nega xafa qilding?!

- Men xafa qilibmanmi? Kim aytdi buni sizga?

- Hoziroq borib kechirim so'raysan. Aks holda, basharangni shunday bezab qo'yamanki, tuqqan onang ham tanimay qoladi!

- Xo'p. Xo'p. Tong otsin...

- Yo'q, hoziroq borib kechirim so'raysan!

- Nega endi men kechirim so'rarkanman? O'sha xotinning o'zi-ku jilpanglagan! To'shakka tortsam ham yo'q demasdi...

Asliddinning yuziga musht tushirdim. G'ala-g'ovur ko'tarildi. Asliddinning tarafkashlari menga yopirilishdi. Rosa mushtlashuv bo'ldi.

Yarim soatdan keyin Hakim Nazarichning xonasida o'tirardim.

- Men sizni durust odam deb yursam, g'irt bezori ekansiz-ku, - Hakim Nazarich ta'nali nazar tashlayotgan bo'lsa-da, ovozi qahrli emasdi.

Churq etmadim.

- O'sha ayol tanishingizmi? Bunchalik jon kuydirib himoya qilganingizga qaraganda...

- Ayol faqat tanish bo'lsagina himoya qilinadimi?!

Hakim Nazarichning yuziga qizil yugurdi.

Gurs-gurs qadam sasi eshitildi yo'lakda, zum o'tmasdan xonaga Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Bular bilan razbor qilib o'tirasizmi, Hakim Nazarich?! Shartta kazarmaga jo'nating. O'sha yerda bunaqalarning surobi to'g'rilanadi, - dedi u kira solib.

- Barakka boring, - dedi Hakim Nazarich menga.

- Hakim Nazarich, bu nimasi?.. - deya norozilik bilan to'ng'illadi Po'lat Damirovich.

- Kerakli jazoni olib bo'ldi, - dedi unga Hakim Nazarich quruqqina qilib.

Shoshilmasdan eshik tomon yurdim.

Ortimdan Hakim Nazarichning ovozi eshitildi:

- Yo'l-yo'lakay medpunktga kirib, ko'zguga bir qarab keting...

Uning ovozida allaqanday yengil kulgi ohangi borday edi.

Tashqariga chiqdim. Eshik oldida biroz turdim. So'ng medpunkt tomon yurdim.

- Voy! - menga ko'zi tushgan Gulruh hayratdan dong qotdi.

- Nega hayron bo'lyapsiz? - dedim gapirishga qiynalayotganimni sezdirmaslikka urinib.

- Tinchlikmi?

- Tinchlik.

- Aftingizga qaraganda, tinchlik emasga o'xshaydi.

- Ko'zgu bering, iltimos.

Gulruh stol tortmasidan to'rtburchak ko'zgu uzatdi.

- E-ha, gap bu yoqda ekan-da! - deb yubordim ko'zgodagi aksimga qarab o'zimni taniy olmay qolganimdan hayratga tushib.

Aytsam ishonmaysiz, yuzim kulgili tarzda qiyshayib qolgandi. Qovoqlarim yorilgan, shishib ketgan labimdan qon sizardi.

- Nima bo'ldi o'zi? - Gulruh paxta va spirt bilan yonimga keldi. - Qani, menga qarang-chi.

- O'h... sekinroq...

- Joningiz shunchalik shirinmi?

- Albatta.

- Mushtlashayotganda nega shuni o'ylamadingiz?

- Mushtlashganimni kim aytdi sizga?

- Aftingiz aytdi. Hali kaftingizni ham...

Men gunohkorona kulimsiragancha kaftimni ko'rsatdim.

- Voy-bo'! Joningiz savil ekan sizni! - dedi Gulruh, keyin birdan yuzimga ko'zi tushdi-yu, kulib yubordi.

Bolalarcha beg'ubor, samimiy kuldi.

- Dunyodagi eng chiroyli erkak men bo'lsam kerak.

- Ha... topdingiz...

Eshik taqilladi.

- Kiring, kiravering, - dedi Gulruh kulgidan yoshlangan ko'zlarini dastro'moliga artarkan.

- Gulruh Qosimovna... - yuzi qordek oppoq Hakim Nazarich eshik oldida turib qoldi.

- Juda shoshilinch emasmi? Men hozir ishimni tugataman, - dedi Gulruh.

- Tinchlantiruvchi biror nimangiz bormi?

- Hozir... Biroz kutib turing, - dedi Gulruh menga, keyin qandaydir qutini olib Hakim Nazarichga yaqin bordi. - Yana yuragingiz bezovta qilyaptimi?

- Ha.

- Qon bosimingizni o'lchab ko'rsam maylimi?

- Yaxshi bo'lardi.

- Bu yoqqa o'tiring.

Hakim Nazarich Gulruh surib qo'ygan stulga o'zini tashladi. Uning mazasi yo'q, shekilli.

- Qon bosimingiz joyida, - dedi Gulruh tonometrni stol ustiga qo'yarkan. - Faqat yuragingiz sal tez uryapti. Menimcha, bu charchaganlik oqibati. Yana ob-havoning ham ta'siri bo'lishi mumkin. Mana bu dorini tilingiz tagiga tashlab shiming.

Gulruh Hakim Nazarichni tinchlantirib mening oldimga keldi.

Og'riqqa bazo'r chidab o'tirgandim. Asablarim nihoyatda taranglashgandi. Gulruhning yumshoq, haroratli barmoqlari qo'limga tegishi hamon birdan bo'shashdim: "Eh-he, bu qo'lni allazonlardan buyon hech kim silamagan edi...";

Ko'nglimdan nelar kechayotganidan bexabar Gulruh o'z ishini astoydil bajarardi.

- Ertadan boshlab ishga chiqishni qat'iyman man qilaman, - dedi Gulruh.

- Buning sirayam iloji yo'q.
- Bu qo'l bilan ishlab bo'lmaydi! Hakim Nazarich, ishchingizga o'zingiz tushuntiring.
- Qo'l kerakmi yoki pul? - biroz o'ziga kelib qolgan Hakim Nazarich g'alati savol berdi.
- Pul, - dedim men.

Hakim Nazarich: "Mana, ko'rdingizmi?"; deganday Gulruhga qaradi.

Men indamay xonadan chiqdim.

Barakdagilarning yarmi do'stlarcha, yarmi raqibiga qaraganday adovat bilan qarshi olishdi meni.

Kimlardir nimalardir deganday bo'ldi. Ammo men hech kimga quloq solmasdan to'g'ri borib to'shagimga cho'zildim.

Husan negadir to'shagida ko'rinmasdi.

Anchagacha uxlay olmasdan qiynalib yotdim. Bugungi mushtlashuvdan keyin Gulruh men haqimda qanday xayollarga bordiykin?

Axir zohiran tan olgim kelmasa-da, botinimda anchadan buyon Gulruhda yaxshi taassurot qoldirish istagi tug'ilgandi-da. Bu yog'i qandoq bo'ldi? Gulruh meni kim deb o'yladiykin? O'ylab o'yimning tagiga yetolmasdim. Ko'nglimdagi g'ashlik kuchaya bordi va birdan o'zimni yomon ko'rib ketdim. Keyin butun dunyo ko'zimga xunuk ko'rinsa boshladi. Adyol bilan boshimni o'rab oldim.

Tashqarida gitara ovozi va allakimning bo'g'iq xirgoyisi eshitildi: "Ax, kakaya jensh'ina...";

Ertalab Po'lat Damirovich soqchilari kuzatuvida barakka quzg'unday bostirib kirdi. Biz odatdagiday safda turardik.

- Boshvoqsiz to'nkalar! - deya baqira ketdi u kirgan zahoti quturgan itday. - Xom sut emgan, ipirisiqlar! Kimdan so'rab mushtlashuvga chiqdinglar?! A, sendan so'rayapman?!

Po'lat Damirovich har bir ishchining ro'parasida to'xtab, peshonasiga barmog'ini bigiz qilib niqtardi. Navbat Husanga keldi.

- Sendan so'rayapman, ahmoq!

Po'lat Damirovich uning ham peshonasiga barmog'ini bigiz qilib niqtashga chog'landi, lekin Husan chap berdi, o'zini chetga tortdi.

Keyin nafrat bilan:

- Qo'lingni tort, iflos! - deb baqirdi u.

- Voy ablah! Kimni iflos deyapsan?! - Po'lat Damirovichning ko'zlaridan o't chaqnadi.

- Kimni bo'lardi, seni-da, nodon! - Husan kutilmaganda xoxolab kuldi. - Nodon bo'lmasang, o'ylab gapirarding-da.

- Esi joyidami bu bolaning?!

- O'zingning esing joyidami? Hech zamonda mushtlashuvgayam birovdan ruxsat so'rab chiqiladimi, galvars?!

Po'lat Damirovichning yuzi ko'karib ketdi.

- Soqchi! - deya chinqirdi u.

Shu vaqt eshikdan Hakim Nazarich kirib keldi.

- Nima gap? Nima to'polon? - dedi u hammaga bir-bir ko'z yugurtirarkan.

Po'lat Damirovich darhol o'zini bosib hozirjavoblik bilan dedi:

- Ko'rmaysizmi bu itdan tarqaganlarni?! Kechadan buyon mushtlashib bir-birlarining go'shtini yeb yotishibdi! Bularning hammasini qamoqda chiritish kerak!

Husan tilini tiyib turolmadi:

- Qamoqdan nima farqi bor bu yerning?

- Hov to'tiqush!..

- O'zing kenguru!

- Jim! Jim bo'ling! - xitob qildi ovozini ko'tarmasdan Hakim Nazarich. - Hoziroq jim bo'llaring! Aks holda...

Barak suv quyganday jim bo'lib qoldi.

- Gap bunday, - davom etdi Hakim Nazarich, - bu yerda to'polon qilishga hech kimning haqi yo'q. Nega deganda, biz hech biringizni noqonuniy ravishda bu yerda ushlab turganimiz yo'q. Har biringizning faqat o'zingizgagina ma'lum sabablar tufayli bu yerda yuribsizlar. Shunday ekan, bundan keyin kimda-kim to'polon qiladigan bo'lsa, keskin chora qo'llashga majburmiz. Dastlabki choramiz shundan iboratki, barakda bir kishi g'urbatni boshlagan bo'lsa-da, eng kamida yigirma kishi maoshsiz qoladi!

Safdagilar guvranib qo'yishdi. Ammo hech kimdan sado chiqmadi.

- Ikkinchi chora shundan iboratki, bezorilik qilgan shaxs bilan adi-badi aytishib o'tirilmaydi, ishi to'g'ridan-to'g'ri sudga oshiriladi. Tushunarlimi?

Safning u yer-bu yeridan g'udrangan, bo'g'iq ovozlar eshitildi.

- Tushunarli bo'lsa, juda soz, - dedi Hakim Nazarich, keyin Po'lat Damirovichga yuzlandi. - Ketdik!

Po'lat Damirovich bo'g'riqqanidan qip-qizarib ketgan, lekin Hakim Nazarichga e'tiroz bildira olmasdi.

Ikkala boshliq ham chiqib ketishdi.

- Qari tullak! - deya so'kindi Husan. - Biz uchun eng og'ir jazo iqtisodiy chora deb o'ylaganini qarang. Shu qilganiga keyingi maoshning bir tiyinini ham olmayman. Basharasiga qarab otaman!

- Menimcha, Hakim Nazarich bir o'q bilan ikki quyonni urdi, - dedim o'ychan ohangda.

- Tushunmadim.

- Nimasini tushunmaysiz? U siz bilan meni Po'lat Damirovichning zug'umidan asrab qoldi.

Endi Husan o'ylanib qoldi.

"Ha, odamlar bilib aytisharkan, - deya xayoldan o'tkazdim. - Hakim Nazarich insofli odam. Menga noma'lum qandaydir sabablar tufayli Po'lat Damirovichning ustidan hukm yurgizadigan va vaqti-vaqti bilan uning zulmona xatti-harakatlarini cheklab turadigan mana shu mulohazakor Hakim Nazarich bo'lmaganida bu yerdagilarning sho'ri qurirkan!";

Ertalab medpunkt eshigi oldida yana Po'lat Damirovich bilan to'qnash keldim.

- Siz haliyam bu yerda o'rallashib yuribsizmi? - dedi u mayda hasharotga qarayotgandek ijrg'anib tikilarkan.

Men uni payqamagandek indamadim, shunda u shu qadar qizarib-bo'zarib, g'azabdan qaltirab ketdiki, iloji bo'lsa, dast ko'tarib uloqtirib yuborsa yoki yerga yumalatib ko'ptokdek obdon tepkilasa, toptasa, keyin tovonlari bilan xumordan chiqquncha ezg'ilab, abjag'imni chiqarib yo'q qilib tashlagudek!

- Hoy paytavaquloq, ko'ppak, burdalab tashlamasimdan bu yerdan yo'qol! - dedi u g'azabini zo'rg'a bosib.

- O'zing yo'qol!

- Kelgindi, sayoq...

- O'zing o'ris cho'chqasidan!



Po'lat Damirovichning yuzi qiyshayib ketdi. Adl qomatini egdi-yu, etigining qo'njiga qo'l yubordi. Xuddi shu vaqtda ostonada Gulruh paydo bo'ldi.

- Po'lat Damirovich, ukol vaqti bo'ldi, kirmaysizmi? - dedi u hech narsadan bexabarday xotirjam ohangda.

- Hozir...

Po'lat Damirovich yonimdan o'tayotib yana turtib o'tishga urindi, lekin bu safar uddasidan chiqolmadi. Men o'zimni chetga tortishga ulgurdim.

- Gulruh Qosimovna, sizni ko'rsam etim junjikadigan bo'lib qolibdi, - Po'lat Damirovichning quvnoq ovozi eshitildi ichkaridan.

- Qo'rqinchli maxluqqa o'xshaymanmi shunchalik?

- Siz ezgulik va yorug'lik farishtasiz!

- Ezgulikni tushunsa bo'ladi, lekin nima uchun yorug'lik?..

- Yorug'lik, bu nur, harorat degani. Sizga qarasam zimiston ko'nglim yorishib ketadi!

- Sizning ko'nglingiz ham g'ash bo'ladimi?

- Eh!.. O'ylaysizki, bu odam...

- Mana, bo'ldi, endi bemalol ishga ketaverishingiz mumkin.

- Gulruh Qosimovna, men ketmasdan shu yerda o'tirsam maylimi? Sizni qorovullab!..

- Mayli-yu, lekin nima uchun, kimdan qorovullaysiz?

- Tashqarida turgan ta'viyadan! Bilasizmi, u qanaqa maxluq?!

- Ishga kech qolmaysizmi?

- Menda ish vaqti degan narsa yo'q. Anovi maxluq sizga birdan tashlanib qoladimi degan tashvishdan boshqa tashvishim ham yo'q.

- Unchalikka borishmaydi...

- Men ularni yaxshi bilaman. Pul uchun o'zini tomdan tashlaydi ular. Aks holda, bu yerda xor-zor bo'lib yurisharmidi?! Mana

bittasi o'zingizga ma'lum, qo'lidan ayrilib qolishini bila turib bir kun ham ishdan qolmaydi. Ishga chiqmasa mo'may puldan quruq qoladi-da! Hoynahoy, u yoqda besh-oltita bolasi, xotini bordir. Jarohati gangrenaga aylanib ketsa nima bo'ladi?! Daydi-kelgindilar bosib ketdi hamma yoqni!

- Po'lat Damirovich, esingizdan chiqarmang, men ham o'shalardanman!

- Sizni qismat bu yerga boshlab kelgan. Men bilan uchrashtirish uchun.

- Aytgancha, ukolingiz kam qoldi. Olib kelib berasizmi?

- Ertaga opkesam bo'ladimi?

- Ha, bugunga yetarli. Davron!

Xonaga kirdim. Eshikni ochganimda yo'lakdagi g'ala-g'ovur ichkariga yopirildi.

- Odam ko'pmi? - so'radi Gulruh.

- Odatdagiday, - to'ng javob berdim.

Gulruh yuzimga g'alati qaradi.

- Po'lat Damirovich, ukoldan keyin biroz yotishingiz kerak.

- Shunaqami?

Po'lat Damirovich o'rnidan turdi.

- Eh-he, irib ketibdi-ku! - dedi u jarohatimga ko'z tashlarkan. - Hademay qo'ldan ayrilishi turgan gap!

Churq etmadim. Sezib turibman, u atay shunday deyapti. Yuzidagi kishining jig'iga tegadigan, qadr-qimmatini yerga uradigan ifoda va kulgisi shu qadar tahqirromuz ediki, bazo'r o'zimni bosib, go'yo uni pisand qilmagandek to xonadan chiqib ketguncha surbetlarcha tikilib turaverdim.

- G'alati kishi, a? - dedi Gulruh uning ortidan.

- Qo'lida to'pponchasi bor to'nka!

- Bugun kayfiyatingiz yo'qroqmi?

- Binoyiday.

- Qo'lingiz kechasi qattiq og'rimadimi?

- Yo'q!

- Uch-to'rt kun ishga chiqmay turaqoling.

- Puldan quruq qolaman!

- Yosh bola ekansiz! Kechqurun sal vaqtliroq keling, negadir odam ko'payib ketyapti.

- O'ylab ko'raman.

Avzoyim buzilgandi. Asabiylashardim.

Tashqariga chiqdim. O'z-o'zidan jahlim chiqa boshladi. Qo'llarida supurgi va chelak ko'tarib olgancha boqilgan g'ozday hovlida lapanglab yurgan Sanobarga ko'zim tushib xotin zotiga nafratim oshdi. Ayollar yangi hayotga tez ko'nikadilar va hech jirkanmay, unga qarshi ruhan isyon ko'tarmay, bundan hech qanday qo'rqinchli narsa ham kutmasdan, o'zlarining yangi taqdiriga peshvoz chiqaveradilar, shekilli. Ular pullarini yoki biror qimmatbaho taqinchog'ini o'g'irlatib yoki yo'qotib qo'yishgandagina qattiq qo'rqib ketsalar kerak.

Gulruh ham shularning biri-da. Kim bilsin, u soddalikni o'ziga niqob qilib olgan makkoradir ehtimol. Axir, erkaklar tomonidan ulug'lanib, ko'klarga ko'tariladigan yoqimli soddalik ko'p hollarda muhtarama zaifalarimizni xavf-xatardan saqlab qolgan...

- Alisherning ahvoli yaxshimi? - deb so'radi tushlik mahali yonimga kelgan Nurali.

- Durust, shekilli.

- O'zini ko'rib turibsizmi?

- Bir marta.

- Karimboy akaning negadir qovog'i ochilmaydi. Shuning uchun so'rayapman-da.

- Unchalikmas, menimcha. Har gal borganimda uxlab yotgan bo'ladi.

- Husan ko'rinmaydimi?

- Husan? Shu atrofda yuruvdi.

- Undan biroz spirt so'rasam degandim. Negadir chap oyog'imning barmoqlari qichishyapti. Sheriklarim spirt bilan artish kerak, deyishdi.

- Yaxshisi medpunktga uchrang.
  - Qandoq bo'larkin? Shusiz ham kasallar ko'payib ketdi.
  - Spirt topish qochmas. Avval do'xtirga uchrashing.
- Nurali ketdi.

Qo'lim ishga bormay, xodalardan birining ustida anchagacha xayol surib o'tirdim. Menga qadrdon manzillardan o'tib kelayotgan quyosh naq tepamizda turib olib kumushrang nurlarini mo'l-ko'l sochardi, ammo o'lay agar, zarracha ham tafti yo'q edi. Ha, bu yerning o'zi bir olam. Nafaqat tartib-qoidalari, balki bu yerning quyoshi ham, oyi ham o'zgacha. Charaqlab turadi-yu, tafti yo'q. Bu yerda inson qanchalar tubanlashuvi, o'zligini yo'qotishi, botiniy dunyosidagi eng oliy tuyg'ularini ham hech ikkilanmasdan halok etib yuborishga qodir. Shu bilan bir vaqtda butunlay buning aksi yuz berishi ham mumkin. Zotan, kulfat ham o'ziga xos narsa.

Kulfat tufayli hayotni chuqurroq his etadigan bo'lib qolasan...

"Chilparchin bo'lgan hayotni tiklab bo'larmikin?";

Allaqaydan o'q ovozi eshitilganday bo'ldi. Sergak tortib yon-verimga qaradim.

Toshpo'lat bilan Fayzi ham hayron bo'lib turishgandi.

- O'q ovozi? - deb so'radim ulardan.

Shu vaqt ikkinchi o'q ovozi yangradi.

Bu gal aniq eshitdim.

- Soqchilar "urush-urush"; o'ynashyapti chog'i, - dedi Toshpo'lat.

- Husan hali qaytmadimi? - ajablandim.

- Qayoqqa ketgandi o'zi? - taajjublandi Toshpo'lat.

Ko'z ilg'aydigan yerlarni kuzatib Husanni qidirdim. Afsuski, yaqin-o'rtada uning qorasi ko'rinmadi.

Bir mahal Qilichbek hovliqancha kelib qoldi.

- Hamma shu yerdami? Iye, hov... Husan qani?

- Ertalab shu yerdaydi, - dedi Fayzi.

- Ertalab shu yerda ekanligini bilardim, lekin hozir qani u? - ko'zlari ola-kula bo'lib baqirdi Qilichbek.

- Men qayoqdan bilay! - Fayzi nari ketdi.

Qilichbek besaranjom nigohlarini menga tikdi.

Men kumushrang bo'shliqdan ko'z uzmadim.

Qilichbek qurilish binosi tomon yugurdi.

Uzoqdan qaraganda, oppoq qor ustida yumalab ketayotgan tarvuzga o'xshardi u.

Kun allaqanday noxush bezovtalik bilan o'tdi.

Quyosh o'rmon ortiga bekindi. Uning qarag'ay shoxlari uchiga ilinib qolgan so'nggi nurlari ham zavol topdi, qosh qoraydi.

Shundan keyingina bizni ishni tark etib, barakka chorlovchi qo'ng'iroq ovozi eshitildi.

\* \* \*

Ko'chada mirshablarning yuk mashinasi turardi. Darvoza oldida besh-oltitasi uymalanishgan. Furajkalarining qayishlari tushirilgan. Miltiqlarining stvollari chiroq nurida sovuq yiltiraydi.

Nimadir yuz bergani ma'lum.

Mirshablar bizni birma-bir ko'zdan o'tkazishdi.

Ichkariga kirganimizdan keyin soqchilar bizni o'z ixtiyorimizga qo'yib yuborishdi. Ammo uzoqqa ketmay hovlining u yer-bu yerida turib olishdi.

Oshxona derazasi oldida turgan Nargiza meni imladi.

- Voy, Davron, bormisiz? - dedi rangi quv o'chgan ayol.

- Nima gap?

- Xabaringiz yo'qmi? Bugun bittasi qochib ketmoqchi bo'lgan ekan, soqchilar shartta otib tashlashibdi!

- Kim ekan?!

- Ismini bilmadim... Hovlidan olib o'tishayotganda ko'rib qoldim. Hamma yog'i qon... Yoshgina yigit...

- Hozir qayerdaykin, bilmaysizmi?

- Medpunktga shekilli. O'sha yoqqa opkirib ketishdi-yu...

Medpunkt eshigiga qaradim. U yerda miltig'ini yelkasiga osgan soqchi turardi.

Shoshilayotgan, ichimni allanima timdalayotganiga qaramasdan imillab yuvindim. Ovqatlandim. G'ala-g'ovur, o'zaro shivir-shivirlar qulog'imga kirmasdi. Ammo, nazarimda, hamma pichirlab gapirayotganday tuyilardi.

Sheriklarimga bir-bir nazar soldim, basharalar turfa bo'lishiga qaramay, barida allaqanday xavotir, mavhum umid, loqaydlik va sarob jimirlayotgan bu nigohlar bo'm-bo'sh edi!

Medpunkt tomon yurdim.

Soqchi avvaliga ruxsat bermadi, qo'limdagi jarohatimni ko'rsatganimdan keyin ichkariga kirib ketdi. Bir ozdan keyin qaytib chiqib: "Kir!"; deganday ishora qildi.

Gulruh xomush qarshi oldi.

- Yarador yigit shu yerdami? - deb so'radim undan.

- Ha.

- Ahvoli qalay?

- Yaxshi emas, - deya pichirladi Gulruh.

- Ko'rsam bo'ladimi?

- Yuring.

Gulruh parda ortiga boshladi.

Devor yonidagi karavotda Alisher yotardi. U uxlamayotgandi, lekin meni ko'rishi bilan ko'zlarini yumib oldi. Gaplashgisi kelmadi chog'i. Uning yonidagi karavotda Husan yotardi!

Ko'zlarimga ishonmay unga yaqinlashdim.

- Husan...

Husan "qilt"; etmadi. Uning yuzi bo'zga o'xshab qolgandi. Ko'zlari chala yumuq. Qovoqlari shishgan. Qorni kindigining atrofi bilan bog'langan... Tiriklikdan nishon yo'qday...

Yoniga tiz cho'kdim. Nafas olishiga quloq tutdim. Yuziga barmoqlarimni tekkizdim: issiq. Xayriyat.

- Ko'p qon yo'qotgan, - dedi Gulruh parda ortidan sirg'alib chiqarkanmiz. - O'sha zahoti opkelishganda bunchalik bo'lmasdi.

- Yaqinda opkelishdimi?

- Yaqinda... Kazarmada ikki soatdan ko'p qon ketib yotgan... Yaxshiyam Hakim Nazarich xabar topib qolib bu yoqqa yuboribdi.

- Jarohati og'ir emasmi?

- Og'ir emas, ammo ko'p qon yo'qotgani pand berib qo'ymasa, deb qo'rqaman... Qo'lingiz qalay?

- Bugun unchalik og'rimadi.

- Keling, dori surib qo'yaman.

Har safargiday Gulruh stolning naryog'ida, men bu tomonida o'tirdik. Qo'limni stolga qo'ydim. Gulruh bintni yecha boshladi. Ko'z qirim bilan harakatlarini kuzatdim. Shiftdan taralayotgan nur uning yuzida aks etardi. Jiddiy va bir oz parishon chehrasida men uchun begona, tushunishim qiyin bo'lgan allaqanday sir-sinoat mavjud edi. U bilan bemalol gurunglashib o'tirgim kelardi, ammo gapni nimadan boshlashni bilmadim. Axir bu ayolni yaxshi bilmayman, u kim, qaysi olamdan kelib qolgan parizod, tasavvur qilolmasdim haligacha. Tikilganim sayin u mendan uzoqlashayotganday...

Muolaja nihoyasiga yetgach, tashakkur aytib o'rnimdan turdim.

- Xayrli tun, - dedi Gulruh. - O'rtog'ingizdan xavotir olmang. Unga o'zim qarayman.

- Xayrli tun.

- Ertaga ertalab... yana kelasizmi?

Yalt etib qaradim. Gulruh intiqlik bilan qarab turganday tuyildi.

- Albatta, kelaman.

Eshikka yetgach, ortimga o'girildim.

Gulruh hamon qarab turardi.

Kulib qo'ydim.

Gulruh qo'lini silkidi.

Tashqariga chiqdim.

Yana gupillatib qor yog'ardi. Havo iliq edi. Yo'lak bo'ylab yurdim. Yuragimni ham iztirob, ham allaqanday yoqimli bir to'lqin bezovta qilardi. Nursiz-jilosiz, oddiy turmush qorishmasidan iborat bo'lgan, suvday rangsiz hayotimga nimharir yog'du taralayotgandek edi.

Ertasiga ertalab borganimda Husanni soqchilar kazarmaga olib o'tishganini eshitdim.

- Hali o'ziga kelganicha yo'q. O'lib qolishi mumkin, deb necha marta aytdim ularga. Quloq solishmadi, - dedi xafa bo'lib o'tirgan Gulruh.

- Yaxshi bo'lmabdi.

Parda ortiga o'tdim. Alisher shiftga tikilib yotgan ekan, hol-ahvol so'radim.

- Keling, birpas o'tiring, - dedi u siqilib ketgandek aftini bujmaytirib.

Kecha Husan yotgan karavotga o'tirdim. Yuragim simillab ketdi. Kechagina bu yerda Husan yotgandi. Yana ko'rishish nasib qilarmikin? Kazarmada ahvoli ne kecharkin?

- Qachon ishga chiqasiz endi, Alisher?

- Bilmadim... Hali-beri chiqadiganga o'xshamayman. Singan suyak bitib qolganday, lekin oyog'imni bosa olmayapman. Og'riqni-ku qo'yavering... Barmog'imni jodi kesib ketganidayam bunchalik og'rimagandi.

- Dardning kelishi oson, ketishi qiyin, - dedim boshqa gap topolmay.

- Yaxshi bo'lib ketarmikinman?..

Titrab ketdim.

Yonoqlari chuqurlashgan, chekka tomirlari bo'rtib ketgan, kirtaygan ko'zlarida mungli iltijo qotib qolgan yigitchaning yuziga tikilib qaray olmadim.

- Husan aka uch-to'rt kun davolanishi kerak edi-da, - dedi Alisher. - Ahvoli ancha og'ir ekan. Haliyam... - Alisher ovozi pasaytirdi. - Hamshiramiz zo'r ekan. Husan akaning qornidan o'qni shartta olib tashladi.

- O'q bittamidi?

- Bitta, shekilli.

Gulruhga tan berdim ichimda. Oddiy hamshiraning shunchalar uddaburonligi tahsinga sazovor emasmi?

\* \* \*

Kechki payt.

Ishdan qaytdim-u o'zimni oshxonaga urdim. Qornim o'larday och edi.

Stollar bo'm-bo'sh. Yemakxonaga hali hech kim kirmagandi. Nargiza bilan Sanobar ulkan qozon yonidagi stol atrofida o'tirganlaricha... qarta o'ynashardi!

- Muborak bo'lsin!

- Ha, Davron, sizmisiz? Ovqat suzaymi yo bizga qo'shilib bir qo'l o'ynaysizmi? - dedi Nargiza qartalaridan ko'z uzmay.

- Men bilmayman.

- Voy, oddiy "Durak";ni bilmaysizmi? Nimani bilasiz o'zi? - Sanobar ta'nali nazar tashladi.

- Qimorni bilaman, xolos, - dedim jo'ngina.

- Yaramas! Bularning sog'i yo'q, - Nargiza qartalarini tashlab o'rnidan turdi, peshbandini oldiga tutib qozon yoniga bordi.

- E, o'lib ketsin! Siqilganimdan yorilib ketguday bo'lyapman, - dedi Sanobar. - Qarta o'ynasak sal ko'nglim yozilarmidi degandim.

Buyam to'g'ri kelmadi.

- Davron, keling, ovqat tayyor, - chaqirdi Nargiza.

Hovlidan ola-tasir, shovqin-suron eshitildi. Yugurib chiqdim. Medpunkt oldida besh-olti kishi to'planib turishardi.

- Nima gap? - so'radim shu yerdagilarning biridan.

- E, anovi Asliddin yana "chp"; qilgan, shekilli.

- Tushunmadim.

- Asliddin: "Kasalman, isitmam chiqyapti"; deb xonaga kiribdi-yu, hamshiraga tashlanib qolibdi. Kayfi bor ekan-da. "Hech bo'lmasa bitta o'ptiring!"; deb yalinarmish...

Hangomatalablar hihilashdi.

Chidab turolmadim.

Eshikni shartta ochib ichkariga bostirib kirdim. Nazarimda, Gulruh yolg'iz o'zi yig'lab o'tirganday edi. Ammo ichkarida butunlay boshqa manzaraning guvohi bo'ldim. Gulruh hech narsa bo'lmaganday qarshi oldi. Bundan tashqari, u yolg'iz emasdi. Xonada Po'lat Damirovich bor edi.

- Bu yovvoyi odamlardan bundan battar yovuzlikni kutish mumkin. Gulruh Qosimovna, haliyam fikringizdan qaytmadingizmi? - dedi Po'lat Damirovich menga qo'li bilan chiqib turing, degandek ishora qilarkan.

Qimir etmadim.

- Po'lat Damirovich, tashvishlanmang, men birovlariga o'zimni oyoq osti qildirib qo'yadiganlardan emasman, - deb javob berdi Gulruh, keyin menga yuzlandi: - Nega kech qoldingiz?

- Bunaqa o'jar ekanligingizni bilmagan ekanman, - Po'lat Damirovich eshik tomon yurdi. Keyin birdan ortiga o'girilarkan, istehzoli kulimsiradi. - Sho'ringizga sho'rva to'kilganda meni eslarsiz, lekin unda kech bo'ladi!

Gulruh ham undan qolishmadi:

- Yaxshi niyatlaringiz uchun tashakkur!

Po'lat Damirovich chiqib ketdi.

- Qani, qo'lingizni bering, - dedi Gulruh.

Bor jur'atimni to'plab:

- Birovning shaxsiy ishiga aralashish noqulay, lekin... U sizni qo'rqiyaptimi?.. - deb so'radim Gulruhdan.

- Boyagi mashmashani eshitgandirsiz? Po'lat Damirovich shuni dastak qilvolib, "Shtab"; yonidagi xonaga ko'chib o'tishimni taklif qilyapti.

- Siz ko'nmadingiz.

- Ko'rib turganingizday.

- Balki u haqdir. Ko'chib o'tganingiz durustmidi? Har qalay, u yer bexavf...

- Po'lat Damirovich ham shuni ta'kidlayapti. U yoqqa borish tugul, yonidan o'tishga hech kimning jur'ati yetmaydi, deydi.

- To'g'ri. Shunisi qulay emasmi siz uchun?..

- Boshqalar uchun qulayligi bordir. Lekin men uchunmas!

- Har xil odam bor. Bugungiga o'xshash voqea... Qo'rqmaysizmi?

- Qo'rqmayman, - beparvo javob berdi Gulruh.

Unga tikilib qoldim.

Besh daqiqalardan keyin Gulruh ishini tugatdi. Shungacha u garchi nigohlarimni his etayotgan bo'lsa-da, yuzimga qaramadi.

- Bo'ldi. Ketishingiz mumkin, - dedi u.

Qimir etmadim.

- Yana ikki kun kelsangiz yetadi. Jarohatingiz ancha yaxshi.

Indamay o'tiraverdim.

Shunda u na menga, na biror narsaga qaramasdan, bo'shliqqa tikilgan:

- Qo'rqaman... - dedi, ovozi titrardi. - Lekin qo'rqqanimni dahmaza qilishim shartmi? Umuman olganda, hammamiz tutqunimiz bu yerda. Tutqunlikni tan olib, atrofimdagilarga javdirayversam, bilasizmi, ular ne ko'yga solishadi? Hayotda ko'p qiyinchilik ko'rganman. Bu haqda boshqa vaqt bafurja gapirib berarman. Agar eshitishni xohlasangiz. Ammo hozir bir gapni dangal aytishim kerak. O'sha qiyinchiliklar tufayli men o'z atrofimda butunlay boshqacha atmosfera yaratish hadisini olvolganman. Siz tushuna olmayotgan, to'g'rirog'i, sizni ajablantirayotgan sirim shu, - Gulruh kulib qaradi. - Endi tushundingizmi?

Men bosh silkidim.

- Endi xonani bo'shatarsiz, boshqalar kutib qolishdi.

Men yana bosh silkidim, ammo o'rnimdan qo'zg'almadim.

- Yana nimadir demoqchisiz, shekilli?

Bosh irg'adim.

- So'rang, - Gulruh yuzimga zavq bilan tikildi.

- Siz oddiy hamshira emassiz!

Gulruh darrov javob bermadi. Sirli kulimsiragan:

- Hamshira, oddiy hamshira, xolos, - dedi birozdan keyin.

Eshik betoqatlik bilan taqilladi.

O'rnimdan turdim.

- Yana ikki kungina kelamanmi bu yerga? - deb so'radim xafa bo'lib.

- Yaxshi emasmi?

- Bunaqasi ketmaydi. Qo'lim hali-veri yaxshi bo'lmasligi kerak. Bu borada biror maslahat bera olmaymizmi?

- Qaltisrog'idanmi?

- Ha.

Gulruh o'ylanib qoldi.

Eshik yana taqilladi.

- Yaxshisi, ertaga kelganingizda aytaman, - dedi u. - Faqat sal vaqtlitiroq yoki sal keyinroq keling.

- Uzundan-uzoq, buning ustiga, eng xatarli maslahatmi, deymen?

- Shunaqa.

- YestCH! - qo'limni chakkamga qo'ydim.

Eshik shaxt bilan ochildi. Bir odam ichkariga otilib kirdi. Alang-jalang qilgan:

- Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi?! - deya baqirdi.

Beixtiyor kulib yubordim.

Tashqariga chiqdim.

Oshxonada ham, barakda ham chiroq yoniq edi.

Tun zabtiga olgan hovlida ancha vaqt aylanib yurdim. Keyin "Kontora"; tomon o'tdim. Pul kerak edi. Ichkarida chiroq ko'rindi.

Demak, Hakim Nazarich hali uyg'oq.

Gulruh o'ylanib qoldi.

Eshik yana taqilladi.

- Yaxshisi, ertaga kelganingizda aytaman, - dedi u. - Faqat sal vaqtliroq yoki sal keyinroq keling.

- Uzundan-uzoq, buning ustiga, eng xatarli maslahatmi, deyman?

- Shunaqa.

- YestCh! - qo'limni chakkamga qo'ydim.

Eshik shaxt bilan ochildi. Bir odam ichkariga otilib kirdi. Alang-jalang qilganча:

- Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi?! - deya baqirdi.

Beixtiyor kulib yubordim.

Tashqariga chiqdim.

Oshxonada ham, barakda ham chiroq yoniq edi.

Tun zabtiga olgan hovlida ancha vaqt aylanib yurdim. Keyin "Kontora"; tomon o'tdim. Pul kerak edi. Ichkarida chiroq ko'rindi.

Demak, Hakim Nazarich hali uyg'oq.

"G'amxo'r knyazCh, - degan g'alati fikr keldi kallamga tashqariga chiqib, eshik oldida turarkanman. - Bu yog'i qandoq bo'ldi?";

Bir ozdan keyin: "Bu haqiqatan ham beg'araz g'amxo'rlikmi yo biror maqsadni ko'zlab qilinayaptimi?"; degan shubha miyamga urildi.

Barakka kirdim.

Ammo sira uxlay olmadim.

Ertalab oshxonada nonushta qilib o'tirganimda Hakim Nazarich meni yo'qlayotganini aytib qolishdi. Medpuktga borarmishman.

- Gulruh Qosimovna bilan gaplashdim, - dedi Hakim Nazarich xonaga kirib borganimda. - Siz bilan ishlashga mutlaqo qarshi emas ekanlar.

Gulruh jilmaydi.

- Hoziroq ko'chib kelishim kerak ekan-da, - dedim.

- Eshik oldidagi kursi sizniki, - dedi Hakim Nazarich, keyin burilib Gulruhning qo'ltig'idan olib tashqariga boshladi. - Gulruh

Qosimovna, sizga ham ikki og'iz gap...

Ularning suhbatini eshitmadim.

O'n daqiqalardan keyin Gulruh xonaga qaytib kirdi.

- Bu fikr sizdan chiqmaganmide ishqilib? - deb so'radi u.

- Mendan chiqqan taqdirda ham ular inobatga olishmasdi, - dedim rostiga ko'chib. - Bu "mehribon knyazCh";ning ishi!

Gulruh kim haqida gapirganimni tushundi.

- Avval jarohatingizni bog'lab qo'yay, keyin postingizni egallaysiz, - dedi u bint va malhamni stol ustiga qo'yarkan.

- Husanning ahvolidan xabaringiz bormi?

- Yo'q. Es lasam etim jimirlab ketadi. Eh!..

- Xabar olishning iloji bormikin?

- Po'lat Damirovich baribir ruxsat bermaydi. Soqchilardan bittasi oshqozoni og'rib oldimga kelgandi. Husanni kazarmada yotibdi, deydi. Shtabning orqa tomonida kazarmaning allaqanday darchasi bor ekan. O'sha darcha orqali uni ko'rsa bo'larmish. Lekin yordam berolmagandan keyin ko'rishdan nima naf?

- Shtabning orqa tomonida dedingizmi?

- Ha. Mana, bo'ldi, endi postingizga boraqoling.

- Qanaqadir maslahat bermoqchiydingiz.

- Endi hojati yo'q.

- Anavi kursi menikimi?

- Ha.

- Sizningcha, bu kursi ichkarida turgani yaxshimi yoki yo'lakda?..

- Ham ichkarida, ham tashqarida, - deb javob berdi Gulruh.

Tushundim.

Shunday qilib, ishni "kontora";da davom ettira boshladim. Vazifam ertayu kech medpunkt eshigidan jilmasdan kirgan-chiqqanni kuzatish. Po'lat Damirovich daf'atan meni bu yerda ko'rib tepa sochi tikka bo'lib ketdi.

- Nega haddingizdan oshyapsiz? Kim ruxsat berdi sizga? - deya zahrini sochdi u.

- Hakim Nazarich... - de'yishimni bilaman, Po'lat Damirovich ilon chaqqanday sapchib tushdi.

- Hakim Nazarich?! Men...

U otilib tashqariga chiqib ketdi.

Gulruh qo'l silki b qo'ydi.

Tushdan keyin Po'lat Damirovich yana medpunktda paydo bo'ldi.

Bu safar u menga zahrini sochmadi. Hakim Nazarich boplab popugini pasaytirib qo'ygan chog'i...

Qiziq, olov bilan suvdek bir-birining mutlaqo aksi bo'lgan bu ikki odamni nima, qanday maqsad bog'lab turgan ekan?

Darvoqe, Po'lat Damirovich...

U xonaga kirib Gulruhning ro'parasidagi stulga o'tirdi-da:

- Muolaja vaqtida xonada begona odamning bo'lishini xohlamayman, - dedi keskin ohangda.

Gulruh menga qaradi.

Indamay yo'lakka chiqdim.

Eshik ochiq qoldi.

- Gulruh Qosimovna, sizdan xafaman, - dedi Po'lat Damirovich.

- Bu mening ishim emas.

- Hakim Nazarichning g'amxo'rlikini qabul qilmasligingiz kerak edi!  
- Nima deyishga ham hayronman.  
- Insof yuzasidan ayting, sizning xavfsizligingiz haqida birinchi bo'lib kim og'iz ochgandi?  
- Siz.  
- Nega unda... Nega... O'rtadan "lop"; etib chiqqan allaqanday odamning gapiga kirib!..  
- Hakim Nazarich allaqanday odam emas.  
- Baribir bu... bu adolatsizlik!  
- Po'lat Damirovich, nima farqi bor, "shtab"; yoniga o'tdim nima-yu, bu yerda turdim nima...  
- Men uchun farqi bor!  
- Po'lat Damirovich, agar xafa bo'laversangiz muolajani to'xtataman!  
Jimlik.

Bir ozdan keyin:

- Bo'пти, xafa bo'lmaslikka va'da beraman, - degani eshitildi Po'lat Damirovichning. - Faqat bitta shartimga ko'nsangiz...  
- Shart qo'ymasdan gapira olasizmi? - kuldi Gulruh.  
- Sizning va'dangizni olmaganimcha shart qo'yaveraman.  
- Oh, xudoyim!  
- Tunov kungi gapga nima deysiz?  
- Yo'q va yana yo'q!  
- O'ylab ko'ring.  
- O'ylab ko'rdim!  
- O'zingizni buncha taroziga solmasangiz? - birdan ovozi o'zgardi Po'lat Damirovichning.  
- Tarozi solish emas bu!  
- Tarozi solishdan boshqa narsa emas! Aslida bunchalikka bormasangiz bo'lardi!  
- Bu bilan nima demoqchisiz?  
- O'zingiz juda yaxshi tushunib turibsiz!  
- Muolaja tugadi. Keting!  
- Yo'q, hali tugamadi! Bemorni tashlab qo'yishga haqingiz yo'q. Siz qasam ichgansiz!  
- Afsuski, shunday!..

Yana jimlik.

Gulruh qirt-qirt qilgan nimanidir qirqdi.

- Mana, endi ketishingiz mumkin, o'rtoq bemor, - dedi u birozdan keyin asabiy ohangda.  
- Gulruh...

- ...

- A, Gulruh... Xafa bo'ldingizmi?  
- Xafa bo'lishga haqim yo'q. Axir, men qasam ichganman!  
- Sizning nafaqat ninangiz, balki tilingiz ham o'tkir. Sanchilgan yeridan qon chiqarmasa qo'ymaydi.  
- Yaxshi boring.

- Taklifimni yana bir o'ylab ko'ring. Kechqurun ko'rishguncha!

Po'lat Damirovich yo'lakka chiqdi. Menga nafratomuz tikilgan ilonday vishillab:

- Kelgindilarni ko'rishga toqatim yo'q! - dedi-yu, yonimdan zuvillab o'tib ketdi.

Ichkariga kirdim.

Deraza oldida turgan Gulruhning yuzi qog'oz bo'lib qolgandi.

- Agar u sizga yana bir marta shunday muomala qilsa, Hakim Nazarichga ustidan shikoyat qilaman, - dedim sekin.

- Aralashmang siz! - deb baqirib yubordi Gulruh.

Nafasim ichimga tushib ketdi. Yo'q, qo'rqqanimdan emas. Bundan chiqdi, Gulruh Po'lat Damirovichga befarq emas ekan-da,

degan o'ydan hafsalam pir bo'ldi. Qorovullikni bo'ynimga olganimga pushaymon bo'ldim.

Shu kuni Gulruh bilan boshqa gaplashmadim.

Tun.

Soat ikki yarim-uchlar atrofida ham uyg'oq edim.

Gulruhning xonasidagi chiroq yaqinda o'chdi. Shungacha u ham uxlamagandi. Xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib turdi.

Ayolning qadam tovushlarini sanab yotardim yo'lakdagi karavotda. Bir mahal qadam tovushlari eshitilmay qolganida asta o'rnimdan turib eshikdan mo'raladim. Gulruh deraza oldida turgandi. Joyimga qaytdim. Bir ozdan keyin ayol yana u yoqdan-bu yoqqa yurishni boshladi. "Asabiylashyapti"; - dedim ichimda. Odamning qadam tovushiga quloq tutib uning asabi joyida emasligini bilish mumkinligiga aqlim yetdi.

Mana, nihoyat chiroq o'chdi. Demak, Gulruh uxlab qoldi.

Sekin o'rnimdan turdim. Eshik oldiga chiqib, birpas turdim. Tevarakni kuzatdim. Hamma yoq jim-jit. Hatto soqchilar ham pinakka ketgandi. Qorni g'ichirlatmasdan bir-bir bosib "shtab"; tomon yurdim.

Bu oqshom Po'lat Damirovich navbatchi edi. Beriroqda turgan u tunaydigan xonaning derazasiga ko'z tashladim.

Tunchiroqning xira yog'dusi lipillab turardi. Devor yoniga o'tib yana biroz kutdim. Bir qadam narida deraza. Men shu deraza yonidan bildirmay o'tishim kerak edi. Bir mahal ichkarida nimadir daranglab ketdi. Uning ketidan ayol kishining kulgisi eshitildi.

Hushyor tortdim. Devorga qapishib oldim. Deraza ro'parasida bir juft soya paydo bo'ldi. Keyin yana jimlik.

O'n daqiqalardan keyin asta o'rnimdan jildim. Deraza ostidan yurakni hovuchlagan engashib o'tdim. Xayriyat. Endi bu yog'iga unchalik qo'rqqamasam ham bo'ladi. "Shtab"; kazarmasi haqida umuman tasavvurim yo'q edi. Xayolimda Gulruh ta'kidlagan allaqanday "...darcha"; dan bo'lak hech vaqo yo'q. Shuning uchun duch kelgan birinchi darchadan tavakkaliga ichkariga mo'raladim. Zim-ziyo qorong'ilik. Qorong'ilikdan boshqa hech narsa... shu chog' allakimning jon achchig'ida ingragani qulog'imga chalindi. Butun vujudim, e'tiborim quloqqa aylanib ichkariga quloq tutdim. Yana o'sha ayanchli ingroq... A'zoyi badaningni junjiktirib yuboruvchi ingroq...

Darchani sekin chertdim.

Javob bo'lmadi.

Javob o'rniga yana o'sha azobli ingroq...

Allaqayerda xo'roz qichqirdi.

"Bu yerning xo'rozlari namuncha vaqtli qichqirmasa?!";

Izimga qaytdim.

Deraza yonidan birdan o'tib keta olmadim. Nega deganda, derazaning kichik bir tabaqasi ochilgan bo'lib, u yerdan qandaydir gap-so'zlar eshitilardi. Beixtiyor quloqlarimni bekitdim. Umrim bino bo'lib bu qadar uyatli, pardasiz so'zlarni eshitmagandim. Demak, ichkarida fohisha bor.

"Post";ga qaytdim. Bu yerda osoyishtalik hukmron edi. To'lin oy yog'dusiga chulg'angan xonada Gulruh uxlardi. Hech narsadan bexabar...

O'zimni karavotga tashladim-u, toshdek qotdim. Ammo ertalab eshik "tiq"; etgan zahoti uyg'ondim. Tashqarida telpagini ko'zigacha bostirib olgan Hakim Nazarich turardi.

Eshikni ochdim.

- Salom.

- Yaxshi keldingizmi?

- "Post";da tinchlikmi?

- Xuddi shunday.

- Hamshira qizimiz qalay? Bezovta bo'lmadimi?

Hazil qilgim kelib:

- Hamshiramiz onasining qornida yotganday bexavotir uxladi va hamon uxlamoqdalar, - dedim.

Hakim Nazarich kulib qo'ydi-da, o'zining xonasi tomon o'tdi.

Shu chog' eshik g'iyqillab ochildi-da, Gulruh paydo bo'ldi.

- Sizlarga gap bo'lsa, rosa opqochasizlar-a? - dedi, keyin menga po'pisa qilgan bo'ldi: - Hali shoshmay turing, kechasi allaqayoqqa ketib qolganingizni Hakim Nazarichga aytib beraman!

- Men shu yerda edim.

- Yolg'on!

- Rost...

- Allaqayoqqa ketib qolganingizni tan oling! Tan olmasangiz...

- Xo'p, xo'p, tan olaman.

- Qayoqqa borib keldingiz?

- Bittasi bilan uchrashuvim bor edi. Shuniyam bilib qo'yingizmi? Siz ayollardan hech narsani yashirib bo'lmaydi-ya!

Mana, nihoyat chiroq o'chdi. Demak, Gulruh uxlab qoldi.

Sekin o'rnimdan turdim. Eshik oldiga chiqib, birpas turdim. Tevarakni kuzatdim. Hamma yoq jim-jit. Hatto soqchilar ham pinakka ketgandi. Qorni g'ichirlatmasdan bir-bir bosib "shtab"; tomon yurdim.

Bu oqshom Po'lat Damirovich navbatchi edi. Beriroqda turgancha u tunaydigan xonaning derazasiga ko'z tashladim.

Tunchiroqning xira yog'dusi lipillab turardi. Devor yoniga o'tib yana biroz kutdim. Bir qadam narida deraza. Men shu deraza

yonidan bildirmay o'tishim kerak edi. Bir mahal ichkarida nimadir daranglab ketdi. Uning ketidan ayol kishining kulgisi eshitildi.

Hushyor tortdim. Devorga qapishib oldim. Deraza ro'parasida bir juft soya paydo bo'ldi. Keyin yana jimlik.

O'n daqiqalardan keyin asta o'rnimdan jildim. Deraza ostidan yurakni hovuchlagancha engashib o'tdim. Xayriyat. Endi bu yog'iga

unchalik qo'rqmasam ham bo'ladi. "Shtab"; kazarmasi haqida umuman tasavvurim yo'q edi. Xayolimda Gulruh ta'kidlagan

allaqanday "...darcha";dan bo'lak hech vaqo yo'q. Shuning uchun duch kelgan birinchi darchadan tavakkaliga ichkariga

mo'raladim. Zim-ziyo qorong'ilik. Qorong'ilikdan boshqa hech narsa... shu chog' allakimning jon achchig'ida ingragani qulog'imga

chalindi. Butun vujudim, e'tiborim quloqqa aylanib ichkariga quloq tutdim. Yana o'sha ayanchli ingroq... A'zoyi badaningni

junjiktirib yuboruvchi ingroq...

Darchani sekin chertdim.

Javob bo'lmadi.

Javob o'rniga yana o'sha azobli ingroq...

Allaqayerda xo'roz qichqirdi.

"Bu yerning xo'rozlari namuncha vaqtli qichqirmasa?!";

Izimga qaytdim.

Deraza yonidan birdan o'tib keta olmadim. Nega deganda, derazaning kichik bir tabaqasi ochilgan bo'lib, u yerdan qandaydir gap-so'zlar eshitilardi. Beixtiyor quloqlarimni bekitdim. Umrim bino bo'lib bu qadar uyatli, pardasiz so'zlarni eshitmagandim. Demak, ichkarida fohisha bor.

"Post";ga qaytdim. Bu yerda osoyishtalik hukmron edi. To'lin oy yog'dusiga chulg'angan xonada Gulruh uxlardi. Hech narsadan bexabar...

O'zimni karavotga tashladim-u, toshdek qotdim. Ammo ertalab eshik "tiq"; etgan zahoti uyg'ondim. Tashqarida telpagini ko'zigacha bostirib olgan Hakim Nazarich turardi.

Eshikni ochdim.

- Salom.

- Yaxshi keldingizmi?

- "Post";da tinchlikmi?

- Xuddi shunday.

- Hamshira qizimiz qalay? Bezovta bo'lmadimi?

Hazil qilgim kelib:

- Hamshiramiz onasining qornida yotganday bexavotir uxladi va hamon uxlamoqdalar, - dedim.

Hakim Nazarich kulib qo'ydi-da, o'zining xonasi tomon o'tdi.

Shu chog' eshik g'iyqillab ochildi-da, Gulruh paydo bo'ldi.

- Sizlarga gap bo'lsa, rosa opqochasizlar-a? - dedi, keyin menga po'pisa qilgan bo'ldi: - Hali shoshmay turing, kechasi allaqayoqqa

ketib qolganingizni Hakim Nazarichga aytib beraman!

- Men shu yerda edim.

- Yolg'on!

- Rost...

- Allaqayoqqa ketib qolganingizni tan oling! Tan olmasangiz...

- Xo'p, xo'p, tan olaman.

- Qayoqqa borib keldingiz?

- Bittasi bilan uchrashuvim bor edi. Shuniyam bilib qo'yingizmi? Siz ayollardan hech narsani yashirib bo'lmaydi-ya!

Gulruh gapimni ko'nliga og'ir oladimi, deb cho'chib turgandim. Yo'q, u muloyimlik bilan jilmayardi.

- Uchrashuvingiz yaxshi o'tdimi, ishqilib?

- Yaxshi ham gapmi!

- Xursandman.

Gulruh xonasiga kirdi.

Avvalgi jur'atsizligim qayoqqa chekindi, bilmayman. Men endi Gulruh bilan bermalol gaplashardim.

- Kechasi Husandan xabar olib keldim, - dedim Gulruh qo'limga malham surayotganda. - Shtab ortidagi darcha haqiqatan ham kazarmaniki ekan.

- O'zingiz ko'rdingizmi?

- Be, qayoqda! Lekin ovozini eshitdim. Oh-voh qilib yotibdi bechora. Bugun Hakim Nazarich bilan gaplashsammi, nima deysiz?

- Husan haqidami?

- Ha. Hech bo'lmasa jarohati tuzalguncha unga kimdir qarab turishi kerak. Shunday yotaversa o'lib qolishi turgan gap.

- Hakim Nazarichga men aytaman bu gapni. Do'xtir sifatida. Shunda ishonishlari mumkin. Mabodo ko'ndira olmasam, keyin siz hujumga o'tasiz. Xo'pmi?

- Sizga yo'q deb bo'larmidi?

Men unga yana nimadir deyish uchun og'iz juftladim, lekin shu vaqt yo'lakda to'plangan bemorlarning shovqin-suroni eshitildi. O'rmimdan turdim.

- Alisher haqidayam gaplashmoqchiydim, - dedi Gulruh past ovozda. - Yaxshisi, ishchilar jo'nab ketganidan keyin "kontora";ga o'ta qolaylik.

- Xo'p.

Chamasi ikki soatlardan keyin biz Hakim Nazarichning xonasiga kirib bordik.

- Tinchlikmi, Gulruh Qosimovna?.. - "mehribon knyazCH"; sirtidan qaraganda har doimgiday xotirjam ko'rinsa-da, botinida bezovta bir to'lqin xuruj qilayotganini sezdirib qo'ydi: uning bo'yinbog'ining tuguni dir-dir titrardi.

- Bemorlar masalasida kelgandim.

- Marhamat, o'tiring.

- Rahmat.

- Xo'sh?

- Oyog'i singan yigitning ahvoli o'nnglanmayapti, shundan tashvishdaman. Kasalxonaga yotqizmasak bo'lmaydi. Operatsiya qilish kerak.

- Muolaja yordam bermayaptimi?

- Umuman. Faqat operatsiya tufayli oyog'ini saqlab qolish mumkin. Aks holda...

- "Aks holda..."; U yog'i ma'lum. Ammo... - Hakim Nazarich bexosdan Gulruhga tikilib qoldi. Keyin birdan uyalib ketgandek nigohlarini olib qochdi.

- Hakim Nazarich, qo'limdan kelganini qilyapman. Lekin men oddiy hamshiraman, xolos.

- Tushunib turibman, biroq kasalxonaning iloji topilishiga ishonmayapman. Vaziyat o'zingizga ma'lum-ku.

- Bilmadim, bu yog'iga o'zingiz bosh qotirishingizga to'g'ri keladi, - dedi Gulruh o'jarlik bilan, hatto depsinib qo'ydi.

Hakim Nazarichning jahli chiqsa kerag-ov, deb turgandim, yo'q, aksincha uning ulug'vor, salobatli yuzi allaqanday tabassumdan yorishib ketdi. Gulruhga erkalovchi bir nigoh tashladi-yu, shu zahoti buni o'zi fahmlab qolganday birdan jiddiy tortdi.

- Harakat qilib ko'raman, - dedi u stol ustidan allanimani qidirgan kishi bo'lib.

- Yana bir iltimos, ham talabim bor edi, Hakim Nazarich. Jahlingiz chiqmasa aytaman.

- Jahlim chiqsa-chi? - Hakim Nazarich kulgudan bazo'r o'zini bosib turganday Gulruhga qaradi.

- Baribir aytaman.

- Unda ayting.

- Bilasizmi... Yaqinda yarador bir yigitni olib kelishgandi. Hozir u kazarmada yotibdi. Lekin ahvoli juda og'ir. Jilla qursa, medpunktda davolanmasa bo'lmaydi.

- Qochoq yigitni aytayapsizmi? U Po'lat Damirovichning ixtiyorida. Aniq bir gap ayto olmayman.

- Hakim Nazarich... Yo'q, Hakim aka, - Gulruh bir qadam oldinga yurdi. - Biz faqat sizni bilamiz. Boshqalarni tan olmaymiz!

Shunda... Shunda Hakim Nazarichning yuzi qanchalar o'zgarib ketganini bir ko'rsangiz edi! Yo'qotgan aziz narsasini qayta topib olganday esankirab qolgandi u.

- Men... Gulruh... Qosimovna, va'da berolmayman, lekin bilasizmi... men harakat qilib ko'raman, - dedi u hayajonini bosishga urinib.

- Men sizga ishonaman, - Gulruh bu so'zlarni shunday samimiyat bilan aytdiki, Hakim Nazarich beixtiyor titrab ketdi.

Men ham lol bo'lib qolgandim.

Hakim Nazarichning qo'l telefoni jiringladi.

- Alo, ha, menman. Tinchlikmi? Ha, bugun boraman. Kecha ishxonada ushlanib qoldim. Borganda gaplashamiz.

Kasalxonadamisan? Xo'p. Xo'p, - Hakim Nazarich bo'g'riqqancha telefonni cho'ntagiga soldi.

- Vaqtingizni olganim uchun uzr, Hakim aka, - dedi Gulruh.

Keyin xonadan chiqdik. "Qiziq, Hakim Nazarich kecha ishxonada tunabdi, shekilli, - degan o'y o'tdi xayolimdan. - Boya telefon qilgan xotinga shunday deb hisobot berdi-ku";

Tushlik bo'lib qolgandi.



- Tushlikni qayerda qilamiz? - deb so'radim Gulruhdan.
- Men har doimgiday xonamda tushlik qilaman.
- Bugun oshxonaga boraqolaylik. Anovi ikkalasining ahvolidan ham bir xabar olardik-da.
- Bo'пти.

Bizni ko'rib Nargiza yig'lab yubordi.

- Siqilib ketdim, - deya hiqilladi u. - Kechasi bilan ko'z yummadim hisob. Qanday kunlarga qoldim, deb o'ylayverib adoyi-tamom bo'ldim. Agar hozir sizlar kelib qolmaganingizda o'zimni anovi biqirlab turgan qozonga tashlab yuborardim!
- Hoy, hoy, Nargiza, o'zingizni qo'lga oling, - dedi Gulruh.
- E, jonimdan to'yib ketdim! Bunaqa hayotdan...
- Hayot shunchalik beqadrm? - dedi Gulruh.

Nargiza unga angrayib qaradi.

- Hayotning qadriga yetmaydigan odam undan osonlikcha voz kechib qo'ya qoladi. Odam yashagisi kelib turganida emas, yashagisi kelmay qolganida yashashga harakat qilishi kerak, menimcha. To'g'rimi, Davron aka?
- Yashaganda ham unaqa-bunaqa emas, hayotning jon yeridan mahkam tutib yashash kerak, - dedim.

Nargizaning biroz chiroyi ochildi.

Topgan-tutganini stolga qo'ydi.

- Nargiz, sho'ttamisan? - eshikdan bosh suqdi Sanobar.
- Ha, kelavering.

Nargiza bo'sh stol olib kelib mening yonimga qo'ydi. Harsillagancha Sanobar kirib keldi. U terlab ketgan, peshbandi yarmigacha ho'l edi. Hol-ahvol so'rashib, qatorimizga qo'shildi.

- Kirlarni yuvib bo'ldingizmi? - so'radi Nargiza.
- Bo'ldim. Ordona qolsin! Adoyi-tamom bo'ldim... - dedi u horg'inlik bilan.
- Pulniyam rosa ishlayapsiz-da! - dedi Nargiza kulib.
- Puliyam boshida qolsin, iloyim! Uyimni, bolalarimni sog'indim. Bo'ldi, boshqa gapirmanglar. Yana "g'ing"; deydigan bo'lsalaring o'zimni o'zim bir balo qilib qo'yaman! Jonimdan to'yib yuribman o'zi! - Sanobar qo'lini peshonasiga tiradi. Qisiq ko'zlaridan yosh sizib chiqdi.
- Bugun ikkalamizgayam ajina tekkan, shekilli, - dedi Nargiza. - Hozir kayfiyatni ko'taradigan bir narsa opkelaman.
- Bormi? - birdan jonlandi Sanobar.
- Yo'q bo'lsa aytarmidim?
- Tugadi, degandi-ku kecha.
- Topdim-da.

Nargiza o'rnidan turib nari ketdi.

Sanobar uh tortib stol suyanchig'iga o'zini tashladi. U butkul g'am-anduhdan yaralgan gumbazday bo'lib o'tirardi. Bu yerda u yanada to'lishgandi.

- Mana! - Nargiza tantanali ravishda stolga aroq shishasini qo'ydi.
  - O'h-ho'! - Sanobarning chiroyi ochildi. - Zo'ridan-ku! Qani, stakanlaringni beringlar.
- Gulruhga qaradim. U ortiqcha mulozamat kutmasdan stakanini uzatdi. Sanobar shisha tiqinini shart-shurt ochdi-yu, shosha-pisha stakanlarga quya boshladi.
- Biz shunaqasiga o'tganmiz, - dedi Nargiza unga hech narsa demagan bo'lsam ham.
  - Sovib qolmasin, qani olinglar, bo'laqolinglar, - stakanni qo'lga olgan Sanobar betoqatlik bilan bizni shoshirardi.
  - Sog'lik uchun! - dedim men.
  - Eson-omon uyga yetib olishimiz uchun! - dedi Nargiza.
  - Men keyingisiga niyat bildiraman, - dedi Sanobar, keyin hech kimga qaramasdan stakanni bir ko'tarishda sipqordi-qo'ydi.

Nargiza stakan tagida ozgina qoldirdi.

Men bir tomchi ham qoldirmadim.

Gulruh stakanni nomiga labiga tekkizdi-yu, stolga qo'ydi.

- Men tashlaganman ichishni, - dedi kulib keyin.
- Boshqa vaqt bo'lganida zo'rlab bo'lsayam ichirgan bo'lardim, - dedi Sanobar og'zidagi luqmani goh u jag'iga, goh bu jag'iga olib chaynarkan. - Lekin hozir bu jonivorning bir tomchisi oltita teng bo'lib turibdi. Ichmasangiz mayli, o'zingiz bilasiz. Nargiz, shishada qolganini asrab qo'y. Manavini ikkalamiz bo'lashib ichamiz.
- Davron... - Nargiza chaynaldi.
- Menga bo'ldi, - dedim shartta. - Sizlar bahuzur olaveringlar.
- Rahmat.

Ikkala ayol Gulruhning tegishini bo'lashib ichishdi. Keyin hamma narsani unutganicha pishillab ovqatlanishga kirishdi. Tavba, ularga qarab turib pilla qurti esimga tushib ketdi.

- Ovqat mazali ekan, oling, - dedi Gulruh menga.
- Ovqatimiz oddiy makaron edi. Qovurma makaron. Lekin juda mazali edi. Pok-pokiza tushirdik hammasini.
- Likopchangizni bering, yana opkelaman, - Gulruhga iltifot qildi Nargiza.
  - Rahmat, to'ydim.

- Menga opkelaqol, - dedi Sanobar likopchasini uzatarkan. Keyin Gulruhga yuzlanib dedi: - Avvallari ovqatni ko'p yerdim. Shuning uchun semirib ketgandim. Lekin bu yerda ko'p yeya olmayapman. Ishtaham yo'q negadir. Ammo baribir semirib ketyapman. Nega shunday ekan-a?

- Kam harakat qilayotgandirsiz.
- Topolmadingiz. Meni g'am semirtirayapti! Qanchalik ko'p g'am cheksam, kuyib-yonsam, shunchalik semirib ketyapman. Bu yomonmi?
- Ortiqcha... - Gulruh endi gap boshlagandi Sanobar uning og'zidan yulib oldi.
- Bu yomon, albatta. Ko'rinish turgan narsa-ku.

Sanobarning savol berib, javobni ham o'zi berib qo'yayotgani kulgimni qistadi. Nargiza bir yo'la o'zining likopchasini ham to'ldirib

keldi, ikkala ayol yana ovqatlanishga tushdi.

Zimdan Gulruhni kuzatdim. Shikoyat qilish va ovqatlanishdan boshqa narsani bilmaydigan manavi yig'loqi ayollar oldida u butunlay boshqacha, betakror go'zal, sodda va yoniga yo'lab bo'lmaydigan darajada mag'rur ko'rinaradi.

\* \* \*

Ertalab barakka brigadir Matchonov bilan yana bir kishi kirib keldi. Yo'q, Hakim Nazarich emasdi. Unga qaraganda yoshroq, lekin xuddi Hakim Nazarichday baland bo'yli, qosh-ko'zlari qop-qora, gavdasi o'ljasiga tashlanmoqchi bo'lgan qoplonday tik va shijoatli, barvasta bu yigit Po'lat Damirovich ekan. Hakim Nazarich bu yerda katta ish boshqaruvchi vazifasini bajarsa, Po'lat Damirovich xavfsizlik ishlariga javobgar shaxs edi. Unvoni kapitan ekan, lekin men uni biror marta ham formada ko'rmadim. - Yangi kelgan kishi qani? - deb so'radi o'sha kuni ertalab Po'lat Damirovich umumiy salom-alikdan so'ng brigadir Matchonovdan. Matchonovning javobini kutmasdan bir qadam oldinga chiqib:

- Men, - deb ovoz berdim.

Po'lat Damirovich menga boshdan-oyoq sinchkovlik bilan nazar tashladi. Billsangiz kerak, xavfsizlik ishlarida ishlaydigan kishilarning ko'z qarashlari qattiq va o'ta sinchkov bo'ladi.

- Familiyangiz? - deb so'radi u mendan.

- Davron, - deya ismimni aytdim.

- Men sizdan familiyangizni so'rayapman, - dedi Po'lat Damirovich ovozini xiyol ko'tarib.

- Qo'limda hech qanday hujjatim yo'q, shunday ekan, to'g'ri kelgan familiyani aytaversam ishonasizmi?

Po'lat Damirovichning yuziga qizil yugurdi, bilmadim, jahli chiqdimi yo uyalib ketdimi, ammo o'zini yo'qotib qo'ymasdan darrov javob qaytardi:

- Gap bunday, o'rtoq Davron, bu yer sizga sirk maydoni emas! Bu yerning o'z qonun-qoidalari bor. Shu qonun-qoidalarga so'zsiz ravishda amal qilsangiz kelishib ketamiz siz bilan, aks holda...

- Aks holda?

- Aks holda siz bilan shtabda gaplashishga to'g'ri keladi! - Po'lat Damirovich shaxd bilan Matchonovga yuz burdi: - Ketdik!

Ular chiqib ketishgach, Nurali yaqin kelib:

- Siz haliyam uch-to'rt kundan keyin bu yerdan jo'nab ketishingizga ishonaysizmi? - deb so'radi.

- Albatta.

Nurali indamadi. Lekin qarashlari yoqmadi bu yigitning. U allaqanday istehzo bilan, yo'q, aniqrog'i, bu odam ovsar emasmi, degandek boqardi menga.

Nonushtadan keyin Matchonov hammani hovliga to'plab, safga turg'azdi. Menga safning oxiridan joy tegdi. Keyin yoshgina soqchi yigit hamrohligida yo'lga tushdik.

- Bu nimasi, oshna, - dedim Nuraliga soqchi yigitni ko'rsatib. - Biz mahbuslarmizmi, soqchi qorovulligida ishga oborishyapti?

- Hujjatsiz odamning mahbusdan nima farqi bor? - savolga savol bilan javob berdi Nurali.

Jiddiy qabul qilmaslikka qancha urinmayin, bu yerdagi g'ayritabiiy hol meni har qadamda hayratga solardi, shu bilan birga ham qiziqishim ortardi, ham qandaydir xavotir tuyg'usi chulg'ardi.

Birinchi ish kunimda aytarli esda qolarli voqea-hodisa yuz bermadi. Ammo bir kunning o'zida ancha-muncha gapdan boxabar bo'lganim esimda. Avvalo shuni aytib qo'yay, bu yerda ellik-oltmish chog'li ishchilar brigadasi allaqachon shakllanib bo'lgan, ellik-oltmish chog'li odamning har birining o'z hunari, o'z vazifasi va o'z ish normasi bor edi.

Misol uchun Nuralini olaylik. U duradgor edi. Eshik-rom o'rnatish vazifasi va u bu vazifani juda o'rniga qo'yib, bekamu-ko'st ado etardi, chunki Nurali o'z kasbining haqiqiy ustasi edi. Ish maydoniga kelganidan keyin "Menga qanday vazifa yuklatarkan?";, deb kutib turmasdi, shartta ishga tushib ketardi. Besh kishidan iborat uning o'z kichik brigadasi bor edi. Abduvali esa elektrik edi. U ham o'z vazifasini aniq bilardi va bir daqiqa ham vaqtini behuda sarflamasdan ishga sho'ng'irdi...

"Qanaqa qurilish edi?"; - deb so'rayapsizmi? Darvoqe, men bu haqda hali sizga gapirmadim-a? Aytishlaricha, uch korpusdan iborat, hali qurilishi nihoyasiga yetkazilmagan, ishchilarning taxminicha qandaydir zavodga mo'ljlallangan, ammo arxitektura jihatdan kichikroq fabrika va yotoqxonaga o'xshab ketadigan bu qurilish inshooti Ahmadbey degan turk korchaloniga tegishli ekan. Ahmadbeyning o'zini yoki suratini ishchilar hatto tushlarida ham ko'rishmagan. Shuning uchun Ahmadbeyning yoshi, saxt-sumbati haqida hech qanday ma'lumot bera olishmadi. Faqat uning "juda katta boy, millioner"; ekanligini ta'kidlashdi. O'rmonning qoq o'rtasida zavod yoki fabrika (nima farqi bor, yo unisi, yo bunisi!) qurishdan o'sha millioner bey qanday maqsadni ko'zlagan ekan? Axir, bu yerlar aholi kam yashaydigan chekka hudud bo'lsa. Xudo biladi, yaqin-atrofdagi birorta qishloq yoki xutor uchraydimi-yo'qmi? Birinchi ish kunim to qosh qorayguncha shu holda bosh qotirganim, oxir-oqibatda bir to'xtamga kela olmaganimdan asabiylashib: "E onasini!"; deya so'kinib yuborganim esimda.

Men shu choqqacha umuman so'kinmasdim, o'sha kungi qilig'im esa muhit ta'siriga tezda beriluvchan odam ekanligimning isboti edi. O'lay agar, u yerda deyarli hamma so'kinib gapirardi. Qo'lidan bolg'asi tushib ketsa ham bolaxonador qilib so'kinishardi.

Men o'ylay-o'ylay, nihoyat bir qarorga kelib, Abduvali ta'kidlaganiday "... eng oson ish"; ohak kuydirish ishini tanlagandim. "Baribir bu yerda uzoq qolmayman, ko'nglim sezib turibdi, hech qanday javob kelmagan taqdirdayam nimadir bo'ladi-yu, bu yerdan ketaman. Ammo hunar o'rganib qo'ysam yomon bo'lmas";, derdim ichimda yangi mashg'ulot jarayonini kuzatib, nomiga bo'lsa-da, oz-moz qo'l tekkizib ko'rib, shu ishni eplab keta olishimga ishongan holda xuddi majburiy mehnatdan qaytayotgan mahbuslar singari saf bo'lib, qosh qorayganda kazarma... e, barakka qaytarkanmiz.

Bu yerdagilarning nazarida ohak pishirish eng oson ishdek tuyiladi. Lekin bilmagan odam uchun bit o'ldirish ham qiyin, deganlaridek, eng oson ishning ham o'ziga yarasha zahmatlari bor edi. Biz to'rt kishi bo'lib, maxsus o'choqlardagi maxsus idishlarni ohaktoshlar bilan to'ldirib tagiga olov yoqardik. Ba'zida katta-katta bo'laklardan iborat ohak toshlarni urib maydalashga to'g'ri kelardi.

Kun davomida olov yonida turganim bilan havo sovuq, yer zax bo'lganidan oyoqlarim muzlab, barmoqlarim tarashadek qotib bukmaydigan bo'lib qolgandi. "Qaniydi issiq hammom bo'lsa!.."; deya orzuga ham berildim yo'l-yo'lakay.

- Nurali, bu yerda hammom bormi? - deb so'radim barakka yaqinlashganimizda sherigimdan.

- Hammom?.. Bor, lekin u ishchilar uchun emas.

- Yuvinish xonasi yo'qmi? - deb so'radim kapalagim uchib.

- Bor. Dush. Hammom kontoradagilar uchun.

- Dush bo'lsayam bor ekan-ku.

Azaldan suvni, cho'milishni yaxshi ko'rardim. Uyda vannaga kirvolib soatlab suv ichida yotardim. Balki bu baliq burji ostida tug'ilganim tufaylidir?

O'sha kuni kechqurun dushga kirib oldim-u, obdo-on cho'mildim. Tepadan shovullab tushayotgan suv ostida uz-zoq turdim. Charchog'im chiqib, onadan yangi tug'ilganday yengil tortib yemakxonaga kirib kelganimda... u yerda na Nurali, na Abduvali bor edi. O'n-o'n besh chog'li kishi yemakxonaning u yer-bu yerida o'tirgancha konCHByak qo'shilgan qahva "kokteylCHB"; ho'plab o'tirishardi.

"Kokteyl";ni ishchilar ermak yoki olifalik uchun emas, sovuqqa o'zlarini oldirib qo'ymaslik uchun pulga sotib olib ichishardi.

"Meni kutishmabdi... Shuncha uzoq qolib ketdimmi dushda?.."; - qizil karamli sho'rvadan ko'nglim tortmasdan totinarkanman, beixtiyor Saodat pishiradigan ovqatlar esimga tushib ketdi. Xotinimning qo'li shirin edi.

Ovqatlanib bo'lgach, barakka qaytdim. Lekin u yerda ham na Nurali, na Abduvali bor edi. Uch-to'rt kishi adyolga burkangancha uxlab yotishardi. Shu payt Matchonov eshikdan bosh suqdi.

- Siz shu yerdamisiz? - dedi u hayron bo'lib.

- Ha. Nima boshqa yerda bo'lishim kerakmi?

- Bundan chiqdi, ikkinchi smenada ishlashni xohlamaysiz, to'g'rimi?

- Tushunmadim.

- Ana shunaqa-da!

Matchonov ustimdan g'alaba qozongandek va "o'zingni bilag'on ko'rsataverma, bilmaydigan narsang ko'p hali!";, deya ta'kidlayotgandek g'olibona nazar tashlagancha ichkariga qadam qo'ydi. Uning aytishicha, bu yerda ish uch smenada tashkil etilgan ekan. To'g'ri, qish mavsumida qurilishda ayrim ishlar to'xtatiladi. Chunki davom ettirishning iloji yo'q. Lekin bino ichkarisidagi ishlarni bemalol bajaraversa bo'ladi. Shuning uchun ish uch smenada tashkil qilingan. Lekin bir shart bilan: ikkinchi, uchinchi smenada faqat o'z ixtiyori bilan ishlovchilar ishlaydilar. Buning uchun ularga kunduzgiga qaraganda ikki baravar ko'p ish haqi to'lanadi ("Darvoqe, bu haqda Hakim Nazarich sizga hech nima demaganmidilar?"). Agar istasam, men ham hoziroq borib ishlashim mumkin ekan. Lekin kechki smenada Matchonov emas, boshqa kishi brigadirlik qilarkan.

- Eh-he! Zo'r-ku bu yog'! - dedim Matchonovga qarab. - Ko'rinmas bey afandining kallasi zo'r ekan!

Matchonov nimadir deyishga chog'landi, lekin gapirolmadi, allaqanday sarosima ichida yuzimga tikilib qoldi. U menga ham boshqalarga muomala qilganday, tepadan qilib gapirishga urinardi-yu, nima uchundir sira eplay olmasdi yoki botinolmasmidi?

- Demak, Nurali bilan Abduvali ovqatlanib bo'lib, ikkinchi smenaga ketishibdi-da, - deb so'radim Matchonovdan.

- Ha. Ishlagani ketishdi. Buning nimasi yomon? Normani bajarishadi-yu qaytishadi.

- Norma? Bu yana qanaqasi?

- Kechki smenada ishlayotganlar uchun norma belgilangan.

- E, shunaqami?

- Xo'sh, siz ham ishlaysizmi? - betoqatlik bilan so'radi Matchonov.

- Bilmadim. Hakim Nazarich bilan maslahatlashib ko'ray-chi, - dedim atay.

Matchonovning yana popugi pasaydi. Tezgina xayrlashdi-yu, chiqib ketdi. Safsata sotib biroz chigilimni yozmoqchi edim.

Matchonov qochib qoldi. Negadir shu odamni mayna qilgim kelaverardi. Matchonov bu yerlarning o'z odami bo'lib qolgan,

g'ashiga tegaversam biror yomonlik qilishi ham mumkin, bu qo'lidan keladiyam, shuni bila turib ham, negadir unga jiddiy muomala qilgim kelmasdi. Jo'rttaga Hakim Nazarichning nomini tilga olganimning sababi ham shunda, aslida Hakim Nazarich ham xuddi Matchonov singari menga begona, qolaversa, uning maslahatiga kunim qolgani yo'q, qolmasin ham! Men

Matchonovning buqalamun singari turlanib turishini kuzatib, huzurlanish uchun ish boshqaruvchining nomini tilga olardim.

Ikkinchi yoki uchinchi smenada ishlash masalasiga kelsak, ikki barobar ko'p haq uchun har qanday qiyinchilikka chidashga tayyor bo'lsam-da, negadir ko'nglim chopmayotgan edi. Ba'zi bir shubhali o'ylarga borganim tufayli ehtimol o'zimni ortiqcha urintirgim

kelmagandir. Shubhali fikrlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Buning ham o'z sababi bor.

Odamlar xuddi qadim zamonlardagidek jamoa bo'lib yashab, ter to'kib mehnat qilayotgan bu g'ayritabiiy oilada gap yotmas ekan.

Dastlabki ish kunlarim davomida shunchalik ko'p ma'lumotga ega bo'ldimki, asti qo'yaverasiz. Eng qizig'i, men hech kimdan hech narsa so'ramasdim. Ularning o'zlari oldimga kelib meni men bilmagan gaplardan ogoh etishardi.

Ertalab qurilishga borganimizdan keyin odamlar to'rt-besh kishidan iborat mayda brigadalarga bo'linib, har yoqqa tarqashardi.

Nurali o'z sheriklari bilan ikkinchi korpusning birinchi qavatida ishlardi. Abduvali esa birinchi korpusning ikkinchi qavatiga chiqib ketardi. Boshqalar ham shu taxlit ish joylarini egallashardi.

Men dastlabki kundanoq sal-pal yaqin bo'lib qolgan Nurali bilan Abduvalidan ayrilgim kelmasdi. Lekin bizning

"mutaxassisligimiz"; to'g'ri kelmagani uchun boshqa-boshqa joylarda ishlashga majbur edik. Yuqorida aytganimdek, eng oson ish bo'lgani uchun men ohak so'ndiruvchilar brigadasiga kelib qo'shilgandim. To'rt kishi edik. Bitta brigadir, uchtamiz ishchi.

Ishimizning yaxshi tomoni shunda ediki, biz anovilarga o'xshab taxa, bo'yoq, kuyindi hidlari anqiyotgan dim xonalarda emas,

ochiq havoda, ochiq osmon ostida ishlardik. Ohak kuydiruvchi qozonlarimiz tashqarida edi. Havo goh ochiq, goh bulutli,

sovuqdan sovuq bo'lsa-da, har qalay toza edi. Ishdan qo'ling bo'shagan mahal zamirida allaqanday sir, dardchil hasrat to'la

allanima mavjud bo'lgan yovvoyi va begona manzarani kuzatish imkoni tug'ilardi.

Bir necha qadam naridan quyuq o'rmon boshlanadi. O'ngga qarasangiz ham, chapga yoki to'g'riga, hatto ortga qarasangiz ham

o'rmon, qisqasi, oyog'ingiz tegib turgan qorli maydon chegarasidan o'tganingizdan keyin sizni nima kutib turibdi, qayoqqa yurishingiz kerak, birorta qishloq yoki stansiyaga olib boradigan yo'l bormi-yo'qmi, bari-bari noma'lum va sirli bo'lgan, nafaqat bulutli kunlar, balki bepoyon, oppoq qor sathida quyosh yarqirab nur sochgan paytlar yanada begona, sirli ko'rinadigan maskan...

Ko'zlaring yoshlangancha tikilib turarkansan beixtiyor: "Qani endi qushga aylanib qolsamu, har lahzada qadri bilinayotgan

qadrdon yurt tomon uchib ketsam!"; degan o'y yurakni, nafaqat yurakni, balki butun vujudni junbushga keltiradi.

O'sha kuni men xuddi shunday kayfiyatda qor bosgan o'rmonga tikilib turganimda sheriklarimdan biri Husan yonimga kelib:

- Manzara zo'r-a? - dedi kulib.

- Zo'r-ku, lekin begona-da, - dedim mahzun kayfiyat ta'sirida.

- Hali bir kun ham bo'lmasdan zerikdingizmi? - so'radi Husan.

- Ha.

- Eh-he, bizga o'xshab bir yarim yil yursangiz...

- Sizga o'xshab bir yarim yil yurmasam kerak!

Husan jahlim chiqqanini sezdi, yuzimga bir necha daqiqa so'zsiz tikilib turdida, so'ng:

- Menimcha, yursangiz kerak, - dedi ishonch bilan.

- Ularning so'rovnomasiga javob kelishi bilan...

Husan kuldi. Boshini xiyol qiyshaytirib, chakkasini qashish asnosida yana kuldi, keyin boyagiday ishonch bilan:

- Javob kelmaydi yoki kelgan taqdirdayam ular bizga ko'rsatishmaydi, - dedi.

Yuragim orqaga tortib:

- Nahotki? - deb yubordim beixtiyor.

Husan javob berishga ulgura olmadi. O'zimizdan chiqqan brigadir Qilichbek nariroqda turgandi, bizning suhbatlashayotganimizni ko'rib qolib shitob bilan yetib keldi.

- Bu yerga hangoma qilish uchun kelmagansanlar, yigitlar, gapni bas qilib, ishga kirishinglar! - dedi u.

Biz qilt etmay turaverdik.

- Yigitlar, nima deyapman?! - dedi Qilichbek endi ovozi bir parda ko'tarib. - Judayam gaplashgilaring kelayotgan bo'lsa, kechqurun barakda xumordan chiqquncha gaplashasanlar!

- Nega bizga buyruq beryapsiz? - dedim endi rosmana jahlim chiqib Qilichbekka qarab. Holbuki, kecha kechqurun meni ochiq chehra bilan qarshi olgan, eng ko'p savol bergan yigit shu Qilichbek edi. - Kim sizga bu huquqni berdi?!

- Ishla, degan yomonmi? Pulini qurtday sanab olasanlar-ku! - dedi Qilichbek jangga hozirlanayotgan dakang xo'rozday yelkalarini uchirib.

- Ha, yomon! - deb baqirdim Qilichbekka javoban, ayni chog'da qo'yib bersa brigadir bilan yoqalashib ketishga ham tayyor edim, go'yo hammasi uchun shu odam sababchidek ko'zimga balo-qazodek ko'rinayotgandi.

- Ketdik, - Husan yengimdan tortib nariga olib ketdi.

- Uning bizga buyruq berishga haqqi yo'q! - deya endi Husanga qarab baqirdim. - Pulini qurtday sanab olganimizdan keyin o'z ixtiyorimiz bilan ishlashimiz kerak!

- Psixmi nima balo? - degani eshitildi Qilichbekning ortimizdan.

- O'zing psix! - deya xezlangandim Husan qo'limdan tutib qoldi.

- Yaxshi odam emas ekan bu odam, - dedim hayajondan o'zimni bosa olmay, hansiragancha Husanga qarab.

- Brigadir bo'lmasdan oldin yaxshi odam edi. Keyin aynidi, - dedi Husan kulimsirab. - Yuring, yaxshisi tosh maydalaymiz.

Biz ishchilar tilida "kuvalCHB"; deb ataladigan, men jo'ngina temir to'qmoq deydigan ish qurolimizni qo'lga olib ishga kirishdik. Temir to'qmoqni qulochkashlab kuch bilan ohak toshga urarkanman, gumbirlagan ovozga qo'shilib yuragimdagi alam ham tashqariga otilib chiqib ketayotgandek tobora yengil tortardim.

- Sizni hali shtabga chaqirishmadimi? - deb so'radi Husan dam olishga cho'nqayganimizda.

- Chaqirishlari kerakmi?

- Menimcha, yigirma kunlardan keyin sizni shtabga chaqirishadi-da, shartnoma asosida ishlashni taklif qilishadi.

- Unchalikka borishmas, - dedim hali ham umidimni uzmasdan.

- Borishsa-chi?

- Rozi bo'lmayman!

- Unda tekandan tekin ishlayverasizmi?

- Ketaman! Baribir ketaman!

Husan men bilan tortishish befoyda ekanligini, o'zi yoqlagan tarafni hech qachon bermaydigan chiranchiqligimni fahmladi chog'i, indamay qo'ya qoldi.

Tushlik vaqti yaqinlashardi.

Meni oshqozon tashvishi bezovta qila boshladi. Husanga qarayman, xotirjam; ikkinchi sherigim Fayzining yuziga zimdan razm solaman, qorni to'q odamday beg'am, uchinchi sherigim Toshpo'lat g'ing'illagancha qo'shiq xirgoyi qilyapti...

Oxiri sabrim chidamadi.

- Tushlikka barakka boramizmi? - deb so'radim Husandan.

- Yo'q, tushlik shu yerda bo'ladi, - deb javob berdi Husan.

- Qanday qilib?!

- Halizamon uch-to'rtta xotin kelib, pirashka-mirashka sotib ketadi.

- Bundan chiqdi, shu yaqin-atrofdan qishloq bor ekan-da? - dedim jonlanib.

- Shunaqa shekilli. Anchadan buyon qatnashadi-yu, lekin biz bilan ochilib gaplashishmaydi. Shunday buyruq olishgandir, - dedi Husan.

- Birortasini sevib qolsangizgina sizga e'tibor berishadi, - deya gapga aralashdi Fayzi.

- O'ylab gapirsang-chi, - deya unga tanbeh berdi Husan. - Bilib-bilmay...

- Nega bilib-bilmay bo'larkan, - dedi Fayzi shartta. - Hakim Nazarich ham aslida bizga o'xshaganlardan bo'lgan. Marjalardan bittasini sevib qolib, uylanganidan keyin unga ishonishib yuqori amal berishgan, bilmasang bilib qo'y!

- Bu shunchaki mish-mish bo'lishi ham mumkin-ku, - dedi Husan Fayziga emas, menga yuzlanib.

- Nega unda Po'lat Damirovich haqida bunday mish-mish gap yo'q? - dedi Fayzi bo'sh kelmasdan. - Chunki u haqiqatan ham shu yerning odami! Moskvada tug'ilgan, Moskvada o'qigan, milisa, xotinboz milisa!

- Birorta xotin bilan yetaklashib yurganini ko'rganmisan?

- Ko'rmaganman, lekin eshitganman.

- Quloqning tambasi yo'q, hamma narsani eshitaveradi-da.

- Matchonovga nima deysan? - dedi Fayzi qizishib.

- E, bas qilsang-chi!

- Nega bas qilarkanman? Kerak bo'lsa o'sha Matchonov bu yerga kelib turadigan haligidaqa ayollardan biriga uylangan!

- E, bor-e!

Husan qo'l siltagancha nari ketib Fayzidan qutuldi.

Yoshi o'ttizga ham bormagan, malladan kelgan, hech qachon qorni to'yib ovqat yemagan odamday haddan tashqari ozg'in, ramaqijon Fayzining qiziq fe'li bor edi.

Agar siz indamasangiz, Fayzi ham miq etmay yuraveradi. Ishonasizmi, bir kuni biz ertalabdan kechgacha bir og'iz ham gaplashmasdan ishlaganmiz. Ammo bexosdan bir savol berib qo'ysangiz bormi, undan qutulishingiz qiyin. Yana shunisi qiziqi, uzilib qolgan suhbatni ikki kundan keyin ham kelgan yeridan davom ettirib ketaveradi.

Husan ham Fayzi tengqurob, lekin unga o'xshab ramaqijon emas, kelishgan yigit. Xotinlar haqidagi mish-mishlarni yoqtirmaydi, ammo o'zaro hangoma-gurungni yaxshi ko'radi.

Umuman olganda, bu yerdagilarning deyarli barchasi bir xil dardga yo'liqishgan: ular boshqalar haqida, o'zlari bilan yonma-yon ishlayotgan sheriklari haqida shu qadar ko'p ma'lumotlarga egalarki, birining ko'zi pana bo'lishi hamon ikkinchisi g'iybatni boshlab yuboradi. Mana, birinchi ish kunimning o'zidayoq qancha ma'lumotga ega bo'lganimni o'zingiz eshitdingiz-ku. Biroq ular hech qachon o'zlari haqida gapirmaydilar. Mana shunisi qiziq.

Ha, yana bir gap esimga tushib qoldi. Shu kuni ish vaqti tugashiga yaqin birdan Husan ko'rinmay qoldi.

Ikkala sherigimiz bilan brigadir Qilichbek safga turadigan maydonimiz - qurilish hovlisi tomon yo'rg'alab qolishgandi. Men Husanni kutib turmoqchi bo'ldim. Shu yigitning nimasidir menga ma'qul bo'la boshlagandi-da.

Shu vaqt kimdir chaqirganday bo'ldi, aniqrog'i, nimadir deganday bo'ldi. Qarasam, Toshpo'lat nimalardir degancha men tomon kelyapti.

- Eshitmadim, nima deyapsan? - deb so'radim u yaqin kelgach.

- Husanni kutib turibsizmi, deyapman.

- Ha. Qayoqqa ketdiykin?

- Hojatga ketgan, - dedi Toshpo'lat va yonimga kelib turib oldi.

- Siz ketavering, - dedim uni yo'ldan qoldirmaslik uchun.

- Mayli, hozir ketaman, - dedi Toshpo'lat. - Lekin avval sizga bir gapni aytib qo'yay degandim.

- Qanaqa gap?

- Bu yigit bilan ko'p osh-qatiq bo'lavermang, - dedi shunda Toshpo'lat dabdurustdan. Men uning Husanni nazarda tutayotganini anglab turardim. - Bu yigit qamalib chiqqan, zek!

Men nima bo'пти, deganday xotirjamlik bilan qaradim Toshpo'latning yuziga. Shunda u meni qo'rqitish uchunmi yanada vahimali gap aytdi:

- Husan qotil! Odam o'ldirgan!

Shu gapdan keyin menda qandaydir o'zgarish paydo bo'ldi, buni o'zim ham sezdim.

- Institutda o'qib yurganida o'rtog'i bilan bir qizni kvartiralariga oborib, avval ob-do-on... navbati bilan... keyin o'ldirib, bu kamlik qilganday, jasadni mayda bo'laklarga bo'lib!.. Keyin anhora tashlab yuborishgan!!! - Toshpo'lat shunday vahimali ta'kid bilan so'zlardiki, go'yo bundan huzurlanayotgandek. - Buni qarangi, qizning jasadi bo'laklangan holda anhorning turli qismidan suvga tashlangan bo'lsa-da, ular oqib kelib bir yerga to'planib qolgan ekan! Shundan keyin Husanniyam, o'rtog'iniyam atigi o'n besh yilga qamashadi. Bitta odamning xuni o'n besh yil ekan-da! Bu oz emasmi? Lekin Husan qamoqda bor-yo'g'i ikki yil o'tiradi. Otasi katta amaldor va boy odam bo'lgani uchun pulni rosa sovurib, uni qutqarib qoladi. Barcha aybni sherigiga yuklashadi. Pulning kuchini qarangi, otasi Husanni nafaqat qamoqdan qutqargan, balki uning peshonasidan "sudlangan"; degan tamg'ani ham oldirib tashlagan. Chunki Husan yolg'iz o'g'il, ota-onasining undan boshqa farzandi bo'lmagan. Husanning egizagi Hasan ham bo'lgan-u, lekin u chaqaloqligida olamdan o'tgan ekan. Otasi Husanning chala qolgan o'qishini ham tiklagan, ammo u o'qishni xohlamagan. Daydib yurib bu yoqlarga kelib qolgan. Ana shunaqa! Xo'p, men ketdim.

Toshpo'lat sheriklarining ortidan yugurdi.

Meni ikki narsa hayratga solardi. Avval ikkinchisini ayta qolay, a? Qiziq, Toshpo'lat shuncha ma'lumotni qayerdan oldi? Har qalay Husanning o'zi maroq bilan so'zlab bermagandir? Inson eng tuban qilmishlari haqida osonlikcha og'iz ochmaydi, mening fikrimcha. Tag'in ham kim biladi, deysiz?

Men bir vaqtlar o'zi ancha yoshga borib qolgan odamning yosh qizga uylangani va nikoh oqshomi keksaligi pand berib qo'yib, qo'lidan hech ish kelmagani haqida o'sha kishining o'zi og'iz ko'pirtirib, maqtanib gapirayotganini o'z qulog'im bilan eshitgandim. U so'zlar ekan, shu yoshida yoshgina qizbolaga (axir, bu sharaf!) uylanganini zo'r berib isbotlashga, kimlardir ishontirishga urinardi, lekin aslida o'zining ojizligini fosh qilib, o'zini o'zi sharmanda qilayotganini fahmlamasdi! Demoqchimanki, hayotda shunday odamlar ham uchraydi, biroq bu boshqa masala, qotillik bilan tenglashtirib bo'lmaydi buni!

Endi ijozatingiz bilan meni hayratga solgan birinchi sababga o'tsam. Yuqorida aytganimday, Husan nihoyatda kelishgan yigit edi. Ayniqsa, uning ko'zlari meni larzaga solardi. Bilasizmi, Husanning katta-katta, chiroyli (xuddi qizlarniki kabi), qorachilari bir laxcha cho'g'day yonib turuvchi ko'zlari go'yo go'dak bolaning ko'zlaridek nihoyatda beg'ubor va ma'sum edi! Hamsuhbatiga beozorlik bilan jovdirab boqardi. Yuzi shu qadar tiniq ediki, birorta nuqson sezilmasdi. O'shandan keyin men Husanni ko'p kuzatadigan bo'ldim. O'ziga sezdirmasdan-da. Va har gal: "Toshpo'lat yolg'on gapirdi-yov!"; degan fikrdan nariga o'tolmasdim. Esingizda bo'lsa, Bahodir haqida ham shunga o'xshash gaplarni gapirgandim. Lekin oqibati nima bo'ldi? Demak, bundan chiqdi, inson qiyofasidan olingan taassurot aldanchi ekan-da?!

Nima bo'lishidan qat'i nazar, o'sha kuni men Husanni kutdim. U kelganidan keyin saf maydoniga birga qaytdik.

\*\*\*

Kunlar o'ta boshladi.

Ertalab ishga kelimiz, kechqurun qaytamiz.

Ikkinchi kun birinchi kunga qaraganda xiyla yengil o'tdi. Uchinchi kun bundan-da behroq. To'rtinchi-beshinchi kunlarga borib, men o'zimni anchadan buyon shu yerda yashayotgandek his eta boshladim. Insonning yashovchanligi uning ko'nikuvchanligida, tez moslasha olishiga ham bog'liq, degan fikr tug'ilgandi menda o'sha vaqtda.

Har kuni ertalab Hakim Nazarichni kontora eshigi oldida turganini yo ichkariga kirib ketayotganini ko'rib qolaman. Uning ham menga nigohi tushadi, lekin o'zini menga hech qanday gapi yo'q odamday tutadi. Shundan bilamanki, demak, hech qanday xabar yo'q! Hafsalam pir bo'lib, ishga jo'nayman. Baxtinga sheriklarimning munosabati yomon emasdi. O'zaro san-manga borib janjallashib turganlariga qaramasdan menga ko'zlari tushishlari bilan hurmatimni joyiga qo'yishardi; mojaroni bas qilishib, men bilan suhbatlashishga oshiqardilar; ular ko'p narsalar haqida so'rashardi; yuragim siqilganidan o'zimni qo'yarga joy topolmay turgan bo'lsam-da, ularning savollariga astoydil javob berardim.

Sho'rliklarning ko'pchiligi tirikchilik vajidan uylaridan chiqib ketganlariga bir-ikki yil bo'lgan, shuncha vaqtdan buyon bola-

chaqasining mehridan, ro'y bergan yangilik va o'zgarishlardan bebahra edilar.

Suhbatlarimiz ko'pincha yarim kechga dovur cho'zilib ketganidan uyquga to'ymasdik, natijada ertalab ko'zlarimiz kirtayib, charchog'imiz yozilmagan bir ahvolda ishga jo'nardik. Mabodo men ham nima haqdadir so'rab qolgudek bo'lsam, sheriklarim buni o'zlariga sharaf deb bilgandek, jon-jon deb javob berishardi. Bundan men allaqanday lazzat tuyardim. Bu odamlar mening raftorimda hech kimnikiga o'xshamagan qandaydir xislat ko'rishgan shekilli, deya ich-ichimdan g'ururlanardim. Ularning o'zlari esa bir-birlari bilan juda ko'p jiqillashib qolardilar. Bexosdan tegib ketilgan turtki ham katta to'polonga sabab bo'lardi. Misol deysizmi? Istagancha misol keltirishim mumkin. Bir kuni ertalab (ertalab deganda men tonggi to'rti nazarda tutyapman. Bu yerda tartib shunday. Hamma tonggi soat to'rtida o'rnidan turishi shart. Soat beshgacha nonushta, keyin ishga marsh!) Rayimberdi degan tokarning yerda yotgan shippagini ikkinchi qavatdagi nardan tushayotgan sherigi Abdulla degan yigit oyog'ining uchi bilan turtib ancha nariga uchirib yuborgan ekan. Bo'ldi janjal, bo'ldi qiyomat!

Gaplarini eshiting:

- Sen jig'imga tegish uchun atay shunday qilding! Shippagimni olib kelib oyog'imga kiydirib qo'yasan!
- Atay qilganim yo'q, nega tushunmaysan?!
- O'tgan oy ko'proq pul olganim uchun menga tish qayrab yuribsan! Ko'rolmaysan meni!
- Sening nimangni ko'rolmayman?! Bir safar ko'p pul olsang olibsan-da!
- Alam qilgani yo'qmi?
- Qilgani yo'q, deyapman-ku senga! Alam qilgani yo'q!
- Nega unda shippagimni tepib yubording?! Atay janjal chiqarish uchun shunday qilding!
- Ahmoq! Miyasi yo'q eshak!
- Kim eshak?!
- Sen! Sen! Sen...

Ana shundan keyin ikkala erkak quturgan itdek bir-birlariga tashlanadilar. Boloxonador so'kinishlar avjiga chiqadi.

Eng qizig'i - hech kim ularni ajratishga shoshilmaydi. Hamxonalarimiz zo'r tomosha ko'rishayotgandek maroq bilan janjalkashlarni kuzatishadi. Ikki soqchi hamrohligida Matchonov kirib kelgandan keyingina jang to'xtaydi. Qon to'kilmagan bo'lsa, soqchilar ogohlantirish bilan cheklanadilar. Aks holda janjalkashlarning ikkalasini (balki uch-to'rttasini) ham shtabga olib ketishadi. U yerda Po'lat Damirovich tomonidan ularga jazo choralari belgilanadi.

Shunday to'polon-janjal yuz bergan kezlarda men bu odamlarni tushunmay qolardim. Axir, shippakning bexosdan turtib yuborilgani mushtlashuvga arzimaydi-da! "Bu o'ta janjalkash va ichi tor kimsalar, - derdim ichimda o'zimcha mulohaza yuritarkanman. - Ularning o'rnida men bo'lganimda sira ham bunday qilmasdim!"; Ularning favqulodda jizzaki, urishqoq bo'lib qolishlarining sababini ko'p narsalarni tushunmasliklarida, chuqur fikr yuritmasliklarida deb bilardim. Nega deganda, bularning deyarli hammasi (Husan chalamullani hisobga qo'shmaganda) chala-chulpa olingan o'rta ma'lumot bilan cheklangan, diplom taklif qilingan taqdirda ham uni keraksiz matoh, deb hisoblab rad qiluvchi, har jihatdan o'rtamiyona kishilar bo'lib, azbaroyi tirikchilik tufayli issiq ko'rpasini tark etgan darbadarlar edi.

Bu odamlar orasida ikki kishigina mening e'tiborimga sazovor bo'lishgandi: Nuralini jiddiy va mehribonligi tufayli, Husanni (garchi qotil bo'lsa-da) fikr doirasi keng bo'lgani uchun o'zimga yaqin olardim. U bilan dunyoviy mavzularda bemalol suhbatlashish mumkin edi.

Bir kuni kechki payt "kontora"; xizmatchisi kelib meni Hakim Nazarich yo'qlayotganini aytdi. Bu vaqtda men Husan bilan, yuqorida aytganimday, dunyoviy mavzularda gurunglashib o'tirardik. Barakda faqat ikkimiz qolgandik, boshqalar ikkinchi smenaga ketishgandi.

- Birga boraymi? - deb so'radi Husan xizmatchining gapini eshitganidan keyin.
- Shart emas.
- Menimcha, ular sizga shartnoma bo'yicha ishlashni taklif qilishsa kerak, - dedi Husan.
- Nafasingni issiq qilsang-chi!

Husanga shunday dedim-u tashqariga chiqdim. Ajoyib xushxabar kutayotgandek yuragim gurs-gurs urardi.

- Necha kundan buyon ishlayapsiz? - deb so'radi Hakim Nazarich xonasiga kirganimda.
- Bir hafta bo'lib qoldi.
- Biz so'rovnomaga jo'natdik, lekin hech qanday javob kelmadi. Nima qilasiz, mahbus singari bir so'm olmasdan ishlab yuraverasizmi yoki shartnoma bo'yicha ishlamoqchimisiz?
- Shartnomaga rozi bo'ldim deylik, xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ladi?
- Biz sizga belgilangan tartib bo'yicha maosh belgilaymiz. Maoshning ma'lum bir qismi ehtiyojingga qarab qo'lingizga beriladi, qolgani siz bergan adres bo'yicha uyingizga, yaqinlaringizga yuboriladi.
- Kim yuboradi?
- Biz. Shu ish bilan shug'ullanuvchi shaxs!
- Maoshning hammasini o'z qo'limga olsam bo'lmaydimi? - dedim quvlik qilgan kishi bo'lib.
- Bo'ladi. Lekin qanday eplaysiz? Bankka qo'ya olmasangiz. Pochtaga bora olmasiz. Sababi o'zingizga ma'lum, yoningizda hech qanday hujjatingiz yo'q. Shaharda bir qadam yurolmaysiz! To'g'rimi?
- To'g'ri... - dedim bo'shashib.
- Ana shunaqa! - Hakim Nazarich qo'llarini yoniga kerdi.
- Meni bu yerda ushlab turishga haqqingiz yo'q! Qonunni juda yaxshi bilaman. Hech qanday hujjati bo'lmagan, o'zga davlat fuqarosi bo'lgan odam mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborilishi kerak! - dedim yotib qolguncha otib qol, qabilida, qolaversa, pichoq borib suyakka yetgan, sovuq va begonalik hukm surgan bu makonni iloji boricha tezroq, tezroq va yanada tezroq tark etgim kelganidan nihoyatda asabiylasha boshlagandim.
- Qonunni juda yaxshi bilarkansiz! - dedi Hakim Nazarich istehzoli kulimsirab.
- Har qalay go'l emasman!
- Siz balki ashaddiy jinoyatchidirsiz? - dedi shunda Hakim Nazarich ko'zlari sovuq yaltirab. - Ehtimol, qotildirsiz?! O'n ikkita ayolni avval zo'r lab, keyin vahshiylarcha o'ldirib, qochib yurgan manCHyak balki sizdirsiz?! Ehtimol, siz interpol qidiruvdagi odamdirsiz?!

Hakim Nazarich shunday dahshatli narsalarni so'zlayotgandiki, yuragim orqaga tortib ketdi.

- Qo'ying-e, nimalar deyapsiz?.. Qo'ying-e... - derdim nuqul gap topolmay esankirab qolganimdan.

- Yaqinda PodmoskovCHedan o'ttiz yashar yigitning jasaki topildi, - deya sovuqqonlik bilan davom etdi Hakim Nazarich. - Murdaga hech qanday zarba berilmagan, xuddi uxlayotgandek beozorgina bo'lib yotibdi. Lekin mundaq tekshirib ko'rishsa, uning na jigari, na buyragi, na yuragi bor! O'sha yigitning qotili ehtimol sizdirsiz?!

Asablarim, vujudimdagi yetmish ikki tomirim qaqshab ketdi.

- Nimalar deyapsiz?! Nimalar deyapsiz?.. Axir men... shu qo'llarim bilan odam o'ldiramanmi?!

- Qo'llaringizga nima bo'пти? Bu qo'l bilan har qanday ishni bajarish mumkin. Baquvvat, chayir qo'llar... - dedi Hakim Nazarich kesatgandek bo'lib.

Indamadim. Boshimga tushgan kulfat zalvorini ko'tara olmagandek umurtqam mayishib bukchayib qoldim. Ha, men haqiqiy fojiani tub mohiyatini ayni shu lahzada anglab yetgandim. Umidlarim yig'lay-yig'lay ko'nglimni tark eta boshladi...

- Men harbiy odam emasman, - dedi Hakim Nazarich bir mahal. - Shuning uchun sizga harbiycha muomala qilmadim. Kelishib olamiz deb o'ylagandim. Afsuski... sizni yaxshisi Po'lat Damirovich ixtiyoriga yubora qolay, a, nima dedingiz?

Hakim Nazarich nimaga sha'ma qilayotganini tushundim.

- Shartnoma bo'yicha ishlashga roziman, - dedim yerdan bosh ko'tara olmay.

- Demak, gap bunday...

Hakim Nazarich menga haq olish tartibini tushuntira boshladi. Uning e'tirof etishicha, menga ham xuddi boshqalar qatori "ishbay"; tartibda maosh to'lanarkan. Eng kam ish haqi oyiga to'rt yuz dollar! "Ammo to'rt yuz dollarning hammasi ham qo'lingizga berilmaydi. Har oy oxirida ehtiyojingga qarab pulning ma'lum qismi beriladi. Qolgani adres bo'yicha uyingizga yuboriladi. Shu bahonada sizning haqiqiy manzilingizni bilib olamiz. Mabodo noto'g'ri adres bergan bo'lsangiz, pul o'zimizga qaytib keladi. Agar hech qanday yaqinlaringiz, ya'ni oilangiz bo'lmasa, u holda sizning daromadingiz kontora buxgalteriyasi hisobida turadi. Qachonki, shartnoma muddati tugasa, bir rubliga ham xiyonat qilinmagan holda o'z qo'lingizga topshiriladi!"; Ehtiyojga qarab olinadigan pul uchun esa navbatda turish kerak ekan...

- Yaqinda kelganingiz va yoningizda sariq chaqa ham yo'qligini hisobga olgan holda sizni navbatning boshrog'iga yozib qo'yamiz, - dedi Hakim Nazarich so'zining oxirida.

- To'rt yuz dollar ko'p emasmi? - deb so'radim unga sinovchan va xomush (xuddi taqdirga tan bergandek) tikilarkanman.

- Bizda mehnatiga qarab emas, qadr-qimmatiga qarab insonga haq to'lanadi, - deb javob berdi Hakim Nazarich hamsuhbatining ko'ngliga og'ir botuvchi kalondimog'lik bilan.

Indamasligim kerak edi. O'zimcha shunday fikrda edim. Ammo til qurg'ur pand berdi:

- Sizlarda inson qadr-qimmati oyiga to'rt yuz dollar turadimi?! Bir yilga to'rt ming sakkiz yuz doll...

- Haddingizdan oshmang! - ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib stolga mushtladi Hakim Nazarich.

- Ovqat puli ham shu hisobga kiradimi?

- Soqchi!

Eshik ochilib soqchi yigit otilib xonaga kirdi. Men unga parvo qilmadim, biroq vujudimni iskanjaga olgan jazavani kuch bilan bosib, Hakim Nazarichga sokin va xotirjam nazar tashlagancha tik qarab turaverdim. Ayni shu daqiqada mening haqiqiy qiyofam namoyon bo'lgandir ehtimol. Birdan kutilmagan hol yuz berdi.

- Sen boraver! - soqchiga javob berdi Hakim Nazarich.

Soqchi ortiga qaytib eshikni yopdi.

Hakim Nazarich stol g'aladonini titkiladi, go'yo meni unutganday...

- Xayr.

- Xayr, - dedi Hakim Nazarich bosh ko'tarimasdan.

Eshik tomon yurdim.

Shu chog' eshik shaxt bilan ochilib Po'lat Damirovich shaxdam qadamlar bilan ostona hatlab ichkariga kirib kelarkan, meni turtib o'tdi yonimdan.

- Hakim Nazarich, - dedi u qichqirgudek ovozda mendan uzr so'rashni xayoliga ham keltirmasdan. - Vaqt bo'ldi. Tayyormisiz?

- ShestCH sekund, - dedi unga javoban Hakim Nazarich.

Tashqariga chiqdim.

Havo sovuq, buning ustiga izg'irin shamol esardi. "Kontora"; tepasida muallaq turgan oy ham sovuqqa dosh berolmay, dildirayotgandek ko'rinardi.

Barakka kirgim kelmasdi.

Taxta to'siq yoqalab ketgan yo'lak bo'ylab yurib ketdim. Izg'irin shamol burnimni chimchilar, ko'zlarimga nina sanchar, quloqlarim sovuqqa qotib qolganidan, barmog'ingiz tekkan zahoti uqalanib ketadigandek ular jonsiz va mo'rt bo'lib qolgandi.

Taxta to'siq yonidagi yo'lak bo'ylab asta-sekin odimlarkanman, go'yo rangpar to'lin oy ham menga hamroh bo'lgisi kelib suzayotgandek tuyulardi. Birdan yuragim hapriqib ketdi shunda. Men to'siqning narigi tomonidagi, soqchilar hech qachon ko'riqlay olmaydigan ozod va nurafshon hayotni sog'ingandim. Taxta to'siqdan sakrab o'tib ketishdan zo'rg'a o'zimni tiyib turardim. Bilaman, taxta to'siq bo'ylab dam oldinga, dam orqaga yurib turgan soqchilar nafaqat meni, hattoki qushni ham taxta to'siqdan oshib o'tishga yo'l qo'ymaydi!

Men o'zimni bir umrlik qamoq jazosiga hukm qilingan mahbusdek his etardim. To'g'ri-da, bu yerning qamoqxonadan nima farqi bor? Hatto qamoqxonadan ham beshbattar. Beshbattarligi shundaki, bu yerdagi hayot qamoqxonadagiga ham o'xshab, ham o'xshamaydigan, alohida qonun-qoidalari mavjud bo'lgan, ta'bir joiz bo'lsa, yo'ldan adashganlar tiriklayin ko'milgan tirik odamlar qabristoni edi.

"Mana, qanoat qilmaslikning oqibati! - derdim yuragim qon bo'lgancha adadsiz o'y-xayollardan boshim g'ovlab, yo'lak bo'ylab borib-kelarkanman. - Mana, nihoyasiga yetay deb qolgan ilmiy ishni tashlab, hovliqqancha yetib kelgan manzirim! Meni ilmning uvoli tutdi!..";

O'z-o'ziga azob berish va bundan allaqanday huzur-halovat tuyish kasali menda o'sha kunlari paydo bo'lgandi.

To'siq yonidagi yo'lak bo'ylab naq yigirma marta u yoqdan bu yoqqa borib kelganimdan keyingina barakka qaytdim. Bu vaqtda ikkinchi smenada ishlayotgan sheriklarimizning ba'zi birlari normalarini bajarib ishdan qaytishardi. Temir to'shakda yotganday, bezovtalanganimdan uyqum qochib bedor yotarkanman, ishga ketayotganlarida sheriklari bilan birga ketib, qaytishda yolg'iz o'zi barakka kirib kelgan ishchilarni kuzatish asnosida bir narsaga amin bo'ldim: ko'rinmas Beyning iqtidori shunda ediki, u odamlarni

astoydil ishlatishning yo'lini biladi! Ishning og'ir-engilligidan qat'iy nazar, belgilangan normani ko'p kuch sarflab bo'lsa-da, qisqa fursatda bajara solib yotoqxonaga qaytish har qanday ishchi uchun qulay-da. Ikki baravar haq to'lanishi esa nur ustiga nur!

\* \* \*

Xayol surib yotgancha ko'zim ilingan ekan.

Bir mahal allaqanday xirqiragan tovush qulog'imga chalinganday bo'ldi. Tushim yoki o'ngim ekanligini anglolmay yotarkanman, xirqiroq tovush endi ayanchli ingroq bo'lib qulog'imga chalindi: "Voy jonim!.. Essiz jonim!..";

Kimdir alahlayapti, degan o'yda indamay yotaverdim.

Xona zim-ziyo qorong'ilikka chulg'angan edi. Pechning tafti pasayganidan xona ichi sovub ketgan, uxlayotgan bandalar hatto uyquda ham sovqotganlaridan qunishibgina yotardilar. Betartib nafas olish, xurrak tortish, alahsira-shlar xonani tutib ketgandi. Tosh qotib uxlayotgan odamning xuddi afsus chekayotgandek chuqur xo'rsinganiga ko'zingiz tushganmi? Yonginamdagi o'rinda yotgan Nurali shunaqa, uyqusida nimadandir afsus chekib, chuqur xo'rsinib qo'yardi. Bir mahal haligi xasta ovoz yana qulog'imga chalindi: "Kim bor?.. Muzday suv beringlar... Ichim kuyib ketyapti?.."; Bu endi shunchaki aljirash emasdi. Kimdir yordam so'rayapti.

- Nurali, - deya sherigimni uyg'otdim. - Birovning mazasi qochdimi, deyman.

Nurali shu zahoti irg'ib o'rnidan turdi. Qorong'ida faqat bir-birimizning ko'zlarimizning ko'rib turardik.

- Sham... Sham qayerda edi-ya? Men hozir...

Nurali pastga tushib, paypaslangancha nari ketdi. Ishchilar tunda g'arazli maqsadda elektr tokidan foydalanmasliklari uchun xavfsizlik xizmati xodimlari tomonidan elektr simlari uzib qo'yilardi. Zarurat tug'ilib qolgandagina soqchilar chiroqni yoqib berishardi, boshqa paytlarda mayda-chuyda ishlar uchun ishchilar shamdan foydalanishardi.

Eshik ochilib-yopildi.

Birozdan keyin Nurali g'udrangancha yonimga keldi.

- Sham ham, govurt ham tashqarida qolib ketgan ekan, yonmayapti...

Ikkovlashib urinib bir amallab shamni yoqdik. Keyin lipillayotgan shamni uxlayotgan kishilarning yuz-ko'zlariga tutib, bemorni qidirdik. Nihoyat, topdik uni.

- Majid aka, sizga nima bo'ldi?

Nurali g'ujanak bo'lgancha qaltirab-titrab yotgan kishining ustiga engashdi.

- S-suv be...r...r... - tomog'i yirtilib, tovush paychalari lat yeganday xirqiroq ovozda gapirdi Majid aka.

- Hozir... - Nurali uning peshonasiga qo'lini qo'ydi-yu, shu zahoti: - Voy-bo'y! Isitmangiz ko'tarilib ketibdi-ku, aka! - dedi.

- Yana... ko'tarilibdimi?..

Elliklarga borgan, siyrak sochlari qordek oppoq bu odamning shu qadar tinka-madori qurigan ediki, gapirishga holi kelmasdi. Ikki og'iz so'zni ham xuddi suvsiz qolgan baliqdek og'zini katta-katta ochib, hansiragancha so'zlagandi.

- Sizda issiqni tushiradigan dori yo'qmi? - deb so'radi Nurali mendan.

Men bosh chayqadim.

- Darvoqe, sizda qayoqdanam bo'lsin?.. O'zi yaqinda keldingiz-ku, - dedi Nurali, keyin Majid akaning peshonasini silarkan: - Eh, Majid aka! Kecha sizga aytuvdim-ku, bir-ikki kun ishga chiqmang, deb. Mana, oqibati! - dedi afsus chekkanday bo'lib.

- S-suv-s... - deya ingrandi Majid aka.

- Suv olib kelaymi? - deb so'radim Nuralidan.

- Nimalar deypsiz?! Sovuq suv mumkinmas! Hoy, kimda dori bor?! - bor ovozi bilan baqirdi Nurali.

Allakimlardan: "Yo'q-q"; degan javob eshitildi. Kimlardir bemahalda bezovta qilishganidan achchiqlanib boloxonador qilib so'kindi. Ammo hech kim o'rnidan turmadi.

- Soqchini chaqirib kelaymi? - dedim Nuraliga.

- Foydasi yo'q, - qisqa javob berdi Nurali.

- Nega? Axir... hech bo'lmasa... ambulatoriyaga...

- Davron aka, keyin tushuntiraman. Hozir jim turing, - dedi Nurali, ovozidan asabiylashgani sezilib turardi.

- Su-uv... Ichim... kuy...di...i... - Majid aka tobora holsizlanayotgan, nafas olishi og'irlashayotgandi.

- Hoy musulmonlar! - deya qichqirdi Nurali. - Bir bechoraning ahvoli yomon, tursalaring-chi! Shunday vaqtda bir-birimizning kunimizga yaramasak, nima qilib yuribmiz bu dunyoda?! Abduvali! Husan! Fayzi! O'lib qolmadinglarmi mabodo?!

Shundan keyin birin-sirin Majid akaning atrofiga odam yig'ila boshladi. Kimningdir termosini bor ekan, bir chashka choy berdi.

Yana biri dori... Biroq dori Majid akaga kor qilmadi. Azob tortib, qiynalib, oh-voh tortib yotib... tongda jon taslim qildi.

Uni o'ladi deb sira ham o'ylamagandim. Sovuq o'tib shamollagandir, uch-to'rt kun ishga chiqmasa o'tib ketadi, degan xayolda edim sham tutib tepasida turganimda. Buni qarangki...

Shu yoshga do'vur o'limga bu qadar yaqin kelmagandim. Shuning uchunmi, kutilmagan hol ruhiyatimga favqulodda yomon ta'sir qildi.

Dard chekib, azobdan qiynalib yotganida uning pajmurda yuziga qarashga asablarim dosh bergandi. Ammo... joni uzilgandan keyin endi bu dunyoga tegishli emasligini bildirganday, haddan tashqari ko'karib ketgan yuziga qarashga jur'atim yetmadi. Deraza oldiga borib turdim.

Kimdir xabar bergan chog'i, xonaga avval brigadir Matchonov, keyin Hakim Nazarichning yolg'iz o'zi, Po'lat Damirovich esa ikki soqchi hamrohligida kirib kelishdi. Ishchilar bilan boshliqlar o'rtasida qisqa savol-javob bo'lib o'tdi. Majid akaning nimadan o'lganligi ma'lum bo'lgach, Hakim Nazarich Matchonovga yuzlanib:

- Endi nima qilmoqchisizlar? - deb so'radi.

- Nima qilmoqchisizlar? - Matchonov chaqchaygancha Nurali bilan Husanga qaradi.

- Iloji bo'lsa, jasadini uyiga yuborsak bo'lardi... - dedi Husan Hakim Nazarichga qarab.

- Uyiga-ya?! - Hakim Nazarichni chetga surib o'rtaga chiqdi Po'lat Damirovich. Uning chiroyli yuzi bo'g'riqib ketgandi.

- Ha, uyiga, - takrorladi Husan.

Boshqalar nafas chiqarmay turishardi.

- Qanday qilib?! - mavridi emasligiga fahmi yetmadimi yo atay qildimi, Po'lat Damirovich mazaxomuz kuldi.

- Samolyot bilan...

Husanning gapi chala qoldi.



- Samolyotda jo'natish uchun to'rt ming dollar kerak! Topib berasanmi?! - Po'lat Damirovich Husanga yeb yuborguday tikildi.

- Ilojini qilarmiz... Hammamiz pul tashlab...

Kutilmaganda Po'lat Damirovich qah-qah urib kulib yubordi. Bu shunday o'rinsiz, xunuk kulgi ediki, umrim bino bo'lib bunday shafqatsizlikka duch kelmagandim.

- "Hammamiz pul tashlab?!"; Qancha pullaring bor o'zi? Menga ham biroz qarz berib tursanglar, degandim!

Shu chog' Husan bir qadam oldinga chiqdi. Oldinga chiqarkan, uning yuzi oppoq oqarib ketgandi:

- Qancha kerak?!

Shunda ikkita bir-biridan chiroyli, ammo qiyofalarida ikki xil, bir-biriga o'xshamaydigan ifoda kezinayotgan yigit yuzma-yuz turib qolishdi.

Husanning muloyim yuzi oppoq...

Laxcha cho'g'day yonuvchi ko'zlari g'ussaga to'la...

Po'lat Damirovichning xushbichim oqish yuzi ayni lahzada qip-qizarib ketgandi. Ko'zlari shafqatsizlik bilan yonardi.

Shu chog':

- Gap bunday, - degancha ularning o'rtasiga suqildi Hakim Nazarich. U o'zini ko'rsatish uchun qulay vaqtni poylab turganday tuyuldi menga. - Murda mahtal bo'lib qoldi. Sizlar rasm-rusumlaringizni qilaveringlar. Bu yog'ini biz hal qilishga urinib ko'ramiz.

- Men va'da bera olmayman, - dedi Po'lat Damirovich keskin ohangda. - Hakim Nazarich, agar malol kelmasa, o'z nomingizdan va'da bering.

- Men hali hech kimning nomidan va'da berganim yo'q, - dedi unga javoban Hakim Nazarich. - Faqat bir narsani iltimos qilgandim. Murdani oldida shovqin ko'tarmanglar, yaxshimas bu axir!

Boshliqlar birin-ketin chiqib ketishdi.

Ular chiqqan zahoti xonada g'ala-g'ovur ko'tarildi:

- Sho'rlikni qanday qilib bo'lmasin, uyiga jo'natish kerak! O'z tuprog'iga ko'milganga nima yetsin?!

- O'ziniyay yig'ib yurgani bordir. Cho'ntaklarini qarash kerak!..

- Kontoradan, Hakim Nazarichdan yordam so'rash kerak. Hakim Nazarich yomon odammas!..

- E, o'lgandan keyin qayerga ko'mishning nima farqi bor? Ko'milding nimayu, ko'milmading nima?! O'lding-o'chding! Bu dunyoda yo'qsan, tamom-vassalom!..

Boya, bundan bir necha daqiqa ilgari boshliqlar shu yerdaligida jim turganlar endi gapga tushib ketgan, bir vaqtning o'zida xonada necha kishi bo'lsa, hammasi gapirar, baland ovozda o'z fikrlarini aytib, shovqin solardi. Biroq hal qiluvchi so'zni hech kim aytmasdi. Faqat Husan jim, muzday devorga suyanganicha o'tirar, yuzi yanada oqargan, ayb ish qilib qo'yganday, ko'zlarini yerdan uzmasdi.

Kir-chir parda to'rlari orasidan bulutli, ammo nihoyatda sovuq kunning ma'yus yorug'i tushayotgan deraza ostidagi taxta karavotda esa Majid aka yotardi. Go'yo foni dunyoga tegishli emasligidan xotirjam bo'lganday uning ko'kimtir yuzi sokin tortib qolgandi.

- Siz nima deysiz? - deya yonimga kelib so'radi Nurali.

- Iloji bo'lsa uyiga yuborish kerak.

- Bunday qilsak-chi, hammamiz baholi-qudrat o'rta pul tashlab, yig'sak-da, bir kishini vakil qilib, kontoraga yuborsak...

- Nurali, - dedim past, ammo keskin ohangda. - Masalaga real ko'z bilan qarash kerak, menimcha. Biz topganimizni yig'ib berdik, deylilik, - yoningizda qancha pul bor o'zi?! - kontoradagilar yetmaganiga qo'shib, murdani (yo tavba, kechagina u Majid aka edi-ya!) uyiga yuborishga rozi bo'lishdi ham deylilik; ammo haqiqatan ham murda yuboriladimi yoki biror xilvat yerga oborib ko'mib tashlanadimi?! Hamma gap mana shunda!

- Yo'g'e? - ishonqiramagandek qaradi Nurali. - Juda bo'lmasa uyimizga yuborilayotgan maosh hisobidan...

- Bunchalik sodda bo'lmang, Nurali!

- Axir, nimadir qilish kerak-ku!

- Qilish kerak. Lekin, ochig'i, nima qilish kerakligini men bilmayman, - dedim yuragim siqilib. - Yaxshisi, boshqalar bilan maslahatlashing.

- Ko'pchilik bilan hech narsani hal qilib bo'lmaydi, - dedi Nurali kuyinib. - Hakim Nazarich bilan gaplashish kerak. Yolg'iz o'zi bilan. U insofli odam. Biror yo'l-yo'riq ko'rsatishiga ishonaman!

- Shunday qila qoling...

- Ikkalamiz birga boramiz!

Rozi bo'ldim.

- Ammo bir shart bilan, - dedim Nuraliga sekin. - Husan ham biz bilan birga boradi.

- Qo'ysangiz-chi uni, qo'ying-e, - dedi Nurali ovozi o'zgarib. - U yo'q yerdan janjal chiqarib yuradi. Boya ham ko'rdingiz-ku!

- Shunday bo'lsayam... Har qalay, u menga qaraganda gapga usta...

- Mayli, lekin keyin afsus chekmasangiz bo'ldi.

- Majid aka kasalmidmi yo birdan shunaqa... bo'lib qoldimi? - fursatdan foydalanib so'radim Nuralidan.

Chunki shu kungacha Majid aka bilan bitta xonada yashab kelayotgan bo'lsak-da, u haqda ismidan boshqa hech narsa bilmasdim. Yanglishmasam, bu yerga kelgan kunim shovqin-suron ko'targancha barakka kirib kelgan ishchilar orasida birinchi bo'lib mana shu Majid akaning ko'zlari menga tushgandi. Qordek oppoq soch... pajmurda yuz...

- O'tgan yilgi qishda sovuqqa o'pkasini oldirib qo'ygandi. Isitmasi ko'tarilib, quv-quv yo'talsa ham ishdan qolay demasdi. Ishga chiqmagan kun uchun haq yozilmaydi-da!

- Medpunkt yo'qmi?

- Qayoqda! Bu yil haliyam birnav. O'tgan yili men kelmasdan avvalroq odamlarimiz tutday to'kilgan ekan. Sovuq-da. Tilsiz yov bu! Bizni hech kim bu yerga chaqirmagan ishlash uchun. Shuning uchun tilimiz qisiq! Aslida ularning bizga pul to'lamaslikka ham haqlari bor. Qonunan olib qaraganda! Ammo Hakim Nazarich zo'r odam! Shu kishining sharofati bilan o'zimiz bu yoqda bo'lsak-da, bola-chaqamizning kuni o'tib turibdi.

Nuralining Hakim Nazarichga hurmati baland ekanligini sezdim. Menda esa buning aksi, nazarimda, Hakim Nazarich yoqimli niqob bilan o'z-o'zini pardalab, bechorahol, o'rtamiyona bu kishilar sig'inadigan kimsaga aylangandi. Aslida esa bu odamni nafs alvastisi bu yerlarda yetaklab yuribdi. Nafs alvastisi qiyofasida yurgan turk korchaloni Hakim Nazarichning ham, anavi zolim Po'lat Damirovichning ham jilovidan mahkam tutgan, endi o'zlari istagan taqdirda ham nafs alvastisining changalidan qutula

olmaydilar, bunga kuchlari yetmaydi, endi umrlarining oxiriga dovur ikkalasi ham nafs alvastisi yetaklagan tomonga qarab chopaveradilar, degan fikrda edim.

Shunday qilib, oradan chamasi ikki soatcha vaqt o'tgach, uch kishi - Husan, Nurali va men kontoraga yo'l oldik.

Biz kirib borganda xuddi atay qilgandek u yerda Po'lat Damirovich o'tirardi. Yanglishmasam, Hakim Nazarich ikkalasi shoshqol o'ynashardi.

Men bilan Nurali eshik oldida turdik, Husan bir so'z demasdan borib qo'lidagi tugunchani stol ustiga qo'ydi-da, yonimizga qaytib keldi.

- Bu nima? - shoshqol donalariga tikilganicha kulimsirab o'tirgan Po'lat Damirovich birdan jiddiy tortib, zardali ohangda Husandan so'radi.

Husan unga emas, Hakim Nazarichga qaragancha javob berdi:

- Pul. Uni qanday bo'lmasin uyiga jo'natish kerak!

Po'lat Damirovich irg'ib o'rnidan turib qarshimizga keldi-da, aynan Husanning yuziga yuzini tekkizguday bo'lib vajohat bilan:

- Uni axlatxonaga irg'itib yuborish kerak! - dedi.

Husanning musht bo'lib tugilgan qo'lidan qattiq siqdim. Har tugul, u o'zini bosdi.

- Po'lat Damirovich, men bu kishilar bilan gaplashib olsam, degandim, - dedi Hakim Nazarich o'rnidan turib shoshqol donalarini yig'ishtirarkan.

- Men xalaqit beramanmi? - surbetlik bilan so'radi Po'lat Damirovich.

- Xalaqit bermaysiz. Bu masala baribir sizsiz hal bo'lmaydi. Hali oldingizga o'taman, - Hakim Nazarich yaltoqlanib gapirdi.

- Ovora bo'lmang!

Po'lat Damirovich eshik tomonga yurdi.

- Bu yoqqa, - Po'lat Damirovich chiqib ketishi bilan Hakim Nazarich bizni stol yoniga chaqirdi. - Gap bunday, men u yoq-bu yoqni surishtirdim. Samolyotda jo'natishning iloji yo'q. Ochig'i, tashvishi ko'proq buning. Yaxshisi, poyezdda jo'natish kerak.

- Qanday qilib? - so'radi Nurali, u boyadan buyon Hakim Nazarichdan ko'z uzmasdan tikilib turardi.

- Bu yoqdan mol olib ketayotganlar bilan kelishamiz-da, qo'lga pulni berib, birortasining gilam-palosiga murdani o'rab! - Hakim Nazarich "qoyilmisizlar?"; deganday har birimizga ko'z yugurtirarkan qo'shimcha qildi: - Ham qulay, ham oson!

Mening nafasim qaytdi. Majid akaning murdasini emas, meni gilamga o'rab-chirmashayotganday yuragim tez-tez urib ketdi.

Sheriklarim ham, aytidan, bunday "taklif";ni kutishmagan chog'i, yuzlari o'zgarib, qarashlari mahzunlashdi.

- Boshqa yo'li yo'qmi? - so'radi Husan.

- Yo'q.

- Shunaqa... hojatbaror odam bormi? - dedi Nurali.

- Topiladi.

Uchalamizning nigohlarimiz to'qnashdi.

- Begona yurtda qolib ketgandan ko'ra... - Nurali shunday dedi-yu, gapining yarmini ichiga yutdi.

- Bu yog'ini o'zlaring hal qilinglar, - dedi Hakim Nazarich.

- Bo'пти, deyaveramizmi? - Bir menga, bir Husanga jovdiradi Nurali.

- Boshqa iloji yo'q ekan... rozi bo'lishdan o'zga chora yo'q, - dedim.

- Husan...

Nurali savol nazari bilan qaradi Husanga.

- Mayli, - dedi Husan bo'shashib. U boyagi jahldor yigitga umuman o'xshamay qolgandi.

Murdani soat o'n ikki yarimga tayyorlab qo'yishga va'da berib kontoradan chiqarkanmiz... qismatimni la'natladim. Vaholanki, men qalban xudojo'y edim. Ba'zi xudojo'ylarga o'xshab qiroatxon emasdim, iymon-e'tiqod haqida hech yerda ma'ruza qilmasdim, ammo taqdir, qismat degan tushunchalarga ishonardim. Har qalay, ich-ichimda xudoni tildan qo'ymasdim. Ayni lahzada esa e'tiqod deb atalmish qal'amga darz ketgan, men na xudoga, na qismatga ishonardim...

Shu kuni uch-to'rt kishi ishga chiqmadik. Soat o'n ikki yarimga qadar baholi qudrat barcha rasm-rusularni ado etib, marhumni so'nggi manzilga tayyorlab qo'ydik. Tobutni olib ketish uchun ikki kishi mashinada kelishdi. Bizdan ham ikki kishi stansiyaga bormoqchi edi, Hakim Nazarich ruxsat bermadi. Shaharga chiqish uchun ruxsatnomamiz yo'qligini ro'kach qildi. Buni o'zimiz ham bilardik...

Kechqurun Hakim Nazarich yana meni kontoraga chaqirib, qo'limga biroz pul berdi. Keyin oylik maoshimni kimning nomiga yuborishimni so'radi. Men xotinim Saodatning manzilini berdim.

Eshikdan chiqayotib, yana Po'lat Damirovichga duch keldim. U yonimdan o'tayotib tag'in meni turtib o'tdi. Uning bepisandligi qonimni qaynatdi, ammo tarozi pallasiga qo'yishsa, qay birimiz posangini bosib ketishimizga aqlim yetganidan yana o'zimni bosdim.

Hovlida menga tanish o'sha yo'lakda Husan yurgan ekan. Yoniga bordim.

- Pul berishdimi? - deb so'radi u go'yo hammasini ko'rib-bilib turgan folbinday.

- Ha. Siz qanday bildingiz?

- Shunchaki so'ragandim, siz rostini aytdingiz-qo'ydingiz, - dedi Husan chiroyli yuziga yarashadigan tabassum bilan. - Darvoqe, pulingizga ehtiyot bo'ling. Olg'irlar ham yo'q emas.

- Unchalikka borishmas.

- Ixtiyoringiz.

Husan agar ro'yxushlik bersa, men u bilan gurunglashmoqchi edim. Lekin Husan men bilan gaplashishni istamagandek qo'llarini cho'ntaklariga solganicha nari ketdi.

Keyinchalik ham men uni har qancha kuzatib, qo'yniga qo'l solib ko'rmay, u bilan ochiqchasiga chin yurakdan gaplasha olmadim.

Husan hech qachon menga nisbatan manmanlik qilmagan, suhbatlashishdan bo'yin tovlamasdi, bizning gurunglarimiz yig'ilsa semizgina bir kitob bo'lishi mumkin, ammo qancha gaplashmaylik, uning gap ohangida vahshiy qotilga xos shafqatsizlikni sezmadim, u so'zlar ekan, yuzidan bolalarga xos soddadil va musaffo tabassum arimasdi. Va men har gal unga qarab turib, shunday beozor yigit qanaqasiga qotil bo'lsin, deya hayron bo'lardim.

Husanning qo'li qon qotil ekanligiga ishonmagan bo'lsam-da, uning folbinlikdan xabari borligiga tez kunlarda amin bo'ldim. Men Hakim Nazarich bergan pulni oradan ikki kun o'tgach, o'g'irlatib qo'ydim!..

Kim olganiga sira aqlim yetmasdi, hatto kimdan gumonsirashni ham bilmasdim. Nazarimda, hamma o'zi bilan o'zi ovoradek, oramizda imonsizlar yo'qdek tuyulardi. Shunday bo'lsa-da, pul o'g'irlandi. Men bir necha kun, to sheriklarim bu sirdan ogoh bo'lguncha tushlikda och qoldim. O'sha kunlarda pul men uchun faqat tushlikda zarur bo'lardi.

Yuqorida, gap orasida qistirib ketgandim, agar esingizda bo'lsa, qanaqadir ayollar tush payti kelib "pirashka-mirashka"; sotib ketishlari haqida. Nari borsa, o'ttiz-o'ttiz ikkilarga kirgan, moviy ko'zlari shahlo, mallasochli bu ayollar har kuni tushlik vaqtda savatlari bilan qurilish maydonida paydo bo'lishardi. Bir necha bor ularni gapga solishga urinib ko'rdim, ammo men shoxida yursam, ular bargida yuradiganlar xilidan ekan, tutqich berishmadi. Noto'g'ri xayolga bormang, mening bor-yo'g'i maqsadim, ular bilan gaplashib, jilla qursa o'zining qayerda ekanligimni bilib olish edi.

Xatti-harakatlarimdan Fayzi ham qandaydir boshqa ma'no izlagan shekilli, o'sha kunlarning birida:

- Davron aka, xafa bo'lmang, bular o'zi shunaqa, - deb qoldi dabdurustdan. - Avvaliga o'zlarini taroziga solishadi, chekinmasdan hujumga o'taversangiz, oxiri taslim bo'lishadi. Yuz gramm quyib bersangiz, voobhe rohat-farog'atga ko'milasiz!

- Siz meni noto'g'ri tushunibsiz, - deya endi gap boshlagan edim, Fayzi yana gapni ilib ketdi.

- Hov anavi kishi bor-ku, - deya u qo'lini qo'shni brigadada ishlayotgan o'rta yashar, tepakal, ko'zlari olma-kesak terib turadigan Qadamboy og'aga bigiz qildi. - Shu odam bittasiga qarmoq solib yuribdi. Anovi tiqmachodqay xotin bor-ku, tuyaqushga o'xshab lo'killab yuradigan, o'shani anchadan buyon aylantirayapti. Menimcha, uylansa kerak.

- Laqqa baliq oyimcha ham osongina qarmoqqa ilinadiganga o'xshamaydi, - deya oraga gap qo'shdi Toshpo'lat.

- Ilinmay qayoqqa borardi, hammasiyam ersirab yurgan megajinlar! - dedi Fayzi.

- Har qalay, ko'chada qolganlaridan bu yerga kelmayotgandirlar, - dedim.

- Shunaqalariyam bor, ishonmasangiz kechqurun Qadamboy og'adan so'raymiz, u hech narsani yashirmaydi, - dedi Fayzi shaxt bilan.

- Shart emas.

Suhbatimizga faqat Husan aralashmadi. U xayol daryosiga g'arq bo'lgancha o'y surib o'tirardi.

Kechqurun oshxonada o'tirganimizda Fayzi Qadamboy og'ani stolimizga boshlab keldi.

- Qadamboy og'a, - dedi Fayzi bizlarga ko'z qisib qo'yarkan. - Manavi yigitlarga anovi laqqa baliqchangiz haqida gapirib bergandim, ular ishonishmayapti. Shunday ofatijon Qadamboy og'aga qayrilib ham qaramasa kerak, deyishyapti. O'zingiz gapirib bering bularga!

Qadamboy og'a deganimiz qoyilmaqom ish qilgan odamday kerilganча stulga o'tirarkan:

- Nega ishonishmaydi? Nimaga ishonishmaydi? Nima, biz erkak emasmizmi? - dedi hammamizga bir-bir olazarak nazar tashlarkan.

- Nimalar deyapsiz? - deya xitob qildi Toshpo'lat. - Biz faqat bir narsaga tushunmayapmiz, to'g'rirog'i, hayron bo'lyapmiz, shunday ko'hlik, yoshgina ayolni qanday qilib o'zingizga qaratib oldingiz? Biz gap otsak, qayrilib ham qaramaydi-da!

Husan "piq"; etib kulib qo'ydi. Aftidan, u Toshpo'lat ta'riflagan "... ko'hlik, yoshgina ayolning"; haqiqiy qiyofasini ko'z oldiga keltirdi chog'i.

- Ha, betayin, - erkalagandek Husanni koyidi Qadamboy og'a, chamasi uning kulgisini ishqibozlik oqibati, deb bildi-yov. - Senlarga shunaqa gap bo'lsa!

- Tajribangizni o'rtoqlashing, deyapmiz-da, - deya yana pishang berdi Fayzi.

- Unga rostdan ham uylanmoqchimisiz? Tegaman, dedimi?! - ishonqiramagandek so'radi Toshpo'lat.

Bu yigitlar Qadamboy og'aning fe'l-atvorini obdon o'rganishgan chog'i.

- Tegaman deyishga-ku degan, - dedi shunda Qadamboy og'a kerilib. - Men taklif qilmasimdan burun o'zi og'iz solgan. Faqat bir-ikkita sabab yo'limizga g'ov bo'lib turibdi-da.

- Qanday sabab? Eri bormi?!

- Yo'g'-e. U tomondan hech qanday g'ov yo'q. Faqat kafillikka olishga ikkilanayotganini aytmaganda...

- A-ha, demak, u sizni kafillikka olishi kerak? Shundaymi? Shundan keyin kontoradagilar unga uylanishingizga ruxsat berishadi, a, shundaymi?

- Shunday, - Qadamboy og'a boshini solintirdi.

- Oson ekan-u, - dedi Toshpo'lat.

- Mening u yoqda bola-chaqam bor-ku, - dedi shunda Qadamboy og'a boshini ko'tarib Toshpo'latga qararkan. - Bunga uylansam, u yoqdan voz kechishim kerak...

- Zato ozodlikka erishasiz. Xuddi Matchonovga o'xshab! - atay tantanavor ohangda gapirdi Fayzi.

- Shunday qilsammikin?.. - Qadamboy og'a ko'zlarini jovdiratdi. - To'g'risi, bu yer toza jonimdan o'tib ketdi! Ariston bo'lib ariston emasmiz, ishchi bo'lib ishchi emasmiz...

- Uylanganingizdan keyin laqqa baliqchangizga aytsangiz, sizni olamdan o'tdi, deb xat yozvoradi uyingizga...

Fayzi mayna qilishda davom etarkan, men asta o'rnimdan turib, davradan sirg'alib chiqdim. Eshik oldiga yetganimda ortimdan "gur"; kulgi ko'tarildi. Yigitlar shafqatsizlarcha Qadamboy og'ani mazax qilishni davom ettirishyapti chog'i.

Nafsilarini aytganda, Qadamboy og'aning gapida jon bor. Biz haqiqatan ham mahbus bo'lib mahbus emas, ishchi bo'lib ishchi emasmiz. Ishchi bo'lsak, mahbusdek tutqunlikda yashamasligimiz lozim. Mahbus bo'lsak, bizga ish haqi to'lanmasligi kerak. Kim bilsin, kontoradagilar ehtimol bizni ikkala "unvon";dan ham pastroq nom bilan ro'yxatga tirkab qo'yishgandir? Umuman, ro'yxatda bormizmi?!

Odatdagidek, to'siq yonidagi yo'lakda kezib yura-yura hovurim bosilgandan keyin barakka kirarkanman, janjalning ustidan chiqdim.

- Bu choriq kimniki?! Kimniki deyapman?! - deya baqirardi Po'lat Damirovich bu vaqtda o'zining hamisha yaltirab turuvchi etigi bilan allakimning yerda ag'darilib yotgan, titilib ketgan etigini zarb bilan teparkan.

Barakdagilar turgan yerlarida haykal bo'lib qolishgan, hech kimdan sado chiqmasdi.

- Kimniki deyapman? Nima balo, tillaringni yutvorganmisanlar?!

Po'lat Damirovichning ovozi shu qadar jarangdor ediki, baayni quloq pardasini teshib yuborardi.

Hamma jim.

Savoli javobsiz qolganidan Po'lat Damirovich battar achchiqlandi, yuzi bo'g'riqdi.

- Siznikimi?! - deya do'q aralash so'radi u o'ziga yaqinroq turgan kishidan.

- Yo'q, yo'q, mana mening etigim, oyog'imda turibdi, - dedi jonholatda haligi kishi va shosha-pisha ortiga tisarildi.

- Siznikimi?! - Po'lat Damirovich yana bir kishiga yuzlandi.

Shu payt xona to'ridan:

- Meniki! - degan dag'al ovoz eshitildi.

Hamma o'girilib o'sha tomonga qaradi. "Husan!";

Husan xona to'rida butini kerganicha bir poy etiksiz turardi.

Raqibining qon tomiridan tishlashga shaylangan o'qilonday g'oz turgan Po'lat Damirovich sezilarli darajada seskanib tushdi.

- Etik meniki, - dedi Husan endi bosiq ovozda. - Xo'sh, nima bo'пти shunga?

- Nega u bu yerda yotibdi?!

- Qayerda yotsa yotavermaydimi, axir u poyabzal-ku, - dedi Husan kulimsiraganicha.

- Hoy bola! - Po'lat Damirovich uning ustiga bostirib bordi. - Nega mening jig'imga tegmoqchi bo'lyapsan?

- Men sizga bir nima dedimmi? - dedi Husan bir tuki ham qilt etmasdan.

- Axir, men unga qoqilib ketdim. Yiqilib tushishim ham mumkin edi!

- Yiqilib tushmaslik uchun yerga qarab yurish kerak! Yoki bo'lmasa... - Husan qiziq gap aytmoqchi bo'lgandek yon-veriga quvnoq nigoh tashladi. - Yoki bo'lmasa, eshikdan avval soqchilarni kiritish kerak. Ular yo'lingizni tozalab...

- Soqchi!!! - deya qichqirdi Po'lat Damirovich.

Holbuki, uning baqirishiga asos yo'q edi. Ikkala soqchisi ham uning yonida edilar, Po'lat Damirovich to'xtasa to'xtashardi, yursa yurishardi.

- Qo'rqqoq! Uni qaranglar, qo'rqqoqligidan har doim soqchilar bilan birga yuradi! - deya baqirdi Husan ham ovozini ko'tarib.

- Shtabga olib boring! - g'azab bilan buyurdi soqchilarga Po'lat Damirovich va otilib xonadan chiqdi.

Ikki soqchi Husanni qo'ltig'idan tutib tashqariga sudradi...

Barak suv quyganday jimjit bo'lib qoldi.

Ancha vaqtgacha hech kimdan sado chiqmadi.

Hamma Po'lat Damirovichning bostirib kelib qolishidan xavotirda, yurak hovuchlaganicha eshikka tikilib turardi.

Nihoyat, xatarli daqiqalar ortda qoldi. Po'lat Damirovich qaytib kelmadi. Holbuki, hali u yo'qlama qilishga ulgurmagandi. Po'lat Damirovichning kutilmagan bir vaqtda xonaga Azroilday bostirib kirib shaxsan o'zi yo'qlama qiladigan odati bor edi. Yo'qlama chog'ida hamma xonada bo'lishi shart edi. Aks holda, boshiga balo yog'ilardi. Po'lat Damirovich yo'qlama vaqtida xonada bo'lmagan kishini "Shtab";ga chaqirib olib, tinka-madori quriguncha tergov qilardi. Uning goh ilmoqli, goh tuturiqsiz, bema'ni savollariga sabr-toqat bilan javob berganlar xiyla oson qutulardilar. Sarkashlik qilganlarning sho'ri qurirdi.

Ma'lum bo'lishicha, o'sha kech Po'lat Damirovich odatdagidek yo'qlama qilish uchun barakka kelgan va ostona hatlagan zahoti yerda yotgan bir poy etikni ko'rmasdan qoqilib ketgan ekan.

- U atay etigini o'sha yerda qoldirgan, - degandi Nurali menga o'shanda shivirlab. - Shu bolaga tushunmayman, o'lay agar!

Basharasiga qarasang, musichaday beozor, lekin har doim Po'lat Damirovichning jig'iga tegish payida bo'ladi!

- Uni yoqtirmasa kerak, - dedim menam past ovozda.

- Yoqtirmasa shunaqa qilish kerakmi? - hayron bo'lib qaradi Nurali. - O'ziga-o'zi jabr qilyapti-ku!

- Ha, to'g'ri, - deya unga yon berdim.

Shu payt kimdir:

- Husanni olib kelishyapti! - deya xabar berdi.

Hushyor tortdim.

Ikki daqiqa ham o'tmasdan boyagi ikki soqchi Husanni qo'ltig'idan tutib sudraganicha xonaga olib kirishdi va shundoq ostonaga tashladilar-u, bir so'z demasdan chiqib ketishdi.

Bir zumda Husanning atrofida odam to'plandi.

- Nima bo'ldi? Boplashdimi?

- Ta'ziringni yedingmi?

- Boshqa bunday hazil qilmassan endi?

Savol ustiga savol yog'ildi.

Biroq Husandan sado chiqmadi. U behush edi. Yuzi qontalashgan, bo'yni, bilaklari momataloq, chap qoshining yorilgan joyidan qon sizib oqardi.

Nurali ikkovimiz uni to'shagiga olib o'tdik.

- Shu bolaga hech ham tushunmayman, - deya yana takrorladi Nurali Husanning yonida o'tirganimizda. - Po'lat Damirovichning fe'lini bila turib uning g'ashiga tegadi. Etikniyam atay yo'l ustiga qo'ygan, bugun Po'lat Damirovichning shaxsan o'zi yo'qlama qilishini bilardi-da.

Husanning yuziga termildim. Qo'limizdan kelganicha uning yara-chaqalariga malham dori surgan bo'lsak-da, joni azobda ekanligi bujmaygan yuzidan sezilib turardi.

- Shu yigit haqiqatan ham odam o'ldirganiga ishonasizmi? - deb so'radim past ovozda Nuralidan.

- Kim bilsin, - dedi Nurali o'ychanlik bilan. - Mulohazali yigitga o'xshab ko'rinadi menga.

- Menga ham shunday...

- Eh! Odamzod o'zini-o'zi fosh qilmasa uning qandayligini bilish qiyin, - dedi Nurali.

Shu kecha biz galma-gal Husanga qarab chiqdik.

Ertalab Husan qovoq solganicha o'rnidan turib ishga jo'nadi.

- Uch-to'rt kun ishga chiqmay tursa bo'lardi, - dedi Nurali uning ortidan qarab qolarkan. - Kecha tizzasiga ko'zingiz tushganmidi?

- Momataloq edi...

- Tizzasi sinmasa ham mundayroq bo'lgan. Hozir issig'ida sezmayotgandir. Tag'in bir baloni orttirib olmasin.

- Oqsoqlanib yurishiga qaraganda og'riqni sezyapti. Lekin kimgadir o'chakishganday, atay o'zini-o'zi azoblayotganga o'xshayapti...

Menimcha, Po'lat Damirovichning rahmini keltirmoqchi!

- Huv anavi etikni ko'ryapsizmi? - Nurali pechka yonida turgan bir juft yap-yangi etikni ko'rsatdi.

- Ha. Darvoqe, bu etik kimniki?

- Kamoliddin degan yigitniki.

- O'lganmi?

- Yo'g'-e, nimalar deyapsiz? Kamoliddin tirik, to'g'risi, oxirgi marta ko'rganimizda tirik edi. Kim bilsin, hozir qayerda, qay ahvolda ekan? Eshitishimcha, uni Hakim Nazarich o'z panohiga olganmish...

- Unga nima bo'lgan o'zi?

- Ha, darvoqe... Kamoliddinning asli kasbi rassom bo'lgan. Rassomchilikdan omadi yurishmaganidan keyin o'zini qora ishga urgan. O'rtog'i bilan o'n tonna piyozni KamAZga ortishganu "Qaydasan, Rossiya?!"; deb yo'lga chiqishgan. Tamojniydan qochib "chyorniy xod"; orqali yuramiz deb o'rmonda adashib qolishgan. Bu yerning o'rmonlarini bilasiz-ku. Na boshi, na keti bor! Buning ustiga, mashina buzilib qolgan. Bir haftacha mashina ichida jon saqlashgan. Yo'lga olgan ozuqalarini yeb bitirishgandan keyin ahvollari og'irlashgan. Kun sovuq, hamma yoq qor. Qo'llarida kompas bo'lmasa?! Piyozni sovuq urib chiriq boshlagan. Bundan ikkalasi yanada dahshatga tushishgan. Axir, o'n tonna piyozning pulini birovdan olishgan! Bir yerda o'tiraversak, birov kelib bizga yordam berarmidi, deyishib, oxiri mashinaniyam, piyozniyam tashlab poyi-piyoda yo'lga tushishgan. Ikki kun yo'l yurib mundoq qarashsa, yana o'sha yerda, o'zlarining KamAZlarining oldida turishgan! Yeguliklari butunlay ado bo'lgan, qorinlari och, sillalari qurigan... O'rtog'i suv o'rniga ham, ovqat o'rniga ham qorni kappalayvergan. Kamoliddin muzlab qolgan piyozning murtagini kavshagan. Butunlay holdan toyganlaridan keyin kun-tunning farqiga bormay qolishgan. O'rtog'i shamollab qolib, o'sha yerda olamdan o'tgan. Shundan keyin Kamoliddin oyoqlari muzlab qolganiga qaramasdan emaklagancha yo'lga tushgan. "Eng yomon o'lim ochlikdan tirishib o'lish ekan, - derdi Kamoliddin shu yerdaligida. - O'limni kutib yashash esa undan ham og'ir ekan. Men o'layotganimni sezmaslik uchun ham emaklab yo'lga tushdim. Emaklab keta turib jonim chiqib ketganini sezmay qolsam zora, deb o'ylardim..."; Kamoliddin o'zining qancha yo'l yurganini eslay olmasdi. "Hushdan ketganimni eslayman, - derdi u yana. - Men buni o'lim deya o'ylaganman. O'lyapman. O'lim shunaqa bo'larkan-da? Darvoqe, bu holat o'lim bo'lsa, Azroil hazratlari qani, deya taajjublanganim ham yaxshi esimda"; Xullas, muzlatilgan go'shtday yaxlab yotganida uni Hakim Nazarich topib olgan ekan. Avval shu yerga olib kelgan. Ahvoli og'ir ekanligini bilganidan keyin uyiga olib ketgan. Sho'rlik Kamoliddinning ikkala qo'liyu oyog'ini sovuq urib ketgan ekan, do'xtirlar kesib tashlashga majbur bo'lishgan... Hakim Nazarich unga uyiga qaytishi uchun qancha yordam kerak bo'lsa, ayamasligini aytgan, lekin Kamoliddin ko'nmagan. "Bu ahvolda uyga borganimdan qo'ra, o'lganim yaxshi. Agar chindan yaxshi odam bo'lsangiz, do'xtirlarga aytning, ukol bilanmi, zahar bilanmi meni o'ldirib qo'ya qolishsin!"; - deb iltimos qilgan. "Men uzoq yashashni orzu qilardim, lekin bu ahvolda emas! Hozir mening g'o'ladan farqim yo'q. Gapiruvchi g'o'la!.. Jonli g'o'la!.."; - deya yig'lagan... Hakim Nazarichning o'sha yigitga qandaydir mehri tushgan ekan. Uni uyiga olib kelgan. Boshqalar bu mehribonlik boisini sal boshqacharoq ta'riflashadi, emishki, Hakim Nazarich o'rmonda qolib ketgan KamAZni imi-jimida o'ziniki qilib olgani uchun insof yuzasidan Kamoliddinni panohiga olgan! Menimcha, bu bo'lmag'ur gap. Agar Hakim Nazarich bu qadar saxovatli odam bo'lmaganida ham KamAZga egalik qilardi, ham... Kamoliddinni imi-jimida tinchitib qo'ya qolardi! Shundaymi? Hakim Nazarich esa bunday qilmaydi (men ishonaman, bunday qilish uning xayoligayam kelmagan! Bema'ni gaplarni esa g'iybatchilar o'ylab topishgan. Unaqalar ko'p bu yerda. Hali o'zingizam sezib olarsiz. Hammasi alamzada!). Kamoliddinni uyiga olib keladi. Xotini unchalik ro'yxushlik bermaganiga ham parvo qilmaydi. Lekin Kamoliddin bu yerda ham bezovta bo'laveradi. Ikki marta aravachasida qochib ketishga urinadi.

Baxtga qarshi, ikki martayam Hakim Nazarichga duch keladi. Hakim Nazarich nimanidir uyida qoldirgani esiga tushib yarim yo'ldan ortiga qaytayotgan bo'lgan. "Agar Hakim Nazarich kelib qolmaganida o'zimni mashina tagiga tashlamoqchi edim"; degandi Kamoliddin bizga. Hakim Nazarich uning siqilayotganini sezib kunlarning birida Kamoliddinni shu yerga olib keladi. Shu kuni Kamoliddin Hakim Nazarichning uyiga qaytib bormaydi. Unga bu yer yoqib qolgan ekan. Dastlabki kundanoq biz bilan barakda yashay boshladi. Hakim Nazarich kontoradan xona taklif qilganida ko'nmadi. Nihoyatda jiddiy, aqlli yigit edi u. Anovi bir juft etikni atay karavotiga qo'ydirgan. Lekin sababini aytmaydi. Bir-ikkitasi o'smoqchilab so'ragan ekan: "Aqlingni ishlatsang, sababini bilib olasan!"; - deb javob beribdi. Bu bilan u bizlarga nimanidir ta'kidlamoqchi bo'lyapti, aqlli yigit deyman-ku, buning ustiga, rassom! Lekin hozir sal g'alati bo'lib qolgan...

- Qani o'zi? Nega men ko'rmayapman uni?

- Siz kelmasingizdan sal avval shamollab qolgandi, Hakim Nazarich uni uyiga olib ketdi. Hademay yana kelib qolsa kerak.

- Yo tangrim! - deb yubordim beixtiyor.

- Kayfiyatingiz buzildimi?

- Undan battar.

Nurali indamadi.

"Qayerga kelib qoldim o'zi?! - deya xitob qildim xayolan o'zimcha saf qatorida qorni g'arch-g'urch qilgancha ish maydoni tomon ketarkanman. - Sho'rpehona odamlar to'dasi zo'rlik bilan keltirilib to'plangan va majburiy mehnatga jalb etilgan bu makon qamoqxona emasligi ko'rinib turibdi. Har birining zilday og'ir o'tmishi bo'lgan bu odamlar ham allaqanday jinoyatchilar emas, tirikchilik tufayli yo'ldan adashgan kimsalar ekanligi peshonalariga urilgan tamg'adek yuz-ko'zlarida yaqqol aks etgan - bu, ayniqsa, ularning ish desa o'zlarini tomdan tashlashga tayyor ekanliklaridan, qo'shimcha daromad evaziga jonlarini jabborga berib ikki-uch smenalab ishlashlaridan ham kunday ravshan; muammo - bu odamlar ustidan hukm yurgizish huquqiga ega bo'lgan anovi "noyob"; shaxslarning kim ekanliklarida, ish yuritishning bunday, ya'ni ta'bir joiz bo'lsa, iblisona sistemasini qanday o'ylab topganlari-da!

Axir, bu yerdan hatto qamoqxona ham afzal-ku. Har qalay, u yerda nima uchun jazolanayotganing yoki majburiy mehnatga jalb etilganing sababini bilasan. Qisqasi, sen u yerda qayta tarbiyalanyapsan! Bu yerda-chi? Mahbus emassan, biroq mahbusdek kun kechirasan. Hatto eng kuchli tartib-qoidaga asoslangan qamoqxonada ham insonning inson sifatidagi huquqlari bu qadar poymol etilmagan. Kasal bo'lsang, kasalxonaga yuborishadi, har qalay! Bu yerda-chi? Oliy ma'lumotli shifokor u yoqda tursin, olti oylik kursni bitirgan tibbiyot xodimi bo'lganda ham sho'rlik Majid aka tirik yurarmidi? Alam qiladigani shundaki, bu yerda insonga inson sifatida emas, ishchi kuchi sifatida qaralishi, yaroqsiz bo'lib qolganidan keyin bir marta ishlatiladigan idish sifatida tashlab yuborilishi!.. Axir Tangri insonga koinot gultoji sifatida qaragan, shuning uchun ham insonni barcha boshqa tirik mavjudotlardan mukammal qilib yaratgan emasmi?"

O'y-xayollarim adoqsiz edi. Ikki odam zo'rg'a sig'adigan so'qmoqdan saf qatorida ketib borarkanman, bu yo'lning yanada uzoq-uzoqlarga cho'zilishini istardim, shu bilan birga ayni zamonda xayollarim g'arch-g'urch qilayotgan qorning kumush zarralaridek har tomonga sochilib ketmasligi uchun dunyoning narigi boshiga ham piyoda borishga-da rozi edim. Biroq shu kichkina orzuning ham umri qisqa edi. Biz manzilga yetib kelgandik.

- Hamma ish joyiga! - Matchonovning buyrug'i yangradi. - Imillamasdan, gap-so'zga chalg'imasdan chaqqon-chaqqon ishlanglar.

O'n besh kun ichida ikkinchi qavatni topshirib, uchinchi qavatga o'tishimiz kerak!

- Oylikdan darak bormi? - kimdir luqma tashladi.

- Hafta oxirida kontoraga kirib olishingiz mumkin, - deya javob bera boshladi Matchonov. - Lekin avval normani bajarganligingiz to'g'risida mendan spravka olishingiz kerak. Ana shundan keyin navbatingizga qarab maosh olasiz!

- Normani ikki-uch baravar qilib bajarib qo'yganimiz. Lekin navbatimiz kelmayapti-da! - dedi haligi kimsa.

- Sabr! Sabr! Sabr!

Matchonov shunday degancha nari ketdi.

- Sabrning ham uyi kuysin. Rosa nosning xumori tutyapti-da. Lariskadan sotib olay desam pul yo'q. Nosingdan bir kaftgina berib tur, G'iyos! - degani eshitildi haligi kimsaning.

Ha, nega kulgingiz kelyapti? "Nos"; deganimgami? Bu yerda nos nima qiladi, demoqchisiz-da. Afsuski, shunday. Bu yerda nafaqat nosni, balki boshqa kerakli narsalarni ham sotib olishingiz mumkin. Har kuni tushlik mahali keladigan sotuvchi ayollarga "zakaz"; bersangiz bas, ertasi kunioq aytganingizni muhayyo qilishadi. Faqat narxi osmonda bo'ladi.

Sotuvchi ayollar har xil qimmatbaho kiyimlarni ham olib kelishardi. Bu narsalardan faqat qishlik issiq kiyimlarga yaxshi ketardi. Jonidan sovuq o'tgan bandalar qancha pulga bo'lsa-da, shartta ko'zlarini yumib olishardi. Boshqa buyumlarga ortiqcha narsadek qarashardi. Tamaki mahsulotlari xaridorgir edi. Onda-sonda sotuvchilarning uddaburonligi tufayli aroq va vinodan ham oz-moz bahramand bo'lib qolardik. Umuman olganda, odamzod bor ekan va u odamligicha qolar ekan, nafs yo'lida har qanday ishni amalga oshirishning iloji topilarkan.

Nima uchun bunday deya bman, bilasizmi, u yerda... nima desam ekan... Xullas, xotinlar masalasidagi muammoni ham, har qalay... imkon qadar hal qilsa bo'lardi. Bu boradagi qiyinchilikni ayol kishi zimmasiga olishga to'g'ri kelardi, agar ikkala tomon o'zaro kelishib, dil-dilga to'g'ri kelib qolgan bo'lsa bas. Qulay joy topish, soqchilarni ko'ndirish ayolning ishi, bu ishlar uchun ketadigan xarajatni erkak o'z bo'yniga oladi. Qarabsizki, bir-biriga talpingan dillar orzusi ushaladi...

Lapas degan duradgor bo'lardi. Nihoyatda xotinboz edi. Buni hech kimdan yashirmasdiyam. Yaqinlashsangiz bas, xotinlar haqida gap ochardi. Avvaliga o'ynashlarini birma-bir sanab berardi, yana deng, nomma-nom, hatto o'ynashlarining ishxonalarini ham tilga olardi. Jazmanlarining biri bilan uning ishxonasida ishrat qilgan ekan-da.

Yoshi ellikni qoralab qo'ygani, sochi tepadan to'kilgani bois, boshi giyoh o'smaydigan taqir tepalikday yaltirab qolgan, jikkakkina bu odam o'zini Don Juan qilib ko'rsatishdan uyalmasdi. Ikkita gapining bittasi, albatta, xotinlar haqida bo'lardi. Hatto eng "qaltis lahza";lar haqida ham u bemalol, tortinmasdan, batafsil so'zlardi; so'zlarkan, suhbatdoshning nigohida allaqanday (mazaxli, kinoyali yoki nafratli, farqi yo'q) ifodani payqab qolsa bas, shartta gapini kelgan yerida to'xtatib: "Kichkina demang bizni! Kichkinalar chaqqon bo'lishadi. Ayollarga aynan kichkinalar yoqadi!"; deya pisanda qila ketardi. Ulfatlarini ishontirish uchun sotuvchi ayollardan biri (ismi Toshka edimi-ey, biz uni orqavoratdan Koshka deb atardik) bilan tanishib, rosa uning boshini aylantirgan, hatto: "Senga uylanib, shu yerlarda umrbod qolaman!"; deb va'da bergan, bechora qiz o'ttiz to'qqizga kirgan bo'lsa-da, hali turmushga chiqmagan ekan, darrov rozi bo'libdi. Soqchi yigitlardan biri Toshkaning uzoqroq qarindoshi ekan, ancha-muncha pul va ruslarning mashhur qishlik poyabzali - ikki juft valenka evaziga "sevgi otashida yurak-bag'ri kabob bo'lgan oshiq";ning taxta to'siqdan oshib o'tganini "ko'rmay qolgan!";.

Lapas duradgor shu ketgancha bir sutka qorasini ko'rsatmagan. Bu yoqdagilarning ahvolini tasavvur qilavering endi. Axir, ba'zilar ikki yillab xotin ko'rmay yurgan erkaklar-da!

Bir sutkadan keyin Lapas duradgor qaytib kelgan va ...ga to'ygani xo'rozday g'o'ddaygancha sheriklarining so'lagini oqizgancha maqtana boshlaydi: "... sho'rlik Toshka hali qiz ekan... rosa qiynaldi o'ziyam... Ertalab qaragam, tipirchilayverib gilam patlarini yulib tashlabdi... Menga jin urarmidi?.. Munaqa ishlar chikora! Hadisini olvolganmiz-da, hadisini... Ammo birinchi marta... hammaga ham qiyin-da!";

Lapas duradgor juda kelishtirib, o'rniga qo'yib so'zlardi, nozik "sahna"; tafsilotlarini shu qadar tiniq tasvirlardiki, tinglovchi bechoralar beixtiyor bir guvranib olishardi. Ish vaqtida Toshka qurilish maydonida ko'rinishi bilan hamma Lapas duradgorga havas bilan qarar, o'zaro im qoqishib, pichir-pichir qila boshlardi. Lapas duradgor buni sezardi, hatto ba'zi pichir-pichirlar qulog'iga ham chalinardi, lekin nima uchundir barakdalik vaqtidagidek bu holdan yoyilib ketmas, aksincha, har xil gap-so'zlarni eshitmaslikka olar, u brigadadan narigi brigadaga o'tib "mo!";ini reklama qilib yurgan Toshka tomonga esa umuman qaramasdi, go'yo uni ko'rmayotganday, bosh ko'tarmasdan ishlayverardi.

O'zini hech qachon toliqmaydigan, tinib-tinchimas "to'shak qahramoni"; qilib ko'rsatgan Don Juanimizning siri sal keyinroq fosh bo'ldi. Sho'rlik qariqiz Toshkaning dugonasi, ish boshqaruvchimiz Hakim Nazarichning xotiniga ota tomonidan uzoqroq qarindosh bo'lgan, shuning uchun boshqalarga qaraganda bu yerlarga bemalol kirib-chiqib yuradigan Lariskaning gapiga qaraganda (u bu gaplarni Qadamboy og'aning "navnihol"; sevgilisiga kuyib-pishib gapirib bergan ekan), "... bu Lapas duradgor deganlari g'irt impotent ekan-ku! Toshka sho'rlikni rosa ovora qilibdi-da. Toshkaga juda qiyin bo'ldi-da. Shu bilan unga ikkinchi marta mijozi zaif erkak duch keldi. Omadsizligidan kuyib ketyapti bechora. Birorta manaman degan o'rtog'i yo'qmikan? Toshkani tanishtirib qo'yardik. Shu yerda qolishga rozi bo'lsa, birorta durustroq ish topib berardik...";

Bu gaplar og'izdan-og'izga o'tib ko'pchilikka ma'lum bo'lgach, Lapas duradgorning atrofida odam to'planmaydigan, uning oldida xotinlar haqida umuman gap ochilmaydigan bo'ldi. Sho'rlik duradgor aslida impotent ekan-u, ataylabdan o'zini Don Juan qilib ko'rsatarkan. Kim bilsin, balki bu ham bir kasallikdir?.. Lariskaning taklifiga esa negadir talabgorlar topilmadi. Lapas duradgor bo'lsa, bir qancha vaqt o'zini holdan toygan odamdek ko'rsatib yurdi-da, aloha kunlarning birida o'z-o'zidan shikoyat qilib qoldi: "Nimagadir o'zimni yomon sezadigan bo'lib qoldim. Ilgari bir vagon ko'mir tushirsam ham bunchalik charchamasdim. Bu yerning xotinlari yomon kasallikka chalinmaganmikin?..";

Shundan keyin Lapas duradgor og'ir xo'rsinib qo'ydi:

- Yomon kasallikka chalinib, bor boyligimdan ayrilib qolmay tag'in...

Unga javoban hech kim indamadi. Hamma nigohini olib qochardi negadir...

Xullas, o'sha kuni adoqsiz o'ylar girdobidan chiqqan olmay, o'zim bilan o'zim ovora bo'lib qolganimdan ishni ham yolchitmadim.

- Bo'g'irsoq sotadigan ayol kelyapti, tushlik qilamizmi? - deb qoldi bir mahal Husan.

Kechagi kaltakdan keyin u bir og'iz ham gapirmagandi.

- Mayli, - dedim qo'limdan qo'lqopimni yecharkanman.

Shu vaqt bino ichkarisida allaqanday shovqin-suron, bezovtalik sezildi.

- Nima bo'ldiykin? - dedim o'sha tomonga sinchiklab tikilarkanman.

- Hozir anovi Bo'g'irsoqdan so'raymiz-da, - dedi Husan yaqinlashib qolgan sotuvchi ayolga ishora qilib.

Fayzi bilan Toshpo'lat ham ishni tashlab yonimga kelishdi. Ularning ham ikki ko'zi qurilish maydonida edi.

- Bir falokat bo'ldi-yov, - dedi Fayzi.

Husan sotuvchi ayoldan tushlikka kerakli oziq-ovqatimizni sotib olarkan, uni savolga tutdi. Afsuski, ayol ham u tomonda nima sodir bo'lganini aytib berolmadi. Shundan keyin biz shosha-pisha tik turgan holda bo'g'irsoqlarimizni baham ko'rdik-da, hammamiz birgalikda qurilish maydoni tomon yo'l oldik.

Yaqinlashganimiz sayin qulog'imizga shovqin-suron aniqroq eshitila boshladi. Allakim jon achchig'ida dod-faryod qilardi.

- Alisher degan bola tepadan yiqilib tushibdi, - dedi g'uj bo'lib turgan olomon orasidan sirg'alib chiqqan Nurali kayfiyatsiz tarzda.

- Alisher... bolam, o'zingni qo'lga ol. Qo'rqma, xavfli tushmading... Tizzang sal... darz ketibdi... - derdi elliklardan oshgan bir kishi chalqancha yotgancha oh chekayotgan yigitning ustiga engashgan ko'yi.

Bu kishi Alisherning otasi edi. Ota-bola deyarli hech kimga qo'shilmasdilar. Daromadning hammasi o'zlariga qolishi uchun to'rt kishi bajarishi lozim bo'lgan ishni ikkalasi zimmalariga olishgan, shuning uchun bosh ko'tarmasdan tinim bilmay ishlardilar.

O'g'il hali judayam yosh, nari borsa yigirmalarga borgandi. Bilasizmi, Tangri alohida mehr, betakror va beaded iste'dod bilan benihoya go'zal qilib yaratgan odamlar bo'ladi bu dunyoda. Bunday odamlarga qarab turib: "Tavba, shunchalar ham bekamu ko'st husn bo'ladimi?"; - deya beixtiyor hayratdan yoqa ushlaysiz. Alisher ana shunday nihoyatda ko'rkam yigitcha edi. Uning biror marta so'kinganini eshitmagandim.

Og'ir-vazmin, aqlli ekanligi chaq nab turgan beg'ubor ko'zlaridan shundoq sezilib turardi. Holbuki, bu yoshdagi yigitchalarning ko'pchiligi yengiltak, o'yinqaroq bo'lishadi. Axir erta-yu kech bosh ko'tarmasdan ishlash hamma yoshlarning qo'lidan kelmaydi. Buning uchun qanchalar sabr-bardosh, kuch-quvvat kerak. Qizlarni muzqaymoq bilan siylab, tungi barlarda, diskotekalarda asov otdek irg'ishlab sakrash, kayfu safo qilish kimga yoqmaydi? Alisher bunday "lazzat";lardan mahrum bo'lgan, mushtday boshidan mehnatga o'zini urgan yigit. Bundaylar ishlaganda alam bilan, xuddi birovga qasd qilganday ishlashadi. Menimcha, bolaligi og'ir qiyinchiliklar bilan o'tgan odamlar ana shunday ashaddiy mehnatsevar bo'lishadi. Pulni mo'ljalidan sal ko'proq to'lab qo'yishsa bas, har qanday huzur-halovatdan voz kechib, jonlarini jabborga berib ishlashadi.

Alisherning otasi Karimboy aka ham og'ir-vazmin, kamgap kishi edi. O'g'lining yonidan bir qadam ham nari ketmasdi. Kechqurun suhbatlarga umuman qo'shilmasdi. O'g'lini ham o'zidan boshqa biror kishi bilan gaplashishga qo'ymasdi. Sho'rlik ota o'g'lining tarbiyasi buzilib ketishidan cho'chirdi chog'i. Ish vaqtida esa bir-birlarini shunchalik avaylashardiki, ko'rib beixtiyor havasingiz kelardi. Og'irroq yukni ko'tarishga to'g'ri kelsa, bu vazifani, albatta, Karimboy aka o'z bo'yniga olardi. Men bir necha marta ularning tortishib turganining guvohi bo'lgandim. "Ota, shu ishni menga bering, odamni uyaltiryapsiz, axir!"; - deya zorlanardi Alisher. "Nima, meni qarib qoldi, deb o'ylayapsanmi? Nari tur! Hali senga o'xshagan yigitlarning to'rttasining kuchi bor menda. Yo pirim!"; deya Karimboy aka yukni orqalab jo'naydi. Yukni ko'tarayotganda uning sovuq urgan yuzi g'ijimlangan qog'ozdek burishib ketadi.

O'sha mehribon otaning aziz dilbandi ayni zamonda yerparchin bo'lib yotardi.

- Barakka oborish kerak! - dedi kimdir.

- Matchonovdan ruxsat so'rash kerak avval. Bo'lmasa baloga qolamiz!

- Alisher, bolam, ke, yelkamga qo'lingni qo'y...

Karimboy aka qor ustiga cho'k tushib engashgancha inqillab yotgan o'g'luga yelkasini tutdi. Yuzi qordek oqargan Alisher bir-ikki intildi, lekin nima uchundir gavdasini yerdan uza olmadi. Shundan keyin uni ko'plashib ko'tarib olishdi...

"Bola sho'rlikning umurtqasi lat yemadimikin?"; degan o'ydun yuragim uvishdi.

\* \* \*

Qish avjiga chiqqan kunlar.

Havo chunonam sovuq ediki, tuflasang tupuging yerga tushmay muzlab qoladi. Goh quyug tuman qoplasa, goh charaqlagan quyosh nurlari qor bilan qoplangan o'rmon uzra yarqiraydi, biroq... havo baribir sovuqdan-sovuq...

Kunduzi vaqtimiz ishda o'tadi. Har qalay, ovunamiz. Lekin...

Kechalari uyqumizdan halovat yo'qoldi.

Og'riqqa chiday olmagan Alisher inqillab, oh-voh qilib tunda hech kimga uyqu bermasdi. Karimboy aka ishga chiqmasdan o'g'lining yonida o'tirardi. Erta-yu kech dilbandining yuziga termilar, goh majburlab, gohida yalinib-yolvorib bir cho'qim ovqat yedirar, tez-tez kiyimlarini almashtirib, yuvaradi. Bundan ortiq qo'lidan hech narsa kelmasdi. Yuqorida aytganimdek, bu yerda oliy ma'lumotli shifokor tugul, oddiygina hamshira ham yo'qligidan sho'rlik Alisherga loaqal birinchi tibbiy yordam ko'rsatishmadi. Karimboy aka "kontora";ga zir qatnab, o'g'luga yordam berishlarini so'rardi.

Bir kuni uning "kontora"; eshigi oldida Hakim Nazarichga:

- Bolamni birorta kasalxonaga joylashtirishga yordam bering, iltimos. Agar uni kasalxonaga yotqizsangiz, ish haqini olmasdan ishlab beraman. Faqat o'g'limning jonini saqlab qoling, iltimos, - deya yalinib-yolvorayotganini eshitib qoldim.

- Bajonidil yordam berishga tayyorman, - derdi unga javoban Hakim Nazarich. - Lekin buning iloji yo'q! Shahar tugul, qishloqdagi birorta kasalxona sizni qabul qilmaydi.

- Qancha xarajat bo'lsa ko'taraman, uka!

- Gap xarajatda emas, tushuning...

- Jon uka, iltimos, bolam xarob bo'lmasin...

- Urinib ko'raman. Lekin va'da berolmayman.

"Ha"; degan tuyaga madad deganday, Hakim Nazarichning mujmal javobi Karimboy akaga dalda bo'ldi. Dastlabki kunlarga qaraganda o'zini ancha tutib oldi. Endi u o'g'lining tepasida yig'lab, ko'z yoshini selday oqizib o'tirmasdi.

- Ana, Hakimboy, yordam beraman, deb va'da qildi, ulim, - derdi u Alisherga. - Hademay tuzalib ketasan! Bu sen uchun uch-to'rt kunlik azob-da, endi, ulim, chidaysan.

Bu vaqtda Alisherning ahvoli ancha og'irlashib qolgandi. Buni uning isitmasi tushmayotganidan bilsa bo'lardi. Og'riq kuchaygan kezlarda u chiday olmasdan baqirishga tushardi:

- Enasini eshak... bu yerni! Meni ado qildi bu yer! Tamom qildi... Xarob bo'ldim... Nega keldim bu yerga o'zi?!

Bu bilan ham tinchlanmasdan mushtlari bilan nar chetlariga gurs-gurs mushtlardi, mushtlayverardi...

- Bolam... og'ir bo'l, bolam, - deganacha o'g'lini quchoqlardi Karimboy aka. - Erkak kishisan-ku, chidamli bo'l, bolam. O'zingni

o'ylamasang, meni o'yla, bolam. Har gal chinqirganingda jonim chiqib ketganday bo'ladi...

- Chidolmayapman-da, otajon... Og'riq... o'v!.. A!.. A!..

Alisherning faryodi nafaqat quloqlarimni, balki yuragimni teshib o'tganday bo'lardi. Uxlay olmasdan tashqariga chiqib ketardim. Azob tortayotgan yigitchaga yordam berolmayotganimdan ich-ichimdan ezilardim. Ammo hamma birdek shu kayfiyatda deya olmasdim. Ertadan kechgacha va yana yarim tungacha eshakday ishlab, itday charchagan kishilar uyqularida halovat bo'lmayotganiga chiday olmaganlaridan bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiraverib, sho'rlik Karimboy akaning siqilgan yuragini battar siqishardi.

- Erkalik ham evi bilan-da, Karimboy aka! O'g'lingizga ayting, dardga sal og'irroq bo'lsin. Oyog'i singan odam ham shunchalik shovqin ko'taradimi?

- Yaxshisi uni boshqa xonaga olib o'tish kerak! O'zini o'ylamasa, bizni o'ylasin, axir o'larday charchab yurgan odamlar bo'lsak! Dam olishimiz kerakmi-yo'qmi?!

Shunday kezlarda Karimboy akaning yuziga qarab bo'lmasdi. Hamxonalarining jizzaki, betgachoparligidan ko'ngli og'rigani mung'aygan nigohlaridan sezilardi.

- O'g'limning ahvoli og'ir, - dedi u bir kuni dabdurustdan yonimga kelib. - Dardga yengilligidan baqirib yotgani yo'q.

Umurtqasiyam lat yeganmi, deyman... Belini ko'tara olmayapti-da...

- Xudo shifosini bersin, - dedim ko'nglim g'ash tortib.

- Hay... Hay... Hay... - Karimboy aka nadomat bilan bosh chayqadi. Keyin ko'zlari yoshlangancha qo'lini chap ko'ksiga qo'yarkan:

- Mana shu yerim... tuz quyganday achishadiki... chidab bo'lmaydi, - dedi.

Bunday daqiqalarda tilimga tushov tushgandek gapira olmay qolaman. Durustroq taskin berish ham qo'limdan kelmaydi. Ichimni it tirnayotgan bo'lsa-da, o'zimni befarq ko'rsataman.

Qarshimda birdan bir yupanchidan judo bo'lib, hayoti chil-parchin bo'lgan, qayg'u nihoyatda abgor qilib tashlagan, bukchaygan jussasi lahza sayin kichrayib borayotganday, faromush bir kimsa turardi.

Aksiga olganday, o'sha kunlari Hakim Nazarich negadir ko'rinmay qoldi. Kimdir shikoyat qilib borgan, shekilli, bir kuni kechki vaqt hamma barakka to'plangan chog'i, Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Nimalar bo'lyapti bu yerda? Odamlarning tinchini buzayotgan to'polonchi qani? - dedi u xonaga ko'z yugurtirarkan.

Hamma jim.

Karimboy aka gap nimadaligini fahmladi, shekilli, rangi bo'zday oqargan ko'yi asta o'rnidan turdi. Turdi-yu, yerga qaragancha indamay turaverdi.

- Nima bo'ldi? - deb so'radi Po'lat Damirovich latta-putta bilan o'rab tashlangan Alisherga imo qilib.

- Yiqilib tushdi...

- Yiqilib tushishiga kim aybdor? Birov itarib yubordimi?

- Hech kim... o'zi...

- Demak, bu ishda hech kim aybdor emas. To'g'rimi? Yoki... - ijkiladi Po'lat Damirovich. - Yoki shubhangiz bormi?

- Shubha yo'q... Kimdan shubha qilamiz? - dedi Karimboy aka sarosimalanib.

- Baxtsiz hodisa. Ehtiyotsizlik tufayli yuz bergan baxtsiz hodisa, shundaymi?

Karimboy aka allaqanday xavotirdan seskandi.

- Shundaymi? - takrorladi Po'lat Damirovich.

Karimboy aka bosh irg'adi.

- Demak, da'vo qilishga umuman haqingiz yo'qligini ham bilasiz?

Karimboy aka peshonasiga kaftini bosgancha indamay turaverdi.

- Nega javob bermayapsiz? - Po'lat Damirovichning ovozi o'zgardi.

- Uka...

- Men sizga uka emasman!

- Kechirasiz... Po'lat Damirovich... bizning hech kimga da'vomiz yo'q. Faqat o'g'limni davolatishga yordam bering, iltimos.

- Bu ish bilan Hakim Nazarichga murojaat qiling!

Po'lat Damirovich burildi, lekin shu zahoti yana Karimboy akaga yuzlanarkan:

- O'g'lingizni ogohlantirib qo'ying, agar yana dod-voy qilib, odamlarning tinchini buzadigan bo'lsa, shtab kazarmasiga oborib tashlaymiz! Tushudingizmi?! - dedi.

Karimboy akaning yuzi oqarib ketdi.

Po'lat Damirovich barakdan chiqdi.

Shayton qutqusiga uchgan kishilar to'plangan xonaga shu qadar dilgir sukunat cho'kdiki, beixtiyor yurak tars yorilib ketgudek.

Bir vaqt allakim oldimdan yugurib o'tdi va eshikka yaqin yerda devorga suyanib turgan kishi ustiga tashlandi.

- Sen borib chaqqansan, nomard! Endi ko'ngling joyiga tushdimi? Yo o'zim tushirib qo'yaymi?!

Yugurib o'tgan kishi Husan edi. Uning baquvvat qo'llari orasida tipirchilayotgan, ketma-ket tushayotgan tepkilar zarbiga chiday olmasdan baqirayotgan kimsa Karimboy akaga qo'shni nar egasi Alinazar ismli yigit edi.

- Men chaqqanim yo'q! O'lay agar, men chaqqanim yo'q! - deya ayyuhannos solardi u.

- Sen chaqqansan! Sendan boshqa hech kim emas! - derdi Husan uni tomog'idan g'ippa bo'g'ib olgancha. - Odamlarning puliniyam sen o'g'irayapsan! Bilmaydi, deb o'ylayapsanmi?

- O'lay agar...

- O'lging kelayotgan bo'lsang, o'ldiraman! - quturib ketgan Husan kuchining boricha Alinazarni bo'g'a boshladi.

Sho'rlik chaqimchi nafas ololmay xirqirab qoldi.

- Hoy, musulmonlar! Nega jim turibsizlar? Axir, uni o'ldirib qo'ysa, boshimiz yana baloga qoladi-ku! - deya chinqirdi allakim.

Bir necha kishi Husanga yopirildi. Ammo Husan hech kimga kuch bermas, orakashlar qo'lidan tutsa, u oyoqlari bilan Alinazarni tepkilab qolar, juda bo'lmasa boshi bilan raqibining duch kelgan yeriga kalla solardi. Barak shaytonning janjalkash malaylari uyasiga aylangandi.

Endi aralashmaslikning iloji qolmagandi.

- Husan, bas qiling! - olomon orasini yorib o'tib Husanning qizarib-bo'g'riqib ketgan yuziga tarsaki tushirdim. Keyin uning qonga to'lgan ko'zlariga qattiq tikilgancha past, ammo qat'iy ohangda yana takrorladim: - Bas qiling, Husan!



Husan tutqanoq jazavasidan o'zini yo'qotib qo'yib, kutilmaganda hushiga kelgandek birdan qattiq seskandi. Menga yeb yuborgudek, vahshiyona nazar tashladi. Bolalarnikiday beg'ubor ko'zlarini taniyolmay lol qoldim:

- Siz... - u meni birinchi marta ko'rayotgandek yuzimga tikildi.

- Tashqariga chiqaylik, Husan, - dedim ohista, keyin uning hamon titrayotgan bilagidan tutdim.

- Yo'q! - Husan shaxt bilan qo'lini tortib oldi va tashqariga otildi.

Men joyimga qaytdim.

Kimdir Alinazarni o'rnidan turg'azdi. Uning labi yorilgan, yuzi qonga bo'yalgandi.

Hamxonalarimiz endi unga ta'na toshlarini ota boshladilar:

- Hayf-e senga!

- Uyalmasdan shu ishni qildingmi?

- Erta bir kun o'zing shu ko'yga tushsang nima qilasan?

- O'margan pullaringni egalariga qaytar. Sening dastingdan necha kishi och qoldi!

Quloqlarimni bekitdim.

To'shagimga cho'zilib ko'zlarimni yumdim. Ammo sira uyqum kelmasdi.

Chiroq o'chdi. Xonani qorong'ilik chulg'adi. Allaqayerda musiqa yangradi. Zerikkan soqchilar gitarasini ting'irlatyapti chog'i.

Begona yurtning begona ohangi bo'lgani uchunmi, musiqa ko'nglimga yoqmadi, nazarimda, bu ohang deraza ortida pusib, tish qayrab turgan ajalning joduli nolasiday tuyildi. Beixtiyor deraza tomonga qaradim. Biznikiga o'xshamaydigan begona, sovuq va hissiz oyning xira yog'dusi ichkariga poyonoz bo'lib tushib turardi...

\* \* \*

Ertalab soqchilari hamrohligida Po'lat Damirovich yana barakda paydo bo'ldi. Undan sal avvalroq kirgan Matchonov bizni allaqachon safga turg'azib qo'ygandi.

- Siz nima uchun ishga chiqmayapsiz? - deb so'radi Po'lat Damirovich Karimboy akadan.

- O'g'lim...

- Nima o'g'lim?

- Unga qarayapman axir!

- Bunaqasi ketmaydi! Bilib qo'ying, barakda qolishga hech kimning haqi yo'q! Faqat nogironlargina qolishi mumkin.

- Men ishga chiqsam bolamning ahvoli nima bo'ladi?

- Oshpazlar qarab turishadi. Gapni ko'paytirishdan foyda yo'q. Hamma darhol ishga!

Karimboy aka yolvoruvchi nigoh bilan atrofdagilarga nazar tashladi. Safdagilardan sado chiqmadi.

- Hakim Nazarich qachon keladilar? - deb so'rashga jur'at qildim men.

- Hakim Nazarich xizmat vazifasi bilan ketgan, qachon qaytishi noma'lum, - dedi Po'lat Damirovich meni birinchi marta ko'rayotgandek hayron bo'lib tikilarkan.

- Karimboy akaning o'rniga ishlab bermoqchimiz, u kishi o'g'lining yonida bo'la qolsin bir necha kun, - dedim yana biroz dadillanib.

Po'lat Damirovich kibrli nigohlari bilan meni boshdan-oyoq kuzatarkan, istehzo bilan so'radi:

- Shu jussangiz bilan ikki kishilik, yo'q, uch kishilik normani bajara olarmikinsiz?

- Puli to'lansa bo'ldi, har qanday ishni eplab ketaveramiz, - deya dangal javob berdim.

Po'lat Damirovich meni pul uchun o'zini tomdan tashlaydigan chapanilardan deb o'yladi chog'i yo diliga boshqa bir niyatni tugdimi, har qalay:

- Bo'пти, biz rozi, - dedi biroz yumshab.

Safdoshlarim hayratda, axir shu paytgacha hech kim Po'lat Damirovich bilan baqamti turib gaplasha olmasdi-da. "Undan allaqanday yovuzlik hidi keladi";, degandi Husan bir kuni Po'lat Damirovich haqida gapirarkan.

Yonimda turgan Nurali qo'limni siqib qo'ydi. Boshqalari ko'z qisib, iyak qoqib, o'z tabriklarini yo'llashdi.

- Faqat, - deya ortiga o'girildi Po'lat Damirovich eshik oldiga yetganida, - avval o'z normangizni, keyin ota-bolaning normasini bajaranisiz. Har kunlik svodkani brigadir Matchonovdan shaxsan o'zim qabul qilaman!

- Xo'p bo'ladi, - deb javob berdim shu zahoti.

Po'lat Damirovich: "Bu qanaqangiB ";noyob"B telba ekan?"; - deya hayron bo'lganday, yuzimga qaray-qaray chiqib ketdi.

- Baraka toping, uka, - deya qo'limni siqdi Karimboy aka. - Yaxshiligingizni yaxshi kunlaringizda qaytaraylik.

- Alisher sog'ayib ketsa, bas, menga boshqa hech narsaning keragi yo'q.

- Alisher... Alisher... - degancha Karimboy aka o'g'lining yoniga ketdi.

Nurali bilan Husan yaqin kelishdi.

- Karimboy akaning ishini eplay olmaysiz, - dedi Nurali tashqariga chiqayotganimizda. - Lekin xavotirlanmang, biz yordam beramiz, a, Husan, to'g'rimi?

- Albatta.

- Karimboy akaga qiyin bo'ldi, - dedi Nurali. - O'zi yiqilib, mayib bo'lganidayam bunchalik qiynalmasdi.

- Ado bo'ldi, deyvering, - dedim.

Husan bo'layotgan gap-so'zlarga qo'shilmasdan yerga qaragancha bizdan bir qadam oldinda ketib borardi.

Shunday qilib, umrim bino bo'lib, qo'l urmagan ishim - yog'och yo'nuvchilik kasbini o'rgana boshladim. Ish og'ir edi, qiynalardim, boshqalarga qaraganda ko'proq aziyat chekardim, ammo baribir ortga chekinmadim, shunga ahd qilgandim, nega deganda, ish haqi qancha to'lanishidan qat'i nazar - men bu haqda o'ylamay qo'ygandim hatto, - mehnat, faqat mehnatgina meni shayton uyasidagi tutqunlikda jonimga oro kirishi mumkin, degan xulosaga kelgandim. Aks holda, allaqachon telba bo'lib qolishim tayin edi.

Barakda yarim soatdan ortiq turib bo'lmasdi. Alisherning ahvoli og'irlashgan, isitmasi ko'tarilgan, og'riq kuchaygandi. Tez-tez hushdan ketib qolardi. Qadamboy og'a mallasoch ma'shuqasi orqali tinchlantiruvchi dorilar keltirib berganidan keyingina Alisher sal-pal o'ziga kelib qoldi.

- Arzimagan matah ekan-ku, shunga shunchalik zor bo'ldikmi? - derdi Karimboy aka tinchlantiruvchi dorilarga yoshli ko'zlarini tikkancha.

Biroq bu dorilarning ta'siri vaqtinchalik edi. Ma'lum muddat o'tganidan keyin Alisher yana bezovtalana boshlardi. Bir kuni Karimboy aka yonidan bir dasta pul chiqarib:

- Qadamboy og'a, mana shu pullarning hammasiga tinchlantiruvchi dori opkeb bering, - deya yalindi.

- Ibi, muncha ko'p? - dedi Qadamboy og'a hayron bo'lib.

- Dorisi tugab qolsa, bolam yana bezovta bo'ladi...

- Mayli-ku-ya, lekin bu dorini hadeb yeyaverishdan foyda yo'q. Bu dori og'riq bo'layotgan yerni uxlatadi, xolos, davolamaydi!

- E, mayli, davolamasa ham mayli, og'riqni bildirmay tursa bo'lgani... - dedi Karimboy aka muztar ahvolda.

- Siz-chi, yaxshisi, Hakim Nazarich kelganlaridan keyin oldiga kiring, - deya aql o'rgata boshladi Qadamboy og'a qozilik qilish imkoni tug'ilganidan bag'oyat ruhlanib. - Bor gapni u kishiga ochiqchasiga aytg. Hakim Nazarich insofli odam. Bu yerdagilar orasida yakka-yu yagona insofli odam! U tushunadi ahvolingizni va ishonamanki, yordamini ayamaydi.

- Kelsin... kelganlaridan darrov oldilariga kiraman, - dedi Karimboy aka. - To'g'ri aytasiz, ahvolimizni u kishi tushunadi. Ungacha dori-pori bilan jon saqlab tursin, devdim-da.

- Dorini o'ylamang, pulini bersangiz bo'ldi, yerning ostidan bo'lsayam toptiraman. Bitta megajinga so'zimizni o'tkaza olmasak, erkak degan nomimiz qayoqda qoldi?

- Baraka toping, iloyim.

Karimboy aka bir necha kun avval Hakim Nazarichga uchrashgani haqida Qadamboy og'aga lom-mim demagani meni hayron qoldirdi.

Kunlar shu zaylda o'tardi.

Bu yerlarda qor tez-tez va mo'l-ko'l yog'ardi. Tumanli kunlar ko'p bo'lardi. Izg'irin, bo'ron... Sovuq kamida qirq besh-ellik daraja...

Bunday ayovsiz qishni tushimda ham ko'rmagandim. Barakdagilar yoppasiga shamollay boshladilar. Tunni o'tkazish azob edi.

Kimdir quv-quv yo'talgan, kimdir isitmadan alahlagan... Barak - kimsasiz orolga tushib qolib, hayotdan uzilgan, qarovsiz va tashlandiq kema misoli edi. Vaqt o'z mohiyatini yo'qotgandi...

\* \* \*

Alisherga dorilar ta'sir qilmay qo'ydi. Surunkali isitma va og'riq uning ozg'in vujudini tinimsiz larzaga solardi...

Shamollash meni va Nurali bilan Husanni ham chetlab o'tmadi. Ammo biz yotib qolganimiz yo'q. Shamollashni spirt bilan davolab yubordik. Haqiqiy toza spirtni Husan topib keldi. Qayerdan, qanday qilib topganini u aytmadi, biz ham so'ramadik. Uyqu oldidan ozgina suv aralashtirilgan spirtni sipqorardig-u, juldur ko'rpamizga o'ranib yotardik. Qarabsizki, ertalabgacha shamollashdan asar ham qolmaydi.

Bir kuni kechqurun ishdan qaytarkanmiz, hovlida yurgan ayollarga ko'zimiz tushdi. Ayollar ikkita edi. Biri oshxona eshigi oldida turardi, ikkinchisi kontora tomon ketib borardi. Orqavoratdan ikkalasi ham menga tanishday tuyildi.

- Yo tovba! - dedi Qadamboy og'a yoqasini ushlab. - Anovi xotinlar sizlarning ham ko'zingizga ko'rinyaptimi?!

- Ko'zingizga ko'rinyapti, - deya piching otdi allakim.

Hovliga dupur-dupur kirib kelgan erkaklarga ayollarning ham nazari tushdi.

- Nargiza?! - oshxona eshigi yonida turgan ayolni tanib ro'parasida to'xtadim.

- Kimsiz?! - ayol avvaliga qattiq seskanib, o'zini ichkariga oldi.

Soch-soqolim o'sgan, rang-ro'yim bir ahvolda bo'lganidan Nargiza meni da'fatan tanimadi.

- Davronman... esingizdami?.. Poyezd... Sahroyilar...

- Iye... Voy o'lay... - Nargiza yuzimga sinchkov nazar tashladi. - O'sha Davronmisiz chindanam?..

- Chindanam o'sha Davronman, - dedim kulib.

- Yo tovba, ko'zlarimga ishonmayapman! O'rtog'ingiz qani? Ismi Safaralimidi?

- Bilmayman... O'zingiz bu yerda nima qilib yuribsiz?

- E... - Nargiza to'lib turgan ekan, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. - Keyin... aytib beraman...

Shu vaqt ortimdan:

- Nimani keyin aytib berasan? - degan tanish ovoz eshitildi.

O'girildim. Ro'paramda Sanobar turardi.

- Davron! - u meni shu zahoti tanidi. Yaqin kelib eski tanishlardek qo'l berib ko'rishdi.

Sheriklarim ang-tang bo'lib qolishdi.

\* \* \*

Nargiza bilan Sanobarning qismati ham biznikiga o'xshashroq. Ular pul solingan sumkachalarini o'g'irlatib qo'yishgan.

Sumkachada pul bilan birga hujjatlari ham bo'lgan ekan. Shu yerlik tanishlari Olesyadan yordam so'rash uchun borayotganlarida qo'lga tushib qolishgan...

- Nima bo'lgandayam sizni uchratganimiz yaxshi bo'ldi, - dedi Nargiza. - Har qalay, ko'z tanish bo'lgani yaxshi-da.

- Qayerga kelib qoldik o'zi? O'lay agar, aqlim yetmayapti, - dedi Sanobar.

Ayollar ancha-muncha qiynalishgan chog'i, rang-ro'ylari bir ahvolda edi. Meni uchratganlaridan ular xursand edi. Mening esa kayfiyatim buzildi.

- Birimiz oshpazlik qilarkanmiz, birimiz kir yuvarkanmiz, - dedi Sanobar burnini jiyirib. Keyin Nargizaga qarab: - Ko'rdingmi, anovi oyimchani atay o'zining yoniga olib qoldi, - dedi.

- Atay olib qolgani yo'q, shekilli, - dedi Nargiza.

- Atay qilgan bo'lmasa, nega uniyam bizga qo'shib qo'ymadi?! - dedi Sanobar o'jarlik bilan.

- Do'xtir do'xtirlik qiladi-da!

- Kim haqda gaplashyapsizlar o'zi? - deya ayollarning bahsiga aralashdim.

Bu vaqtda biz - eski tanishlar oshxonada suhbatlashib o'tirardik.

- Hakim Nazarich degan kishi yaxshi odammi yo... - Sanobar shubhali nazar bilan qaradi.

- Hech narsaga tushunmayapman, o'lay agar!

- ... yo anaqa erkaklardanmi? - Sanobar ko'zlarini ola-kula qildi.

- Hozircha bir narsa deya olmayman, - dedim rostiga ko'chib.

- O'shanaqalardan bo'lsa anovining sho'ri quridi, - dedi Sanobar. - Ja, o'zini tutishi boshqacha edi-da. Battar bo'lsin!  
Toqatim toq bo'ldi, ammo nachora, ayollarga bas kelib bo'larmidi, ayniqsa, qalbini hasad junbushga keltirgan bir vaqtda...  
- Ha, haqiqatan ham yuragi katta juvon ekan, - dedi Nargiza yuragimni qizdirayotgan qiziqish oloviga moy sepgandek. - Birortasi shilqimlik qilib tashlanib qolmasaydi, deb biz ikkimiz yurak hovuchlab turibmiz, u bo'lsa qilt etmaydi-ya! Xuddi otasining chorbog'ida yurganday...  
- Kimni gapiryapsizlar o'zi? - deb yubordim oxiri.  
Xuddi shu vaqt oshxona eshigi sekin g'iyqillab ochildi. Va... Va ostonada... Yo'q, eng avval oppoq manglay... har tolasidan uchqun sachrayotgandek qop-qora, silliq sochlar... kamon qoshlar ostida butun dunyoni o'zida mujassam etgan dengizdek sokin va tubsiz bir juft qora ko'z yangi paydo bo'lgan yulduz misol "yarq"; etib ko'zga tashlandi. Keyin yoqasi ko'tarilgan odmi qora palCHto, uchi ingichka etik kiygan, benihoya sohibjamolligidan tashqari, nimasi bilandir bir qarashdayoq odamni o'ziga tortadigan navnihol ayol xonaga kirdi.  
- Keling, Gulruh, - iltifot ila uni qarshi oldi Nargiza.  
Ayol unga nimadir dedi. Men uning ovozi eshitdim, ammo so'zlarini ilg'ay olmadim. Nazarimda, xona kengayib, ulkan yalanglikka aylanib qolganday, anchadan buyon dilgir ko'nglim bexosdan yorishib ketganday bo'ldi. Ayolning ovozi shu qadar mayin va yoqimli ediki...  
Qulog'imda qolgani shu.  
Keyin ayol ketdi. Eshik yopildi. U xonaga kirgan chog'ida ham, ketar chog'ida ham men tomonga qaramadi. Ro'paradagi derazadan uning qordagi soyasiga ko'zim tushdi.  
- Mana shu juvon haqida gapirayotgandim-da, - dedi Sanobar. - Ismi Gulruh...  
- U ham sizlar bilanmidi? - so'radim undan.  
- Birinchi marta uchastkavoyning xonasida uchratgandik. Keyin bitta kamerada bo'ldik. Shunda yaxshiroq tanishib oldik, - dedi Sanobar yana.  
- O'zi sodda, kamsuqum ko'ringani bilan judayam dovyurak ekan, - deya gap qo'shdi Nargiza. - Uchastkovoy bilan gaplashganini bir ko'rsangiz edi! Hakim Nazarich bilan ham tap tortmasdan gaplashib keldi bu yerga kela-kelguncha...  
- Savdoda yuraverib yuzi qotib ketgan-da, - dedim birdan qalbmni mubham kayfiyat chulg'ab olganini his etarkanman.  
- Qayoqda! Bechoraning birinchi marta chiqishi ekan.  
- Yolg'iz o'zi-ya?!  
- Bizam shunisiga besh ketdik-da, - dedi Sanobar bozorchi ayollarga xos shartakilik bilan.  
Sinchkovligim g'olib keldi. Gulruh haqida yana nimalarnidir bilib olish istagida gap kovladim:  
- Tirikchilik toshdan qattiq deganlari shu-da. Yoshgina juvon bola-chaqam deb o'zini bozorga urgan, shekilli?..  
- Ajrashgan, - deya gapni ilib ketdi Nargiza shu zahoti. - Oilasi yo'q o'zining. Kelin bo'lib tushgan joyi nochor ekan, oilani sal o'nqlab olay, keyin farzand ko'rarmiz, deb bu bechora ishlab yuravergan, u yoqda eri boshqasi bilan...  
- Tavba qildim, shu erkaklarga ham hayronman, - Nargizaning og'zidagi gapni yulib oldi Sanobar. - O'zi bir pulga qimmat bo'lsayam xotin zotiga past nazar bilan qaraydi-ya! Bitta xotinni eplab boqolmaydi-yu, boshqasiga ko'ngli sust ketganiga o'laymi?!  
Mana, meni aytdi dersizlar, mana shu juvonning eri o'ziga umuman mos bo'lmagan! Aqlli erkak bo'lganida bu juvonni go'zalligi uchun ham boshiga ko'targan bo'lardi. To'g'rimi, to'g'rimi gapim? - Sanobar qizg'inlik bilan menga tikildi.  
- Masalaning mohiyatini bilmay turib bir nima deyish qiyin, - deya mujmal javob qildim.  
- Chiroyli ayollar baxtsiz bo'lishadi, deganlari rost, - deya gapini davom ettirdi Nargiza. - Endi bechora o'lgan akasining bolalarini boqish uchun tentirab yuribdi.  
- Aytganча, nega u sizlar bilan emas?  
- Asli kasbi hamshiralik ekan. Shuning uchun Hakim Nazarich uni kontorada olib qoldi. Alohida xona qilib berarmish. Kasal bo'lsalaringiz endi bemalol Gulruhning oldiga boraverasizlar. Biz...  
- Voy-voy-ey, yuragim siqilib ketdi, bo'ldi, o'sha juvon haqida gapiravermang, - deya Nargizaning gapini cho'rt kesdi Sanobar. - O'zimiz haqimizda gaplashaylik. Menga qarang, Davron, siz anchadan buyon shu yerdamisiz?  
- Nimaydi?  
- Anavi Hakim Nazarich deganlaringiz, bu yerda ishlaganlaringiz uchun haq to'laymiz, dedi. Shu gap rostmi?  
- Rost, shekilli. Uch-to'rt kundan keyin kontoraga chaqirib choychaqa beradi...  
- Choychaqani biz allaqachon olib bo'ldik!  
- Nahotki?  
- Siz ayollar pulning yuzini ko'rmasangiz topshirilgan ishni ko'ngildagiday bajarmaysizlar, deb qo'limizga pul berdi o'sha Hakim Nazarich...  
- E-ha...  
- Qolganini adres bo'yicha uylaringga yuboramiz, dedi. Shu gap rostmi? - Sanobar ham, Nargiza ham ishonqiramaganday qarab turishardi.  
- Bizga ham shunday deyishgan.  
- Hammalaringizgami? - beixtiyor jo'r ovozda so'radi ikkala ayol.  
- Hammaga.  
- Ha-a, - dedi Sanobar ko'nglida qoniqish tuyib. - Hammalaringizga shunday degan bo'lsa, bu gapga ishonsa bo'ladi. Axir, shuncha odamni aldab bo'lmaydi.  
"Nega aldab bo'lmaydi?"; - deb yuborishimga sal qoldi. Ayollar bilan xayrlashib tashqariga chiqdim.  
Qor uchqunlardi...  
Barakda allaqanday jonlanish yuz berdi. Pala-partish, janjalkash, so'kong'ichu juldurvoqi erkaklar galasi favqulodda hodisa yuz bergandek kutilmaganda to'satdan o'zgarib qolishdi. Ustara nimaligini unutib yuborgan yonoqlarga ustara tegdi. O'rin-to'shak har kuni ertalab yig'ilib, kechasi yoziladigan bo'ldi.  
Shaxsan men barakda ayol deb atalmish zot paydo bo'lganini dastlabki kungi kechki ovqatning ta'mi xushxo'rlikidan bildim.  
Odatdagiday, karam sho'rva edi, lekin u har kungidan butunlay boshqacha edi. Anchadan buyon ishtaha bilan ovqatlanmagandim, axir.  
Nargiza osh-ovqatning ustasi, haqiqiy pazanda edi.

Sanobar vaysaqiroq xotin edi-yu, ammo o'ziga topshirilgan ishni sidqidildan bajarardi. Uning sharofati bilan irkit va juldurvoqi ishchilarning engil-boshiga son kirdi. Sanobar kirni qor suviga yuvaradi. Bundan tashqari, u barakni ham tozalab, supurib-sidirib qo'yardi.

Bir kuni uning yo'l ustida Hakim Nazarichdan:

- Barakni tozalab turganim uchun ham ish haqi yozasizmi? - deb so'rayotganini eshitib qoldim.

- Albatta. Kak shtik! - deya javob berdi Hakim Nazarich.

- Xo'p desangiz, kontorangizniyam tozalab berardim.

- Hojati yo'q.

Mutlaqo kutilmagan, favqulodda hodisa ertasi kuni Gulruh barakka kirib kelgan kuni yuz berdi. Mendan boshqa deyarli hamma Gulruh haqida bilmasdi-da.

Uni Hakim Nazarich barakka boshlab kelgandi.

- Bugundan e'tiboran "kontora"; qoshida medpunkt ish boshladi. Kimki tibbiy yordamga muhtoj bo'lsa, bemalol murojaat etishi mumkin. Gulruh tajribali hamshira. O'ylaymanki, barcha savollaringizga undan javob olasiz...

Hakim Nazarich yana allanimalar haqida so'zladi, ammo aminmanki, hech kim uning gaplarini eshitmadi hisob. Deyarli ellik-oltmish chog'li kishining ochko'z nazari Gulruhga qadalgandi. Rostini aytsam, o'zim ham undan ko'z uzolmay qolgandim. Yo'q, bu inson farzandi emas, farishtalardan bunyod bo'lgan maloika edi!

- Savollar bormi? - murojaat qildi Hakim Nazarich barakdagilarga.

Daf'atan hech kimdan sado chiqmadi. Barak suv quygandek jimjit edi. Bir mahal allakimni qattiq va to'xtovsiz yo'tal tutib qoldi-yu, sukunatga darz ketdi. G'ala-g'ovur qo'pdi.

- Bolamni hoziroq olib o'tsam bo'ladimi?..

- Yo'talga qarshi dori bormi?

- Kasallarga spravka beriladimi?

Pala-partish, to'xtovsiz savollar yomg'iri yog'ildi.

Gulruh shoshmasdan, aniq va sodda qilib savollarga javob bera boshladi. U so'zlar ekan, kipriklari asta-sekin ko'tarilib, sokin nigohlari xona uzra kezindi. Qarashlari nihoyatda muloyim edi.

Pirovardida u menga tikilib qolganday tuyildi. Seskanib ketib, yerga qaradim.

Shu vaqt Husan shartta bilagimdan tutib:

- Yuring, unga kaftingizni ko'rsatamiz, - deb qoldi.

Shosha-pisha qo'limni tortib olarkanman:

- Boring-e! Nimalar deyapsiz?! - dedim shivirlab.

- Axir kaftingizni... bolta yalab ketgandi-ku!

- Allaqachon bitib ketgan, - deya yolg'on so'zladim.

Bir necha kun ilgari yog'och yo'nish chog'ida uquvsizligim tufayli boltaning o'tkir yuzi chap kaftimni yalab ketgandi. Spirt bilan tozalab, artib, gazak oldirib qo'ymaslik uchun latta-puttalar bilan bog'lab yurgandim.

- Aldayapsiz, - dedi Husan shu chog'. - Jarohatingiz yiringlab ketganiga ko'zim tushgandi.

- Nega menga tirg'alib qoldingiz?!

- Jonon bilan ikki og'iz gaplashish sharafiga muyassar bo'lish ilinjida edim.

- Borib gaplashavering, buning hech qiyin yeri yo'q-ku.

- Biror bahona bo'lganida...

Nurali Husanning yelkasiga qo'l tashlarkan:

- Qo'ya qol, og'ayni, u seni gap bilan o'tqazib qo'yadi, - deya popugini pasaytirdi. - Ko'rmayapsizmi, o'ziga juda ishongan ayolga o'xshaydi.

Husan indamay qoldi.

Nuralining gapida jon bor. Axir badjahl va serzarda ekanliklari ochofat qashqirning ko'zlariday chaqchaygan nigohlaridan yaqqol sezilib turgan ellik-oltmish chog'li kishi qarshisida hadiksirayotganini bildirmasdan, xotirjam va ulug'vor qiyofada turishning o'ziyoq hammaning qo'lidan kelavermaydigan ish-ku!

Qiziqishim ortdi.

Shu payt barakka soqchilari hamrohligida Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Iye, siz bu yerdamingiz? - u Hakim Nazarichga murojaat qilardi-yu, ikki ko'zi Gulruhda edi.

- Hamshirani ishchilarga tanishtirayotgandim. Mana, yig'inimiz ham tugab qoldi. Ketdikmi, Gulruh Qosimovna? - Hakim Nazarich shoshilganicha Gulruhni tashqariga boshladi.

Eshik yopilguncha Po'lat Damirovich ularning ortidan qarab qoldi...

Ikki kundan keyin barakda yana bir kishi paydo bo'ldi. Bu Kamoliddin edi. Ikki qo'li, ikki oyog'i yo'q, maxsus aravachada o'tirgan yoshgina yigit... yigitning... g'o'ladan farqi yo'q edi. Tilli-jag'li g'o'la...

- Mehnatkashlarga shon-sharaflar bo'lsin! - deya shang'illaganicha kirib keldi u kechki payt.

U bilan yaxshiroq tanish bo'lgan bir necha kishi istiqboliga chiqib, hol-ahvol so'rashishdi. Unga parvo qilmasdan to'shagida yotganlar ham bor edi. Kamoliddin ularning e'tiborsizligidan og'rinmadi, aravachasini "g'iyq-g'iyq"; qilganicha har bir kishining oldiga borib astoydil so'rashib chiqdi.

- Sizni qayerdadir ko'rganman, lekin eslolmayapman, - dedi u mening qarshimda to'xtab.

- Dunyo tor, - deya kulimsiradim.

- Ha, dunyo tor, - dedi Kamoliddin gapimni ma'qullab. Keyin yuzimga sinchiklab tikilarkan: - Hozir bu kishining kim ekanligini aytib beraman! - dedi baland ovozdada. - Hey, barakdagilar, eshityapsizlarmi?! Bu kishi... Bu kishi... Bu kishi... rassom bo'lmasa-da, shunga yaqinroq birorta san'atga yaqin kishi. Men bir qarashdayoq payqadim buni. Shundaymi? Javob bering, shundaymi?!

Shovqin-suron ko'tarib, baland ovozdada gapirayotgan Kamoliddinning aksi o'laroq bosiq-vazminlik bilan:

- Yanglishdingiz, - dedim.

Kamoliddin hayrat bilan yuzimga tikildi.

- Nahotki? Nahotki men yanglishgan bo'lsam? Men-a?!

- Ha.

Shunday dedim-u, o'rimdan turib tashqariga chiqdim. Gapirayotgan "g'o'la":ga qarash og'ir edi.

- Davron.

Oshxona derazasidan boshini chiqarib gapirayotgan Nargiza edi. Beixtiyor shu tomonga yurdim.

- Siz uchun ozgina go'sht qovurib qo'ygandim, yeb oling, - Nargiza stol ustiga likopcha qo'ydi.

- Qanday bo'larkin...

- O'ylanmang, qani, oling, tez-tez yeb oling, - Nargiza qarshimga o'tirib olib, qistay boshladi.

- Sanobar ko'rinmaydimi?

- Gulruhga yordamlashgani ketdi. Qanaqadir idishlarini qaynatish kerak ekanmi-ey. Davron, bu yog'i nima bo'ladi endi?

- Nima bo'lardi...

- Bizni qo'yib yuborisharmikin?

- To'g'risini aytsam, bilmayman.

- Uydagilarning holi ne kechdiykin? - Nargizaning ko'zlari g'iltilladi.

- O'zingizni o'ylasangiz-chi!

- Uyga bir og'iz xabar yetkazishning iloji yo'qmikin?

- Yo'q.

- Nima, shunaqa qilib yuraveramizmi?

- Ha.

- Hazillashmayapsizmi?

- Hazilning o'rmi emasligi ko'rinib turibdi-ku.

- Voy xudoyim! Qanday kunlarga qoldim?.. Shu yerda bir umr qolib ketsak-a? - dahshat ichida tikildi Nargiza.

- ...

- Davron, qochishning iloji yo'qmikin? - ovozini pasaytirib so'radi Nargiza.

- Hamma yoqqa soqchi qo'yib tashlangan-u...

Nargiza likopchani oldimga yanada yaqinroq surib qo'yarkan:

- Mabodo biror ish qilsangiz... men bexabar qolmayin-a? Xo'pmi, iltimos. Bilasizmi, - deya Nargiza oldinga engashib, ovozini yanada pasaytirdi, - anovi Sanobar ancha tullak xotin ekan. Hakim Nazarichga uning xushomad qilganlarini bir ko'rsangiz edi! U yoqqa o'tsayam ketidan yuguradi, bu yoqqa o'tsayam! O'sha Hakim Nazarich Gulruhga yordamlashib turing, degani uchun ham mana hozir medpunktga ivirsib yuribdi.

- Yordam?!

- Ha, yordam. Nega hayron bo'lyapsiz?

- Hayron bo'layotganim yo'q.

- Kunduzi bu yerda bo'lmaysiz-da, ko'p narsalardan bexabar qolyapsiz.

- Sanobarning niyati ko'proq pul ishlash.

- Sanobarni aytayotganim yo'q. Mayli, u jonini jabborga berib ishlayversin. Menga mana shu oshxonaning o'zi yetadi. Ertalabki ishlarimni bajarib bo'lganimdan keyin anovi deraza oldiga tubaretka qo'yvolib, tashqariga tikilib o'tiraman. Avval Po'lat Damirovich degani medpunktga kiradi. Kiradi-yu, ko'p o'tmasdan chiqib ketadi. Zum o'tmasdan Hakim Nazarich deganlari xonasidan chiqib eshik oldida turgancha u yoq-bu yoqni kuzatgan bo'ladi-da, yana ichkariga kirib ketadi. Tushlikdan keyin Po'lat Damirovich deganlari yana medpunktga kirib ketadi. Bu safar darrov qaytib chiqmaydi. Biror o'n daqiqa chamasi o'tadi. Shu vaqt orasida Hakim Nazarich uch-to'rt martalab tashqariga chiqadi-kiradi, kiradi-chiqadi. Sezishimcha, ikkalasiyam xotinboz!

- Uch kun ichida shuncha axborot to'plabsiz-a.

- Bunaqa ishlarni payqash uchun uch kun emas, bir qarashning o'zi kifoya. Chiroyli xotinga erkaklar darrov qopqon qo'yishadi-da!

- Mayli, men bora qolay.

- O'tiring birpas.

- Charchaganman, dam olsam degandim.

- Aytganday, oyog'i singan yigitni medpunktga olib o'tishibdi-a?

- Ha. Darvoqe, o'sha bechoradan bir xabar olishim kerak. Eslatganingiz yaxshi bo'ldi. Yaxshi dam oling.

Tashqarida sayr qilish niyatim bor edi. Lekin havo shu qadar sovuq ediki, chidab bo'lmasdi. Shunday sovuqda ikkinchi smenada ishlayotganlarning joniga to'zim bersin. Pul nimalarga qodir! Ammo odamzodning yerdan bosh ko'tarmay qo'ygani alamli-da.

Barak tomon yurdim.

Alisherni medpunktga olib o'tishganidan buyon xona tinchib qolgan, kechalari bemalol uxlayotgandik.

Kirib borishim bilan "gur"; kulgi ko'tarildi.

To'rt-besh kishi yig'ilib olib latifa eshitayotgan ekan. Latifago'y Kamoliddin...

- Davron, keling, siz uchun yap-yangisidan aytib beraman, - dedi Kamoliddin.

- Rahmat.

- Keling endi!

- Charchaganman!

To'shagimga cho'zildim.

Negadir yuragim siqilardi. Nargiza... Sanobar... Betoqat Hakim Nazarich... Po'lat Damirovich... anovi gapirayotgan "g'o'la..."; va yana...

Kechasi bilan chap qo'lim zirqirab chiqdi.

Ertalab ishga ketdim.

Ammo ishlay olmadim. Chap qo'lim yelkamga dovur zirqirab og'rirdi. Mening o'rnimga ham Husan ishladi.

Kechqurun hamma ovqatga o'tirgan vaqtda men medpunktga yo'l oldim. Eshik oldida Po'lat Damirovichga duch keldim. U bilagiga barmog'ini bosgancha chiqib ketayotgandi. "Lop"; etib ko'z oldimga Nargiza keldi: "Ayollar g'irt vahimachi bo'lishadi-da";

- Mumkinmi?

- Keling, - jilmayib qarshi oldi Gulruh.

"Hammani shunday kutib olarmikin?";

- Kaftim... umuman, qo'lim ikki kundan buyon lo'qillab og'riyapti, - dedim lattaga o'ralgan qo'limni oldinga cho'zib.

- Nega og'rir ekan?

Gulruh shunday degancha qo'limdagi lattani tuxum po'chog'ini archiganday tez-tez yechib ola boshladi. Lattaning oxirgi qismi kaftimga yopishib qolgan ekan, ko'chirib olish qiyin bo'ldi.

- Biroz og'riydi, chidaysiz-da, - dedi Gulruh muloyimlik bilan. Keyin kichkinagina shishadagi qanaqadir suyuqlikni kaftimga surdi. - Besh daqiqa kutamiz. Anavi yerga o'tiraqoling.

- Xo'p, - Gulruh ko'rsatgan stulga o'tirdim.

Besh daqiqa kutish kerak edi...

Shishalar va yana allambalolar terib qo'yilgan stolning naryog'ida Gulruh qandaydir dori tayyorlayapti. Unga tikilib qarashga jur'atim yetmadi. Xonani ko'zdan kechirdim. Xona kattagina, yorug' va ozoda edi. O'ng tomonda yonma-yon qo'yilgan oynavand javon ichida har xil dori-darmonlar terib qo'yilgan. To'r tomon parda bilan to'silgan. Deraza tomonda allaqanday kumush idishlar turardi.

- Anchadan buyon shu yerdamisiz?

- A?

- Anchadan buyon shu yerdamisiz, deb so'ragandim, - Gulruh stolni aylanib o'tib qarshimda to'xtadi. - Qani, qo'lingizni bering-chi.

- Bir oydan oshdi kelganimga.

- Ishlagani kelganlardanmisiz yoki...

- ... yoki adashib, deng.

- Ha, menga o'xshab, - kuldi Gulruh.

- Menimcha, hamma adashganlar shu yerda, shekilli.

- Biznesmenmisiz?

- Shunaqaroq...

- Siz biznesmandan ko'ra ilm bilan shug'ullanadigan kishilarga o'xshaysiz.

- Peshonamda birorta yozuv o'qimadingizmi mabodo?

- Peshonangizda o'qimadim-u, lekin kaftingizga qarab aytdim-da. Jismoniy og'ir mehnat qiladigan kishilarning qo'li boshqa, qog'oz-qalam bilan ishlaydiganlarning qo'li boshqa bo'ladi.

- Hozir mardikordan farqimiz qolmadi.

- Shunday deysiz-u, bu baribir sezilib turadi. Eh-he! - deb yubordi Gulruh birdan yopishib qolgan latta parchalarini ko'chirib olib jarohatimga tikilgan. - Yana lo'qillab og'riydi, deysiz-a? Shunchalik bo'ladi-yu, og'rimsinmi?!

- Ishga chiqsam bo'ladimi?

- Yo'q. Hozir yaxshilab tozalab, dori qo'yaman. Ikki-uch kun ishga chiqmaysiz. Qo'rqmang, spravka yozib beraman.

- Gap spravkada emas. Nima, kun bo'yi barakda o'tiramanmi?

- Dam olasiz.

- E! Shu agar dam olish bo'lsa!..

Gulruh quyuq kipriklarini pipiratgan. Yuzimga tikilib turdi-da:

- To'g'ri aytasiz, - dedi. - Ish bilan vaqtning ko'zini o'ymasangiz, bu yerda jinni bo'lib qolish hech gapmas.

Gulruhga tikilib qoldim. U aynan ko'nglimdagi gapni gapirgandi.

- Mayli, ishga chiqaverasiz, lekin har kuni ertalab va kechqurun perevyazkaga kelib turasiz, xo'pmi? - dedi Gulruh qo'limni bint bilan o'rarkan.

- Aytgan, oyog'i singan yigitning ahvoli qanday? Uni shu yerga yotqizdinglarmi?

- Alisher uxlayapti. Ana, parda orqasida.

- O'tsam maylimi?

- Mayli.

Havorang parda ortida jips qilib qo'yilgan uch-to'rt karavotdan birida Alisher uxlab yotardi. Tabib qo'li tekkanligi sezilib turibdi, rang-boshi toza, ancha o'ziga kelib qolgan, pishillab uxlardi bola bechora.

- Uyg'onganida kelganimni aytib qo'yarsiz, - dedim eshik tomon yurarkanman.

- Kim keldi, dey?

- Davron akang, desangiz bas. Umuman, ahvoli yaxshimi o'zi?

- Hozircha bir nima deya olmayman.

- Xo'p, xayr, yaxshi dam oling.

- Xayr.

Hovliga chiqdim-u, o'zimning "yo'lkam"; bo'ylab yurib ketdim. Osmonda oy barkashdek osilib turar, yulduzlar charaqlar, havo baribir sovuq edi.

Vujudimni allaqanday parisonlik, armon va g'am-g'ussa chulg'ab oldi. O'zimni yolg'iz va nochor his eta boshladim.

Yo'lkada Husanga duch keldim. U ham po'stinining cho'ntaklariga qo'lini solgan. Aylanib yurardi.

- Bugun qanaqa kun, Husan? - deb so'radim undan.

- To'g'risi, bilmayman... Menimcha, yakshanba bo'lsa kerak.

- Avvallari yakshanba kunlarini o'tkazishim qiyin bo'lardi.

- Ishga o'rganib qolganingiz uchun-da.

- Bu yerda-chi? Bu yerda nima xalaqit beryapti?

Husan chuqur xo'rsindi. Keyin:

- Xalaqit beradigan narsa ko'p. Lekin men bu haqda o'ylamaslikka harakat qilaman. Kun tugayotganiga xursand bo'laman, - dedi.

- Men ham...

- Yana biroz aylanamizmi?

- Yo'q. Barakka qaytaman. Bugun negadir shashtim pastroq.

- Bo'p turadi.

Husan yo'lkada qoldi.

Men barakka yo'l oldim.

Hovli tepasida koptokday oppoq oy osilib turardi. Birozdan keyin sovuq shamol turdi...

Odatdagidan erta uyg'onib barakdan chiqdim.

Zo'raygan shamol tunni oldiga solib quva boshlagan, osmonning bir cheti oqarinqirab turardi.

Medpunkt chirog'i yoniq edi. Eshikni qiya ochib ichkariga bosh suqdim.

- Salom.

- Keling. Qo'lingiz qalay?

- Bir nav.

- Qani-i... - Gulruh bintni yechib kaftimni ko'zdan kechirdi. - Yaxshi. Ikki-uch kun dori surib tursak ancha durust bo'lib qoladi.

Gulruh dori va bint olish uchun javon sari yurdi. Shu vaqt xonaga Po'lat Damirovich shaxd bilan kirib keldi.

- Bu yerda nima qilyapsiz? - deb so'radi u xo'mraygancha mendan.

- Qo'limni davolatgani keldim.

Po'lat Damirovich o'zini gapimni eshitmaganday tutib bo'sh stulga borib o'tirdi. Oyoqlarini chalishtirgancha Gulruhga qaradi.

- Xayrli kun, Gulruh xonim! - dedi u allaqanday kinoyali ohangda.

- Xayrli kun, - javob berdi Gulruh mutlaqo jiddiy tarzda.

- Bemoringizning jarohati jiddiymi yoki shunchaki bahonami?..

- Jiddiy.

Gulruhning gul yaprog'iday nafis yuzi qizarinqiragan, demak, kinoyali ohangni payqagan, lekin hech narsa bo'lmaganday, o'ziga qattiq tikilib, har bir xatti-harakatini oshkora kuzatayotgan Po'lat Damirovich go'yo bu xonada yo'qday, o'zini erkin tutgancha jarohatimni tozaladi, malham surib bog'ladi. Keyin:

- Kechqurun yana kirib o'tishni unutmang, - deb tayinladi.

- Kechqurun kelish shart emasdir. Arzimagan yara ekan-ku! - dedi Po'lat Damirovich, ovozidan allaqanday g'arazning hidi kelardi.

- Kelishi shart, - dedi Gulruh qat'iy ohangda.

- Nima zarur sizga! Shunaqasi daf bo'lavermaydimi?!

Gulruh nimadir deganday bo'ldi. Lekin men eshitmadim. Tashqariga chiqib qo'ygandim allaqachon.

Hovlida Karimboy aka va yana besh-olti kishiga duch keldim. Ular medpunktga borishayotgan edi. Bular orasida Asliddin degan yigit e'tiborimni tortdi.

- Siz ham kasalmisiz? - deb so'radim undan atay.

- Iye, hali xabaringiz yo'qmi? - dedi u yurishdan to'xtab.

- Aftingiz kasalga o'xshamayapti-da.

- Kasalimiz ichimizda, ichimizda, - deganicha Asliddin yo'lga ravona bo'ldi.

O'ttiz beshlarga borgan, ko'zlari o'ynab turuvchi bu yigitni yoqtirmasdim. Birinchidan, chaqirilmagan mehmonday duch kelgan davraga suqilib ketaverardi. Ikkinchidan, yengil tabiatligi shundoq yuz-ko'zidan aniq-taniq aks etib turardi. Uchinchidan, o'tgan yili sotuvchi ayollardan biriga dabdurustdan tashlanib qolganini eshitgandim. To'rtinchidan... darvoqe, nega unga tirg'alib qoldim? Nonushta qilish uchun yemakxonaga burildim. Lekin ishtaham yo'q edi. Bir chashka qaynoq choy ichdim-u, ishga jo'nash tadorigini ko'rdim.

Shamol yanada zo'raygan, qorning kumush zarralarini uchirardi.

Ish vaqtida Husan bilan gurunglashmoqchi bo'lib yoniga o'tdim. Lekin uning gaplashgisi kelmayotganini, mashqi pastligini payqab ortimga qaytdim. Husan allaqanday o'ychan, odamovi bo'lib qolgandi.

Kechga borib shamol bo'ronga aylandi.

Ikkinchi smenaga hech kim chiqa olmadi. Buning ustiga, chiroq o'chib qoldi. Faqat ikkitagina sham lipillab yonib turgan xona nimqorong'i edi. Bo'ron uchirayotgan qor uchqunlari deraza oynalariga chirs-chirs urilardi.

O'shanda bo'ron bir kecha- kunduz xuruj qildi. Ishga borish tugul tashqariga chiqishning iloji bo'lmay qoldi. Chunki qor uyumlari uylarning derazalariga qadar ko'tarilgan, yurib bo'lmasdi. Nihoyat ko'plashib bir amallab eshik ochib tashqariga chiqqanimizda bo'ron tingan, quyosh charaqlab turardi.

Bo'ron turgan oqshom "kontora";da Hakim Nazarich navbatchi edi. Odatda, ular Po'lat Damirovich ikkisi galma-galdan navbatchilik qilishardi-da. Navbati o'tgan kishi ertalab uyiga jo'nardi. To ertasi kuni ertalabgacha uning qorasi ko'rinmasdi. Shu kuni ertalab Hakim Nazarich ham uyiga ketishi kerak edi. Lekin u bunday qilmadi. Olti-etti chog'li kishini barakda olib qolib, qo'llariga kurak tutdi.

- Tushlikkacha qordan asar ham qolmasin, - dedi u qor uyumlarini ko'rsatib.

Boshqalar ishga ketishdi.

Qor kurovchilar orasida men ham bor edim. Kaftimdagi jarohatim hali yaxshi bitmagani uchun kurakni tutishga xalaqit berardi. Shunday bo'lsa-da, indamasdan, jon-jahdim bilan qor kurashga kirishdim.

Azaldan qor kurashni yaxshi ko'rardim. Kechga borib qo'lim ishdan chiqqan hisob, tuz quyganday achishib og'riyotgan kaftimga qarab bo'lmasdi. Jarohatim tez tuzalayotganidan xavotirda edim. Mana endi yana ancha kun medpunktga qatnash imkoni bor...

Kechqurun hammadan keyin oshxonaga kirdim.

Nargiza yig'lab o'tirardi.

- Nima bo'ldi?

Nargiza battar ho'ngradi. Uning o'rniga Sanobar javob berdi:

- E o'lsin! Anovi qirchang'i xachirlaringizdan bittasi tegajoqlik qilibdi-da. Shunga xafa bo'lib yig'layapti. Yig'lash o'rniga boplab ta'zirini berish kerak edi!

- O'sha qirchang'ining ismi nima ekan?

- Asliddinmi, nima edi? - Sanobar Nargizaga yuzlandi.

Nargiza o'pkasini tutolmay yig'larkan, yig'i aralash yozg'irdi:

- Allaqayoqdagi... qalang'i-qasang'idan gap eshitdim... Nima haqi bor edi menga bunday deyishga?!

- Qiziq gaplarni gapirasana? - dedi Sanobar jahli chiqib. Dugonasini yosh boladay avrash joniga tekkan shekilli. - Har xil gaplarni eshitmayin desang, uyingda o'tir edi.

- Hammasiga... hammasiga... Erim sababchi... Erim... Erim uquvli bo'lganida...

Yuzimdan issiq chiqib ketdi. Yo xudo, eridan nafratlanmaydigan ayol bormikin bu dunyoda?!

Jahl bilan barakka kirib bordim. Asliddin yerga to'shalgan isqirt sholcha ustida sheriklari bilan qarta o'ynab o'tirgan ekan. Shartta yelkasidan tutib kuch bilan o'rnidan turg'azdim.

- Iye, tinchlikmi, bratan? - Asliddin bez bo'lib yuzimga tikildi.

- Oshpaz ayolni nega xafa qilding?!

- Men xafa qilibmanmi? Kim aytdi buni sizga?

- Hoziroq borib kechirim so'raysan. Aks holda, basharangni shunday bezab qo'yamanki, tuqqan onang ham tanimay qoladi!

- Xo'p. Xo'p. Tong otsin...

- Yo'q, hoziroq borib kechirim so'raysan!

- Nega endi men kechirim so'rarkanman? O'sha xotinning o'zi-ku jilpanglagan! To'shakka tortsam ham yo'q demasdi...

Asliddinning yuziga musht tushirdim. G'ala-g'ovur ko'tarildi. Asliddinning tarafkashlari menga yopirilishdi. Rosa mushtlashuv bo'ldi.

Yarim soatdan keyin Hakim Nazarichning xonasida o'tirardim.

- Men sizni durust odam deb yursam, g'irt bezori ekansiz-ku, - Hakim Nazarich ta'nali nazar tashlayotgan bo'lsa-da, ovozi qahrli emasdi.

Churq etmadim.

- O'sha ayol tanishingizmi? Bunchalik jon kuydirib himoya qilganingizga qaraganda...

- Ayol faqat tanish bo'lsagina himoya qilinadimi?!

Hakim Nazarichning yuziga qizil yugurdi.

Gurs-gurs qadam sasi eshitildi yo'lakda, zum o'tmasdan xonaga Po'lat Damirovich kirib keldi.

- Bular bilan razbor qilib o'tirasizmi, Hakim Nazarich?! Shartta kazarmaga jo'nating. O'sha yerda bunaqalarning surobi to'g'rilanadi, - dedi u kira solib.

- Barakka boring, - dedi Hakim Nazarich menga.

- Hakim Nazarich, bu nimasi?.. - deya norozilik bilan to'ng'illadi Po'lat Damirovich.

- Kerakli jazoni olib bo'ldi, - dedi unga Hakim Nazarich quruqqina qilib.

Shoshilmasdan eshik tomon yurdim.

Ortimdan Hakim Nazarichning ovozi eshitildi:

- Yo'l-yo'lakay medpunktga kirib, ko'zguga bir qarab keting...

Uning ovozida allaqanday yengil kulgi ohangi borday edi.

Tashqariga chiqdim. Eshik oldida biroz turdim. So'ng medpunkt tomon yurdim.

- Voy! - menga ko'zi tushgan Gulruh hayratdan dong qotdi.

- Nega hayron bo'lyapsiz? - dedim gapirishga qiynalayotganimni sezdirmaslikka urinib.

- Tinchlikmi?

- Tinchlik.

- Aftingizga qaraganda, tinchlik emasga o'xshaydi.

- Ko'zgu bering, iltimos.

Gulruh stol tortmasidan to'rtburchak ko'zgu uzatdi.

- E-ha, gap bu yoqda ekan-da! - deb yubordim ko'zgodagi aksimga qarab o'zimni taniy olmay qolganimdan hayratga tushib.

Aytsam ishonmaysiz, yuzim kulgili tarzda qiyshayib qolgandi. Qovoqlarim yorilgan, shishib ketgan labimdan qon sizardi.

- Nima bo'ldi o'zi? - Gulruh paxta va spirt bilan yonimga keldi. - Qani, menga qarang-chi.

- O'h... sekinroq...

- Joningiz shunchalik shirinmi?

- Albatta.

- Mushtlashayotganda nega shuni o'ylamadingiz?

- Mushtlashganimni kim aytdi sizga?

- Aftingiz aytdi. Hali kaftingizni ham...

Men gunohkorona kulimsiragancha kaftimni ko'rsatdim.

- Voy-bo'! Joningiz savil ekan sizni! - dedi Gulruh, keyin birdan yuzimga ko'zi tushdi-yu, kulib yubordi.

Bolalarcha beg'ubor, samimiy kuldi.

- Dunyodagi eng chiroyli erkak men bo'lsam kerak.

- Ha... topdingiz...

Eshik taqilladi.

- Kiring, kiravering, - dedi Gulruh kulgidan yoshlangan ko'zlarini dastro'moliga artarkan.

- Gulruh Qosimovna... - yuzi qordek oppoq Hakim Nazarich eshik oldida turib qoldi.

- Juda shoshilinch emasmi? Men hozir ishimni tugataman, - dedi Gulruh.

- Tinchlantiruvchi biror nimangiz bormi?

- Hozir... Biroz kutib turing, - dedi Gulruh menga, keyin qandaydir qutini olib Hakim Nazarichga yaqin bordi. - Yana yuragingiz bezovta qilyaptimi?

- Ha.

- Qon bosimingizni o'lchab ko'rsam maylimi?

- Yaxshi bo'lardi.

- Bu yoqqa o'tiring.

Hakim Nazarich Gulruh surib qo'ygan stulga o'zini tashladi. Uning mazasi yo'q, shekilli.

- Qon bosimingiz joyida, - dedi Gulruh tonometrni stol ustiga qo'yarkan. - Faqat yuragingiz sal tez uryapti. Menimcha, bu charchaganlik oqibati. Yana ob-havoning ham ta'siri bo'lishi mumkin. Mana bu dorini tilingiz tagiga tashlab shiming.

Gulruh Hakim Nazarichni tinchlantirib mening oldimga keldi.

Og'riqqa bazo'r chidab o'tirgandim. Asablarim nihoyatda taranglashgandi. Gulruhning yumshoq, haroratli barmoqlari qo'limga tegishi hamon birdan bo'shashdim: "Eh-he, bu qo'lni allazonlardan buyon hech kim silamagan edi...";

Ko'nglimdan nelar kechayotganidan bexabar Gulruh o'z ishini astoydil bajarardi.

56 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ



- Ertadan boshlab ishga chiqishni qat'iyman man qilaman, - dedi Gulruh.
- Buning sirayam iloji yo'q.
- Bu qo'l bilan ishlab bo'lmaydi! Hakim Nazarich, ishchiningizga o'zingiz tushuntiring.
- Qo'l kerakmi yoki pul? - biroz o'ziga kelib qolgan Hakim Nazarich g'alati savol berdi.
- Pul, - dedim men.

Hakim Nazarich: "Mana, ko'rdingizmi?"; deganday Gulruhga qaradi.

Men indamay xonadan chiqdim.

Barakdagilarning yarmi do'stlarcha, yarmi raqibiga qaraganday adovat bilan qarshi olishdi meni.

Kimlardir nimalardir deganday bo'ldi. Ammo men hech kimga quloq solmasdan to'g'ri borib to'shagimga cho'zildim.

Husan negadir to'shagida ko'rinmasdi.

Anchagacha uxlay olmasdan qiynalib yotdim. Bugungi mushtlashuvdan keyin Gulruh men haqimda qanday xayollarga bordiykin?

Axir zohiran tan olgim kelmasa-da, botinimda anchadan buyon Gulruhda yaxshi taassurot qoldirish istagi tug'ilgandi-da. Bu yog'i qandoq bo'ldi? Gulruh meni kim deb o'yladiykin? O'ylab o'yimning tagiga yetolmasdim. Ko'nglimdagi g'ashlik kuchaya bordi va birdan o'zimni yomon ko'rib ketdim. Keyin butun dunyo ko'zimga xunuk ko'rinsa boshladi. Adyol bilan boshimni o'rab oldim.

Tashqarida gitara ovozi va allakimning bo'g'iq xirgoyisi eshitildi: "Ax, kakaya jenhina...";

Ertalab Po'lat Damirovich soqchilari kuzatuvida barakka quzg'unday bostirib kirdi. Biz odatdagiday safda turardik.

- Boshvoqsiz to'nkalar! - deya baqira ketdi u kirgan zahoti quturgan itday. - Xom sut emgan, ipirisiqilar! Kimdan so'rab mushtlashuvga chiqdinglar?! A, sendan so'rayapman?!

Po'lat Damirovich har bir ishchining ro'parasida to'xtab, peshonasiga barmog'ini bigiz qilib niqtardi. Navbat Husanga keldi.

- Sendan so'rayapman, ahmoq!

Po'lat Damirovich uning ham peshonasiga barmog'ini bigiz qilib niqtashga chog'landi, lekin Husan chap berdi, o'zini chetga tortdi.

Keyin nafrat bilan:

- Qo'lingni tort, iflos! - deb baqirdi u.

- Voy ablah! Kimni iflos deyapsan?! - Po'lat Damirovichning ko'zlaridan o't chaqnadi.

- Kimni bo'lardi, seni-da, nodon! - Husan kutilmaganda xoxolab kuldi. - Nodon bo'lmasang, o'ylab gapirarding-da.

- Esi joyidami bu bolaning?!

- O'zingning esing joyidami? Hech zamonda mushtlashuvgayam birovdan ruxsat so'rab chiqiladimi, galvars?!

Po'lat Damirovichning yuzi ko'karib ketdi.

- Soqchi! - deya chinqirdi u.

Shu vaqt eshikdan Hakim Nazarich kirib keldi.

- Nima gap? Nima to'polon? - dedi u hammaga bir-bir ko'z yugurtirarkan.

Po'lat Damirovich darhol o'zini bosib hozirjavoblik bilan dedi:

- Ko'rmaysizmi bu itdan tarqaganlarni?! Kechadan buyon mushtlashib bir-birlarining go'shtini yeb yotishibdi! Bularning hammasini qamoqda chiritish kerak!

Husan tilini tiyib turolmadi:

- Qamoqdan nima farqi bor bu yerning?

- Hov to'tiqush!..

- O'zing kenguru!

- Jim! Jim bo'ling! - xitob qildi ovozini ko'tarmasdan Hakim Nazarich. - Hoziroq jim bo'llaring! Aks holda...

Barak suv quyganday jim bo'lib qoldi.

- Gap bunday, - davom etdi Hakim Nazarich, - bu yerda to'polon qilishga hech kimning haqi yo'q. Nega deganda, biz hech biringizni noqonuniy ravishda bu yerda ushlab turganimiz yo'q. Har biringizning faqat o'zingizgagina ma'lum sabablar tufayli bu yerda yuribsizlar. Shunday ekan, bundan keyin kimda-kim to'polon qiladigan bo'lsa, keskin chora qo'llashga majburmiz. Dastlabki choramiz shundan iboratki, barakda bir kishi g'urbatni boshlagan bo'lsa-da, eng kamida yigirma kishi maoshsiz qoladi!

Safdagilar guvranib qo'yishdi. Ammo hech kimdan sado chiqmadi.

- Ikkinchi chora shundan iboratki, bezorilik qilgan shaxs bilan adi-badi aytishib o'tirilmaydi, ishi to'g'ridan-to'g'ri sudga oshiriladi. Tushunarlimi?

Safning u yer-bu yeridan g'udrangan, bo'g'iq ovozlar eshitildi.

- Tushunarli bo'lsa, juda soz, - dedi Hakim Nazarich, keyin Po'lat Damirovichga yuzlandi. - Ketdik!

Po'lat Damirovich bo'g'riqqanidan qip-qizarib ketgan, lekin Hakim Nazarichga e'tiroz bildira olmasdi.

Ikkala boshliq ham chiqib ketishdi.

- Qari tullak! - deya so'kindi Husan. - Biz uchun eng og'ir jazo iqtisodiy chora deb o'ylaganini qarang. Shu qilganiga keyingi maoshning bir tiyinini ham olmayman. Basharasiga qarab otaman!

- Menimcha, Hakim Nazarich bir o'q bilan ikki quyonni urdi, - dedim o'ychan ohangda.

- Tushunmadim.

- Nimasini tushunmaysiz? U siz bilan meni Po'lat Damirovichning zug'umidan asrab qoldi.

Endi Husan o'ylanib qoldi.

"Ha, odamlar bilib aytisharkan, - deya xayoldan o'tkazdim. - Hakim Nazarich insofli odam. Menga noma'lum qandaydir sabablar tufayli Po'lat Damirovichning ustidan hukm yurgizadigan va vaqti-vaqti bilan uning zulmona xatti-harakatlarini cheklab turadigan mana shu mulohazakor Hakim Nazarich bo'lmaganida bu yerdagilarning sho'ri qurirkan!";

Avvalgi- qismB Keyingi

Ertalab medpunkt eshigi oldida yana Po'lat Damirovich bilan to'qnash keldim.

- Siz haliyam bu yerda o'rallashib yuribsizmi? - dedi u mayda hasharotga qarayotgandek ijirg'anib tikilarkan.

Men uni payqamagandek indamadim, shunda u shu qadar qizarib-bo'zarib, g'azabdan qaltirab ketdiki, iloji bo'lsa, dast ko'tarib uloqtirib yuborsa yoki yerga yumalatib ko'ptokdek obdon tepkilasa, toptasa, keyin tovonlari bilan xumordan chiqquncha ezg'ilab, abjag'imni chiqarib yo'q qilib tashlasa!

- Hoy paytavaquloq, ko'ppak, burdalab tashlamasimdan bu yerdan yo'qol! - dedi u g'azabini zo'rg'a bosib.

- O'zing yo'qol!

- Kelgindi, sayoq...

- O'zing o'ris cho'chqasidan!

Po'lat Damirovichning yuzi qiyshayib ketdi. Adl qomatini egdi-yu, etigining qo'njiga qo'l yubordi. Xuddi shu vaqtda ostonada Gulruh paydo bo'ldi.

- Po'lat Damirovich, ukol vaqti bo'ldi, kirmaysizmi? - dedi u hech narsadan bexabarday xotirjam ohangda.

- Hozir...

Po'lat Damirovich yonimdan o'tayotib yana turtib o'tishga urindi, lekin bu safar uddasidan chiqolmadi. Men o'zimni chetga tortishga ulgurdim.

- Gulruh Qosimovna, sizni ko'rsam etim junjikadigan bo'lib qolibdi, - Po'lat Damirovichning quvnoq ovozi eshitildi ichkaridan.

- Qo'rqinchli maxluqqa o'xshaymanmi shunchalik?

- Siz ezgulik va yorug'lik farishtasiz!

- Ezgulikni tushunsa bo'ladi, lekin nima uchun yorug'lik?..

- Yorug'lik, bu nur, harorat degani. Sizga qarasam zimiston ko'nglim yorishib ketadi!

- Sizning ko'nglingiz ham g'ash bo'ladimi?

- Eh!.. O'ylaysizki, bu odam...

- Mana, bo'ldi, endi bemalol ishga ketaverishingiz mumkin.

- Gulruh Qosimovna, men ketmasdan shu yerda o'tirsam maylimi? Sizni qorovullab!..

- Mayli-yu, lekin nima uchun, kimdan qorovullaysiz?

- Tashqarida turgan ta'viyadan! Bilasizmi, u qanaqa maxluq?!

- Ishga kech qolmaysizmi?

- Menda ish vaqti degan narsa yo'q. Anovi maxluq sizga birdan tashlanib qoladimi degan tashvishdan boshqa tashvishim ham yo'q.

- Unchalikka borishmaydi...

- Men ularni yaxshi bilaman. Pul uchun o'zini tomdan tashlaydi ular. Aks holda, bu yerda xor-zor bo'lib yurisharmidi?! Mana bittasi o'zingizga ma'lum, qo'lidan ayrilib qolishini bila turib bir kun ham ishdan qolmaydi. Ishga chiqmasa mo'may puldan quruq qoladi-da! Hoynahoy, u yoqda besh-oltita bolasi, xotini bordir. Jarohati gangrenaga aylanib ketsa nima bo'ladi?! Daydi-kelgindilar bosib ketdi hamma yoqni!

- Po'lat Damirovich, esingizdan chiqarmang, men ham o'shalardanman!

- Sizni qismat bu yerga boshlab kelgan. Men bilan uchrashtirish uchun.

- Aytgancha, ukolingiz kam qoldi. Olib kelib berasizmi?

- Ertaga opkesam bo'ladimi?

- Ha, bugunga yetarli. Davron!

Xonaga kirdim. Eshikni ochganimda yo'lakdagi g'ala-g'ovur ichkariga yopirildi.

- Odam ko'pmi? - so'radi Gulruh.

- Odatdagiday, - to'ng javob berdim.

Gulruh yuzimga g'alati qaradi.

- Po'lat Damirovich, ukoldan keyin biroz yotishingiz kerak.

- Shunaqami?

Po'lat Damirovich o'rnidan turdi.

- Eh-he, irib ketibdi-ku! - dedi u jarohatimga ko'z tashlarkan. - Hademay qo'ldan ayrilishi turgan gap!

Churq etmadim. Sezib turibman, u atay shunday deyapti. Yuzidagi kishining jig'iga tegadigan, qadr-qimmatini yerga uradigan ifoda va kulgisi shu qadar tahqirromuz ediki, bazo'r o'zimni bosib, go'yo uni pisand qilmagandek to xonadan chiqib ketguncha surbetlarcha tikilib turaverdim.

- G'alati kishi, a? - dedi Gulruh uning ortidan.

- Qo'lida to'pponchasi bor to'nka!

- Bugun kayfiyatingiz yo'qroqmi?

- Binoyiday.

- Qo'lingiz kechasi qattiq og'rimadimi?

- Yo'q!

- Uch-to'rt kun ishga chiqmay turaqoling.

- Puldan quruq qolaman!

- Yosh bola ekansiz! Kechqurun sal vaqtilroq keling, negadir odam ko'payib ketyapti.

- O'ylab ko'raman.

Avzoyim buzilgandi. Asabiylashardim.

Tashqariga chiqdim. O'z-o'zidan jahlim chiqa boshladi. Qo'llarida supurgi va chelak ko'tarib olgancha boqilgan g'ozday hovlida lapanglab yurgan Sanobarga ko'zim tushib xotin zotiga nafratim oshdi. Ayollar yangi hayotga tez ko'nikadilar va hech jirkanmay, unga qarshi ruhan isyon ko'tarmay, bundan hech qanday qo'rqinchli narsa ham kutmasdan, o'zlarining yangi taqdiriga peshvoz chiqaveradilar, shekilli. Ular pullarini yoki biror qimmatbaho taqinchog'ini o'g'irlatib yoki yo'qotib qo'yishgandagina qattiq qo'rqib ketsalar kerak.

Gulruh ham shularning biri-da. Kim bilsin, u soddalikni o'ziga niqob qilib olgan makkoradir ehtimol. Axir, erkaklar tomonidan ulug'lanib, ko'klarga ko'tariladigan yoqimli soddalik ko'p hollarda muhtarama zaifalarimizni xavf-xatardan saqlab qolgan...

- Alisherning ahvoli yaxshimi? - deb so'radi tushlik mahali yonimga kelgan Nurali.

- Durust, shekilli.

- O'zini ko'rib turibsizmi?

- Bir marta.

- Karimboy akaning negadir qovog'i ochilmaydi. Shuning uchun so'rayapman-da.

- Unchalikmas, menimcha. Har gal borganimda uxlab yotgan bo'ladi.

- Husan ko'rinmaydimi?  
- Husan? Shu atrofda yuruvdi.  
- Undan biroz spirt so'rasam degandim. Negadir chap oyog'imning barmoqlari qichishyapti. Sheriklarim spirt bilan artish kerak, deyishdi.  
- Yaxshisi medpunktga uchrang.  
- Qandoq bo'larkin? Shusiz ham kasallar ko'payib ketdi.  
- Spirt topish qochmas. Avval do'xtirga uchrashing.  
Nurali ketdi.

Qo'lim ishga bormay, xodalardan birining ustida anchagacha xayol surib o'tirdim. Menga qadrdon manzillardan o'tib kelayotgan quyosh naq tepamizda turib olib kumushrang nurlarini mo'l-ko'l sochardi, ammo o'lay agar, zarracha ham tafti yo'q edi. Ha, bu yerning o'zi bir olam. Nafaqat tartib-qoidalari, balki bu yerning quyoshi ham, oyi ham o'zgacha. Charaqlab turadi-yu, tafti yo'q. Bu yerda inson qanchalar tubanlashuvi, o'zligini yo'qotishi, botiniy dunyosidagi eng oliy tuyg'ularini ham hech ikkilanmasdan halok etib yuborishga qodir. Shu bilan bir vaqtda butunlay buning aksi yuz berishi ham mumkin. Zotan, kulfat ham o'ziga xos narsa. Kulfat tufayli hayotni chuqurroq his etadigan bo'lib qolasan...

"Chilparchin bo'lgan hayotni tiklab bo'larmikin?";

Allaqaydan o'q ovozi eshitilganday bo'ldi. Sergak tortib yon-verimga qaradim.

Toshpo'lat bilan Fayzi ham hayron bo'lib turishgandi.

- O'q ovozi? - deb so'radim ulardan.

Shu vaqt ikkinchi o'q ovozi yangradi.

Bu gal aniq eshitdim.

- Soqchilar "urush-urush"; o'ynashyapti chog'i, - dedi Toshpo'lat.

- Husan hali qaytmadimi? - ajablandim.

- Qayoqqa ketgandi o'zi? - taajjublandi Toshpo'lat.

Ko'z ilg'aydigan yerlarni kuzatib Husanni qidirdim. Afsuski, yaqin-o'rtada uning qorasi ko'rinmadi.

Bir mahal Qilichbek hovliqqancha kelib qoldi.

- Hamma shu yerdami? Iye, hov... Husan qani?

- Ertalab shu yerdaydi, - dedi Fayzi.

- Ertalab shu yerda ekanligini bilardim, lekin hozir qani u? - ko'zlari ola-kula bo'lib baqirdi Qilichbek.

- Men qayoqdan bilay! - Fayzi nari ketdi.

Qilichbek besaranjom nigohlarini menga tikdi.

Men kumushrang bo'shliqdan ko'z uzmadim.

Qilichbek qurilish binosi tomon yugurdi.

Uzoqdan qaraganda, oppoq qor ustida yumalab ketayotgan tarvuzga o'xshardi u.

Kun allaqanday noxush bezovtalik bilan o'tdi.

Quyosh o'rmon ortiga bekindi. Uning qarag'ay shoxlari uchiga ilinib qolgan so'nggi nurlari ham zavol topdi, qosh qoraydi.

Shundan keyingina bizni ishini tark etib, barakka chorlovchi qo'ng'iroq ovozi eshitildi.

\* \* \*

Ko'chada mirshablarning yuk mashinasi turardi. Darvoza oldida besh-oltitasi uymalanishgan. Furajklarining qayishlari tushirilgan. Miltiqlarining stvollari chiroq nurida sovuq yiltiraydi.

Nimadir yuz bergani ma'lum.

Mirshablar bizni birma-bir ko'zdan o'tkazishdi.

Ichkariga kirganimizdan keyin soqchilar bizni o'z ixtiyorimizga qo'yib yuborishdi. Ammo uzoqqa ketmay hovlining u yer-bu yerida turib olishdi.

Oshxona derazasi oldida turgan Nargiza meni imladi.

- Voy, Davron, bormisiz? - dedi rangi quv o'chgan ayol.

- Nima gap?

- Xabaringiz yo'qmi? Bugun bittasi qochib ketmoqchi bo'lgan ekan, soqchilar shartta otib tashlashibdi!

- Kim ekan?!

- Ismini bilmadim... Hovlidan olib o'tishayotganda ko'rib qoldim. Hamma yog'i qon... Yoshgina yigit...

- Hozir qayerdaykin, bilmaysizmi?

- Medpunktga shekilli. O'sha yoqqa opkirib ketishdi-yu...

Medpunkt eshigiga qaradim. U yerda miltig'ini yelkasiga osgan soqchi turardi.

Shoshilayotgan, ichimni allanima timdalayotganiga qaramasdan imillab yuvindim. Ovqatlandim. G'ala-g'ovur, o'zaro shivir-

shivirlar qulog'imga kirmasdi. Ammo, nazarimda, hamma pichirlab gapirayotganday tuyilardi.

Sheriklarimga bir-bir nazar soldim, basharalar turfa bo'lishiga qaramay, barida allaqanday xavotir, mavhum umid, loqaydlik va sarob jimirlayotgan bu nigohlar bo'm-bo'sh edi!

Medpunkt tomon yurdim.

Soqchi avvaliga ruxsat bermadi, qo'limdagi jarohatimni ko'rsatganimdan keyin ichkariga kirib ketdi. Bir ozdan keyin qaytib chiqib: "Kir!"; deganday ishora qildi.

Gulruh xomush qarshi oldi.

- Yarador yigit shu yerdami? - deb so'radim undan.

- Ha.

- Ahvoli qalay?

- Yaxshi emas, - deya pichirladi Gulruh.

- Ko'rsam bo'ladimi?

- Yuring.

Gulruh parda ortiga boshladi.

Devor yonidagi karavotda Alisher yotardi. U uxlamayotgandi, lekin meni ko'rishi bilan ko'zlarini yumib oldi. Gaplashgisi kelmadi chog'i. Uning yonidagi karavotda Husan yotardi!

Ko'zlarimga ishonmay unga yaqinlashdim.

- Husan...

Husan "qilt"; etmadi. Uning yuzi bo'zga o'xshab qolgandi. Ko'zlari chala yumuq. Qovoqlari shishgan. Qorni kindigining atrofi bilan bog'langan... Tiriklikdan nishon yo'qday...

Yoniga tiz cho'kdim. Nafas olishiga quloq tutdim. Yuziga barmoqlarimni tekkizdim: issiq. Xayriyat.

- Ko'p qon yo'qotgan, - dedi Gulruh parda ortidan sirg'alib chiqarkanmiz. - O'sha zahoti opkelishganda bunchalik bo'lmasdi.

- Yaqinda opkelishdimi?

- Yaqinda... Kazarmada ikki soatdan ko'p qon ketib yotgan... Yaxshiyam Hakim Nazarich xabar topib qolib bu yoqqa yuboribdi.

- Jarohati og'ir emasmi?

- Og'ir emas, ammo ko'p qon yo'qotgani pand berib qo'ymasa, deb qo'rqaman... Qo'lingiz qalay?

- Bugun unchalik og'rimadi.

- Keling, dori surib qo'yaman.

Har safargiday Gulruh stolning naryog'ida, men bu tomonida o'tirdik. Qo'limni stolga qo'ydim. Gulruh bintni yecha boshladi. Ko'z qirim bilan harakatlarini kuzatdim. Shiftdan taralayotgan nur uning yuzida aks etardi. Jiddiy va bir oz parishon chehrasida men uchun begona, tushunishim qiyin bo'lgan allaqanday sir-sinoat mavjud edi. U bilan bemalol gurunglashib o'tirgim kelardi, ammo gapni nimadan boshlashni bilmadim. Axir bu ayolni yaxshi bilmayman, u kim, qaysi olamdan kelib qolgan parizod, tasavvur qilolmasdim haligacha. Tikilganim sayin u mendan uzoqlashayotganday...

Muolaja nihoyasiga yetgach, tashakkur aytib o'rmimdan turdim.

- Xayrli tun, - dedi Gulruh. - O'rtog'ingizdan xavotir olmang. Unga o'zim qarayman.

- Xayrli tun.

- Ertaga ertalab... yana kelasizmi?

Yalt etib qaradim. Gulruh intiqlik bilan qarab turganday tuyildi.

- Albatta, kelaman.

Eshikka yetgach, ortimga o'girildim.

Gulruh hamon qarab turardi.

Kulib qo'ydim.

Gulruh qo'lini silkidi.

Tashqariga chiqdim.

Yana gupillatib qor yog'ardi. Havo iliq edi. Yo'lak bo'ylab yurdim. Yuragimni ham iztirob, ham allaqanday yoqimli bir to'lqin bezovta qilardi. Nursiz-jilosiz, oddiy turmush qorishmasidan iborat bo'lgan, suvday rangsiz hayotimga nimharir yog'du taralayotgandek edi.

Ertasiga ertalab borganimda Husanni soqchilar kazarmaga olib o'tishganini eshitdim.

- Hali o'ziga kelganicha yo'q. O'lib qolishi mumkin, deb necha marta aytdim ularga. Quloq solishmadi, - dedi xafa bo'lib o'tirgan Gulruh.

- Yaxshi bo'lmabdi.

Parda ortiga o'tdim. Alisher shiftga tikilib yotgan ekan, hol-ahvol so'radim.

- Keling, birpas o'tiring, - dedi u siqilib ketgandek aftini bujmaytirib.

Kecha Husan yotgan karavotga o'tirdim. Yuragim simillab ketdi. Kechagina bu yerda Husan yotgandi. Yana ko'rishish nasib qilarmikin? Kazarmada ahvoli ne kecharkin?

- Qachon ishga chiqasiz endi, Alisher?

- Bilmadim... Hali-beri chiqadiganga o'xshamayman. Singan suyak bitib qolganday, lekin oyog'imni bosa olmayapman. Og'riqni-ku qo'yavering... Barmog'imni jodi kesib ketganidayam bunchalik og'rimagandi.

- Dardning kelishi oson, ketishi qiyin, - dedim boshqa gap topolmay.

- Yaxshi bo'lib ketarmikinman?..

Titrab ketdim.

Yonoqlari chuqurlashgan, chekka tomirlari bo'rtib ketgan, kirtaygan ko'zlarida mungli iltijo qotib qolgan yigitchaning yuziga tikilib qaray olmadim.

- Husan aka uch-to'rt kun davolanishi kerak edi-da, - dedi Alisher. - Ahvoli ancha og'ir ekan. Haliyam... - Alisher ovozi pasaytirdi. - Hamshiramiz zo'r ekan. Husan akaning qornidan o'qni shartta olib tashladi.

- O'q bittamidi?

- Bitta, shekilli.

Gulruhga tan berdim ichimda. Oddiy hamshiraning shunchalar uddaburonligi tahsinga sazovor emasmi?

\* \* \*

Kechki payt.

Ishdan qaytdim-u o'zimni oshxonaga urdim. Qornim o'larday och edi.

Stollar bo'm-bo'sh. Yemakxonaga hali hech kim kirmagandi. Nargiza bilan Sanobar ulkan qozon yonidagi stol atrofida o'tirganlaricha... qarta o'ynashardi!

- Muborak bo'lsin!

- Ha, Davron, sizmisiz? Ovqat suzaymi yo bizga qo'shilib bir qo'l o'ynaysizmi? - dedi Nargiza qartalaridan ko'z uzmay.

- Men bilmayman.

- Voy, oddiy "Durak";ni bilmaysizmi? Nimani bilasiz o'zi? - Sanobar ta'nali nazar tashladi.

- Qimorni bilaman, xolos, - dedim jo'ngina.

- Yaramas! Bularning sog'i yo'q, - Nargiza qartalarini tashlab o'rnidan turdi, peshbandini oldiga tutib qozon yoniga bordi.

- E, o'lib ketsin! Siqilganimdan yorilib ketguday bo'lyapman, - dedi Sanobar. - Qarta o'ynasak sal ko'nglim yozilarmidi degandim.

Buyam to'g'ri kelmadi.

- Davron, keling, ovqat tayyor, - chaqirdi Nargiza.

Hovlidan ola-tasir, shovqin-suron eshitildi. Yugurib chiqdim. Medpunkt oldida besh-olti kishi to'planib turishardi.

- Nima gap? - so'radim shu yerdagilarning biridan.

- E, anovi Asliddin yana "chp"; qilgan, shekilli.

- Tushunmadim.

- Asliddin: "Kasalman, isitmam chiqyapti";, deb xonaga kiribdi-yu, hamshiraga tashlanib qolibdi. Kayfi bor ekan-da. "Hech bo'lmasa bitta o'ptiring!"; deb yalinarmish...

Hangomatalablar hihilashdi.

Chidab turolmadim.

Eshikni shartta ochib ichkariga bostirib kirdim. Nazarimda, Gulruh yolg'iz o'zi yig'lab o'tirganday edi. Ammo ichkarida butunlay boshqa manzaraning guvohi bo'ldim. Gulruh hech narsa bo'lmaganday qarshi oldi. Bundan tashqari, u yolg'iz emasdi. Xonada Po'lat Damirovich bor edi.

- Bu yovvoyi odamlardan bundan battar yovuzlikni kutish mumkin. Gulruh Qosimovna, haliyam fikringizdan qaytmadingizmi? - dedi Po'lat Damirovich menga qo'li bilan chiqib turing, degandek ishora qilarkan.

Qimir etmadim.

- Po'lat Damirovich, tashvishlanmang, men birovlariga o'zimni oyoq osti qildirib qo'yadiganlardan emasman, - deb javob berdi Gulruh, keyin menga yuzlandi: - Nega kech qoldingiz?

- Bunaqa o'jar ekanligingizni bilmagan ekanman, - Po'lat Damirovich eshik tomon yurdi. Keyin birdan ortiga o'girilarkan, istehzoli kulimsiradi. - Sho'ringizga sho'rva to'kilganda meni eslarsiz, lekin unda kech bo'ladi!

Gulruh ham undan qolishmadi:

- Yaxshi niyatlaringiz uchun tashakkur!

Po'lat Damirovich chiqib ketdi.

- Qani, qo'lingizni bering, - dedi Gulruh.

Bor jur'atimni to'plab:

- Birovning shaxsiy ishiga aralashish noqulay, lekin... U sizni qo'rqityaptimi?.. - deb so'radim Gulruhdan.

- Boyagi mashmashani eshitgandirsiz? Po'lat Damirovich shuni dastak qilvolib, "Shtab"; yonidagi xonaga ko'chib o'tishimni taklif qilyapti.

- Siz ko'nmadingiz.

- Ko'rib turganingizday.

- Balki u haqdir. Ko'chib o'tganingiz durustmidi? Har qalay, u yer bexavf...

- Po'lat Damirovich ham shuni ta'kidlayapti. U yoqqa borish tugul, yonidan o'tishga hech kimning jur'ati yetmaydi, deydi.

- To'g'ri. Shunisi qulay emasmi siz uchun?..

- Boshqalar uchun qulayligi bordir. Lekin men uchunmas!

- Har xil odam bor. Bugungiga o'xshash voqea... Qo'rqmaysizmi?

- Qo'rqmayman, - beparvo javob berdi Gulruh.

Unga tikilib qoldim.

Besh daqiqalardan keyin Gulruh ishini tugatdi. Shungacha u garchi nigohlarimni his etayotgan bo'lsa-da, yuzimga qaramadi.

- Bo'ldi. Ketishingiz mumkin, - dedi u.

Qimir etmadim.

- Yana ikki kun kelsangiz yetadi. Jarohatingiz ancha yaxshi.

Indamay o'tiraverdim.

Shunda u na menga, na biror narsaga qaramasdan, bo'shliqqa tikilgan:

- Qo'rqaman... - dedi, ovozi titrardi. - Lekin qo'rqqanimni dahmaza qilishim shartmi? Umuman olganda, hammamiz tutqunimiz bu yerda. Tutqunlikni tan olib, atrofimdagilarga javdirayversam, bilasizmi, ular ne ko'yga solishadi? Hayotda ko'p qiyinchilik ko'rganman. Bu haqda boshqa vaqt bafurja gapirib berarman. Agar eshishni xohlasangiz. Ammo hozir bir gapni dangal aytishim kerak. O'sha qiyinchiliklar tufayli men o'z atrofimda butunlay boshqacha atmosfera yaratish hadisini olvolganman. Siz tushuna olmayotgan, to'g'rirog'i, sizni ajablantirayotgan sirim shu, - Gulruh kulib qaradi. - Endi tushundingizmi?

Men bosh silkidim.

- Endi xonani bo'shatarsiz, boshqalar kutib qolishdi.

Men yana bosh silkidim, ammo o'rnimdan qo'zg'almadim.

- Yana nimadir demoqchisiz, shekilli?

Bosh irg'adim.

- So'rang, - Gulruh yuzimga zavq bilan tikildi.

- Siz oddiy hamshira emassiz!

Gulruh darrov javob bermadi. Sirli kulimsiragan:

- Hamshira, oddiy hamshira, xolos, - dedi birozdan keyin.

Eshik betoqatlik bilan taqilladi.

O'rnimdan turdim.

- Yana ikki kungina kelamanmi bu yerga? - deb so'radim xafa bo'lib.

- Yaxshi emasmi?

- Bunaqasi ketmaydi. Qo'lim hali-veri yaxshi bo'lmasligi kerak. Bu borada biror maslahat bera olmaysizmi?

- Qaltisrog'idanmi?

- Ha.

Gulruh o'ylanib qoldi.

Eshik yana taqilladi.

- Yaxshisi, ertaga kelganingizda aytaman, - dedi u. - Faqat sal vaqtliroq yoki sal keyinroq keling.

- Uzundan-uzoq, buning ustiga, eng xatarli maslahatmi, deymen?

- Shunaqa.

- YestCHb! - qo'limni chakkamga qo'ydim.

Eshik shaxt bilan ochildi. Bir odam ichkariga otilib kirdi. Alang-jalang qilganча:

- Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi?! - deya baqirdi.

Beixtiyor kulib yubordim.

Tashqariga chiqdim.

Oshxonada ham, barakda ham chiroq yoniқ edi.

Tun zabtiga olgan hovlida ancha vaqt aylanib yurdim. Keyin "Kontora"; tomon o'tdim. Pul kerak edi. Ichkarida chiroq ko'rindi.

Demak, Hakim Nazarich hali uyg'oq.

- Pul kerak deng? - tamaki tutuniga to'lgan xonada allanimalarni yozib-chizib o'tirgan Hakim Nazarich qizargan, horg'in ko'zlarini menga tikdi.

- Ha.

- Navbatingiz yetib keldimi? - Hakim Nazarich g'aladonini tortib, u yerdan allaqanday qalin daftarni olib varaqlay boshladi.

Indamay turdim. U navbatim kelganini bilardi. Puldan gap ochilganda qaysi boshliqning yuzi o'zgaraydi, qoshlari chimirlamaydi deysiz?

Nimadir jiringladi. Hakim Nazarich cho'ntagidan qo'l telefonini oldi.

- Ha, Po'lat Damirovich, eshitaman, bemalol, bezovta qilganingiz yo'q... - Hakim Nazarich iljaydi. - Qilg'ilikni qilib qo'yib, og'rimadimi, deb so'rab yurasiz har doim. O'tirishdamisiz? Tushunarli. Vaqtim bemalol, gapiravering, - Hakim Nazarich jim bo'lib qoldi. Birozdan keyin u: - Xabarim bor bundan, - dedi ovozi o'zgarib. - Bu haqda ertaga gaplashsak nima deysiz? Ketib qolmasdan kutib turaman sizni. Ha, shu yerda. Xo'p. Sizga ham. Ziyofatda ham ishxonani o'ylab o'tirishingiz tahsinga loyiq.

Hakim Nazarich telefonini cho'ntagiga solib qo'ydi.

- Xo'sh... Siz? Ha, pul masalasida kelgandingiz-a? Hozir... - Hakim Nazarich daftar sahifasiga shunchaki ko'z qirini tashladi, keyin menga qarab: - Navbatingiz kep qopti, - dedi. Buriлиb yonidagi temir seyfni ochdi-da, bir dasta pulning ma'lum bir qismini oldi-da, stol ustiga tashladi: - Oling.

Miyamga: "Sanab ko'rmasdan beryapti, nima, meni sinab ko'rmoqchimi?"; degan o'y keldi shu topda.

Hakim Nazarich seyfni qulflab, sigaret tutatarkan, yana bir marta:

- Oling, - dedi men tomonga qaramasdan.

Pulni olib sanadim. Yo tavba, hisobga to'ppa-to'g'ri edi! Shu vaqtga dovur men yo'liqqan boshliqlar berayotgan pullarini qayta-qayta hisoblab, keyin xuddi o'z hamyonidan ketayotganday, iddao bilan uzatishardi-da.

- Rahmat.

- Nima uchun minnatdorchilik bildiryapsiz? Bu sizning ish haqingiz-ku! - dedi Hakim Nazarich sigaret qoldig'ini kuldonga tashlarkan.

- Odat bo'lib qolgan-da, - dedim boshqa gap topolmay.

- Shoshilmayapsizmi?

- Yo'q.

- Sizga bir taklifim bor edi.

- Eshitaylik-chi.

- Men bu haqda ko'p o'yladim. Deyarli olti soatdan buyon, - dedi Hakim Nazarich stol suyanchig'iga suyanib.

- Shunchalik jiddiy masala ekan-da, - dedim kulib.

- Sizga bir ish taklif qilsam degandim. Hamshira qizimizga tinchlik bermaydiganlar chiqib qopti. Bugun bittasi juda haddidan oshib ketganmish. Bu yaxshi emas, axir! Har tomonlama o'ylab ko'rib, sizni medpunktga qorovullik vazifasiga olsakmikin, deb turgandim. Nima deysiz?

- Medpunktnimi yoki ayolni qo'riqlaymanmi?

- Ikkalasiniyam. Oylik maoshingiz odatdagiday ketaveradi. Bu yog'idan xavotirlanmang.

- Kechayu kunduz... postda turamanmi?

- Ha, kechayu kunduz, deyarli har daqiqa.

- Uning o'zi nima derkin?

- O'zim tushuntiraman. Yo'lakka karavot qo'yib beriladi. Kechasi tunash uchun. Xonaga kirgan har bir odam sizning kuzatuvingizda bo'ladi.

- Kuch ishlatishga to'g'ri kelsa-chi?

- Ishlatavering, faqat qurol ishlatmasangiz bas.

- Qurol ham berasizmi?

- Hazil.

- Ketaveraymi?

- Kelishdikmi?

- Ha.

- Yaxshi dam oling.

- Xayrli tun.

"G'amxo'r knyazCHb, - degan g'alati fikr keldi kalamga tashqariga chiqib, eshik oldida turarkanman. - Bu yog'i qandoq bo'ldi?"; Bir ozdan keyin: "Bu haqiqatan ham beg'araz g'amxo'rlikmi yo biror maqsadni ko'zlab qilinayaptimi?"; degan shubha miyamga urildi.

Barakka kirdim.

Ammo sira uxlay olmadim.

Ertalab oshxonada nonushta qilib o'tirganimda Hakim Nazarich meni yo'qlayotganini aytib qolishdi. Medpunktga borarmishman.

- Gulruh Qosimovna bilan gaplashdim, - dedi Hakim Nazarich xonaga kirib borganimda. - Siz bilan ishlashga mutlaqo qarshi emas ekanlar.

Gulruh jilmaydi.

- Hoziroq ko'chib kelishim kerak ekan-da, - dedim.

- Eshik oldidagi kursi sizniki, - dedi Hakim Nazarich, keyin burilib Gulruhning qo'ltig'idan olib tashqariga boshladi. - Gulruh

Qosimovna, sizga ham ikki og'iz gap...

Ularning suhbatini eshitmadim.

O'n daqiqalardan keyin Gulruh xonaga qaytib kirdi.

- Bu fikr sizdan chiqmaganmidemi ishqilib? - deb so'radi u.

- Mendan chiqqan taqdirda ham ular inobatga olishmasdi, - dedim rostiga ko'chib. - Bu "mehribon knyazCH";ning ishi!

Gulruh kim haqida gapirganimni tushundi.

- Avval jarohatingizni bog'lab qo'yay, keyin postingizni egallaysiz, - dedi u bint va malhamni stol ustiga qo'yarkan.

- Husanning ahvolidan xabaringiz bormi?

- Yo'q. Eslasam etim jimirlab ketadi. Eh!..

- Xabar olishning iloji bormikin?

- Po'lat Damirovich baribir ruxsat bermaydi. Soqchilardan bittasi oshqozoni og'rib oldimga kelgandi. Husanni kazarmada yotibdi,

deydi. Shtabning orqa tomonida kazarmaning allaqanday darchasi bor ekan. O'sha darcha orqali uni ko'rsa bo'larmish. Lekin

yordam berolmagandan keyin ko'rishdan nima naf?

- Shtabning orqa tomonida dedingizmi?

- Ha. Mana, bo'ldi, endi postingizga boraqoling.

- Qanaqadir maslahat bermoqchiydingiz.

- Endi hojati yo'q.

- Anavi kursi menikimi?

- Ha.

- Sizningcha, bu kursi ichkarida turgani yaxshimi yoki yo'lakda?..

- Ham ichkarida, ham tashqarida, - deb javob berdi Gulruh.

Tushundim.

Shunday qilib, ishni "kontora";da davom ettira boshladim. Vazifam ertayu kech medpunkt eshigidan jilmasdan kirgan-chiqqanni

kuzatish. Po'lat Damirovich daf'atan meni bu yerda ko'rib tepa sochi tikka bo'lib ketdi.

- Nega haddingizdan oshyapsiz? Kim ruxsat berdi sizga? - deya zahrini sochdi u.

- Hakim Nazarich... - deyishimni bilaman, Po'lat Damirovich ilon chaqqanday sapchib tushdi.

- Hakim Nazarich?! Men...

U otilib tashqariga chiqib ketdi.

Gulruh qo'l silki qo'ydi.

Tushdan keyin Po'lat Damirovich yana medpunktda paydo bo'ldi.

Bu safar u menga zahrini sochmadi. Hakim Nazarich boplab popugini pasaytirib qo'ygan chog'i...

Qiziq, olov bilan suvdek bir-birining mutlaqo aksi bo'lgan bu ikki odamni nima, qanday maqsad bog'lab turgan ekan?

Darvoqe, Po'lat Damirovich...

U xonaga kirib Gulruhning ro'parasidagi stulga o'tirdi-da:

- Muolaja vaqtida xonada begona odamning bo'lishini xohlamayman, - dedi keskin ohangda.

Gulruh menga qaradi.

Indamay yo'lakka chiqdim.

Eshik ochiq qoldi.

- Gulruh Qosimovna, sizdan xafaman, - dedi Po'lat Damirovich.

- Bu mening ishim emas.

- Hakim Nazarichning g'amxo'rligini qabul qilmasligingiz kerak edi!

- Nima deyishga ham hayronman.

- Insof yuzasidan ayting, sizning xavfsizligingiz haqida birinchi bo'lib kim og'iz ochgandi?

- Siz.

- Nega unda... Nega... O'rtadan "lop"; etib chiqqan allaqanday odamning gapiga kirib!..

- Hakim Nazarich allaqanday odam emas.

- Baribir bu... bu adolatsizlik!

- Po'lat Damirovich, nima farqi bor, "shtab"; yoniga o'tdim nima-yu, bu yerda turdim nima...

- Men uchun farqi bor!

- Po'lat Damirovich, agar xafa bo'laversangiz muolajani to'xtataman!

Jimlik.

Bir ozdan keyin:

- Bo'пти, xafa bo'lmaslikka va'da beraman, - degani eshitildi Po'lat Damirovichning. - Faqat bitta shartimga ko'nsangiz...

- Shart qo'ymasdan gapira olasizmi? - kuldi Gulruh.

- Sizning va'dangizni olmaganimcha shart qo'yaveraman.

- Oh, xudoyim!

- Tunov kungi gapga nima deysiz?

- Yo'q va yana yo'q!

- O'ylab ko'ring.

- O'ylab ko'rdim!

- O'zingizni buncha taroziga solmasangiz? - birdan ovozi o'zgardi Po'lat Damirovichning.

- Taroziga solish emas bu!

- Taroziga solishdan boshqa narsa emas! Aslida bunchalikka bormasangiz bo'lardi!

- Bu bilan nima demoqchisiz?

- O'zingiz juda yaxshi tushunib turibsiz!

- Muolaja tugadi. Keting!

- Yo'q, hali tugamadi! Bemorni tashlab qo'yishga haqingiz yo'q. Siz qasam ichgansiz!

- Afsuski, shunday!..

Yana jimlik.

Gulruh qirt-qirt qilganicha nimanidir qirqdi.

- Mana, endi ketishingiz mumkin, o'rtoq bemor, - dedi u birozdan keyin asabiy ohangda.

- Gulruh...

- ...

- A, Gulruh... Xafa bo'ldingizmi?

- Xafa bo'lishga haqqim yo'q. Axir, men qasam ichganman!

- Sizning nafaqat ninangiz, balki tilingiz ham o'tkir. Sanchilgan yeridan qon chiqarmasa qo'ymaydi.

- Yaxshi boring.

- Taklifimni yana bir bor o'ylab ko'ring. Kechqurun ko'rishguncha!

Po'lat Damirovich yo'lakka chiqdi. Menga nafratomuz tikilganicha ilonday vishillab:

- Kelgindilarni ko'rishga toqatim yo'q! - dedi-yu, yonimdan zuvillab o'tib ketdi.

Ichkariga kirdim.

Deraza oldida turgan Gulruhning yuzi qog'oz bo'lib qolgandi.

- Agar u sizga yana bir marta shunday muomala qilsa, Hakim Nazarichga ustidan shikoyat qilaman, - dedim sekin.

- Aralashmang siz! - deb baqirib yubordi Gulruh.

Nafasim ichimga tushib ketdi. Yo'q, qo'rqqanimdan emas. Bundan chiqdi, Gulruh Po'lat Damirovichga befarq emas ekan-da, degan o'ydin hafsalam pir bo'ldi. Qorovullikni bo'ynimga olganimga pushaymon bo'ldim.

Shu kuni Gulruh bilan boshqa gaplashmadim.

Tun.

Soat ikki yarim-uchlar atrofida ham uyg'oc edim.

Gulruhning xonasidagi chiroq yaqinda o'chdi. Shungacha u ham uxlamagandi. Xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib turdi.

Ayolning qadam tovushlarini sanab yotardim yo'lakdagi karavotda. Bir mahal qadam tovushlari eshitilmay qolganida asta o'rnimdan turib eshikdan mo'raladim. Gulruh deraza oldida turgandi. Joyimga qaytdim. Bir ozdan keyin ayol yana u yoqdan-bu yoqqa yurishni boshladi. "Asabiylashyapti";, - dedim ichimda. Odamning qadam tovushiga quloq tutib uning asabi joyida emasligini bilish mumkinligiga aqlim yetdi.

Mana, nihoyat chiroq o'chdi. Demak, Gulruh uxlab qoldi.

Sekin o'rnimdan turdim. Eshik oldiga chiqib, birpas turdim. Tevarakni kuzatdim. Hamma yoq jim-jit. Hatto soqchilar ham pinakka ketgandi. Qorni g'ichirlatmasdan bir-bir bosib "shtab"; tomon yurdim.

Bu oqshom Po'lat Damirovich navbatchi edi. Beriroqda turganicha u tunaydigan xonaning derazasiga ko'z tashladim.

Tunchiroqning xira yog'dusi lipillab turardi. Devor yoniga o'tib yana biroz kutdim. Bir qadam narida deraza. Men shu deraza yonidan bildirmay o'tishim kerak edi. Bir mahal ichkarida nimadir daranglab ketdi. Uning ketidan ayol kishining kulgisi eshitildi. Hushyor tortdim. Devorga qapishib oldim. Deraza ro'parasida bir juft soya paydo bo'ldi. Keyin yana jimlik.

O'n daqiqalardan keyin asta o'rnimdan jildim. Deraza ostidan yurakni hovuchlaganicha engashib o'tdim. Xayriyat. Endi bu yog'iga unchalik qo'rqqan ham bo'ladi. "Shtab"; kazarmasi haqida umuman tasavvurim yo'q edi. Xayolimda Gulruh ta'kidlagan allaqanday "...darcha"; dan bo'lak hech vaqo yo'q. Shuning uchun duch kelgan birinchi darchadan tavakkaliga ichkariga mo'raladim. Zim-ziyo qorong'ilik. Qorong'ilikdan boshqa hech narsa... shu chog' allakimning jon achchig'ida ingragani qulog'imga chalindi. Butun vujudim, e'tiborim quloqqa aylanib ichkariga quloq tutdim. Yana o'sha ayanchli ingroq... A'zoyi badaningni junjiktirib yuboruvchi ingroq...

Darchani sekin chertdim.

Javob bo'lmadi.

Javob o'rniga yana o'sha azobli ingroq...

Allaqayerda xo'roz qichqirdi.

"Bu yerning xo'rozlari namuncha vaqtli qichqirmasa?!";

Izimga qaytdim.

Deraza yonidan birdan o'tib keta olmadim. Nega deganda, derazaning kichik bir tabaqasi ochilgan bo'lib, u yerdan qandaydir gap-so'zlar eshitarildi. Beixtiyor quloqlarimni bekitdim. Umrim bino bo'lib bu qadar uyatsiz, pardasiz so'zlarni eshitmagandim.

Demak, ichkarida fohisha bor.

"Post";ga qaytdim. Bu yerda osoyishtalik hukmron edi. To'lin oy yog'dusiga chulg'angan xonada Gulruh uxlardi. Hech narsadan bexabar...

O'zimni karavotga tashladim-u, toshdek qotdim. Ammo ertalab eshik "tiq"; etgan zahoti uyg'ondim. Tashqarida telpagini ko'zigacha bostirib olgan Hakim Nazarich turardi.

Eshikni ochdim.

- Salom.

- Yaxshi keldingizmi?

- "Post";da tinchlikmi?

- Xuddi shunday.

- Hamshira qizimiz qalay? Bezovta bo'lmadimi?

Hazil qilgim kelib:

- Hamshiramiz onasining qornida yotganday bexavotir uxlati va hamon uxlamogdalar, - dedim.

Hakim Nazarich kulib qo'ydi-da, o'zining xonasi tomon o'tdi.

Shu chog' eshik g'iyqillab ochildi-da, Gulruh paydo bo'ldi.

- Sizlarga gap bo'lsa, rosa opqochasizlar-a? - dedi, keyin menga po'pisa qilgan bo'ldi: - Hali shoshmay turing, kechasi allaqayoqqa ketib qolganingizni Hakim Nazarichga aytib beraman!

- Men shu yerda edim.

- Yolg'on!

- Rost...

- Allaqayoqqa ketib qolganingizni tan oling! Tan olmasangiz...



- Xo'p, xo'p, tan olaman.  
- Qayoqqa borib keldingiz?  
- Bittasi bilan uchrashuvim bor edi. Shuniyam bilib qo'yingizmi? Siz ayollardan hech narsani yashirib bo'lmaydi-ya!  
Gulruh gapimni ko'ngliga og'ir oladimi, deb cho'chib turgandim. Yo'q, u muloyimlik bilan jilmayardi.  
- Uchrashuvingiz yaxshi o'tdimi, ishqilib?  
- Yaxshi ham gapmi!  
- Xursandman.  
Gulruh xonasiga kirdi.  
Avvalgi jur'atsizligim qayoqqa chekindi, bilmayman. Men endi Gulruh bilan bemalol gaplashardim.  
- Kechasi Husandan xabar olib keldim, - dedim Gulruh qo'limga malham surayotganda. - Shtab ortidagi darcha haqiqatan ham kazarmaniki ekan.  
- O'zingiz ko'rdingizmi?  
- Be, qayoqda! Lekin ovozi eshitdim. Oh-voh qilib yotibdi bechora. Bugun Hakim Nazarich bilan gaplashsammi, nima deysiz?  
- Husan haqidami?  
- Ha. Hech bo'lmasa jarohati tuzalguncha unga kimdir qarab turishi kerak. Shunday yotaversa o'lib qolishi turgan gap.  
- Hakim Nazarichga men aytaman bu gapni. Do'xtir sifatida. Shunda ishonishlari mumkin. Mabodo ko'ndira olmasam, keyin siz hujumga o'tasiz. Xo'pmi?  
- Sizga yo'q deb bo'larmidi?  
Men unga yana nimadir deyish uchun og'iz juftladim, lekin shu vaqt yo'lakda to'plangan bemorlarning shovqin-suroni eshitildi. O'rnimdan turdim.  
- Alisher haqidayam gaplashmoqchidim, - dedi Gulruh past ovozda. - Yaxshisi, ishchilar jo'nab ketganidan keyin "kontora";ga o'ta qolaylik.  
- Xo'p.  
Chamasi ikki soatlardan keyin biz Hakim Nazarichning xonasiga kirib bordik.  
- Tinchlikmi, Gulruh Qosimovna?.. - "mehribon knyazCH"; sirtidan qaraganda har doimgiday xotirjam ko'rinsa-da, botinida bezovta bir to'lqin xuruj qilayotganini sezdirib qo'ydi: uning bo'yinbog'ining tuguni dir-dir titrardi.  
- Bemorlar masalasida kelgandim.  
- Marhamat, o'tiring.  
- Rahmat.  
- Xo'sh?  
- Oyog'i singan yigitning ahvoli o'nnglanmayapti, shundan tashvishdaman. Kasalxonaga yotqizmasak bo'lmaydi. Operatsiya qilish kerak.  
- Muolaja yordam bermayaptimi?  
- Umuman. Faqat operatsiya tufayli oyog'ini saqlab qolish mumkin. Aks holda...  
- "Aks holda..."; U yog'i ma'lum. Ammo... - Hakim Nazarich bexosdan Gulruhga tikilib qoldi. Keyin birdan uyalib ketgandek nigohlarini olib qochdi.  
- Hakim Nazarich, qo'limdan kelganini qilyapman. Lekin men oddiy hamshiraman, xolos.  
- Tushunib turibman, biroq kasalxonaning iloji topilishiga ishonmayapman. Vaziyat o'zingizga ma'lum-ku.  
- Bilmadim, bu yog'iga o'zingiz bosh qotirishingizga to'g'ri keladi, - dedi Gulruh o'jarlik bilan, hatto depsinib qo'ydi.  
Hakim Nazarichning jahli chiqsa kerag-ov, deb turgandim, yo'q, aksincha uning ulug'vor, salobatli yuzi allaqanday tabassumdan yorishib ketdi. Gulruhga erkalovchi bir nigoh tashladi-yu, shu zahoti buni o'zi fahmlab qolganday birdan jiddiy tortdi.  
- Harakat qilib ko'raman, - dedi u stol ustidan allanimani qidirgan kishi bo'lib.  
- Yana bir iltimos, ham talabim bor edi, Hakim Nazarich. Jahlingiz chiqmasa aytaman.  
- Jahlim chiqsa-chi? - Hakim Nazarich kulgudan bazo'r o'zini bosib turganday Gulruhga qaradi.  
- Baribir aytaman.  
- Unda ayting.  
- Bilasizmi... Yaqinda yarador bir yigitni olib kelishgandi. Hozir u kazarmada yotibdi. Lekin ahvoli juda og'ir. Jilla qursa, medpunktida davolanmasa bo'lmaydi.  
- Qochoq yigitni aytayapsizmi? U Po'lat Damirovichning ixtiyorida. Aniq bir gap aytolmayman.  
- Hakim Nazarich... Yo'q, Hakim aka, - Gulruh bir qadam oldinga yurdi. - Biz faqat sizni bilamiz. Boshqalarni tan olmaymiz! Shunda... Shunda Hakim Nazarichning yuzi qanchalar o'zgarib ketganini bir ko'rsangiz edi! Yo'qotgan aziz narsasini qayta topib olganday esankirab qolgandi u.  
- Men... Gulruh... Qosimovna, va'da berolmayman, lekin bilasizmi... men harakat qilib ko'raman, - dedi u hayajonini bosishga urinib.  
- Men sizga ishonaman, - Gulruh bu so'zlarni shunday samimiyat bilan aytdiki, Hakim Nazarich beixtiyor titrab ketdi.  
Men ham lol bo'lib qolgandim.  
Hakim Nazarichning qo'l telefoni jiringladi.  
- Alo, ha, menman. Tinchlikmi? Ha, bugun boraman. Kecha ishxonada ushlanib qoldim. Borganda gaplashamiz.  
Kasalxonadamisan? Xo'p. Xo'p, - Hakim Nazarich bo'g'riqqancha telefonni cho'ntagiga soldi.  
- Vaqtingizni olganim uchun uzr, Hakim aka, - dedi Gulruh.  
Keyin xonadan chiqdik. "Qiziq, Hakim Nazarich kecha ishxonada tunabdi, shekilli, - degan o'y o'tdi xayolimdan. - Boya telefon qilgan xotinga shunday deb hisobot berdi-ku";  
Tushlik bo'lib qolgandi.  
- Tushlikni qayerda qilamiz? - deb so'radim Gulruhdan.  
- Men har doimgiday xonamda tushlik qilaman.  
- Bugun oshxonaga boraqolaylik. Anovi ikkalasining ahvolidan ham bir xabar olardik-da.  
- Bo'пти.  
Bizni ko'rib Nargiza yig'lab yubordi.

- Siquilib ketdim, - deya hiqilladi u. - Kechasi bilan ko'z yummadim hisob. Qanday kunlarga qoldim, deb o'ylayverib adoyi-tamom bo'ldim. Agar hozir sizlar kelib qolmaganingizda o'zimni anovi biqirlab turgan qozonga tashlab yuborardim!

- Hoy, hoy, Nargiza, o'zingizni qo'lga oling, - dedi Gulruh.

- E, jonimdan to'yib ketdim! Bunaqa hayotdan...

- Hayot shunchalik beqadrimi? - dedi Gulruh.

Nargiza unga angrayib qaradi.

- Hayotning qadriga yetmaydigan odam undan osonlikcha voz kechib qo'ya qoladi. Odam yashagisi kelib turganida emas, yashagisi kelmay qolganida yashashga harakat qilishi kerak, menimcha. To'g'rimi, Davron aka?

- Yashaganda ham unaqqa-bunaqa emas, hayotning jon yeridan mahkam tutib yashash kerak, - dedim.

Nargizaning biroz chiroyi ochildi.

Topgan-tutganini stolga qo'ydi.

- Nargiz, sho'ttamisan? - eshikdan bosh suqdi Sanobar.

- Ha, kelavering.

Nargiza bo'sh stol olib kelib mening yonimga qo'ydi. Harsillagancha Sanobar kirib keldi. U terlab ketgan, peshbandi yarmigacha ho'l edi. Hol-ahvol so'rashib, qatorimizga qo'shildi.

- Kirlarni yuvib bo'ldingizmi? - so'radi Nargiza.

- Bo'ldim. Ordona qolsin! Adoyi-tamom bo'ldim... - dedi u horg'inlik bilan.

- Pulniyam rosa ishlayapsiz-da! - dedi Nargiza kulib.

- Puliyam boshida qolsin, iloyim! Uyimni, bolalarimni sog'indim. Bo'ldi, boshqa gapirmanglar. Yana "g'ing"; deydigan bo'lsalaring o'zimni o'zim bir balo qilib qo'yaman! Jonimdan to'yib yuribman o'zi! - Sanobar qo'lini peshonasiga tiradi. Qisiq ko'zlaridan yosh sizib chiqdi.

- Bugun ikkalamizgayam ajina tekkan, shekilli, - dedi Nargiza. - Hozir kayfiyatni ko'taradigan bir narsa opkelaman.

- Bormi? - birdan jonlandi Sanobar.

- Yo'q bo'lsa aytarmidim?

- Tugadi, deganding-ku kecha.

- Topdim-da.

Nargiza o'rnidan turib nari ketdi.

Sanobar uh tortib stol suyanchig'iga o'zini tashladi. U butkul g'am-anduhdan yaralgan gumbazday bo'lib o'tirardi. Bu yerda u yanada to'lishgandi.

- Mana! - Nargiza tantanali ravishda stolga aroq shishasini qo'ydi.

- O'h-ho'! - Sanobarning chiroyi ochildi. - Zo'ridan-ku! Qani, stakanlaringni beringlar.

Gulruhga qaradim. U ortiqcha mulozamat kutmasdan stakanini uzatdi. Sanobar shisha tiqinini shart-shurt ochdi-yu, shosha-pisha stakanlarga quya boshladi.

- Biz shunaqasiga o'tganmiz, - dedi Nargiza unga hech narsa demagan bo'lsam ham.

- Sovib qolmasin, qani olinglar, bo'laqolinglar, - stakanni qo'lga olgan Sanobar betoqatlik bilan bizni shoshirardi.

- Sog'lik uchun! - dedim men.

- Eson-omon uyga yetib olishimiz uchun! - dedi Nargiza.

- Men keyingisiga niyat bildiram, - dedi Sanobar, keyin hech kimga qaramasdan stakanni bir ko'tarishda sipqordi-qo'ydi.

Nargiza stakan tagida ozgina qoldirdi.

Men bir tomchi ham qoldirmadim.

Gulruh stakanni nomiga labiga tekkizdi-yu, stolga qo'ydi.

- Men tashlaganman ichishni, - dedi kulib keyin.

- Boshqa vaqt bo'lganida zo'rlab bo'lsayam ichirgan bo'lardim, - dedi Sanobar og'zidagi luqmani goh u jag'iga, goh bu jag'iga olib chaynarkan. - Lekin hozir bu jonivorning bir tomchisi oltita teng bo'lib turibdi. Ichmasangiz mayli, o'zingiz bilasiz. Nargiz, shishada qolganini asrab qo'y. Manavini ikkalamiz bo'lashib ichamiz.

- Davron... - Nargiza chaynaldi.

- Menga bo'ldi, - dedim shartta. - Sizlar bahuzur olaveringlar.

- Rahmat.

Ikkala ayol Gulruhning tegishini bo'lashib ichishdi. Keyin hamma narsani unutganicha pishillab ovqatlanishga kirishdi. Tavba, ularga qarab turib pilla qurti esimga tushib ketdi.

- Ovqat mazali ekan, oling, - dedi Gulruh menga.

Ovqatimiz oddiy makaron edi. Qovurma makaron. Lekin juda mazali edi. Pok-pokiza tushirdik hammasini.

- Likopchangizni bering, yana opkelaman, - Gulruhga iltifot qildi Nargiza.

- Rahmat, to'ydim.

- Menga opkelaqol, - dedi Sanobar likopchasini uzatarkan. Keyin Gulruhga yuzlanib dedi: - Avvallari ovqatni ko'p yerdim.

Shuning uchun semirib ketgandim. Lekin bu yerda ko'p yeya olmayapman. Ishtaham yo'q negadir. Ammo baribir semirib ketyapman. Nega shunday ekan-a?

- Kam harakat qilayotgandirsiz.

- Topolmadingiz. Meni g'am semirtirayapti! Qanchalik ko'p g'am cheksam, kuyib-yonsam, shunchalik semirib ketyapman. Bu yomonmi?

- Ortiqcha...

Gulruh endi gap boshlagandi Sanobar uning og'zidan yulib oldi:

- Bu yomon, albatta. Ko'rinib turgan narsa-ku.

Sanobarning savol berib, javobni ham o'zi berib qo'yayotgani kulgimni qistadi. Nargiza bir yo'la o'zining likopchasini ham to'ldirib keldi, ikkala ayol yana ovqatlanishga tushdi.

Zimdan Gulruhni kuzatdim. Shikoyat qilish va ovqatlanishdan boshqa narsani bilmaydigan manavi yig'loqi ayollar oldida u butunlay boshqacha, betakror go'zal, sodda va yoniga yo'lab bo'lmaydigan darajada mag'rur ko'rinardi.

\* \* \*

Ertalab yomg'ir aralash qor yog'di.

Havo zamharir, osmon qorayib turardi.

Soat o'nlar atrofida medpunktga Po'lat Damirovich kirib keldi. Uning yuzi gezargan, ko'zlari g'azabnok edi.

- Gulruh Qosimovna, anovi erkatoyingiz qachon ishga chiqadi? - deb so'radi u Gulruhdan odatdagiga mutlaqo o'xshamaydigan zardali ohangda.

Gulruh erkin javob berdi:

- Erkatoyim hali-veri ishga chiqmaydi.

- Nega?

- Jarohati hali tuzalgani yo'q.

- Qachon tuzaladi?

- Noma'lum.

- Gulruh Qosimovna, bemoringiz bir haftadan keyin ishga chiqmasa, ko'chaga haydashga majburman.

- Bir haftadan keyin ishga chiqa olmaydi.

- Menga tekintomoq, boqimandaning keragi yo'q! - depsindi Po'lat Damirovich.

- Po'lat Damirovich, nega asabiylashayapsiz? Axir, u ishga yaroqsiz. Yaroqsiz odamni qanday qilib ishlashga majbur qilasiz?

- Ishga yaroqsiz odamning menga keragi yo'q. Bitta takasaltang uchun kontora hisobidan qancha xarajat ketayotganidan xabaringiz bormi?!

- Xabarim yo'q, hozircha. Ammo Hakim Nazarichdan so'rab bilvolaman.

- Bu ishga burningizni tiqmaganingiz ma'qul, Gulruh Qosimovna!

- Po'lat Damirovich, bunchalik dag'dag'a qilishingiz boisini tushunolmayapman. Men tibbiy xodim sifatida bemorlarimning ahvoriga javobgarman, axir!

- Burchingizni a'lo darajada o'tayapsiz, Gulruh Qosimovna. Bu yog'iga endi aralashmang!

- Bu buyruqmi?

- Ha, buyruq!

Po'lat Damirovich keskin burildi.

- Po'lat Damirovich, - murojaat qildi Gulruh unga. - Hamma narsani pul bilan o'lchasak, hisob-kitobga taqayversak, odamiylik degan narsa qayda qoladi?

- Bu mening muammoyim emas! - shu zahoti javob berdi Po'lat Damirovich.

- Bemor ishga yaroqsiz bo'lsa, darrov ko'chaga uloqtirishimiz kerak ekan-da?!

- Uloqtiring! Iloji bo'lsa, uzoqroqqa uloqtiring. Dod-faryodi quloqqa eshitilmasin!

Gulruh yana bo'sh kelmadi:

- Yarador yigitni allaqachon uloqtirib yubormadingizmi haytovur?

- Uni uloqtirish shart emas, - Po'lat Damirovichning ovozi mamnunlik sezildi. - Jarohatiga allaqachon qurt tushibdi! Yana bir haftadan keyin u qurtlarga butunlay yem bo'ladi!

Po'lat Damirovich xo-xoladi.

Gulruhning ovozi chiqmay qoldi.

Etim jimirlab, a'zoyi-badanimga nina sanchilganday bo'ldi.

Yo'lakda vazmin qadam tovushi eshitildi.

Irg'ib o'rnimdan turdim.

- Salom, Hakim Nazarich.

Hakim Nazarich bosh irg'adi, keyin:

- Ishlar yaxshimi? - dedi sekin.

- Rahmat.

- Ichkarida odam bormi?

- Po'lat Damirovich...

Hakim Nazarich ostona hatladi.

- Nima gap? Ikkalangizni ham qovog'ingizdan qor yog'yapti, tinchlikmi? - Hakim Nazarich stulga o'tirarkan, avval Gulruhga, so'ng Po'lat Damirovichga savol nazari bilan tikildi.

- Shunchaki ish yuzasidan... - g'o'ldiradi Po'lat Damirovich.

- Bemorlar masalasida sal tortishib qoldik, - dedi Gulruh.

- Kelisha oldilaringizmi?

- Yo'q.

- Men ham bu masalada Po'lat Damirovichga hech gap uqtira olmayapman. Ayniqsa, qochoq yigit to'g'risida u kishining umuman eshitgisi kelmaydi.

- Hakim Nazarich, - dedi Po'lat Damirovich qizargan-bo'zargan holda. - Men sizning ishingizga aralashmayapman-ku. Siz ham aralashmang, iltimos! Aks holda...

- Nima "Aks holda?.."; - ohista so'radi Hakim Nazarich.

- Hakim Nazarich, bitta savolimga javob bersangiz, - dedi Po'lat Damirovich istehzo bilan boqib. - Siz kim bilan ishlayapsiz o'zi?!

Hakim Nazarich darrov javob bermadi. Bir necha soniyalik jimlikdan keyin u:

- Po'lat Damirovich, har qanday sharoitda ham odamiylikni unutmamak yaxshi bo'lardi, - dedi.

- Odamiylik uchun pul to'lanmaydi-ku!

Qolaversa... - Po'lat Damirovich alamli kulimsiraganicha yon-veriga qaradi. - Qolaversa, men bir narsaga tushunmayapman...

Shu chog' Hakim Nazarich irg'ib o'rnidan turdi va kutilmaganda hayqirgudek bo'lib:

- Po'lat Damirovich! - deb yubordi.

Gulruh cho'chib tushdi.

Yuzi alamdun bujmaygan Po'lat Damirovich taxta bo'lib qoldi.

Hakim Nazarich boshqa bir so'z demasdan xonadan chiqib ketdi.

Bir daqiqalardan keyin o'ziga kelgan Po'lat Damirovich ich-ichidan toshayotgan g'azabini jilovlay olmay, qiyshangladi:

- O'zini oqibatli ko'rsatmoqchi bo'lyapti, yaramas!

Keyin u ham ketdi.

Gulruh xona o'rtasida qaqqayib turardi. Yuzida qon qolmagandi. Xudo shohid, shu choqqacha men gul yaprog'idagi shudringday pokiza, bokira, oliy maqsadi yo'lida har qanday to'siqni pisand qilmaydigan bunday oqila ayolni uchratmagandim. Behad hayron edim...

Tunda yana Husandan xabar olish uchun otlandim. Biroq bu safar omadim yurishmadi. Shtabdan nariga o'ta olmadim. Chunki to'lin oy nuri mo'l-ko'l yoritayotgan deraza oldida Po'lat Damirovich bir ayolni quchoqlagancha tashqariga qarab turardi. Ularning ikkalasi ham yarim yalang'och edi.

Shiftga tikilib yotganicha ko'zim ilingan edi. Ammo ko'p uxlay olmadim.

Gulruhning:

- Davron aka, bu yoqqa keling, tezroq! - degan tashvishli ovozidan uyg'onib ketdim.

Tepamda Gulruh turardi.

- Nima gap?

- Alisher...

Gulruh shunday dedi-yu, xonasiga yugurdi.

Parda ortidan Alisherning ayanchli nolasi eshitalardi.

- Buni qarang, - dedi Gulruh parda ortiga o'tganimda Alisherning oyog'ini ko'rsatib. - Nima qilishga hayronman...

Ingrab yotgan Alisherning sarg'aygan yuzida bemisl og'riq qotib qolgan, qovoqlari shishgan, isitma zo'ridan nuqul alahlardi.

- Taxtakachni olib tashlasam, degandim. Yordamlashvoring, - dedi Gulruh.

- Nima qilishim kerakligini aytasangiz bo'ldi.

- Xo'p.

Alisherga uxlatadigan ukol qilganidan keyin Gulruh ishga kirishdi.

Alisherning oyog'i shishib ketganidan yo'g'on g'o'laga o'xshab qolgandi.

- Mana, ko'rdingizmi? - dedi Gulruh yarador oyoqning qontalashgan qismini ko'rsatib. - Mana shu yerda yiring to'plangan. Bolaga shu narsa azob beryapti. Infeksiya qonga o'tsa... tamom.

O'n gulidan bir guli ham ochilmagan yigitchaga rahmim keldi. Turmush tashvishlarini bunchalik erta bo'yniga olmasa?.. U yoqda Husan... Darvoqe, Safaralining holi ne kechdiykin?

Qaylardasan, do'stim?!

Oradan ikki kun o'tdi.

Kechki payt.

Gulruh bilan ovqatlanmoqchi bo'lib turgandik, xonaga Po'lat Damirovich kirib keldi. U shirakayf edi.

- Pushtipanohingiz Hakim Nazarichga ustimdan shikoyat qilsangiz ham mayli, ammo hozir xonani bo'shatib qo'ysangiz! - dedi u menga xo'mrayib qararkan.

- Yo'lakda bo'laman, - dedim Gulruhga.

- Bu yerdan uzoqroqqa yo'qolsangiz yaxshi bo'lardi! - qichqirdi ortimdan Po'lat Damirovich.

Kursini yo'lakka olib chiqib, shundoq eshik orqasiga qo'yib o'tirvoldim.

- Gulruh Qosimovna, tansoqchingiz sal anaqaroqligi o'zingizga ham seziladimi? - ichkaridan Po'lat Damirovichning kinoyali so'zlari eshildi.

- Sizga shunday tuyulgandir. Bu kishini shaxsan Hakim Nazarichning o'zlari tavsiya qilganlar.

- Darvoqe, Hakim Nazarichni esimga solganingiz yaxshi bo'ldi. Bilasizmi, kecha kechqurun mening oldimga kim keldi?

- Kim?

- Hakim Nazarichning xotini!

- Nima bo'пти shunga?

- Bu yog'ini eshiting avval. Kseniya Sergeevnaning gapiga qaraganda, Hakim Nazarich anchadan buyon ishxonada yotib qolayotganmish! - Tushuniksiz xushchaqchaqlik bilan so'zlardi Po'lat Damirovich. - Sho'rlik Kseniya Sergeevna hayron, ishlaringiz shunchalik ko'payib ketdimi, deydi. Avvallari hecham bunaqa qilmasdi, yarim kechasi piyoda bo'lsayam uyga yetib kelardi, deydi yana. Muomalasiyam o'zgarib qolganmish. Menga avvallari xaloskorga qaraganday qarardi, deydi kuyinib. Ha, aytganicha, balki birorta yengiltak xotinga ilakashib qolmadimikin, degan xavotiri ham yo'q emas.

- Po'lat Damirovich, bunaqa g'iybatlarga hushim yo'q.

- Bu g'iybat emas. Bir mushfiq ayolning hasrati...

- Shuni aytish uchun kelganmidingiz bu yerga?

- Yo'g'-e, nimalar deyapsiz? Gapdan gap chiqib... Men... Gulruh Qosimovna, anuv kungi taklifimga javob berasizmi, yo'qmi?

- Yo'q.

- Siz tag'in noto'g'ri xayollarga borayotgan bo'lmang, men davolaganingiz uchun, yaxshi so'zlaringiz bilan tushkun qalbinga malham bo'lganingiz uchun minnatdorchilik tariqasida...

- Minnatdorchilik bildirishga shoshilmang. Muolajani yana davom ettirishingiz lozim. Bu dard bilan hazillashib bo'lmaydi.

- Siz nima desangiz aytganingizni qilaman. Faqat, iltimos, ra'yimni qaytarmang.

- Po'lat Damirovich, keling, ochiqchasiga gaplashib olaylik.

- Bajonidil.

- Meni o'ynashlikka taklif qilayotganingizni sezmayapti, deb o'ylayapsizmi? Axir, bola-chaqali odamsiz. Ehtimol, sizning xotiningiz ham Kseniya Sergeevnaga o'xshab allaqayerlarda yig'lab yurgandir?

Birdan jim bo'lib qolishdi.

Qoziq yutganday, qimir etmasdan o'tirardim.

Bir mahal...

- U yig'lamaydi, - Po'lat Damirovichning mahzun ovozi keldi. - Meni yig'latadi!

- Sizni-ya? - alamli kuldi Gulruh.

- Ha, meni. Yuragim yig'laydi mening

- Hamma erkaklar shunaqa. Yo'lga yurgizib olguncha mingta yolg'onni qalashtirib tashlashadi.
  - Mening so'zlarim yolg'on emas! Ishonmasangiz, mana, o'zingiz ko'ring, siz shunday ayol bilan yashagan bo'larmidingiz agar mening o'rnimda bo'lganingizda?!
- Po'lat Damirovich aftidan surat ko'ratdi-yov, bir lahzalik jimlikdan keyin Gulruh:
- Bu qizingizmi? - deb so'radi.
  - Ha. Shu qizim va la'nati shartnoma tufayli men undan ajrasha olmayman!
  - Qanaqa shartnoma?
  - Nikoh shartnomasi-da. Shartnomaga muvofiq, agar biz ajrashadigan bo'lsak, butun mol-mulk, to'plagan davlatim xotinim va qizimning nomiga o'tadi.
  - Eh-he, bu yog'i juda og'ir savdo ekan-ku.
  - G'o'rligimda ota-onam uylantirib qo'yishgan. To'yni ota-onalar qilishadi, azobni farzandlar tortishadi! - alamli xo'rsindi Po'lat Damirovich.
  - Noshukr bo'lmang, ajoyib qizchangiz bor ekan.
  - Agar xo'p desangiz, sizga uy olib berardim. Xuddi xotinimday hamma narsa bilan ta'minlayman. Eng muhimi, ozod bo'lasiz!
  - "Xuddi xotinimday..."; dedingizmi? Po'lat Damirovich, menga hech narsaning keragi yo'q. Yaxshisi, tinch qo'ying meni!
  - Nahotki ozodlik ham sizni qiziqirmasa?
  - Bunday ozodlikning menga keragi yo'q!
  - Bilasizmi, Gulruh Qosimovna, shu topda xayolimga nima keldi?
  - Meni tinch qo'ying. Boshim og'riyapti.
  - Tabiblar ham kasal bo'lishadimi?
  - Uf!
  - Bir og'iz gap. Agar eng yaqin sheriklaringizdan ikkitasini ozod qilaman, deb va'da bersam, aytganimga ko'nasizmi?
  - Agar hoziroq chiqib ketmasangiz, soqchini chaqiraman!
  - Tupurdim o'sha soqchingizga! Imkon tug'ilgan zahoti o'sha murdasha'y soqchining peshonasidan darcha ochaman!

Eshik taraqlab ochildi.

Po'lat Damirovich o'qday otilib xonadan chiqdi.

Birozdan keyin eshikdan mo'raladim. Gulruh deraza oldida turardi. Yelkalari silkinardi uning...

Bir haqiqatni kashf qildim shu kuni. Gulruh mal'un Po'lat Damirovichni sevmas ekan!

Bir necha kundan beri yurak-bag'rimni ezgan tushunmovchilik yozgi tumanday tarqadi-ketdi. Gulruhga nisbatan hurmatim ortdi (Bilasizmi, erkaklar kamdan-kam ayollarni hurmat qilishadi), axir, nihoyatda dimog'dor, buzuq va razil kimsa qarshisida uning o'zini mardona tutishi tahsinga sazovor emasmi?

E'tibor bergan bo'lsangiz, uning gaplarida qanchalar keskinlik, mulohazakorlik va qilichdek o'tkir haqiqat mujassam edi!

Nazarimda bu yerda to'planganlar orasida o'zini ruhan tutqun hisoblamayotgan hamda tushkunlikka berilmayotgan birgina inson Gulruh edi. Bu ham adolatsizlikka qarshi isyonning o'ziga xos ko'rinishi emasmi?!

Hayotda har xil fosiq, vijdotsiz odamlarni uchratganman. Ammo Po'lat Damirovichdek buzuq va yuzsiz odamni ko'rmagandim. Hatto ba'zi xususiyati va fazilatlariga ko'ra qotil Husan ham undan olijanobroq hamda odamiyroq edi.

Po'lat Damirovich nihoyatda qoniqtirib bo'lmaydigan darajada lazzatga o'ch kimsa edi. Bu borada uning na botini, na zohiri hech qanday me'yor, hech qanday qonuniyatga bo'ysunmasdi. Huzur-halovati va nafsini qondirish uchun har qanday qabohatdan tap tortmasdi. Berahmlilik va dilozorlik esa uning tabiatidagi tug'ma jihatlar edi. Ehtimol shuning uchun ham u politsiyachilik kasbini tanlagandir. Po'lat Damirovich ko'rishga tob-toqati bo'lmagan xotini, qizi, qarq'ish tekkan molu davlati va g'o'rligida yaxshi ko'rmagan qiziga uylanishga majbur qilgan ota-onasi haqida nafrat bilan so'zlaganda men uning benihoya baxtsiz ekanligini his qildim.

O'shanda Gulruhni soddagina tutqun ayol xayol qilib, bir xurujdayoq maqsadimga erishaman, deb xomtama bo'lgan Po'lat Damirovich chuchvarani xom sanaganini anglab yetganidan keyin shunday razilliklarga qo'l urdiki, eshitsangiz hayron qolasiz...

Bir kuni Nargiza bilan Sanobar meni tushlikka taklif qilishdi. "Yolg'iz o'zingiz keling", deyishgani uchun bu haqda Gulruhni ogohlantirmasdan o'zim bordim.

Dasturxonda tansiq taomdan tashqari u-bu shirinliklar ham bor edi. "Maxsus tushlik"; uchun ancha-muncha urinishgani ko'rinish turardi.

- Birortangizning tug'ilgan kuningiz emasmi? - deb so'radim ayollardan.
- Tug'ilgan kunni, xudo xohlasa, uyda nishonlaymiz, - dedi Sanobar pishillab.
- Biror xushxabar bormi?

Sanobar Nargizaga qaradi.

- Avval ovqatlanib olsinlar, keyin gaplashamiz, - dedi Nargiza ovqatni oldimga surib qo'yib.

Bunday vaqtda tomoqdan ovqat o'tadimi?

- Ochiqroq gapirsalaring-chi, - dedim qizishib.
- Voy, namuncha, jahlingiz burningiz uchida turadimi, deymen? Aytarli hech gap yo'q, - dedi Sanobar yasama beg'amlik bilan. Allaqanday muhim gapi borday ichida atala pishayotgani yuzidan sezilib turibdi-yu...
- Sizdan so'raydigan gaplarimiz boridi. Avval ovqatdan oling. O'zi unchalik muhim emas, - dedi Nargiza.

Shu xotin meni har doim och yuradi, deb o'ylasa kerak.

Qo'llarimni ko'ksimda chalishtirganicha qat'iy ohangda:

- Nima gapligini bilmagunimcha og'zimga ushoq ham olmayman, - dedim.
- Mayli, ixtiyoringiz, - Nargiza og'ringandek likopchani nari surdi.
- Kecha bizni anovi Damirovich degani oldiga chaqirib bir gapni aytuvdi, - bazo'r eshitiladigan qilib so'zladi Sanobar. - Gapiga qaraganda, Gulruhni yaxshi ko'rib qolganmish. Agar rozi bo'lsa, unga uylanishgayam tayyormish. Faqat Gulruhning o'ziga bu haqda og'iz ocholmayotganmish. Qo'rqayapman, deydi. Shu juvon bilan gaplashib bersangiz, ikkovingizniyam bu yerdan chiqarib yuborardim, deb va'da berdi. Ha, aytganicha, yana bir gapni aytgandi. "Gulruhni butun umrga o'ziga bog'lab olmoqchi emasman. Mendan ko'ngli qolgan kuni tashlab ketishi mumkin. Hech bir urintirmasdan shaxsan o'zim uyiga oborib qo'yaman"; dedi bechora.

- Siz nima deb javob berdingiz? - deb so'radim Sanobardan.  
- Nima derdim? Birinchidan, savob uchun, ikkinchidan, uyga eson-omon yetib olish...  
- U sizlarni aldagan, - dedim Sanobarning gapini kesib.  
- G'alatisiz-a, Davron? Kap-katta odam nega aldaydi? - dedi Nargiza ta'nali nazar tashlab.  
- Agar aqlingiz bo'lsa, Gulruhga bu haqda og'iz ochmang, - dedim Sanobarga.  
- Fe'li yomonmi? - so'radi u.  
- Yomon ham gapmi?!  
- Balki siz sekin qo'yniga qo'l solib ko'rarsiz, har qalay birga ishlaysiz, - desa bo'ladimi Nargiza.  
Irg'ib o'rnimdan turdim.  
- Ikkalangiz ham esingizni yeb qo'yibsiz! - dedim-u, tashqariga chiqib ketdim.  
Ayollar ortimdan hay-haylagancha qolishdi.  
Shu kuni kechgacha Gulruhning ko'ziga qarolmay yurdim.  
Eski tanishlarim mendan xafa bo'lishgan chog'i, bir necha kun salom-alikni ham yig'ishtirib, xo'mrayib yurishdi.  
Hovlida ulardan birining qorasiga ko'zim tushdi deguncha yuragim shig'illab ketadigan bo'lib qoldi. Nazarimda befahm bu xotinlar Gulruhni xafa qilib qo'yadigandek tuyulaverardi. "Bordi-yu, ular Gulruhni yo'qlab keladigan bo'lishsa, ichkariga kiritmayman!";, derdim o'zimcha. Biroq eski tanishlarim ham anoyilardan emas ekan yoki bu bir tasodifmi, bilmayman, Hakim Nazarichning chaqirig'iga binoan uning xonasiga kirib, besh daqiqalardan keyin qaytib kelganimda Sanobar bilan Nargiza Gulruhning xonasida o'tirishardi.  
Xotirlarning gapiga quloq tutish noqulay. Shuning uchun eshik oldiga chiqib turdim. Ishqilib, Gulruhning oldida mening nomimni ham qo'shib yubormasinlar-da, degan xavotir ichimni tirnardi.  
Bir mahal eshik taraqlab ochildi-yu, ikkala ayol otilib chiqishdi. Yuzlarida qon yo'q.  
Eshik yana bir bor taraqladi-yu, yopildi.  
It quvgan gadoydek ikkala ayol ham yugurgilab tashqariga chiqishdi.  
- Voy-bo'y! - meni ko'rib boshini sarak-sarak qildi Sanobar pishillagancha. - Azroil-a, azroil!  
- Og'zimizdan chiqar-chiqmas yoqamizga yopishtirdi-ya! - dedi Nargiza ko'zlari ola-kula bo'lib.  
- Men sizlarga nima degandim, - dedim kulgim qistab.  
- Namuncha xursandsiz?! - zardali nazar tashladi Nargiza.  
- Bunaqa ekanligini bilmagan ekanman, - dedi Sanobar. - Asov-a, asov! Xuddi bunaqa gap eshitmaganday, birdan sachrab ketdi-ya! Uning o'rnida boshqa xotin bo'lganida Damirovichday odam o'ynashlikka taklif qilsayam yo'q demasdi. Ha, to'g'ri-da, bu yerda birov bilib yotibdimi? Biz ko'rganlarimizni uyga orqalab ketarmidik? Shu yerdagi gap shu yerda qolardi! Essiz... O'zini o'ylamasa bizni o'ylasa bo'lardi? Uning uyida yig'lab qolgan bola-chaqasi bo'lmasa? Qayerda yashashning farqi yo'q-ku unga...  
Sanobarning yuziga tarsaki tortib yuborishdan bazo'r o'zimni tiydim.  
Ko'p o'tmasdan yana bir ko'ngilsizlik yuz berdi. Ko'ngilsizlik! Ha, ko'ngilsizlik bundan ortiq bo'lmaydi.  
Ertalab soat o'nlar atrofida hovlida bashang kiyingan bir ayol paydo bo'ldi. Men kursini eshik oldiga qo'yvolib sigaret chekib o'tirardim. Ayol u yoq-bu yoqqa qaramasdan to'g'ri men tomonga yurdi.  
- Nazarich shu yerdami? - deb so'radi u dabdurustdan.  
- Ha, - deyishga zo'rg'a ulgurdim.  
Ayol shitob bilan yonimdan o'tib ichkariga kirdi. Qirq beshlarga borgan bu ayol yoshiga nisbatan qarimsiq ko'rinar, buning ustiga haddan tashqari to'la edi. Yuziga shu qadar mo'l-ko'l upa surganidan qimmatbaho po'stinning yoqalari oqarib qolgandi. Ammo og'ir-vazmin gavdasiga qaraganda harakatlari chaqqon ekanligi sezilib turardi.  
Birozdan keyin Hakim Nazarichning xonasidan uning qattiq-qattiq gaplari eshitildi.  
- Uying, bolang, xotining borligi esingdami? Yo buniyam esingdan chiqarib yubordingmi?!  
- ...  
- Bahona axtarma! Bahonalaringga ishonmayman! Men ahmoq seni ishlayapti, deb yuribman!  
- ...  
- Qani o'sha megajin?! Ko'rsam bo'ladimi? U seni davolayaptimi yo o'ziga sehrlab olyaptimi?!  
- ...  
- Kimdan eshitganimning nima ahamiyati bor?! Qani u? Ko'rsat xonasini deyapman!  
Eshik shaxt bilan ochildi.  
Avval anovi ayol, keyin Hakim Nazarich tashqariga chiqdi.  
- Kseniya! Kseniya... Kim nima desa ishonaverasanmi? - derdi Hakim Nazarich istiholali ohangda. - Xonaga kir, o'sha yerda gaplashamiz.  
Kseniya kennoyimiz erining iltimosiga parvo qilmadi.  
- A-ha, bu yoqda ekan-ku! - medpunkt eshigi qarshisida to'xtagan ayol shunday xitob qildi-yu, jahl bilan tutqichni tortdi.  
- Xonim...  
- E bor-e!  
Eshik naq yuzimga urilganday yopildi.  
Nima qilishni bilmasdan nariroqda o'sal bo'lib turgan Hakim Nazarichga qaradim. U kishi indamay xonasiga kirib ketdi. Shundan boshqa chora topa olmadi-yov.  
Birozdan keyin sabrim chidamasdan tavakkaliga eshikni ochib ichkariga bosh suqdim.  
- Gulruh Qosimovna, xizmat bo'lsa aytarsiz, - dedim ma'noli qarab.  
- Choy olib kela qoling, Kseniya Sergeevna ikkimizga, - dedi Gulruh.  
Kibr bilan o'tirgan Kseniya Sergeevnaning yuzidan zahar tomar, lekin boyagi vajohatidan tushganday ko'rinar.  
- Erimni davolayotgan emishsizmi? - deb so'rardi Kseniya Sergeevna Gulruhdan besh daqiqalardan keyin xonaga choy olib kirganimda.  
- Hakim Nazarichni-ya?!  
- Xuddi shunday! - zarda bilan ta'kidladi ayol.  
- Kseniya Sergeevna, men oddiy hamshiraman...

- Men ham.  
- Hamkasb ekanmiz. Hamshira vrach tavsiyasiga ko'ra ish ko'rishini yaxshi bilasiz-ku. Qanaqasiga men Hakim Nazarichni davolarkanman?  
- Erim yomon dardga chalingan emish-u, siz uni yashirincha davolayotgan ekansiz!  
- Hakim Nazarichday sog'lom va tartibli odam kamdan kam uchraydi! U kishi faqat qattiq charchagan. Yuragining bezovta qilishi shundan. Ochig'ini aytib qo'ya qolay sizga, bu yerdagi har qanaqangi munosabat faqat ish yuzasidan!  
Kseniya Sergeevnaning bo'yoq chaplangan yuzi turlikdi. Gulruhga ishongisi kelganday allaqanday yuvvosh nazar tashladi. Lekin bu uzoqqa bormadi. Ichidagi "ajina";ning qutqusi zo'rlik qildi-yov, Kseniya Sergeevna irg'ib o'rnidan turarkan:  
- Bu yerda sizdan boshqa ayollar ham bormi? - deb so'radi.  
- Bilmadim, - deb javob berdi Gulruh.  
- Nega bilmaysiz? - ajablandi Kseniya Sergeevna.  
- Nima, men sizning agentingizmanmi?!  
- Hozirgina bip-binoyiday edingiz-ku.  
- O'zimga taalluqli savollar bo'lgani uchun javob berdim, xolos. Kechirasiz, men ishlashim kerak.  
Qanchalik bema'ni bo'lmasin, bu vaqtda men kursini eshik ro'parasiga qo'yvolib ichkaridan ko'z uzmay o'tirardim.  
- Shunaqa deng... - ovozi titradi Kseniya Sergeevnaning.  
- Shunaqa!  
Birdan kutilmagan hol ro'y berdi. To'g'risi, nima bo'layotganini darrov idrok qilolmadim - nazarimda vaqt yomg'iri chelaklab quydi, har bir daqiqa yillarga aylandi, hozirgina qarshimda turgan bashang ayol ko'z o'ngimda so'liy boshladi. Boyagi taranglik yo'qoldi, kibr so'ndi, yuzi bujmaydi va upa niqobi ostidan son-sanoqsiz ajinlar chuvalchang yanglig' sirtga o'rmalab chiqdi. Ro'paramda butunlay boshqa - ko'ngli vayron, ko'pni ko'rgan bir ayol turardi.  
- Menga aytishdiki... - uning ovozi bazo'r chiqdi. - Erim...  
Shu vaqt xonaga Hakim Nazarich kirib qoldi.  
- Kseniya, uyga bor, - dedi u muloyimlik bilan.  
Ayol garangsib qaradi, aftidan u erining so'zlarini eshitmadi.  
- Kseniya!.. - Hakim Nazarich ovozi sal ko'tardi.  
- Endi nima bo'ladi?.. - deya g'o'ldiradi ayol. - Yana hammasi chappasiga ketadimi? Endi...  
- Yur, uyga ketamiz, - Hakim Nazarich xotining qo'ltig'idan oldi.  
Ular chiqib ketishdi.  
Biroq mojaro bu bilan tugamadi.  
Kseniya Sergeevna endi hovli o'rtasida turgancha g'ishava qilardi.  
- Meni aldayman, deb ovora bo'lma, Nazarich! - derdi u qo'lini paxsa qilgancha. - Endi indamay yig'lab qoladigan ahmoq yo'q!  
Qochib ketishga ham aslo urina ko'rma!  
- Bas qil, Kseniya! Bu yer ishratxona emas! Ishxona!  
- Ko'rdim qanaqa ishxonada ekanligini!  
- Agar hoziroq bas qilmasang, meni bu yerda ko'rmaysan!  
Hakim Nazarich temir darvoza tomon tez-tez yurib ketdi.  
- Ana shunaqa-da!.. Ana shunaqa... Og'iz ochsam bas, ketamanga tushasan! - degancha Kseniya Sergeevna erining ortidan ergashdi.  
Bu yoqda Gulruh bir ahvolda edi. Yo'q, u ko'z yoshi to'kmadi, hatto shikoyat ham qilmadi, ammo juda ham g'alati bo'lib qolgandi. Goh og'ir o'ylarga tolib, parishonxotir bo'lib qolsa, gohida keskin harakatlaridan o't chaqnagandek bo'lar, asabiylik bilan tutaqib ketardi.  
Menga hasrat qilib ko'nglini bo'shatar ehtimol, degan o'yda bir necha marta ko'rinish berdim. Biroq u meni payqamadi.  
Hakim Nazarich shu ketgancha kechga yaqin qaytib keldi. Keldi-yu, Gulruhning xonasiga kirib ketdi.  
- Gulruh Qosimovna, bizni kechiring, iltimos, - degani eshitildi birozdan keyin uning. - Aslida hamma ayb menda. Ish bilan bo'lib, ba'zi kunlari ishxonada qolib ketyapman.  
- Shuning uchun Alining alamini Validan olish kerak ekan-da!  
- Uzr, ming bor uzr, Gulruh Qosimovna...  
- Uzrni mendan emas, xotiningizdan so'rashingiz kerak, shekilli. Ishonch yo'qolgandan keyin shu-da!  
- Bunisi endi boshqa masala, Gulruh Qosimovna.  
- Ya'ni?  
- Gap shundaki, xotining avvalgi turmushi xiyonat tufayli buzilgan. Shundan u qo'rqib qolgan. O'zi oqko'ngil ayol... Uyga borganidan keyin qilg'idan rosa afsus chekdi. Qandaydir g'alamis qo'ng'iroq qilib bo'lmag'ur gaplarni gapirgan ekan-da. Bu bechora laqqa ishonibdi-qo'yibdi. Hali ko'rasiz, biror kun kelib sizdan albatta kechirim so'raydi.  
- Shart emas. Mana siz kechirim so'radingiz-ku, shuning o'zi yetadi. Bu haqda boshqa gaplashmaylik, iltimos.  
- Xo'p. Unda nima haqda gaplashamiz?  
Gulruh kuldi.  
- Gaplashish shart emas. Ketishingiz mumkin.  
- Bugun men navbatchiman. Po'lat Damirovich ham uyiga ketdi. Zerikkanidan qaysi eshikka bosh suqishni bilmay, garang bo'lyapman. Yo'q demasangiz biroz suhbatlashib o'tirsak, degandim.  
- Zerikyapsiz?! Siz-a?!  
- Ha.  
- Zerikishni, dam olishni bilmaydigan odam deb o'ylardim sizni.  
Hakim Nazarich vazmin kulimsiradi.  
- Sirdan qaraganda shunday ko'rinsam kerak. Aslida undaymas. Dardlashadigan bir suhbatdosh topolmay qiynalغان vaqtlarim ko'p bo'ladi...  
- Hakim aka, Kseniya Sergeevna bilan qanaqib tanishib qolgansiz? Agar sir bo'lmasa...  
- Shu haqda so'rasangiz kerak deb turgandim.

- Agar istamasangiz...
- Bu juda uzoq tarix. Yaxshisi boshqa vaqt aytib beraqolay. Xafa emasmisiz?
- Yo'q. Nega xafa bo'larkanman?
- Menimcha, shu bugunning o'zida sizni ikki marta xafa qilib qo'ydim-a?
- Men hech qachon hech kimdan xafa bo'lmayman.
- Xafa bo'lasiz, lekin bildirmaysiz, ichingizga yutasiz. To'g'ri topdimmi?
- Hakim Nazarich, shaxmat o'ynaymizmi?
- Zo'r bo'lardi.

Ular endi shaxmat o'ynay boshladilar.

Meni xuddi chaqmoq urganday bo'ldi. Bunaqa bo'lishini kutmagandim-da. Xotining bemavrid tashrifi tufayli tug'ilgan qulay vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida Hakim Nazarich - "mehribon otaxonimiz"; yuzidan hayo niqobini sidirib tashlaganday tuyuldi. Axir, bunday imkoniyat yana tug'iladimi-yo'qmi?

O'rnimdan turib ketdim.

Tashqariga chiqdim.

Qonimda g'azab va alam o'ti lovullay boshlagandi.

O, bechora ko'nglim! Nega senga erk berdim-a? Kimman o'zi? Tirikchilik tashvishida chumoliday o'rmalab yurgan anovi kishilarning biriman-da. Mendaqalar har qadamda uchraydi. Sokin suv yuzida suzib yurgan nilufar misol bu ayolga men munosib emasman. Unga Hakim Nazarichga o'xshagan cho'ntag'i to'la kishi munosib!

Ta'bim xira, ortimga qaytdim.

Kursiga o'tirayotib beixtiyor ichkariga ko'zim tushdi. Gulruh ham shu tomonga qarab turgan ekan. Meni ko'rib jilmayib qo'ydi.

Unga javoban zo'r-bazo'r bosh silkidim-u, to'srayib o'tirvoldim.

Nazarimda, o'yin qizg'in ketayotgandi. Gulruhning shaxmatga usta ekanligini bilmas ekanman.

Darvoqe, men hali ko'p narsani bilmayman, shekilli. Hakim Nazarichning quvnoq xitobi tez-tez eshilib turardi. O'zimni tuta olmay yana ichkariga ko'z tashladim.

Shu vaqt:

- Davron aka, - degani eshitildi Gulruhning. - Bu yoqqa keling.

Ichkariga kirdim.

- Xizmat, Gulruh Qosimovna, - dedim jiddiy tarzda.

Gulruh hayron bo'lib qarab qo'ydi-da, keyin:

- Ishqiboz bo'lmaysizmi menga? - dedi.

Tavakkal, dedim-u, shartta bitta stul olib kelib ularning yoniga o'tirvoldim.

Bu Hakim Nazarichga yoqmadi chog'i, sigir qarash qildi. Men shaxmat taxtasidan ko'z uzmay o'tiravordim.

O'yin davom etdi.

Hakim Nazarich har doimgiday, o'zini baodob va vazmin tutar, faqat Gulruhga qaraganda uning yuzida poyonsiz nazokat aks etardi. Yana g'ashim keldi. Chunki xuddi shu narsa menda yo'q edi. Ortiqcha nazokat ayolni darrov rom etishi mumkin. Darvoqe, Hakim Nazarichning kiyimi ham o'zgacha, barakda ayol zoti paydo bo'lmasdan avval u ish kiyimida yurardi, hozir bo'lsa egnida qora movutdan qoyilmaqom qilib tikilgan qaytarma yoqali qimmatbaho kostyum, yuzidan nazokatli tabassum arimasdi...

Gulruh donalardan birini surishdan oldin menga qaradi, go'yo shuni yuraveraymi, deganday.

Indamadim. Birdan hafsalam pir bo'lib loqayd bo'lib qoldim. Endi menga baribir edi. Gulruhning ham, Hakim Nazarichning, umuman, atrofdagilarning hech birining menga dahli yo'qday, loqayd edim.

Hakim Nazarich nimadir deganday bo'ldi. Anglamadim. Go'yo bu yerda mening soyam o'tirganday. Gulruhga o'g'rincha ko'z qirini tashladim. U stulda xiyol engashib o'tirar, butun vujudi ko'zga aylanib shaxmat taxtasiga tikilib qolgandi. Allaqanday, menga noma'lum o'zga dunyodan kelib qolganday, hamon sirli va begona tuyulardi u. Bu menga hayotim bo'shliqdan, hech qachon to'ldirib bo'lmaydigan bo'shliqdan iborat ekanligini yana bir bor eslatdi. Ko'z oldim tinib ketdi. Shiftdagi chiroq, manavi xona xuddi to'fon turgan dengizda suzib ketayotgan kemaday ohista tebrana boshladi.

- Hakim aka, sizdan zo'r shaxmatchi chiqarkan, - dedi Gulruh bir mahal.

Xayolim to'zg'ib ketdi.

- Siz ham qolishmaysiz.

Asta o'rnimdan turdim.

Bu yerda ortiqcha edim.

Hovliga chiqib, tanish yo'lka bo'ylab yurib ketdim. Quyuq tuman tushgandi, ikki qadam narini ko'rib bo'lmasdi. Ortga qaytmadim.

Tuman nafaqat borliqqa, balki mening hayotimga yopirilganday go'yo, har bir daqiqani azob bilan o'tkazardim. Bu hayotimning shunday mahzun lahzalari ediki, bardosh berish dushvor. Axir, men hayotdan ko'p, juda ham katta narsa so'ramagandim.

Ko'nglimda ozgina umid tug'ilgandi, xolos. To'xtovsiz yo'qlik sari chekinayotgan borliq bunga javoban... his-tuyg'ularning omonat sharpasini ro'para qildi!

Ortimdan yengil qadam tovushi eshitildi.

O'girildim.

Gulruh shu tomonga tez-tez yurib kelardi.

- Sizni qidirib yuribman, - dedi u yaqin kelib.

- Tinchlikmi?

- Yolg'iz o'zim uxlashga qo'rqdim.

- Ishonchli qo'riqchingiz bor edi-ku!

- Yosh bola ekansiz. - Gulruh yonimga o'tib, birga-birga odimladi. - Kechasi sayr qilishni yaxshi ko'rasizmi?

- Boshqalarga xalaqit bermaslik uchun... - dedim yerga qarab.

- Davron aka!

Gulruh yurishdan to'xtab, qo'llarimdan tutdi.

Nigohlarimni to'rg'a yerdan uzib Gulruhga qaradim. U jilmayib turardi. Ko'zlaridan o't chaqnardi. Uni qattiq bag'rimga bosdim.

Nima deb o'ylasa o'ylar! Sochi yonoqlarimga tegdi. Yuzi shu qadar yaqin ediki... Keyin ko'zlari yaqinlashdi... va... va...



shaftolining yoqimli hidini tuydim...

Nima bo'lganini anglab ulgurmasimdan Gulruh g'oyib bo'lgandi.

Ro'y bergan favqulodda hol Gulruhning ko'ngliga ozor berib qo'yishidan cho'chiganimdan ertalab uning ko'zlariga tik qarolmadim. Aftidan Gulruhning ahvoli ham menikidan ortiq emasdi. U ertalab eshikni ochgan mahal bir og'iz salomlashdi-yu, qayta ko'zimga ko'rinmadi. Yaxshi hamki ish bor, bemorlar bor. Shular bahonasida xonaga kirib-chiqib turish asnosida axiyri Gulruhning nigohini tutvoldim. Odatda ertablari u o'zini xandon-xushon, bir gapirib o'n kuladigan, hech kimga tobe emasligini bildirmoqchi bo'lganday, o'zini dadil va erkin tutardi va bu uning odamni gangitib qo'yadigan jiddiylik kezingan chehrasiga sira ham yarashmayotgani bililib qoldi; ayni zamonda esa uni butunlay boshqacha, yangi bir his to'lqinlantirib yuborganday ko'zlari chaqnaq boqardi; to'satdan nigohlarimiz to'qnashganda nima uchundir buni bildirgisi kelmayotganday, yuziga jiddiy tus berdi-yu, men tomonga umuman qaramay qo'ydi.

\* \* \*

Kutilmagan hol - Kseniya Sergeevna eri Hakim Nazarich orqali Gulruhni mehmonga chaqirgan emish!

- Agar kelmasalar o'zim borib moshinada olib kelaman, dedi Kseniya Sergeevna, - axborot berdi Hakim Nazarich ertalab.

Aftidanoq uning xursandligi sezilib turardi.

Gulruh qo'rqib ketganday, qattiq seskanib tushdi bu gapdan, ammo zum o'tib o'zini o'nglab oldi-da:

- Nima keragi bor, Hakim Nazarich? Haliyam kech emas, ayting, ovora bo'lmasinlar, - dedi hayajon bilan.

- Gulruh Qosimovna, bu faqat xotinimning emas, mening ham taklifim. Nahotki rad etsangiz? - Hakim Nazarich vazmin, ammo juda ham mahzun boqardi.

- Hakim aka... bilmadim, buni qanday tushuntirsam ekan...

- Tushuntirishning hojati yo'q.

- Noqulay axir! Nima deb boraman?!

- Mehmonga borilganda biror nima deyiladimi? Kechqurun soat beshlarga tayyor bo'lib tursangiz, moshinada olib ketaman.

Hakim Nazarich eshik tomon yurdi.

- Hakim Nazarich, - deb yubordi Gulruh baland ovozda. Hakim Nazarich keskin o'girilib qaradi. - Voy, kechirasiz, shoshib qolganimdan...

- Hechqisi yo'q.

- Agar... agar taklif jiddiy bo'lsa va borishim shart bo'lsa... bilasizmi, yolg'iz o'zim borgim kelmayapti. Anavi oshpaz ayollardan birini...

- Gulruh Qosimovna... sizga nisbatan ko'nglimizda zig'irchayam xusumatimiz yo'q.

- Unday demoqchi emasdim. Yaxshi tanimagan odamlar orasida o'tira olmayman. Bo'lmasa, Davron aka birga boraqolsin, iltimos.

- Shunda siqilmaysizmi?

- Ha.

- Ixtiyoringiz.

Hakim Nazarich chiqib ketayotib menga g'alati qarab qo'ydi.

- Bu yog'i qandoq bo'ldi, Davron aka? - dedi Gulruh Hakim Nazarich xonasiga kirib eshikni yopganidan keyin yonimga kelib. -

Bunaqa bo'ladi, deb o'ylamagandim.

- Men ham.

- Endi nima qilamiz?

- Boramiz. Aytishadi-ku, chaqirilmagan yerga borma, chaqirilgan yerdan qolma, deb.

- Shundayku-ya. Bular biror shumlikni o'ylashmayaptimikin?

- Qanaqa shumlik?

- Menimcha, suvni loyqalatib yurgan Po'lat Damirovich bo'lsa kerak. Kseniya Sergeevnaga qo'ng'iroq qilgan ham o'sha yoki uning odami, deb o'ylayapman.

- Ehtimol.

- Yaxshisi biror bahonani ro'kach qilib bormay qo'yaqolamizmi?

- Mayli. O'ylab ko'ring.

Gulruh shundoq yonginamda turardi. Qattiqroq nafas olishga-da cho'chirdim.

Tashqarida yomg'ir tomchilardi.

Tushlikka yaqin Hakim Nazarich xonasidan chiqdi. Qo'ltig'iga shaxmat taxtasini qisib olgandi. "Obbo! Yaxshigina bahona topildi bunga..."; Ijirg'anib qaradim. Ammo Hakim Nazarich buni payqamadi. U xayol bilan yonimdan o'tib ichkariga kirdi.

- Gulruh Qosimovna, bo'sh bo'lsangiz... - Hakim Nazarich shaxmat taxtasini ko'rsatdi.

Gulruh bu vaqtda Alisherning jarohatini bog'lab bo'lib qo'lini yuvayotgan edi.

- Hakim Nazarich, va'dangizni qachon bajarasiz? - savolga savol bilan javob berdi u.

- Va'da berildimi, albatta, bajariladi, - Hakim Nazarich stulga o'tirib taxtani ochdi.

- Bola bechora qiynalib ketdi. Ukol bilan jon saqlayapti... Manavini qarang, - Gulruh stolga pul qo'ydi. - Kecha bolaning otasi tashlab ketdi. Yana opkelaman, deydi. Faqat o'g'limni asrab qoling, deb yig'laydi bechora.

- Gulruh Qosimovna, ko'z yoshi to'kkan odam bechora hisoblanmaydi.

- Axir... O'zingiz o'tib bir ko'ring ahvolini...

- Shart emas!

Hakim Nazarich kutilmaganda o'rnidan turdi va shaxmat taxtasini yopdi-da, eshikka qarab yurdi. Uning bo'zargan chehrasida tushuniksiz iztirob aks etardi.

- Agar yana shaxmat taxtasini qo'ltiqlab xonangizga keladigan bo'lsa, hech ikkilanmay derazadan uloqtiraman uni, - dedim xonada yolg'iz qolganimizda.

Gulruh shaxmat taxtasini qo'lga olib:

- Faqat shuning uchunmi? - dedi.

- Boshqa sabablar ham yetarli.

- Shunaqami?

- Shunaqa.

Gulruh shaxmat taxtasini stolga qo'yib men tomon yurdi. Atigi yarim qadam qolganda to'xtab ko'zlarimga tikildi. Men bu soniyalarni hanuzgacha unuta olmayman. Bir ko'rishdayoq meni asir etgan nafis va muloyim chehra... Mehr va nurga yo'g'rilganday chaqnoq nigohlar...

Yo tangrim, bema'no hayotimga shukuh kiritgan ushbu daqiqalarni menga ko'p ko'rma! Ta'rifga sig'maydigan mana shu go'zal chehradan, yuragimda yana barq urgan umid va ishonchdan mahrum qilma!

Hikoyamning boshida sizga "... odam oyog'i yetmaydigan ovloq bir joyga kelib qolgandayman";, degandim, esingizdami?

Yanglishganimni Hakim Nazarichning mashinasida ketayotib payqadim. Biz ishlayotgan, to'g'rirog'i, tutqunlikda yashayotgan makon shahardan ellik-oltmish chaqirim naridagi o'rmonda joylashgandi.

Qop-qora "Jip"; mashinasida chamasi ikki soatdan mo'lroq yurganimizdan keyin shahar markaziga yetib keldik chamasi.

Nihoyat Hakim Nazarich tormozni bosdi.

Keyin yonida o'tirgan Gulruhga yuzlanib:

- Yetib keldik, - dedi.

Hakim Nazarichning uyi shaharning diqqatga sazovor qismida joylashgandi.

Bunday mahobatli uyni yaqin-o'rtada ko'rmagandim.

Elliklarga borgan, ko'rimsiz bir ayol eshikni ochdi.

- Dasha, - deya unga murojaat qildi Hakim Nazarich. - Mehmonlar kelishdi deb bekangga ayt.

Ayol peshayvonli uy tomon yugurgiladi.

Gulruh menga, men unga qaradim.

- Qani, ichkariga marhamat, - dedi Hakim Nazarich yo'l boshlarkan.

- Hakim Nazarich, men ayvonda kutib tura qolaman, - dedim o'zimni chetga tortib.

Axir, mehmonga men taklif qilinmaganman-ku.

- Qo'ysangiz-chi shunaqa gapni, - Hakim Nazarich qo'ltig'imdan olib ichkariga boshladi. - Bu yerda mehmonsiz, shuni unutmang, - deb qo'ydi keyin.

Dahliz eshigi oldida turgan Kseniya Sergeevna bizni iliq tabassum bilan qarshi oldi. Menga bosh irg'ab qo'ydi, Gulruh bilan eski tanishlarday quyuq so'rashdi.

- O'zim chaqirmasam kelay demaysiz, - deb o'pkaladi u yo'l-yo'lakay.

Gulruh nimadir deganday bo'ldi. Sezib turibman, u Kseniya Sergeevnaning muddaosini anglolmay garang, tili zo'rg'a aylanyapti.

Mehmonxonaga kirib ikkalamiz ham ang-tang bo'lib qoldik. Yo'q, bu yerdagi hashamatdan emas, nima, mol-dunyo ko'rmagan odammizmi? Xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirgan mehmonlarni ko'rib hayron bo'lib qoldik. Bu yerda uy egalaridan tashqari kamida besh-olti kishi bor edi. Xuddi o'z uyida o'tirganday, oyoqlarini chalishtirgan yastanib o'tirgan Po'lat Damirovichni bu yerda uchrataman, deb mutlaqo kutmagandim.

Kseniya Sergeevna Gulruhni mehmonlar bilan bir-bir tanishtira boshladi. U tanishtirar ekan, har bir mehmonning ismi-sharifi yoniga xizmat mavqeini ham qo'shib ketardi.

"Bu xotin o'zining qanday davradan ekanligini bizga bildirib qo'ymoqchi, shekilli";, - degan o'y kechdi xayolimdan.

Men hammaga umumiy qilib salom berdim-u, Hakim Nazarich ko'rsatgan stulga o'tirvoldim. Po'lat Damirovich Gulruhdan ko'z uzmasdi. Nazarimda u Gulruhga gap otishdan o'zini bazo'r tiyib turganga o'xshardi.

Kseniya Sergeevna Gulruhni uning xotini bilan tanishtirayotganda Po'lat Damirovich baribir tilini tiyib turolmadi:

- Gulruh Qosimovna, keling, bu yoqqa o'tiraqoling. Kenoyingiz bilan yaqinroq tanishib olasiz.

Gulruh Po'lat Damirovichning xotini Aleksandra Pavlovna bilan tanishganidan bag'oyat xursand ekanligini bildirib, shoshilmasdan men o'tirgan tomonga o'tarkan:

- Rahmat, Po'lat Damirovich, mening joyim bu yerda, - dedi.

Po'lat Damirovich g'alati bo'lib ketdi. Keyin xiyol engashb xotinining qulog'iga nimadir deb shivirladi. Aleksandra Pavlovna bepisandlik bilan kulib qo'ydi.

Darvoqe, Aleksandra Pavlovna ham to'lalikka Kseniya Sergeevnadan qolishmasdi, ko'zlari xuddi ukkinikiga o'xshash yum-yumaloq, burni yapasqiroq, yuzining zahilligidan janjalni pulga sotib oladigan ayollar toifasidan ekanligi sezilib turardi.

Bu yerda ulardan tashqari ikkita basavlat janob va oltmishlarga borgan keksa ayol ham bor edi. Ikkala janoblarning biri allaqanday korxonada direktori ekan, ikkinchisi davlat departamentida qandaydir sekretarCHb vazifasini o'tarkan.

Avvaldan aytib qo'yay, ikkala janob ham ko'p o'tirmadi, ziyofat boshidayoq juda muhim, kechiktirib bo'lmaydigan, albatta ishtirok etishlari shart majlislari borligini aytib, uzr so'rashdi-yu, jo'nab qolishdi.

Tushunmadim, bu janoblar oddiy o'tirishga nima uchun taklif qilindi? Yoki bu yoqlarda shunday odat bormikin - "ko'rib qo'y, qanaqa tanishlarimiz bor!"; deganday.

Egnidagi kiyimlari va soch turmagi o'ttizinchi yillardagi rus xonimlarinikiga o'xshab ketadigan, ammo yuzini haddan tashqari bo'yab-bejaganidan turqi-tarovati bozori o'tmay qolgan qari fohishani eslatadigan keksa ayolning bu oilaga daxli bor-yo'qligini ham bilolmadim.

Ammo keksa xonim rosa gapdon ekan. Ro'paramda o'tirvolib bir narsalar deb tinimsiz chuldirardi. Buning ustiga atay qilgandek, Hakim Nazarich Gulruhning yoniga, Kseniya Sergeevna mening yonimga o'tirib olishdi.

Men umrim bino bo'lib qilmagan ishlarimni barakdagi hayotim davomida juda osonlik bilan o'zlashtirgan, ya'ni bir vaqtlar tamaki tutuniga ko'ngli ayniydigan odam g'irt kashandaga, aroqni ko'rsa ko'chaning narigi tomoniga o'tib ketadigan banda spirtni suv qo'shmasdan ichadigan piyonistaga, birovga ozor berishdan cho'chib yuradigan o'ta kamsuqum zot sal gapga pov etib yonib ketadigan mushtumzo'rga aylangan bo'lsam-da, hali-hanuzgacha begona ayolga mulozamat qilishni, gap bilan ko'nglini ovlab o'tirishni o'rgana olmagan nodon edim. Shuning uchun Kseniya Sergeevnaning yonimda o'tirib qolganidan ranjidim. Bechora ayol zerikib o'ladi endi, deya unga rahmim kelardi ichimda.

Hakim Nazarich bilan Gulruh allaqachon gurungni boshlab yuborishgan, hatto nima haqdadir qizg'in bahslashardilar. Po'lat Damirovich kiprik qoqmasdan ularning suhbatiga quloq tutardi.

- Janoblar, bu nimasi? - dedi Kseniya Sergeevna bir mahal o'rnidan turib. - Nega hech kim dasturxonga qaramayapti? Manavi konCHbyakdan totib ko'rishlaringizni istardim.

- Ksyusha, bu anovi... Parijdan olib kelgan konCHbyagingmi? - deya luqma tashladi keksa xonim.

74 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

U gapirganida lablari cho'chchayib turarkan.

- Antonina xola, Parijdan shampan vinosi olib kelgandim. Esingizdan chiqib ketdimi darrov? - javob berdi maqtanib qolish imkoniyatidan mamnun bo'lgan va bu yorishib ketgan yuzidan sezilib turgan Kseniya Sergeevna kulib.

Suhbatga Aleksandra Pavlovna qo'shildi:

- Kseniya, Parij senga yoqib qolganmi nima balo? Ikki marta borib kelding-a?

- Birinchisida yolg'iz o'zim borgandim. Hakim Nazarich bora olmagandi.

- Nahotki Hakim Nazarich yolg'iz o'zing borishingga qarshilik qilmagan bo'lsa? Rashk qilmadimi? Mening erim bo'lganida "menam boraman!"; deb turvolardi.

- Hakim Nazarich u vaqtlarda chet elga chiqish tugul, ko'chaga ham chiqolmasdilar-da, - dedi Kseniya Sergeevna.

Hakim Nazarich xotini tomonga qaramasa-da, bezovtalik bilan g'imirlab qo'ydi.

- Ksyusha, anovi xotinbozdan ajrashganingdan keyin yana erga tegib, manavinday koshona bekasi bo'lib o'tirishing tushimizga ham kirmagandi. Baxting bor ekan, - allaqanday g'ayirlik aralash hasad bilan gapirdi Antonina xola deganlari.

- Omading bor ekan, deng, - darhol oraga gap qo'shdi Aleksandra Pavlovna.

- Ham baxt, ham omad, - dedi Antonina xola. - Nazarichga o'xshagan odamlar kam uchraydi.

- Nimalar deyapsiz, Antonina xola? - dedi Aleksandra Pavlovna ta'nali ohangda. - Hozir yaxshi erkaklar tiqilib yotibdi! Har qadamda uchraydi. Tegaman, desangiz bas, yelimday yopishib olishadi.

- Nahotki... - ko'zlarini katta-katta ochdi Antonina xola.

- Kseniya, bugun mehmonlar uchun o'z qo'llarim bilan antiqa taom tayyorlayapman, deganding, nima bo'ldi? - so'radi Hakim Nazarich.

Uning yuzi allaqanday o'zgarib ketgandi.

- Azizim, yana o'n daqiqa sabr qil, - dedi Kseniya Sergeevna eriga javoban, keyin yana dugonalariga yuzlandi. - Antonina xola, agar xo'p desangiz, bironyasi bilan tanishtirib qo'yaman.

- Ishongim kelmayapti, nahotki men tengilar ham topilsa?! - eski kasbi esiga tushib qoldi-yov, ko'zlarini suzib so'radi keksa xonim.

- Erimning ishxonasida juda ko'p erkaklar bor. Istasangiz tanishtirib qo'yaman.

- Yo'-o'... men unaqalardan qo'rqaman, - yarashisiz nozlandi Antonina xola.

- Kseniya! - deb yubordi Hakim Nazarich sarosima ichida.

Kseniya Sergeevna bu safar eriga qarab ham qo'ymadi.

- Yo xudo! Ularning nimasidan qo'rqasiz? - dedi u Antonina xolaga ajablanib boqarkan. - Ular juda mehnatkash odamlar.

Biznikilarga o'xshab aroqqa mukkasidan ketmagan. Bechora erimga ularning dastidan tinchlik yo'q. Birontasini kasalxonaga joylashtirishga yordam ber, deb menga yalinib yuradi qachon qaramang!.. O'shalarining halovatini deb tinim bilmaydi...

- Pulini to'lasangiz bas, ishdan bosh ko'tarishmaydi! - deya luqma tashladi Aleksandra Pavlovna.

"Mana endi hammasi oydinlashdi, - dedim ichimda. - Bu oddiy mehmondorchilik emas!";

Ich-ichimdan gupirib kelayotgan sovuq ehtiros stolga musht urib hamma narsani dabdala qilishga undardi.

Izzat-nafsi tahqirlanayotganidan uning ham xunobi oshib ketgandir, degan fikr bilan Gulruhga qaradim. Ajabo, u hech nima bo'lmaganday xiyol kulimsiragancha o'tirar, ammo ko'zlaridan uchqun sachrardi. Ketamizmi, deganday uni sekin turtdim. Gulruh parvo qilmadi.

Po'lat Damirovichning yuzidagi kishining jig'iga tegadigan, qadr-qimmatini yerga uradigan ifoda yanada bo'rtgan, u tahqiro muz kulimsiragancha Gulruhni kuzatardi.

Bu yerda faqat Hakim Nazarich allaqanday bezovta, birmuncha tashvishga botgan, yuzi juda ham tund, o'ychan, dilgir bo'lib o'tirardi.

- Yoshligimda bir afg'on yigiti yaxshi ko'rib qolgandi meni, - dedi Antonina xola bir mahal tamshanib olarkan. - O'shanda unga tegib ketaversam bo'larkan.

Shu choqqacha indamay o'tirgan Gulruh birdan tilga kirdi:

- Antonina xola, hali ham kech emas. Erga tekkaningiz yaxshi. Bir maqol bor-ku, eshitgandirsiz, ersiz xotin - tayoqsiz mo'ltoni, degan.

Hammalari jim bo'lib qolishdi.

Antonina xolaning rangi o'chgan, taqinchoqlar yaltiragan ozg'in barmoqlari titrardi. Po'lat Damirovich to'satdan xoxolab kulib yubordi.

- Obbo, Gulruh-ey... Obbo, Gulruh-ey, - derdi u tinmay kularkan. - Topgan maqolingizni...

Aleksandra Pavlovna qahranganidan titrab ketdi va eriga shunday vajoat bilan tikilib qaradiki, Po'lat Damirovich shu zahoti miq etmay qoldi, yuragi shuvillab ketgandir ehtimol.

Kseniya Sergeevna bo'lsa birdan qovog'ini uyib oldi, jahldor bo'lib qoldi.

Aleksandra Pavlovna kibr bilan dugonalariga bir-bir nazar tashlarkan:

- Erimning aytishicha, - deya allaqanday kin bilan so'z boshladi. - Hamma yoqni qalang'i-qasang'i daydilar bosib ketganmish. Har qadamda qo'ziqorinday potrab chiqadi unaqalar, deydi. Ayollarni ayting, ayollarni! Ularga nima bor ekan bu yoqlarda?! Pul bor ekan deb kelaverishar ekanlar-da! Qorovullikdagi buzuq erkaklarning ham kuni tug'ib qoldi, deydi erim. Ular o'shanaqa kelgindi ayollarni tutib olishib, bilganlarini qilisharkan-da. Bu gapni eshitganimdan keyin o'z erimdan ham xavfsirab qoldim... - Aleksandra Pavlovna yuzi bo'zday oqarib o'tirgan eriga suykalib, gap ohangini yumshatdi: - O'zi suyuqqina erim bor. Allaqanday irkit xotinlarni deb undan ayrilib qolmay deymen-da.

- Eringiz suyuqligini bila turib hazar qilmasdan uni qanday qabul qilasiz?!

Gulruh tomonidan favqulodda berilgan bu savol Aleksandra Pavlovnani gangitib qo'ydi. U miltig'i tob yegan ovchiday qizarib-bo'zardi. Madad kutib Kseniya Sergeevnaga qaradi.

Ha, bizdek "kelgindilar";ga nisbatan oldindan til birlashtirib olgan ayollar Gulruhning kesatliqlarga munosib javob qaytarishini, ayniqsa bunaqangi tagdor gap bilan "o'yib olishini"; kutishmagandi. Balki shu sabablidir, Gulruhning gapi yanada keskinroq jarangladi.

- Davron, - deya murojaat qildi Hakim Nazarich sekin. - Tashqariga, toza havoga chiqasizmi? Xotinlar jangida ishtirok etmay qo'ya qolaylik.

- Xo'p.

Hakim Nazarich boyagiga qaraganda ancha yengil tortgandi. Aftidan Gulruhning hozirjavobligidan ko'nglida qoniqish tuyganday edi.

Men ham o'zimni ancha bosib olgandim. Gulruh o'zini tahqirlashlariga yo'l qo'ymasligiga ko'zim yetgandi.

\* \* \*

Choshgoh mahali edi.

Zinapoya oldida turardim.

Gulruh xonasidan chopib chiqdi.

- Davron aka, bu yoqqa keling, tez! - dedi-yu, yana ortga qaytdi.

Ichkariga kirganimda Alisher dod-faryod qilib yotardi. Uning jon achchig'ida chinqirishlariga uncha-muncha odamning asabi dosh berolmasdi.

- Qo'lini ushlab turing, iltimos, - dedi Gulruh shosha-pisha. - Ukol qildirmayapti.

Bemorning yoniga o'tib bilagidan tutdim. Lekin u bor kuchi bilan yulqinar, qo'lini bermas, shaloq so'zlar bilan so'kinib Gulruhni haqoratlardi:

- Do'xtirmisan, nimasan o'zi?! Do'xtir bo'lsang, yo oyoqqa turg'az, yo bir yo'la jonimni ol! Bu azobdan to'yib ketdim! To'yib ketdim! Onasini... Hammangning onangni!..

Alisher ko'zlarini yumib olgan, yon-veriga qaramas, yuzi paxta bo'lib qolgan, murdanikidan farqi yo'q edi.

- Alisher, uka, o'zingni bos, - dedim yotig'i bilan. - Qo'lingni ber, iltimos.

Ovozimni eshitib Alisher ko'zini ochdi.

- Davron aka... qiynalib ketdim axir... - dedi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Bir amallab uni ovuntirdim.

Keyin ukol olishga ko'ndirdim.

Gulruh ukolni qo'ydi. Besh-o'n daqiqalardan keyin Alisher uxlab qolishi kerak edi. Ammo...

- Davron aka, buni qarang!

Gulruh bemorga tikilganicha dahshat ichida qotib qoldi.

Alisher tinchlanish o'rniga tutqanoq tutganday qo'l-oyog'ini tipirchilatib yotar, og'zidan ko'pik sachrardi.

- Bu nimasi?.. - dedim zo'rg'a.

- Hakim Nazarichni chaqirib keling. Tez!

Gulruh Alisherga yordamga shoshildi.

Shoshilganicha Hakim Nazarichning xonasiga yo'l oldim. Baxtga qarshi u kim bilandir telefonda gaplashayotgandi. Nima qilishni bilmasdan, qiya ochiq eshik oldida turib qoldim.

- Nikolay Fyodorovich, shu safar ham qo'llab yuboring, iltimos, - derdi Hakim Nazarich telefonda. - Oz, judayam oz ish qoldi.

Bu yil tugatamiz, xudo xohlasa. Rahmat. Buning uchun minnatdorman sizdan. Lekin yuborgan odamlaringizning boshi kasaldan chiqmayapti. Ha. Ha. Sog'lom, baquvvatlaridan to'rt-beshtasiga buyurtma tushdi, deb yozib qo'ying. Pul to'lash shakli istagancha!

Yashin urganday bo'ldi meni. Bundan chiqdi Hakim Nazarichning "buyurtmasi";ga ko'ra biz bu yerlarda yurgan ekanmiz-da.

Haqiqat oydinlashgandek bo'ldi. Ammo bu chala haqiqat edi. Mubham haqiqat edi.

- Bu yerda nima qilib turibsiz?!

Qarshimda turgan Hakim Nazarichning ovozi ham hushimni yig'dim. Lekin darrov javob bera olmadim.

- Bu yerda nima qilib turibsiz, deyaqman! - Hakim Nazarichning nafaqat nigohlarida, balki ovozida ham sinchkovlik g'alayon qilardi.

- Alisherning ahvoli og'irlashib qoldi. Gulruh Qosimovna sizni chaqirgandi, - dedim o'zimni o'nglab.

- Hozir boraman.

Hakim Nazarich ortga qaytdi. Eshik ochiq qoldi. Yopishni unutmidi yoki atay ochiq qoldirdimi, bilolmadim. Birozdan keyin uning iltimos ohangida:

- Kseniya... Bir bemorimizni... - degani eshitildi.

Ortimga qaytarkanman, Hakim Nazarich og'zidan olov purkaydigan yetti boshli ajdarhoday tuyulardi.

Padariga la'nat! Po'lat Damirovichdan farqi yo'q ekan buning ham...

Tutqanoq'i bosilgan, lekin hali ham bezovtalik bilan ingranayotgan Alisherning yuziga termilib o'tirgan Gulruhga bu haqda og'iz ochmadim.

- Hakim Nazarich hozir kelarkan, - dedim unga. - Qalay, durust bo'lib qoldimi?

Gulruh bosh chayqadi.

U qattiq qo'rqib ketgan. Gapirishga ham holi yo'q edi.

O'n besh daqiqalardan keyin Hakim Nazarich keldi.

- Gulruh Qosimovna, men gaplashdim, keyingi hafta bir ilojini qilib bemoringizni kasalxonaga joylashtiramiz. Lekin ungacha bir amallab turmasangiz...

- Yo'q! - Gulruh keskinlik bilan Hakim Nazarichning so'zini kesdi. - Keyingi hafta tugul bir kun ham dosh bera olmaydi endi... -

Gulruh bir muddat o'ylanib, ikilanib turib qoldi. So'ng Hakim Nazarichga murojaat qildi: - Sizdan bir narsani iltimos qilsam maylimi?

- Marhamat, - unga ajablanib tikildi Hakim Nazarich.

- Operatsiya uchun kerakli asboblarni topib bera olasizmi menga?

- O'zingiz operatsiya qilasizmi?!

- Ha.

- Gulruh Qosimovna!

- Tashvishlanmang, eplayman.

- Axir siz oddiy hamshiraman degandingiz-ku.

- Xirurgman.

- Ana xolos!

- Hakim Nazarich, bu yog'i juda uzun tarix. Vaqti kelganda aytib berarman. Kerakli asboblarni olib kela olasizmi, menga shuni

ayting. Zudlikda operatsiya qilmasak, boladan ayrilamiz.

- Topib beraman. Shu bugunning o'zida, yo'q, aniqrog'i ertaga topib beraman, - dedi Hakim Nazarich shosha-pisha. - Faqat ro'yxatini bersangiz bas. Shaharda tanishlarim bor.

Keyin nima uchundir chuqur xo'rsindi. So'ng kulimsiragancha Gulruhga tikildi. Yo'q, uning chehrasida kulgu emas, g'ayriixtiyoriy, bezovta, og'riq to'la shodumonlik bor edi.

Gulruh o'ng'aysizlanib yerga qaradi.

- Gulruh, - dedi Hakim Nazarich. - Kechagi mehmondorchilikdan buyon sizning oldingizda o'zimni aybdor his qilyapman.

Bilasizmi, ular menga... mehmondorchilik, yaqinroq tanishuv, deb aytishgandi. Hammasini keyin payqadim. Bunaqa bo'lishini bilganimda...

- Og'irlikni o'zingizga olavermang, Hakim aka. Men o'zimni xafa qildirib qo'yadiganlardan emasman. Bilasiz-ku... - dedi Gulruh.

- Xayriyat. Ko'nglimdagi g'ashlikni tumanday tarqatib yuboringiz. Kechqurun ko'rishguncha, Gulruh Qosimovna.

- Xayr.

Hakim Nazarich ketdi.

- Bizdan ham ko'ra unga qiyin ekan, - dedi Gulruh uning ortidan. - Kecha oqshom xotining gaplarini eshitdingizmi?

- Men boshqa gapni eshitdim, - dedim sirli ohangda Gulruhga tikilganicha bir-bir bosib unga yaqinlasharkanman.

- Nimani? - hayron bo'ldi u.

- O'rtoq xirurg, shunaqami?

- E, darrov eshitib qo'ydingizmi?

- Haqiqatan ham xirurgmisiz?

- Sobiq xirurg.

Tushundim, nimadir bo'lgan.

Ichimni it timdalardi, nima bo'lganini bilgim kelardi. Ammo... darrov savol berishning mavridi emasdi.

- Hozir hech narsani eslagim kelmayapti, - dedi Gulruh xijolat tortganday bo'lib.

U o'ychan bo'lib qolgandi.

- Eslashingiz shart emas, - dedim unga. - To'g'ri, siz haqingizda ko'p narsalarni bilgim keladi. Ammo men sizni bu yerga yetaklab kelgan va shu yerda men bilan uchrashirgan tasodifiy voqealardan, tanishuvimizga qadar bo'lgan ko'ngilli yoki ko'ngilsiz voqea-hodisalardan, minglab o'ylar-u xotiralardan ayro qo'yolmayman. Axir har bir insonning o'ziga yarasha o'tmishi bor. Yaxshisi operatsiyangiz haqida o'ylang.

Gulruh minnatdorona nigoh tashladi. Kuldi, ammo lablari titrardi, allaqanday ko'ngilsiz o'tmish sharpasi yuziga soya tashladi, shunda yashash uning uchun ham oson bo'lmayotganini angladim.

Ertadan kechgacha faqat Gulruh haqida o'ylaydigan bo'lib qolgandim. Ko'zlarimni ochsam, ro'paramda u, ko'zlarimni yumsam ham qarshimda u...

Kechasi allamahalda qulog'imga allaqanday xonish, yo'q, aniqrog'i, nolaga o'xshash ovoz chalindi. O'rnimdan turdim. Ovoz Gulruhning xonasidan kelayotgandi. Eshikka yaqin bordim.

- Qo'limga tig' olmayman, deb qasam ichgandim. Operatsiya stolida yana bir insonning hayotiga zomin bo'lishni istamayman.

Axir, o'shanda hammasi men tufayli, mening uquvsizligim tufayli sodir bo'lgan-ku! O'shanda operatsiyadan bosh tortishga imkonim bor edi. Biroq hozir... buning sira iloji yo'q. Bola bechoraning azoblanishiga ortiq chiday olmayman. Tangrim, o'zing meni qo'lla!.. - ohista tashlangan qadam tovushlari goh eshikka yaqinlashar, goh uzoqlashardi.

Negadir Gulruhga rahmim keldi. To'g'risi, negaligini o'zim aniq bilmayman...

Ikki kundan keyin Gulruhning yolg'iz o'zi Alisherning oyog'ini operatsiya qildi.

Operatsiya uchun zarur asboblarni Hakim Nazarich keltirib bergandi. Hakim Nazarich birorta yordamchi kerak emasmi, deb so'ragandi, Gulruh qat'iy bosh tortdi.

Bilmadim, yolg'iz o'zi qanday eplarkin? Qilday ishonch bir burda nonday aziz bo'lgan sharoitda bunday kuchni qanday topdi?

Gulruh shu kuni ertalabdan xonaga o'zidan boshqa hech kimni kiritmadi. Soat o'nlar atrofida eshik "shirq"; etib ichkaridan qulflandi-yu, jimlik cho'kdi.

Yurak hovuchlaganicha tashqi yo'lakda turardim. Xuddi o'z jigarim tig' ostida yotgandek hayajonlanardim.

"Dadil bo'l, Alisher, - derdim ichimda nuqul. - Dadil bo'l. Har neki bo'lmasin, chidashga harakat qil. Tig' ostidan omon chiq. Aks holda Gulruh adoyi-tamom bo'ladi...";

Vaqt imillab o'tardi.

Hakim Nazarich bir necha marta medpunkt eshigi oldiga kelib-ketdi. U menga bir nima demasdi-yu, lekin yuzi tashvishli ko'rinardi.

Birdan xayolimga yomon o'ylar keldi: "Operatsiya muvaffaqiyatsiz chiqsa nima bo'ladi?..";

Kayfiyatim buzildi. Bir yerda tura olmay derazaga yaqin bordim. Ammo ichkarini ko'rib bo'lmadi. Yupqa kulrang parda ortidan Gulruhning soyasi ko'rinardi, xolos.

Boyagi joyimga qaytdim. Birozdan keyin Hakim Nazarich yonimga keldi.

- Chekasizmi? - u sigaret qutisini tutdi.

Boshqa vaqt bo'lganida tortinardim, ammo hozir...

Ikkalamiz ham o'z xayollarimizga g'arq bo'lganicha ustma-ust chekardik. "Agar Alisherga bir gap bo'lsa, Gulruh tamom bo'ladi, - deb o'ylardim. - Keyin uning o'ziga kelishi qiyin bo'ladi. Hatto o'zini o'zi bir balo qilib qo'yishi ham mumkin...";

Oxirgi o'ydan esxonam chiqay dedi. Axir... men endi hayotimni Gulruhsiz tasavvur qilmay qo'ygandim...

Birdan behad taranglashgan asab tolalarim tars yorilib, tubsiz jahannam qa'riga qulaganday his etdim o'zimni. Qo'rquv va xavotir - mana shular meni qulatdi. Qiziq, dunyoda millionlab ko'z ko'rib ishonmaydigan mo'jizalar yaratilgan-u, nima uchun o'limning chorasini topilmagan?

Hakim Nazarich nimadir deganday bo'ldi. Anglamadim. Savol nazari bilan qaradim.

- Odamzod o'zini o'zi xarob qilish vasvasasiga tushib qolganday tuyuladi menga, - dedi Hakim Nazarich ovozi sal ko'tarib. -

Go'yo ko'p pul topsa hayotni butunlay o'zgarib ketadiganday. Aslida hayotni do'zaxga aylantirib yuborganini ancha kech anglaydi...

Hakim Nazarichga tikilib qoldim. Yopiray, nahotki biz xil fikr yurishayotgan bo'lsak? Nahotki uni g'ussaga solgan narsa -

Gulruhning tashvishi bo'lsa?

Ammo javob berishga ulgura olmadim, eshik "shirq"; etib ochildi. Ikkalamiz ham bir vaqtning o'zida Gulruhning istiqboliga shoshildik.

Ming hadik va xavotir ichida:

- Nima bo'ldi? - deb yubordim beixtiyor.

Hakim Nazarich og'iz ochishga ulgurmadi.

- Yaxshi, - dedi Gulruh. - Hozircha yaxshi...

U Hakim Nazarichga emas, menga qarab javob berdi. Ayni zamonda Gulruhning ko'zlarida shu qadar jur'at, shaylik va matonat mujassam ediki, beixtiyor ham havasim keldi, ham hayratim ortdi.

- Eplashingizga ishongandim, - dedi Hakim Nazarich samimiylik bilan. - Oyog'ini kesib tashlamadingizmi ishqilib?

- Yo'q. Bu yog'ini endi vaqt ko'rsatadi.

- Yigitchani kirib ko'rsam bo'ladimi?

- Bo'ladi, lekin u hali o'ziga kelganicha yo'q. Narkoz ta'sirida yotibdi.

- Oxirib baxayr bo'lsin, shunisiga xursandman, Gulruh Qosimovna. Boya xayolimga bir gap keluvdi, sizga shu yerda bitta kasalxona ochib bersak bo'larkan, nima deysiz?

- Buni o'ylab ko'rish kerak.

- To'g'ri, bugunga shuncha hayajon-u tashvishlar yetarli, a? Kasalxona haqida boshqa vaqt gaplasharmiz...

Hakim Nazarich yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, mendan istihola qildi, shekilli, indamadi. Men ham u xonasidan chiqib ketmagunicha bez bo'lib turaverdim-da.

- Operatsiya shunchalik uzoq cho'zilib ketdimi yoki menga shunday tuyuldimi? - so'radim Gulruhdan.

- Ikki soat-u qirq minut...

- Menimcha, to'rt soat-u qirq minut, - dedim men.

- Operatsiyadan keyin ikki soatcha Alisherning yuziga termilib o'tirdim. Nazarimda u... - Gulruh yerga qaradi.

- Bir chashka choyga nima deysiz?

- Yo'q, demasdim, agar yonida pechenCHesi ham bo'lsa, - shu zahoti javob berdi Gulruh.

- Hozir, - dedim-u, oshxona tomonga yo'l oldim.

Ikki soatlardan keyin Gulruh Alisherni kirib ko'rishga ruxsat berdi.

- Faqat ko'p gapga solmang, uzilib qoladi, - deya tayinladi u.

Alisher, yigirma yashar navnihol yigit, xuddi bemahal boshiga tushgan turmush to'qmog'i uni zarb bilan urib qulatganday, qimir etmay shiftga tikilib yotardi. Yuzi o'zgarib ketgan, ko'zlarining osti ko'm-ko'k, lablarida qondan asar yo'q, ko'zlari avvalgidan-da katta-katta, ammo hech qanday ma'no yo'q edi.

Sekin karavotiga yaqinlashib, qo'lini qo'limga oldim. Muzday, oppoq edi uning qo'li.

- Alisher, uka, - dedim nimagadir yuragim to'lib.

Alisher asta boshini burdi.

- Davron aka... - dedi u qovjiragan, zaif tovushda.

- Operatsiya yaxshi o'tdi. Zo'r o'tdi. Hademay tuzalib ketasan, uka.

Yigitchaning lablari titradi.

- Uyni sog'indim... Onamni...

- Oyoqqa turishing bilan uyga qaytasan. Hammamiz qaytamiz...

- Bu yerga kelmasam bo'larkan...

- Alisher, - dedim bezovtalanib. - Senga hali gapirish mumkin emas. Menam keta qolay, har qalay ahvoling yomon emas, o'z ko'zim bilan ko'rdim. Endi borib bu xabarni otangga aytishim kerak.

- Otam bilmasmidi?..

- Do'xtir hech kim bilmasin, deb tayinlagandi. Tezroq sog'aygin, uka.

Alisher bosh irg'adi.

Yov quvgandek eshik tomon yurdim.

Ostonada to'xtab ortimga o'girildim.

Shunda Alisherning yig'layotganini ko'rdim. Unsiz yig'lardi u. Yuzida biror ifoda yo'q, katta-katta ko'zlaridan tinimsiz yosh quyilardi...

- Yosh do'stimiz ancha o'ziga kelib qoldi, - dedi Gulruh ertasi kuni ertalab xursand bo'lib.

- Rostdanmi?

- Oyog'imni kesib tashladi, deb o'ylab ezilib yotgan ekan bola bechora.

- Oyog'ing o'zingga buyursin, dedingizmi?

Gulruh kulib bosh irg'adi.

Qushday yengil tortdim. Vahimalar ortda qoldi. Butun olam tinchlangandek bo'ldi. Xudoga shukr!

Kechki ovqatni uning xonasida birga qildik. O'zimizcha Gulruhning birinchi muvaffaqiyatini nishonladik.

- Qittay-qittay qilamizmi? - deb so'radim Gulruhdan anchadan buyon ko'z qorachig'iday asrab yurgan shishani ko'rsatib.

- Mayli, - dedi u.

Ilgari ziyofatlarda ko'pgina ayollarni kuzatganman. Ichkilik taklif qilsangiz o'zini ming ko'yga solib, noz-firoq qilishadi-yu, quyib bersangiz, bir ko'tarishda bo'shatib, idishni qo'lingizga qaytarib berishadi.

Gulruh unday qilmadi. Hech qanday noz-karashmasiz kichkinagina stakanni men bilan urishtirdi-da, ichib yubordi, keyin ishtaha bilan ovqatlana boshladi.

- Yana quyaymi? - deb so'radim birozdan keyin.

- Yo'q. Yetadi.

Tavba qildim, Gulruh shunday javob berardiki, uning javobidan keyin hech qanday izoh yoki e'tirozga o'rin qolmasdi.

Tamaddi qilib bo'lganimizda soat to'qqizga yaqinlashib qolgandi.

- Alisherdan xabar olay, - dedi Gulruh o'rnidan turib.

- Tez kelasizmi?

- Uzoqqa ketmayapman-ku.

Gulruh parda ortiga o'tdi.

Paytdan foydalanib shishadan yana bir stakan quyib, ko'tarvordim. "Mana endi u bilan bemalol gaplashib o'tirishim mumkin";, - dedim ichimda. Keyin tez-tez, ochofatlarcha qorin to'yg'azdim. Gulruhning oldida chimxo'rlik qilib tuzuk-quruq ovqatlana olmagandim-da...

Yarim soatdan keyin biz stullarimizni deraza oldiga qo'yvolib, qaynoqqina choydan bir-bir ho'plagancha gurunglashib o'tirardik.

- Qaniydi hozir allaqanday begona yerda emas, o'z uyingda, haftalab ko'chaga chiqmasdan, dunyo tashvishlarini tamom unutib, xayol surib o'tirgan bo'lsang, - dedim Gulruhga qarab.

- Uyda o'tirishni yaxshi ko'rasizmi? - so'radi u.

- Dangasaman-da. Osh bo'lsa-yu, ish bo'lmasa, degichlardan.

- Shunday vaqtlar bo'lganki, haftalab uydan chiqmasdim... - ovozi siniq va shikasta chiqqanidan sezdimki, u allaqanday ko'ngilsiz xotiralar girdobiga tushdi.

- Bunga ancha bo'lganmi? - ehtiyotkorlik bilan so'radim.

- Ancha bo'lgan...

- Majburlashganmi yoki... boshqa sabab...

- Majburlashgan. Men shunday tushunaman buni. Lekin boshqalar boshqacharoq ifoda etishadi.

- Qarshilik qilmaganmisiz?

- O'sha vaqtlarda yosh edim-da...

Gulruh jimib qoldi.

- Bu yog'i ma'lum... - dedim sekin.

- O'zimni biznesga urib to'g'ri qildimmi, noto'g'rimi, bilmayman, bu haqda o'ylab ko'rgim kelmaydi. Eng muhimi, erkin va daxlsiz yashab kelayotgandim... - Gulruh yuzini kaftlari orasiga olib, nigohlarini yerga tikdi. Men uning xiyol egilgan oppoq bo'yni, bejirim yelkasi, nozik qo'llarini ko'rib turardim. Ro'paramda o'tirgan xilqat bir qarashda himoyaga muhtoj yosh bolani, bir qarashda esa chayir va yengilmas, ayni zamonda hurkak jonivorni eslatardi.

Hayhotday xona sukunat ichra suzardi.

Beixtiyor uning qo'lini oldim.

Gulruhning kipriklari titrab ketdi-yu, asta-sekin ko'tarildi.

- Erkin va daxlsiz yashash yaxshi-a? - dedi u.

- Insonni hayotga bog'lab turadigan ikir-chikirlar mavjud ekan, erkin va daxlsiz yashab bo'lmaydi. Menimcha, tavakkalchi bo'lish kerak. Shunda yashash oson kechadi.

Gulruh kafti bilan yuzimni siladi. Dovdirab qoldim. Bu nopok dunyoda bunday manzaraga duch kelaman, deb o'ylamagandim.

- Demak, men to'g'ri qilgan ekanman-da? - dedi Gulruh menga qarab.

Uning ko'zlari va lablarida iltijoli intiqlik ko'rdim. Ko'nglimdan nimalar kechmadi!.. Qaniydi bu oqshom shu yerda, shu xonada qolsam... Uni bag'ringa olsam... Ayni daqiqaning o'zida bunga imkon borday edi. Ammo nimadir meni tiyib turardi.

Tortinchoqlik, qo'rquv yoki ehtiyotkorlik emas, yo'q, juda ham ulkan, yiqib bo'lmas tog'dek ulkan, har qanday xohishni daf etishga qodir ehtirom meni tiyib turardi.

Biz yana biroz gaplashib o'tirdik, so'ng bir-birimizga xayrli oqshom tilab xayrlashdik.

Tun. Sovuq. Yolg'izlik va sog'inch. Ikki qadam narida huvillagan, g'arib kulbanga baxtli tasodif tufayli uchib kirib qolgan kapalak misol bag'oyat sohibjamol hilqat... Mening mung'aygan, ko'rimsiz o'tmishim, behuda yelib-yugurishlar, besamara mehnat, bemaqsad o'tayotgan umr, hamma-hammasi tashqarida, eshik ortida qolgandi. Qalbmida yana umid va ishonch, musaffo hayot nafasini his etardim. Men bu xazinani boy bermasligim, uni qo'ldan chiqarmasligim kerak.

\* \* \*

Odatdagiday, eshik oldida o'tirardim. Gulruh ichkarida, Alisherni yurishga o'rgatayapti. Alisherning xo'rsingani, Gulruhning hayajonli ovozi tez-tez eshitilib turibdi: "Qani, bo'laqoling, qo'rqmang!"; "Og'rimaydi, bosavering!"; "Hech narsa qilmaydi, dedim-ku...";

Hakim Nazarich qarshimdan o'tdi. Salom berdim. U indamadi. Anglamadi yoki alik olgisi kelmadi. Kim bilsin, ehtimol uning meni ko'rgani ko'zi yo'qdir? Gulruhning xonasiga kirib, eshikni qattiq yopdi. Odatda u bunday qilmasdi.

O'n-o'n besh daqiqadan keyin eshik ochildi. Hakim Nazarichning salobatli va jiddiy yuziga ko'zim tushdi. Gulruh bilan muhim narsa ustida kelishib olganligi xotirjam va chaqnab boqayotgan ko'zlaridan anglashilardi.

- Zerikmayapsizmi, Davron? - deb qo'ydi u to'xtamasdan ro'paramdan o'tib ketarkan.

Ajablangancha ortidan qarab qoldim. Boya salom berganimda alik olish tugul, yuzimga qarab qo'ymagandi. Endi bo'lsa... Sababini Gulruhdan so'rab bilib olmoqchi edim. Lekin bu haqda og'iz ochmasidan burun Gulruhning o'zi Hakim Nazarich haqida gap ochdi.

- Hakim akaga rahmim keladi. Yaxshi odam. Lekin juda qiyin vaziyatga tushib qolganday nazarimda.

- U ablah odam! - dedim o'ylab o'tirmasdan.

Gulruh og'ringandek nazar tashladi.

- Birovni yaxshi bilmasdan turib...

- O'zingiz uni yaxshi bilasizmi? - dedim Gulruhning so'zini bo'lib.

- Bilishga harakat qilyapman.

- Qanday qilib?!

- Ko'rganlarim, his etganlarim... Qolaversa, u bugun soat oltida xonasida birga ovqatlanishga taklif qildi. Qandaydir muhim gapi bormish...

- Siz nima dedingiz? Rozi bo'ldingizmi?!

- O'ylab ko'raman, dedim.

Tepamdan birov muzdek suv quyib yuborgandek bo'ldi. Hamma narsani taxmin qilishim mumkin edi, lekin buni emas. Hakim Nazarich ovqatlanish bahonasida uni uchrashuvga taklif etyapti-ku! Lekin Gulruh buni ish yuzasidan deb o'ylayapti, ana xotirjam chehrasidan ko'rinib turibdi. He, kimni ahmoq qilmoqchi bu qarib quyilmagan xotinboz?! Ish yuzasidan uchrashuv, suhbat yoki

shunga o'xshash narsa kunduzi bo'ladi-da.

Yuzim o'zgarib ketgan bo'lsa kerak, Gulruh menga taajjub bilan tikilib turardi.

- Borish shartmi? - dedim xafa bo'lib.

Gulruh kuldi.

- Davron aka, nega sal narsaga xafa bo'laverasiz? - dedi keyin.

- Shunaqa odamman. O'zim kal, ko'nglim nozik...

Gulruh endi baralla kulib yubordi.

- Kuling-a, kuling. Sizga faqat kulish bo'lsa!..

- Juda qiziq eshitildi, yana bir qaytaring o'sha gapingizni, - dedi Gulruh erkalangandek bo'lib.

- Kechki ovqatga bormayman, desangiz, takrorlayman.

- Oson ekan-u, mayli, hech qayoqqa bormayman. Lekin bekorga xafa bo'lyapsiz, bu ish yuzasidan bo'ladigan suhbat. Menimcha, Hakim Nazarich menga ish taklif qilmoqchi.

- Azizam Gulruh, bunchalik sodda bo'lmang. Erkaklar bir o'q bilan ikki quyonna urishga harakat qilishadi.

- Xo'p. Siz aytgancha bo'lsin, - axiyri yon berdi Gulruh.

- Yaxshisi, kechasi ikkalamiz hovlini aylanishga chiqamiz. Ikki-uch kundan buyon kechasi havo juda ajoyib bo'lyapti, sezgandirsiz?

- Xo'p.

Gulruhni holi-joniga qo'ymasdan uchrashuvga roziligini olganimdan kayfiyatim ko'tarildi, ko'nglim xotirjam tortdi, ish yuzasidan hech qanaqangi uchrashuv bo'lmaydi endi!

Jangda g'olib chiqqan dakang xo'rozday g'o'dayib eshik oldiga chiqarkanman, hovlida allaqanday shovqin, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlarni eshitdim. Shu chog' Hakim Nazarich yonimdan zuvillaganicha o'tib ketdi.

Tashqariga chiqdim. Bu vaqtda jigarrang temir darvoza lang ochilgan, usti yopiq mashina, ikkita soqchi va to'rt-besh kishiga ko'zim tushdi. Hakim Nazarichning "buyurtmasi"; esimga tushdi. "Yana kimlarningdir sho'ri quribdi..."; dedim ichimda.

Hakim Nazarich darvoza oldiga chiqib, keluvchilarni kutib oldi. Soqchilar bilan atigi ikki daqiqa gaplashdi. Keyin ular usti yopiq mashinada qaytib ketishdi.

Hakim Nazarich nimalardir deganicha keluvchilarni ichkariga boshladi. Yangi kelganlar allaqanday piyonistalar emasligi turishlaridan ma'lum... Shu chog' ulardan biri ko'zimga tanish uchradi. Tez-tez yurib zinadan pastga tushdim.

- Safarali!

Egnidagi po'stini birov tishlab tortganday yirtilgan, u yer-bu yeri osilib qolgan; irkit sochlari hurpaygan ulkan boshi yalang, tinkamadori qurib borayotganday, zo'rg'a gavdasini tik tutib turgan kishi yalt etib ortiga o'girildi, keyin butun gavdasi bilan keskin burildi.

Ko'zlarimga ishonmasdim.

Bu haqiqatan ham Safarali edi!

- Bormisan, og'ayni?!

Quchoqlashib ko'rishdik. Voh, bechora do'stim, qoqsuyak bo'lib qolibdi. Tarang yuzi osilib qolgan, qisq ko'zlari kattalashgan...

- Xayriyat, Davron, tirik ekansan? - dedi Safarali entikib.

- Bormisan, og'ayni?! - hayajonlanganimdan tilimda faqat shu so'zlar aylanardi.

Hakim Nazarich tomoq qirdi. Hushyor tortdim.

- Barakda gaplashasizlar, - dedi Hakim Nazarich menga qarab.

- Yarim soatdan keyin oldingga o'taman, - dedim Safaraliga.

U bosh irg'adi. Keyin sheriklariga qo'shilib Hakim Nazarichga ergashdi. Yurishi hamon o'sha-o'sha, ayiqpolvon! Ammo juda ozib ketibdi. Shu vaqtgacha qayerda bo'ldiykin?

Ortinga qaytdim. Yuragim hayajondan, kutilmagan uchrashuvdan gurs-gurs urardi. Bu xushxabarni (xushxabarmi yoki...) Gulruh bilan baham ko'rmasam yuragim tars yorilib ketishi turgan gap.

Yo'lakka kirishim bilan ichkaridan eshitalayotgan gap-so'zlar qulog'imga chalindi.

- Gulruh, meni ortiq qiynamang, xo'p deng. Iltimos! Bir og'iz so'zingiz... Yarim og'iz so'zingiz... Siz agar istasangiz, yo'q, siz agar rozi bo'lsangiz... va hatto talab qilsangiz (bunga haqingiz bor, yuz foiz haqingiz bor!), men hammasidan voz kechaman! Voz kechishga tayyorman! - Bu Po'lat Damirovich edi. U xona o'rtasida turgan Gulruhning poyiga tiz cho'kkan holda iltijo qilardi.

Aftidan ko'proq otib olganga o'xshaydi. Kursiga o'tirib, uning chiqib ketishini kuta boshladim.

- Po'lat Damirovich, sizni men emas, o'zingizni o'zingiz qiynayapsiz. Nima keragi bor bu tomoshaning?! Yaxshisi, meni tinch qo'ying, keting, hoziroq chiqib keting! - jig'ibiyron bo'lib uni haydardi Gulruh.

- Yo'q, hech qayerga ketmayman. Urub, haydasangiz ham chiqmayman bu yerdan. Toki dardimga malham bo'ladigan biror so'z aytmaguningizcha.

- Agar chiqib ketmasangiz, Hakim Nazarichni chaqirishga majbur bo'laman.

- Mayli, chaqiring, o'sha yaramasni! Siz aftidan o'sha yumshoq supurgidan umidvor bo'lyapsiz...

- Po'lat Damirovich, og'zingizga qarab gapiring!

- Bilasizmi u qanaqa odam?..

- Bas qiling, deyaqman!

- U yaramas va iflos odam!

- Hammangiz qo'shmozor bo'ling!

- Gulruh, azizam, bir og'iz so'zingiz... Hammasi sizning bir og'iz so'zingizga bog'liq!..

- Oh, xudoyim...

Gulruh yig'lamsirayotganday tuyildi. Endi ortiq kutib tura olmasdim. Ichkariga bostirib kirdim.

- Gulruh!

- Siz aralashmang, Davron aka! - dedi Gulruh, ammo ovozidan dadil tortgani sezildi.

Po'lat Damirovich vaziyatni o'zgartirmadi, cho'k tushgan holda turganicha sovuq tirjaydi.

- Darvoqe, tansoqchingiz... Men uni itday otib tashlashim mumkin, lekin bunday qilmayman. Chunki u sizni sadoqat bilan qo'riqlayapti anavi yovvoyi kelgindilardan!..



- Haddingizdan oshmang, Po'lat Damirovich! - dedim unga yaqin borib. - Qo'lida qurol bo'lsa, quyon ham mard bo'lib ketadi.

- O'h-ho', falsafani qarang! Bu deymen, men sizni qora ishchi deb yursam...

Po'lat Damirovich gapini tugata olmadi.

Gulruh o'rtamizga turib oldi.

- Po'lat Damirovich, yuragingizda ozgina odamiylik qolgan bo'lsa, hoziroq bu yerdan chiqib keting!

- Xo'p... - Po'lat Damirovich birdan shashtidan tushib polga o'tirib oldi. - Faqat bir savolimga ochiq javob bering, Gulruh Qosimovna. Maylimi, javob berasizmi, Gulruh Qosimovna?.. - yosh boladay yalina boshladi u.

- Qanaqa savol ekan?!

- Nega mendan nafratlanasiz, Gulruh?!

Gulruh darrov javob bermadi. Lablarini qimtigancha Po'lat Damirovichga tikilib qoldi.

Men u bu savolga javob bermasa kerak, deb o'ylardim. Chunki Gulruh munofiqlarcha yolg'on so'zlay olmaydi. To'g'ri javob esa Po'lat Damirovichni battar quturtirib yuborishi mumkin. Bilmadim, Gulruh bu vaziyatdan qanday chiqib ketarkin? Menga qolsa, bir musht bilan masalani hal qilib qo'ya qolardim.

- Siz men bilan savdolashyapsiz, Po'lat Damirovich. Nahotki buni o'zingiz sezmayotgan bo'lsangiz?! Men rozi bo'lsam, siz oilangizdan, umuman, oyog'ingizga tushov bo'layotgan jamiki narsalardan va ayniqsa, boyligu mol-mulkingizdan voz kechmoqchisiz. Shundaymi? - Gulruh qizg'inlik bilan Po'lat Damirovichga qaradi. Po'lat Damirovich boshini solintirdi. - Rozi bo'lmasam, issiq to'shagingizni sovutmoqchi emassiz! Ammo, menimcha, har ikki holatda ham baxtli bo'lolmaysiz. Nega deganda, hozir ideal tuyilgan ayol, unga erishganingizdan keyin oddiy ayolga aylanadi, odatdagi turmush tashvishlari boshlanadi, shunday vaqtlar keladiki, shu ayolni deb bor-budimdan ayrildim, deb o'ylab meni butunlay yomon ko'rib qolasiz, afsus-nadomat chekishni-ku aytmay qo'ya qolay. Qolaversa, hozir mastsiz, mastlik bilan hamma narsadan osongina voz kechib qo'yyapsiz. Ertaga ertalab mutlaqo boshqacha fikrlaysiz. Hatto rozi bo'lmaganim uchun mendan xursand ham bo'larsiz! Siz ezgulikni yaxshi ko'radigan, fidoyilikni qadrlaydigan odamsiz. Shunisi borki, ezgulik ham, fidoyilik ham boshqalardan chiqsa... Iloji boricha, siz ko'p narsa yo'qotmaslikka intilasiz!

Gulruh gapi tamom bo'lgandek jim bo'lib qoldi. Po'lat Damirovichdan ham sado chiqmadi. U hamon boshini solintirgancha, aftoda qiyofada o'tirar, shu holatida u avvalgi Po'lat Damirovichga mutlaqo o'xshamasdi. To'g'ri, u ichgandi, brendining o'tkir hidi anqirdi undan, lekin aniq ayta olaman, u mast emasdi. Unga nimadir bo'lgandi. O'sha "nimadir"; tufayli uning qalbida o'zgarish yuz bergan va hayotda ro'y bergan bunday favqulodda o'zgarish uning xonumoniga o't qo'ygan hamda vujudini junbushga keltirib, shuurida qandaydir keskin burilish yasagan edi. Aks holda u bunchalik aftoda va nochor ahvolga tushmasdi.

Po'lat Damirovich asta o'rnidan turdi-da, boshini solintirgan ko'yi indamay chiqib ketdi.

Gulruh keskin burilib, deraza oldiga bordi. Chuqur xo'rsindi. Uning yolg'iz qolishni istayotganini sezib xonadan chiqdim.

Tashqariga chiqqanimdan keyingina Gulruhning huzuriga nima uchun borganimni esladim. Ammo ortga qaytmadim. Barak tomon ketdim.

\*\*\*

- E, og'ayni, o'sha oqshom o'ziyam molday bo'kib ichgan ekanman. Hech narsani eslay olmayman, - deya boshidan o'tganlarni hikoya qildi Safarali barakda o'tirganimizda. - Ertasiga ko'zimni ochsam sovuq kamerada yotibman. Miya karaxt, avvaliga hech narsani eslay olmadim. Birozdan keyin asta-sekin miyam ishlay boshladi va birdan sen esimga tushib qolding. Sakrab o'rnimdan turdim. Yon-verimga qarayman, sen yo'qsan. U boshqa kamerada bo'lsa kerak, deymen o'zimcha. Pul olib kelish uchun ketganing mutlaqo esimda yo'q, o'lay agar. Meni deb Davron ham bir falokatga yo'liqdi, deymen nuqul. Shundan boshqa durustroq o'y kelmaydi kallaga. Kun-kunora bizga o'xshagan daydilardan ikki-uchtalab tushib turarkan. Eshik ochilsa, bas, kirgan odamning basharasiga tikilaman, sen emasmikinsan, deb. Qayoqda! Sendan darak yo'q! Xit bo'lib ketdim. Uch-to'rt kundan keyin qo'yib yuborishadi, ana shunda Davronni qidiraman, topmasam uyga ketmayman, deb qasam ham ichib qo'yganman. Ovqat olib kirgan soqchilardan birovi ko'zimga gapga ko'nadigan, o'zimizga o'xshagan sodda-bayov ko'ringandi. Shuni qo'yniga qo'l solib ko'ray-chi, biror yorug'lik chiqarmikan, deb ikki og'iz gapirgandim, naq baloga qoldim. "Meni kim deb o'ylayapsan, baran?!"; deb quloq-chakkamga tortib yuborsa bo'ladimi? O'zi bo'larim bo'lib yurgandim, menam ayab o'tirmadim, qaytarib soldim basharasiga. Shundan keyin meni yomon qiynashdi. Politsiyaning kattalari: "Ishingni sudga oshiramiz!"; deb do'q urishadi, so'roq qilishadi. Anovi sodda-mug'ambir har kuni ikkita o'rtog'i bilan kelib alamdan chiqquncha savalaydi. E... it ham itni bunchalik talamasa kerak. Odamning odamga qilcha rahmi kelmaydi-ya. Qanday zamonda yashayapmiz, Davron? Soqchi yigitning, mayli, menda alami bor deylik. Sheriklariga nima? Men ularga nima yomonlik qildim?

Haliyam ota-onamiz o'z vaqtida iligimizni to'q qilib o'stirgan ekan, qiynoqlariga dosh berdim. Mundayroq odam bo'lganida kaltakka chiday olmay, o'lib qolishi turgan gap.

Tergov tamom bo'lib, ishimni sudga oshirmoqchi bo'lib turganlarida birdan hammasi boshqacha bo'lib ketdi. Go'yo hech qanaqangi janjal va tergov bo'lmagandek ikki kun meni tinch qo'yishdi. Uchinchi kuni - mana bugun ertalab usti yopiq mashinaga chiqarishdi-yu, bu yoqqa olib kelishdi.

O'lay agar, hech narsaga tushunmadim. Seni bu yerda ko'rishni-ku, umuman xayolimga keltirmagandim.

Nimaiki bo'lmasin, tirik ekansan, shunisiga shukr, do'stim. Ming qatla shukr. Ko'ngil - dushman... Xayolimga ne gaplar kelmagandi... Ammo bir gapni ochiq ayt, mendan xafa emasmisan? Agar o'sha kun bo'kib ichmaganimda...

So'nggi jumlaning aytarkan, Safarali aybdorlarcha boshini egdi.

- Yo'q, sen ochig'ini ayt, Davron meni tashlab, qochib ketdi, degan o'yga bormadingmi o'shanda? - dedim rostiga ko'chib.

Axir, qachonlardan buyon shu o'y mening ham yuragimni toshday ezib yotibdi-ku.

- Qo'ysang-chi, seni bilmaymanmi?..

Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi.

Shundan keyin Safarali bilan peshingacha gaplashib o'tirdik.

Men unga bu yerga qanday kelib qolganim, nima ishlar qilganim, qancha pul olganim-u, qanday qilib o'g'irlatib qo'yganim (o'g'ri borligini do'stim ham bilib qo'ysin-da, harqalay, menga qaraganda hushyor bo'ladi), Hakim Nazarich, Po'lat Damirovich va hokazo-hokazolar haqida qisqa, ammo batafsil so'zlab berdim.

Faqat bir odam haqida og'iz ochmadim. Bu mening hammadan, hatto do'stimdan ham yashirgan sirim bo'lib qolsin, degandim.

Ammo...

- A-ha, bu yerda ekansiz-ku, Davron aka! Men sizni qachondan beri qidirib yuribman, - deya Gulruh barakka kirib keldi-yu, sirim fosh bo'ldi.

Yo'q, Safarali birdaniga anglamadi hech narsani. Da'fatan Gulruhga ko'zi tushganida xuddi hov o'sha mash'um voqealar ibtidosi vazifasini o'tagan restorandagi kabi sehrlanib qoldi.

- Yo tovba, Davron! Men tush ko'rmayapmanmi? - deya shivirladi u.

Safaraliga ko'zi tushgan Gulruh hayron bo'lgandek eshik oldida turib qolgandi.

- Ikki odam bir xil tush ko'rmaydi-ku. Bu Gulruh! Hozir tanishtirib qo'yaman, - dedim kulib, keyin Gulruhni yonimizga chaqirdim: - Bu yoqqa keling, Gulruh.

Safarali ana shunda gapim ohangidan nimanidir fahmlaganday bo'lib, "yalt"; etib menga qaradi.

Ko'zim bilan: "Jiddiyroq bo'li!"; degandek ishora qildim. Safarali tushundi darrov.

- Bu kishi mening do'stim, ikki oy muqaddam tasodif tufayli yo'qotib qo'ygan do'stim Safarali bo'ladi, - dedim Gulruhga, u yonimga kelganidan keyin.

- Gulruh, - deya u birinchi bo'lib Safaraliga qo'lini uzatdi.

Safarali shoshib qoldi.

- Safarali. Lekin siz Safarali deyvering, aytishga oson bo'ladi, - Safarali menga xayrixohlik bilan qarab qo'ydi.

Tushundim, Gulruh unga ma'qul bo'ldi.

Nima ham derdim, Safarali odam tanlashni biladi. Bu uning qonida bor...

Biz endi uchovlashib suhbatni davom ettirdik.

Gulruh bu yerga nima uchun kelganini ham esidan chiqarib qo'ydi, shekilli, Safarali bilan har kuni ko'rishib turadigan eski tanishlarday bermalol gurunglashardi.

O'zimni har qachongidan kuchli va baxtiyor his etardim. Axir, bir yoqda do'sting, bir yoqda suyukling hamdam bo'lsa, g'am-tashvish ham o'tkinchi shamoldek tuyilar ekan.

Bir soatlardan keyin o'mimizdan turdik.

Ish joyimizga qaytishimiz kerak edi.

- Kechasi, ishdan keyin kelinglar, - dedi Safarali eshik oldiga chiqqanimizda. - Hangoma qilardik-da.

- Bugun biz bilan hangoma qilishga vaqting bo'lmaydi, yaxshisi ertaga oshxonada o'tiramiz, - dedim o'zimning barakda o'tkazgan birinchi oqshomimni eslab.

- Sizlar uchun vaqt topaman, albatta kelinglar, - dedi Safarali.

Medpunktga qaytdik.

Gulruh ishga sho'ng'ib ketdi. Chunki ishchilar qaytadigan vaqt bo'lib qolgandi.

Kechasi soat o'n birlarga borib medpunktдан odam oyog'i tiyildi. Endi bermalol dam olsak bo'lardi.

Lekin mening uyqum qochgan, xayolim barakda qolgan Safaralida edi. U yerga Gulruhni yetaklab borishga esa ko'nglim chopmasdi. Gulruhni yolg'iz qoldirib ketishga yana ko'nglim bo'lmasdi.

- Do'stingiz kutib o'tirgandir, bormaysizmi? - dedi Gulruh bir mahal.

Har qalay, u derazadan tez-tez tashqariga qarab qo'yayotganimdan ko'nglimdagini fahmladi-yov.

- Siz-chi?

- Men dam olaman.

- Men ketib qolsam, siz qo'rqmaysizmi?

- Qo'rqsam, derazani ochib qo'yaman, ko'zingiz tushgan zahoti kelaverasiz.

- Behazil-a? Xafa bo'lmapsiz-a?

- Chin yurakdan!..

- Buguncha borib turay, harqalay, birinchi kun, ertadan boshlab har qanday uchrashuv otboygacha tayin qilinadi, xo'pmi?

Gulruh bosh irg'adi.

Esingizda bo'lsa, barakka kirib kelgan birinchi kunim bu yerdagilar meni qanday kutib olishgani, yarim kechagacha gaplashib chiqqanimiz haqida so'zlab bergandim.

Barakka kirib borganimda Safaralining ham boshida shu qismat - ellik-ellik besh chog'li kishi uning atrofini g'uj o'rab olishgan, suhbat ayni qizg'in nuqtasiga yetgandi. Sekin borib ularning qatoriga qo'shilib, bo'layotgan gap-so'zlarga quloq tutib, jimgina o'tirish niyatida edim. Lekin menga ko'zi tushishi bilan Safarali o'rnidan turdi.

- Davron, yur, tashqariga chiqib bir chekib kelaylik, suhbatni keyin davom ettiramiz, - dedi u davradan chiqib.

Yon-atrofdan xitoblar eshitildi:

- E, shu yerdayam bermalol chakeversangiz bo'lardi. Olibtalikning nima keragi bor?

- O'yinbuzuqlik qilmasang-chi, Davron. Bip-binoyiday o'tiruvdik, sen kelding-u...

Men endi gapga og'iz juftlagandim, Safarali ilib ketdi:

- Hali ko'p gurung qilamiz, og'aynilar. Davron jonday jo'ram, u bilan hozir hol-ahvol so'rashmasam, ertaga ishga ketib qolamiz!..

Safarali nima uchundir qattiq hayajonlanardi. Tashqariga chiqqanimizdan keyin men unga sigaret qutisini tutdim. U bir dona oldi, labiga qistirdi, lekin tutatishni unutdi.

- Xoliroq yerga boraylik, Davron, - dedi u. - Senda zaril gapim bor.

Men uni taxta to'siq bo'ylab ketgan yo'lkaning oxiriga boshlab bordim.

- Gapir.

- Sen boya suhbatlashganimizda Hakim Nazarich ishlab topgan pullarimizning bir qismini uyga yuboradi. Hali xonasiga chaqirib sizlar bilan shartnoma tuzadi, deganding-a?

- Ha, degandim.

- Rostingni ayt, shu gapga ishondingmi?!

- Ishondim nima-yu, ishonmadim nima?

- Bilasanmi, bu yerda bir gap borgan o'xshaydi.

- Dangal gapirsang-chi?

- Haliyam dangal gapiryapman-ku.

- Nimadan shubhalanyapsan bo'lmasa?

- Men bu yerda bir tanishimni uchratdim!  
- Nima bo'пти? Dunyo tor... O'xshash qismat...  
- E, men nima demoqchiman-u bu... Bidirlyab-vermasdan gapga quloq solsang-chi!  
- Xo'p. Gapisir.  
- Gapimni bo'lma!  
- Xo'p.  
- Obbo, yana!.. Qisqasi, men bu yerda uchratib qolgan tanishim Karimboy aka degan kishi bo'ladi. U o'n sakkiz yashar o'g'li bilan ikki yil avval uyidan chiqib ketgandi. Bu yoqlarda arzimagan ish uchun ham ko'p pul to'lanadi, deb eshitgandi-da...  
- Xo'p, nima bo'пти shunga? - dedim toriqib ketganimdan Safaralining gapini bo'lib.  
- Shu paytgacha ulardan dom-darak bo'lmadi! Xotini Zubayda yanga u kishiniyam, o'g'liniyam allaqachon o'ldiga chiqarib, aza ochmasayam, undan beriroq bo'lib yuribdi.  
- Nega o'ldiga chiqaradi? Axir, Karimboy aka bilan o'g'lining ish haqi uyiga yuborilyapti-ku. Shuning uchun shartnoma tuzilgan-ku!  
- Uydagilar bir so'm ham olishgani yo'q. Oxirgi marta ko'rganimda Zubayda yanga kasal edi. Oson emas, ham eridan, ham o'g'lidan ayrilish... "Qishloqqa yaqin-o'rtada borganmidingiz? Bizzi uydagilar eson-omon o'tirishibdimi?"; deb so'radi Karimboy aka boya. Nima deyishni bilmay, durust, deb qo'ya qoldim. Aytganday, Karimboy akaning o'g'li ko'rinmaydimi?  
- Alisher kasal. Yaqinda Gulruh uning oyog'ini operatsiya qildi. Hozir medpunktga yotibdi, - dedim.  
Keyin birdan hushyor tortib do'stinga Alisherning tomdan yiqilib tushgani-yu, ko'rgan-kechirganlarim, shubha-gumonlarim va Hakim Nazarichning telefon orqali allaqanday Nikolay Fyodorovichga bergan "buyurtmasi"; haqida gapirib berdim.  
- Voy yaramas! Hakim Nazarich deganing g'irt ablah ekan-ku! - dedi Safarali tutaqib.  
- Sekin.  
- Endi nima qilamiz, Davron? Qulday ishlab yuraveramizmi?  
- Mana, sen kelding, bir ilojini toparmiz endi.  
- Qochamizmi? Nahotki, bu yerdan chiqib ketishning iloji bo'lmasa?  
- Hamma yoqqa qurolli soqchilar qo'yilgan. Bilmadim... Balki qochishni amalga oshirsa bo'lar, lekin...  
Ochig'i, men Gulruhni o'ylayotgandim.  
Qochish oson emas, yo'l azobi - go'r azobi, begona yurtda sarson-sargardon bo'lmasdan yo'l topib bo'lmaydi, Gulruh bunday azoblarga dosh bera olarmikin?  
- Hozircha hech kimga churq etmasdan ikkalamiz bosh qotirib ko'raylik, keyin bir bitimga kelarmiz, - dedi Safarali.  
- Mayli, - dedim horg'inlik bilan. - Ortga qaytamizmi?  
- Qaytdik.  
Boshim g'uvillardi. "Demak, hammasi yolg'on ekan-da! Obbo, Hakim Nazarich-ey, odam degan shunchalik ham ustomon bo'ladimi?!";  
Yuragimni g'am-g'ussa chulg'ab oldi. Qiziq, yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, soxtalik va xudbinlik, ochko'zlik va shafqatsizlikka qarshi kurashib kelmoqda. Ammo oqibati nima bo'ldi? Korchalonlik, sotqinlik, xuddi o'ziga o'xshash tabiat gultoji bo'lgan insonlar taqdiriga e'tiborsizlik va yolg'on tantana qilmadimi?!  
Har ne bo'lganda ham, xom sut emgan bandalarmiz-da...  
Safarali bilan xayrlashib, medpunktga qaytdim. Gulruh negadir uxlamay kutib o'tirgan ekan.  
- Keldingizmi?.. - ostonada ko'rinishim bilan u o'rnidan turib istiqbolimga yurdi.  
Harakatlari yengil va mayin edi. Yaqin keldi-yu... ko'ksimga boshini qo'ydi. Keyin xiyol uzalib yuzimdan avaylab o'pdi.  
Bu hol shu qadar tez yuz berdiki, nima bo'layotganini hadeganda idrok qilolmadim.  
Men hali rostakamiga bu yerda emasdim, miyam hamon g'uvillar, qulog'imdanda Safaralining so'zlari ketmasdi...  
Qilt etmasdim, ochiq derazadan sovuq havo kirib turardi. Gulruhga qarab turib yuragim tubiga cho'kkan g'ussa allaqanday umid bilan qorishib, butun vujudimni qaytadan zabt etayotganini, qayg'u, ishonch, sovuq, yuzimga tegayotgan mayin sochlar, shaftoli hidi - bari ayqash-uyqash bo'lib ketayotganini his qildim, ehtimol hayot, chinakam hayot shudir!  
Bu bir daqiqacha davom etdi. Keyin to'satdan odamlar uyqudan uyg'ongandek birdan shovqin-suron bilan, bir-birlariga gal bermasdan guvillashib ketishdi.  
- Nima deyapsizlar? O'lay agar, tushungan bo'lsam, - dedi Hakim Nazarich osoyishta tarzda.  
U hammani nazaridan o'tkazardi-yu, negadir men tomonga qaramasdi.  
Yonimda turgan Safaralini qo'ltig'idan olib, bir qadam oldinga chiqdim.  
Hamma jim bo'ldi.  
- Hakim Nazarich, - deya bosiq va xotirjam ovozda murojaat etishga urindim. - Bu yigit yaqindagina keldi. Keldi-yu, bu yerda hamqishlog'i Karimboy akani tirik uchratib hayratdan yoqa ushladi. Vaholanki, Karimboy akaning oilasidagilar u kishini allaqachon o'ldiga chiqarib qo'yishgan ekan. Ikki yil bedarak ketgan odam haqida boshqacha fikrda bo'lolmaydi hech kim. Sizing gapingizga qaraganda, Karimboy akaning oilasi uning maoshini qurtday sanab olib, maza qilib yeb yotgan bo'lishi kerak...  
- Bo'lmagan gap! - so'zimni bo'ldi Hakim Nazarich qizishib. - Bu qandaydir anglashilmovchilik! Aloqa bo'limdagilarning...  
- Bunisi anglashilmovchilik deylik, mayli, lekin... - kishilar orasidan yonma-yon turgan Nurali bilan Ravshanni imladim. - Mana bu yigitning aytishiga qaraganda, darvoqe, u kuni kecha kelganidan o'zingizni xabaringiz bor-ku! - deya Ravshanga ishora qildim.  
- Nuralining uyidagilar ham undan bir chaqa olmaganlarini, aksincha, ota-onasi bedarak ketgan o'g'illarining g'amida kuyib ado bo'lganini aytyapti. Siz nima deysiz bunisiga?  
Hakim Nazarich surat bo'lib qoldi.  
- Balki buyam anglashilmovchilikdir?! - kinoyali luqma tashladi Safarali.  
Tag'in g'ala-g'ovur ko'tarildi.  
Odamlar orasidan achchiq-tiziq xitoblar eshitildi:  
- Yolg'onning nima keragi bor edi?  
- Shuncha vaqtdan buyon tekinga ishlab yurgan ekanmiz-da!  
- Bu jinoyat-ku!  
- Qonun oldida javob berishingiz kerak?

- Endi hech birimiz ishlamaymiz.

- Yaxshisi bizga javob bering, uy-uyimizga ketaylik!

Hakim Nazarich qo'lini ko'tarib shovqinni bosdi. Keyin biroz o'zgartgan ovozda:

- Yana takror aytaman, bu anglashilmovchilik! - dedi.

Bu xitobga javoban ko'tarilayotgan g'ala-g'ovurni Hakim Nazarich bir qo'lini ko'tarishdayoq bosib qo'ydi va gapida davom etdi va:

- Tashvishlanmanglar, bu yerda tekin ishlamayapsizlar. Men ertaga, yo'q, shu bugunning o'zida bu masala bilan shug'ullanib, albatta, tagiga yetaman! Anglashilmovchilik tufayli zarar ko'rgan oilalarga tovon puli to'lanadi, - dedi ishonch bilan.

- Endi bizni ishontirolmaysiz! - dedim Hakim Nazarichga tik qarab. - Yaxshilikcha, javob bering biror kor-hol yuz bermasdan!

Aks holda...

Bilasizmi, shunda Hakim Nazarich birdan o'zgardi: uning chiroyli va ulug'vor yuzidagi yoqimli niqobi o'pirilib tushdi go'yo...

- Yaxshisi biror kor-hol yuz bermasdan jimgina ishga chiqqanlarning ma'qul, aks holda!.. - naq burnim tagiga kelib ilonday vishilladi u.

Qarshimda aqlli va mehribon ish boshqaruvchi emas, nafs alvastisiga qul bo'lgan takabbur kimsa turardi.

- Dag'dag'a qilmang, qo'rqmaymiz, - dedim bosliqlik bilan.

- Shunaqami?!

- Shunday.

Hakim Nazarich shaxt bilan yurib borib eshikni lang ochdi.

Shu zahoti barakka o'n-o'n besh chog'li qurollangan soqchilar bostirib kirishdi. Miltiq stvollarining sharaq-shurug'i yangradi.

- Endi ham ishga chiqmaysizlarmi?! - g'olibona nazar tashladi Hakim Nazarich.

- Yo'q!

- Kerak bo'lsa o'zingiz ishlang!

- Bizni baribir qo'rqitilmaysiz!

- Shuncha aldaganingiz yetar!

- Nima, biz sizga qulmidik?!.

Bor-yo'g'i besh kishi javob qaytardik...

"Maydon";da Safarali, Nurali, Ravshan va men qolgandik.

Boshqalar esa... Nigohlarida noumidlik, ishonchsizlik va g'ussa aks etgan kishilar birin-sirin barakdan chiqa boshladi.

- Matchonov! - Hakim Nazarichning qahrli ovozi yangradi. - Odamlarni olib zudlik bilan ishga jo'na! Bosh ko'tarmay ishlashsin!

Tushlikka ham chiqilmaydi!

Eng oxirida, oyoqlarini sudragudek bosib Karimboy aka chiqib ketdi.

- Xo'sh, sizlar-chi? - mamnunlik bilan bizga yaqinlashdi Hakim Nazarich.

- Otmochimisiz?! - kutilmaganda Nurali keskin harakat bilan Hakim Nazarichga baqamti keldi. - Oting!

Shu zahoti ketma-ket o'q ovozi yangradi.

Soqchilar shiftni mo'ljalga olishgandi.

Biz qilt etmasdan turaverdik.

- Og'aynilar, - birdan butunlay boshqacha ovozda murojaat qildi Hakim Nazarich. - O'zlaringga jabr qilmanglar...

Hakim Nazarich gapini tugata olmadi, xonaga Po'lat Damirovich quzg'unday bostirib kirdi.

- Nega bular bilan pachakilashib o'tiribsiz, Hakim Nazarich?! - deya baqira ketdi u. - Yovvoyi maxluqlarni og'zidan otish kerak!

Po'lat Damirovichning ketidan mirshab kiyimidagi kishilar qo'llarida qurol bilan kirib kelishdi va bir zumda chiqish yo'laklarini

bekitib, atrofimizni qurshab olishdi.

Safarali o'zini tutib turolmadi.

- Kimni maxluq deyapsan, ablah?! - degancha u Po'lat Damirovichga tashlandi.

Ammo do'stim Po'lat Damirovichga barmog'ini tekkizishga ham ulgurolmadi, ikki marta o'q uzildi-yu, Safarali intihosiz bir hayrat bilan ikkala qo'lini yuqoriga ko'targancha shartta kesilgan daraxtday gursillab yerga quladi.

Men unga talpindim, tutib qolmoqchi bo'lgandek qo'llarimni uzatdim, lekin...

- Umringni qamoqda chiritaman hammangning! - deya bo'kirdi Po'lat Damirovich quturib. - Yaramas, kelgindilar! Organ xodimiga qo'l ko'tarishning oqibatini ana shunda ko'rasanlar!

Po'lat Damirovich yana nimalardir deya baqirdi, jazavaga tushib bo'kirdi; Hakim Nazarich ham nimadir deganday bo'ldi, lekin men bularning birortasiga ham e'tibor bermadim, cho'k tushgancha Safaralining ko'ylagini yechib, o'q tekkan yeriga ro'molchamni bosdim...

- Safar, do'stim...

Safarali ingradi.

Xayriyat, tirik ekan!

Shundan keyin mirshablar bizni bitta-bittalab, yelkamizga miltiq tiragancha tashqariga olib chiqishdi.

- Kazarmaga!!!

Lak-lak dushmanni yengib, g'alaba qozongan bahodirday butini kerib turgan Po'lat Damirovichning guldirak ovozi yangradi.

Shu chog' "kontora"; tomondan boshyalang, xalatchan yugurib kelayotgan Gulruhga ko'zim tushdi.

- Nimalar bo'lyapti? Davron aka... - sarosima ichida javdirab qarardi u.

- Yaqinlashmang! Boring, xonangizdan chiqa ko'rmang, aks holda, sizniyam bularga qo'shib!.. - tahdidli ohangda do'q urdi Po'lat Damirovich Gulruhning yo'lini to'sib olgancha.

- Hakim aka... - ko'zlari yoshga to'lgan Gulruh Hakim Nazarichga yuzlandi.

Tosh qotgan "otaxonimiz";dan sado chiqmadi.

- Gulruh, Safaraliga yaxshilab qarang, iltimos, - deyishga ulgurdim zo'rg'a.

"Organ xodimlari"; bizni urib-turtkilab, qo'llarimizni orqaga qayirib "shtab"; tomon haydab ketishdi.

\* \* \*

Zax, mog'or va yana allaqanday achqimtil hid anqib turgan yerto'la - kazarma edi.

Shifti past, boshimiz tegib qolganidan engashib yurardik. Oyoq ostidagi yerdan sovuq, muzday havo ufuradi.

Kunduzi bir nav, quyosh chiqqanidan keyin kumush ko'zguday yaltirayotgan tuynuk oynasidan ichkariga yorug'lik tushadi; tunda zim-ziyo, birov-birovni ko'rib bo'lmaydi; faqat oy tepaga ko'tarilgan paytdagina qisqa fursatga yerto'la xiyol yorishadi.

Kazarmaga kirib kelgan dastlabki daqiqada bu yer xuddi ochiq mozorday huvillab yotardi. "Tiq"; etgan tovush eshitilmasdi.

- Husan shu yerda bo'lsa kerak, - dedim Nuraliga.

- Bu yerda tirik jon borga o'xshamaydi-ku, - dedi Nurali.

Kazarma ichi xiyla katta edi. Tuynuk atrofi yorishib tursa-da, burchak-burchaklar zim-ziyo, hech narsani ko'rib bo'lmasdi.

- Endi nima bo'ladi? - dedi Ravshan shivirlab.

U dovdirab qolgandi. Mardlik qilib "maydon";da qolishga qolgan-u, oqibati bu darajaga yetishini o'ylamagan chog'i, yig'lamoqdan beri bo'lib turardi.

- Boshga tushganini ko'z ko'radi, - dedim unga.

Keyin xonaga ko'z yugurtirdim. Menimcha, Husan shu yerda bo'lishi kerak. Boshqa qayerdayam bo'lardi, axir!

- Davron aka, - Nuralining ovozi keldi shu payt chap tomondagi burchakdan, - bu yoqqa keling.

Bordim.

Qarasam chindan ham Husan... yerda sulayib yotardi.

- Nafas olmayotganga o'xshaydi, - dedi Nurali sekin.

- Nahotki? - engashib Husanning ko'ksiga qulog'imni qo'ydim.

Ishonasizmi, shunda "gup"; etib dimog'imga badbo'y hid urildi. Xayriyatki, Husanning yuragi bilinar-bilinmas urib turardi.

- U tirik, - dedim hayajonlanib. - Qani, yordamlashvor, yorug'roq yerga oboraylik.

Ikkovlashib Husanni ko'tardik, qaltisroq harakat qildikmi, Husan joni og'rib ketganday, qattiq ingrab yubordi.

- Kechir, uka, azoblab qo'ydikmi? - deya g'udrandim.

Uni ehtiyotkorlik bilan ko'tarib tuynuk yaqiniga olib borib yotqizdik.

Shunda Husanning yuzini aniq ko'rdim. Husanning soqol-mo'ylovi o'sib ketgan, haddan tashqari ozib ketganidan badanida et qolmagan, sarg'ayib-ko'karib ketgan terisi osilib, chekka, yonoq, iyak suyaklari turtib chiqqandi. Qovoqlari shu qadar ichga tortib ketgandiki, bu yerda ko'z emas, allaqanday chuqurcha qorayib turgandek tuyilardi.

Eng dahshatli manzara esa qorinda edi. Gulruh olib tashlagan o'qlarning o'rni o'radek o'yilib, ichidan ichak-chavoqlari ko'rinib turar, achigan qon aralash yiringning badbo'y hidi anqirdi.

Ravshanning asablari dosh berolmasdi, burnini bekitib nari ketdi. Yangi-da, hali ko'nika olmayapti.

- Husan, - dedim sekin uning yuzini silab.

Husan titrab ketdi, yuziga tekkan qo'lim buni yaqqol sezdi.

- Meni eshityapsanmi, Husan?

Husan sekin ko'zlarini ochdi. Nursiz, so'niq ko'zlarini bir necha daqiqa tikib turdi-da, yana yumib oldi.

- Tanimadi, - deya shivirladi Nurali.

Shu chog' Husan bemador qo'lini xiyol ko'tarib qo'limga tekkizdi. Bu uning "Sizni tanidim, Davron aka";, degani edi.

Ichim ezilib ketdi. Hech qachon o'zimni bunchalar nochor va ilojsiz his etmagandim.

- Voy, buni qarang! - deb yubordi bir mahal Nurali hayajon ichida.

Qaradim. Qaradim-u, shu zahoti ko'nglim ag'darilib ketdi.

Husanning jarohatidan yirik-yirik qurtlar birin-sirin o'rmlab chiqardi!

Bas, bu haqda boshqa gapirmayman, gapira olmayman. Es lasam, hali-hanuzgacha ko'nglim ozib, a'zoyi-badanim jimirlab ketadi... Barakda kechgan kunlarim kazarmada o'tkazgan hayotim oldida holva bo'lib qolgandi.

Po'lat Damirovich bu yerda ham bizni azoblashni bas qilmadi. Aksincha, u juda ham haddidan oshib, quturib ketdi.

Husanni tashlab qo'ymayotganimiz, qo'limizdan kelgancha unga g'amxo'rlik qilayotganimiz uchun ham, u kazarmaga kirib kelganida tuynuk oldida turganimiz yoki eshik ochilgan zahoti "dik"; etib o'rmimizdan turmaganimiz uchun ham, qo'ying-chi, arzimagan bahonayu sabablar bilan Po'lat Damirovichning shaxsan o'z qo'llaridan kaltak yerdik.

Po'lat Damirovich tabiatan o'ta yovuz kimsa ekan. Ravshan uning azoblariga bardosh bera olmadi: Po'lat Damirovichning qorasi ko'ringan zahoti uni qaltiroq tutadigan, chap qovog'i tinimsiz ravishda pir-pir uchadigan bo'lib qoldi.

Vahshiy Po'lat Damirovich esa o'sal yotgan Husanni ham o'z holiga qo'ymasdi.

- Ha, o'zboshimcha, qurtlarga yem bo'lib yotibsanmi? - derdi u benihoya huzur qilayotgandek zavq-shavq bilan. - Qo'rqma, seni urmayman ham, otib ham tashlamayman. Sen shu yerda qurtlarga yem bo'lib o'lib ketasan!

Husan allaqachon sob bo'lgan, so'nggi kunlarini yashayotgandi, biroq Po'lat Damirovichga javoban benihoya baxtiyor kimsadek kulib qarab qo'yishga kuch topardi.

Men hali-hamon bu yigitni tushuna olmasdim.

Bir kuni ertalab ittifoqo eshik lang ochildi-yu, ichkariga quyosh kirib kelgandek kazarma yorishib ketdi.

Gulruh kelgandi. Soqchi hamrohligida.

Meni ko'rdi-yu, u yig'lab yubordi.

O'lay agar, Gulruhdan buni kutmagandim.

- Nima bo'ldi? Nega yig'layapsiz? Birov xafa qildimi? - dedim jonim bo'g'zimga tiqilgudek bo'lib.

- Ozib ketibsiz... Ko'rinishingiz bir ahvolda... - dedi Gulruh so'zlarini bo'lib-bo'lib.

- Shungami?... Men bo'lsam... Xafa bo'lmang, hammasi o'tib ketadi. Darvoqe, Safaralining ahvoli qanday?

- Jarohati bitib qoldi. Sizga salom aytdi. Hademay u kishiniyam bu yoqqa o'tkazishsa kerak. Aytgancha, manavi xatni berib qo'yishimni so'ragandi, - Gulruh kichkina qilib to'rt buklangan qog'ozni qo'limga qistirdi.

Xatga qo'shib uning qo'lidan tutdim. Gulruh yerga qaradi.

- Hademay ozod bo'lib qolarsiz... - dedi u allaqanday dudmal ohangda. Keyin tuynuk tomonga qararkan: - Husanmi? Uni bir ko'rib qo'ysam maylimi? - dedi.

Men unga yo'l berdim.

- Husan, meni eshityapsizmi, sizni ko'rishga keldim, - dedi Gulruh engashib.

Husanning ko'zlari yumuq edi. Gulruhning ovozi eshitdi chog'i, ko'zlarini ochdi.

- Sizni o'zim davolayman, hademay yaxshi bo'lib ketasiz, - dedi Gulruh samimiy ohangda.

Husan kulimsiradi, keyin nimagadir bosh chayqadi.

- Gulruh Qosimovna, vaqtingiz tugadi, - dedi eshik oldida turgan soqchi.

Gulruh iziga qaytdi.

- Husanni davolasa bo'ladimi? - deya so'radim asta.

Gulruh bosh chayqadi. Keyin:

- Yer zax, iloji bo'lsa, yotmang, o'pkangizni oldirib qo'yasiz, - dedi u xayrlashgisi kelmayotgandek eshik oldida turib.

- O'pka degan narsa qolmadi-yov bizda, - dedim kulib.

- Siz shunchalik sog'lomsizki, bitta o'pkangiz to'rtta o'pkaning o'rnini bosishi mumkin, men buni aniq bilaman...

Soqchi tomoq qirdi.

Gulruh eshik tomon burildi.

- Gulruh, - dedim atay vaqtni cho'zib, uni yana bir daqiqa yonimda olib qolish uchun.

Rosti, undan ayrilgim kelmayotgandi-da.

- Ilojini topib, yana kelaman, - dedi Gulruh, - keyin xiyol uzalib yuzimdan o'pdi va sekin, juda ham past ovozda shivirladi: - Sizni sevaman.

Beixtiyor ko'zlarimdan duvillab yosh otildi: umrim bino bo'lib, birinchi marta bunday so'zni eshitishim edi!

Gulruh chiqib ketdi.

Eshik yopildi.

Ancha vaqtgacha turgan yerimdan jila olmadim. Nazarimda, mana hozir qulf sharaq-shuruq qiladi-yu, eshik lang ochilib Gulruh kirib keladi: "Men atay eshik ortida turgandim!!!";

Bir mahal xat esimga tushib qoldi.

Tuynukka yaqin borib, qog'ozni yoruqqa tutdim: "Gulruh meni olib qoldi, aks holda hozir men ham sizlarning yoningizda bo'lardim. U jasur ayol ekan. Nimadir qilishing kerak, yo'qsa undan ayrilib qolishing mumkin. P. D. har oqshomni uning eshigi ortida o'tkazayapti. Kecha tasodifan bir gapini eshitib qoldim: B"; Kazarmadan do'stlaringizni ozod qilsam, menga turmushga chiqasizmi?!".

Sevgi sho'rlikni adoyi-tamom qilgan ko'rinadi.

Ko'rishguncha.

Mendan xavotir olma. Ancha yaxshi bo'lib qoldim. Safarali".

Do'stimning qo'li bilan shoshib-pishib, qing'ir-qiyshiq yozilgan so'zlar yuragimga o'qdek qadaldi. Halovatimni yo'qotdim.

"Gulruhning kazarmaga kirishiga ruxsat berishi ham bejiz emas. Po'lat Damirovich bizning ahvolimizni Gulruh o'z ko'zi bilan ko'rishini istagan, shunda ehtimol, taklifiga osonlikcha ko'nishdan umidvor bo'lgan...";

Kunni ming azob bilan kech qildim. O'lmas ovqat - yovg'on sho'rva ham tomog'imdan o'tmadi.

Tuynuk oldida tik turgancha tunni o'tkazdim. Ayniqsa, tongga yaqin shu qadar siqilib ketdimki, yashagim kelmay qoldi.

"Ikki quloq arqon... kifoya... Lekin qani o'sha arqon? Bu yerdan hatto zanglagan sim ham topolmaysan?";

Bir mahal Husanning:

- Suv-v... - deya ingragani qulog'imga chalindi.

- Suv? Hozir, jinday sabr qil, tong otib qoldi, soqchilar hademay nonushtamizni olib kelishadi, - dedim Husanning yoniga cho'k tushib.

- Suv-v... - yana ingradi u.

Qani endi vaqt tezroq o'tsa!.. Yaramas soqchilar soat sakkiz bo'lmasdan nonushta berishmaydi.

- Suv-v...

Ilojsizlikdan peshonamni devorga urib yoray derdim. Jon berishi arafasida yotgan odamning so'nggi iltimosini bajara olmaslik...

Devorga suyanganicha uxlayotgan Nurali irg'ib o'rnidan turib eshikka mushti bilan ura ketdi:

- Suv beringlar! Suv! Bir qultum suv beringlar!

Unga javoban hech qanday sas-sado bo'lmadi.

Nurali eshikni uraverib charchadi.

- Yarim soat qoldi, Husan, ozgina sabr qil, soqchilar kelishi bilan suvni qo'llaridan olaman-u, senga beraman, to'yguningcha, qonguningcha ichasan. Keyin Gulruh keladi. U seni davolaydi. Mana ko'rasan, bir hafta ichida otday bo'lib ketasan. Uning qo'li yengil. Judayam yengil...

Men to'xtovsiz, nafas rostlamasdan gapirardim, Husanni chalg'itishga urinardim, ittifoqo, gap orasida Husanning xuddi sog'lom, hech qayeri lat yemagan odamday ko'zlarini katta-katta ochib, menga diqqat bilan tikilib yotganiga ko'zim tushdi-yu, beixtiyor jim bo'lib qoldim.

Zero, bu nigoh nihoyat uzoq, zoriqib kutgan va maqsadiga erishgan odamning qarashini eslatdi menga.

Balki adashayotgandirman...

- Davron aka, menga bir qultumgina suv bersangiz, bas, boshqa hech narsa kerakmas, - dedi Husan kutilmaganda dona-dona qilib.

- Husan...

- Menga rahmingiz kelmasin... Men shunday qismatga loyiqman...

- Gulruh yaxshi xirurg. U...

- Uf! Nega odamlar o'z holimga qo'ymaydi?! - Bilmadim, bunday kuch qaydan paydo bo'ldi, Husan birdan jazavaga tushib baqira ketdi: - Men qotilman, tushunyapsizmi, qotilman! Sevgan qizimni o'ldirganman!.. O'n besh yilga qamashgandi... Otam pulning kuchi bilan ikki yilda chiqarib oldi... Butun aybni o'rtog'imga yuklashdi... Qilmishimga yarasha jazo olishimga ham qo'yishmadi!

Men qo'g'irchoq emas, odamman, axir! Qilmishimga yarasha jazo olmadimmi, azoblanishim, azob tortishim kerak. Shunda ehtimol, uning ruhi oldida aybim yengillashar...

Husan go'yo so'nggi kuch-quvvatni ham sarflab bo'lgandek jim bo'lib qoldi.

Unga qarab, nigohlarida ulkan armon, afsus-nadomat va sadoqatni ko'rdim.

Shu kuni tushga yaqin u olamdan o'tdi...

Ertasi kuni kechasi, soat chamasi o'n ikkilar atrofida, he yo'q-be yo'q, soqchilardan biri kelib meni kazarmadan olib chiqdi.

Nurali bilan Ravshan ortimdan xavotir bilan qarab qolishdi.

Ko'nglimdan nimalar kechmadi, deysiz?!

Kazarmadan to kontoragacha bo'lgan qisqa masofani bosib o'tguncha yillar o'tib ketgandek bo'ldi, nazarimda.

- Bemahalda bezovta qilmadimmi? - Hakim Nazarich hech narsa bo'lmagandek, o'ziga xos tabassum bilan qarshi olganida men deyarli behush edim. - Davron...

Hakim Nazarich qo'lini ko'z oldimda silkitdi.

- Eshitaman, - dedim o'zimni o'nqlab.

- O'tiring, - dedi Hakim Nazarich.

O'tirdim.

Hakim Nazarich ro'paramga kelib turdi. Uning qizil yugurgan yuziga qaragim kelmasdan nigohimni olib qochdim.

Seyf ustida yarimlangan aroq shishasi bilan stakan turardi. Tushunarli, yuzining qizilligi bejiz emas.

- Ko'nglingizdan nimalar o'tayotganini sal-pal anglab turibman, - deya gap boshladi Hakim Nazarich. - Hammasi haqida keyinroq, bafurja gaplashib olarmiz, agar nasib qilsa. Hozir vaziyat ancha nozik. Yordamingizga muhtoj bo'lganim va ayniqsa, ancha-muncha gaplardan xabardor ekanligingiz uchun vaziyatni to'g'ri baholay olishingizga ishonganim sababli sizni bu yerga chaqirdim...

Hakim Nazarich jim bo'lib qoldi. Aftidan, mening nimadir deyishimni kutardi.

Atay mum tishlagandek o'tiraverdim.

- Ichasizmi? - so'radi u.

- Yo'q, - dedim to'ng ohangda.

Hakim Nazarich stakanni yarimlatib aroq quydi-da, bir ko'tarishda bo'shatdi, so'ng mushtini og'ziga bosdi.

- Kecha kechasi Po'lat Damirovich brendi shishasini quchoqlaganicha medpunkt eshigi oldida uxlab qolibdi. Allamahalda xotini Aleksandra Pavlovna kelib mashinaga bosib olib ketdi. O'n kundani buyon ahvol shu. Po'lat Damirovich shu paytgacha ko'p pul topib, bosar-tusarini bilmay qolgan odam edi. Endi bo'lsa nima qilayotganini anglamayotgan odamga aylanibdi. Hatto xotini bilan ajralishga ham qaror qilibdi.

Hakim Nazarich menga sinovchan tikilib qo'ydi. Indamay o'tiraverdim. Shundan so'ng hamsuhbatim yana gapida davom etdi:

- Bundan Aleksandra Pavlovnaning qattiq jahli chiqib yuribdi. Mish-mishlarga qaraganda, Aleksandra Pavlovna: "Erimning suyuq va yengiltakligini kechirishim mumkin, ochig'i, kechirib kelyapman shu choqqacha, ammo-lekin boshqa bir ayolni sevib qolishiga yo'l qo'ymayman!"; deganmish. Keyin eriga bir hafta muhlat berganmish va: "Esing borida etagingni yopib ol, Po'lat, yetar shuncha yil erkalingni ko'targanim, dadamga bir og'iz aytsam, sen ham, o'sha hurliqo sevgiling ham o'zlaringni yo qora yer bag'rida, yo bo'lmasa osmonu falakda ko'rasanlar!"; deb ogohlantirganmish...

- Xotinlarning odatdagi do'q-po'pisasi, - dedim Hakim Nazarichning so'zini bo'lib.

- Aleksandra Pavlovnaning qo'lidan har balo keladi. To'g'ri, o'zi ayol sifatida ba'zi bir salbiy qusurlardan xoli emas. Lekin u kishining muhtaram padari buzrukvori taniqli mulCHtmillioner, qo'lini qayoqqa uzatsa yetadigan ishbilarmon. Yakkayu yolg'iz qizining ko'zidan yoshini oqizib, tomosha qilib o'tirmaydi. Ish jiddiy olsa, xudo ko'rsatmasin, ho'lu quruq baravar yonadigan dahshatli yong'in sodir bo'lishi turgan gap. Birinchi navbatda Po'lat Damirovich va u kishining otasi - uddaburon ishbilarmon Damir Vagizovlar xarob bo'lishadi. Nega deganda, ikkala ota, ikkala ishbilarmon quda bo'lganlaridan keyin sarmoyalarning asosiy qismini birlashtirib juda katta, keng ko'lamli ishni yo'lga qo'yishgandi. Shuning uchun ham bechora Po'lat Damirovich xotini bilan ajrashga olmaydi. Modomiki ajrashishga qaror qilibdimi, bu yog'ini o'zingiz tasavvur qilavering...

- Sizni tushungandek bo'lyapman, - dedim endi sal yumshab.

- Agar Gulruh bu yerdan ketmasa, - deya gapini davom ettirdi Hakim Nazarich andak yengil tortgandek bo'lib, - aybsiz aybdor bo'lib qolishi, boshiga ko'p savdolar tushishi mumkin. Men uni birgina sizga ishonaman. Uni olib keting bu yerdan. Ikki kun ichida ilojini topib sizlarni poyezdga yoki samolyotga chiqarib qo'yaman. Rozimisiz?

- Roziman. Lekin boshqalar-chi?

- Boshqalar bilan ishingiz bo'lmasin, - dedi Hakim Nazarich ovozi o'zgarib.

- Lekin...

- ...

Yuragim siqilib ketdi.

- Hakim Nazarich, keling, ochiqchasiga gaplashib olaylik, - dedim paytdan foydalanib qolishga qaror qilib. - Yangi kelganlarning so'zlari rost bo'lsa, bu yog'ini nima deb tushunish mumkin? Axir bu noinsoflik, yo'q, undan ham battar! Hatto nima deb aytishga ham til bormaydigan jinoyat-ku!

- Men hech kimni bu yerga iltimos qilib chaqirganim yo'q. O'zlari, o'z ixtiyorlari bilan kelishgan, - dedi Hakim Nazarich cho'ntagidan sigaret qutisini olarkan.

- Hakim Nazarich, biz, hammamiz sizning buyurtmangizga muvofiq bu yerda yuribmiz-ku, yashirib nima qilasisiz?!

- Biroq men sizlarni issiqqina uyingizdan yetaklab chiqqanim yo'q-ku! To'g'rimi? Faqat rost javob bering! - dedi Hakim Nazarich qizishib, u hayajonlanganidan halidan buyon zajigalkasini yoqa olmasdi.

- To'g'ri, - deya g'oldiradim noiloj.

- Xo'sh, taklifimga rozimisiz?

- Roziman. Lekin boshqalarni tashlab qanday ketaman?..

- Menimcha, Safarali do'stingiz, shekilli?

- Ha.

- Unga ham javob. Birga ketasizlar. Bo'ldi, haddingizni bilib, bas qiling. Yaxshisi, yo'lga tayyorgarlik ko'ring. Faqat bu haqda hech kimga og'iz ochma ko'rmang! Boring endi...

Hakim Nazarich orqa o'girdi.

Yo'lakka chiqdim.

Bir daqiqadan so'ng o'girilib ichkariga bosh suqdim.

Yana nimadir demoqchi edim. Lekin Hakim Nazarich meni payqamadi, uning qo'lida bo'sh stakan, horg'in qiyofada, o'z xayollari va sarxushlikka g'arq bir alpozda o'tirardi.

Oradan ikki kun o'tdi.

Axiyri aeroportga yetib keldik.

Samolyot uchishiga bor-yo'g'i yarim soat qolgan ekan. Hakim Nazarich cho'ntagidan uchta pasport va uchta chipta chiqardi.

Shundan keyin u eng avvalo Gulruh bilan, so'ng Safarali bilan samimiy xayrlashdi-da, muhim gapi borday meni bir chekkaga

tortdi.

- Nimadir demoqchisiz, shekilli? - dedim qimtinib, allaqanday bezovta nazar tashlayotgan Hakim Nazarichga yuzlanib.

- Ha, topdingiz... Gulruh sizga omonat, do'stim! Men... bilasizmi, o'ylab ko'rib... bir qarorga kelganimdan keyin albatta uni qidirib boraman. Albatta boraman! Ungacha omonatimni ehtiyot qiling, sizdan birgina o'tinchim shu!

Hakim Nazarichning so'zlari yuragimga toshdek botdi.

\* \* \*

Shunday qilib, yurtimizga eson-omon kelib oldik.

Saodatning meni kutishga toqati yetmabdi, bir oy bo'lgan ekan turmushga chiqqaniga...

Lekin men bilan rasman ajrashmagani uchun yangi turmush o'rtog'i bilan nikohdan o'tolmagan ekan. Kelganimni birovlardan eshitibdi-yu, taloq xati talab qilib keldi.

Nima ham derdim? Undan:

- Men yuborgan pullarni oldingmi? - deb so'radim.

Xotanim (endi sobiq) juda ham hayron qolib:

- Qanaqa pul?! Siz menga pul jo'natganmidingiz?! - deb javob berdi.

Ikki oyning nari-berisida Saodat bilan oramiz ochiq bo'ldi. U endi menga butunlay begona...

Gulruh bilan tez-tez uchrashib turardik. Ba'zi kunlari ertadan kechgacha, gohida kechki besh-oltidan boshlab to yarim kechagacha shaharning eng ko'rkam, soya-salqin bog'larida sayr qilardik, suhbatlashardik. Bir necha marta toqqa dam olishga borib keldik. Men baxtiyor edim.

Gulruh ham xursand edi; menga nigohi tushganida ko'zlari quvonchdan porlab ketardi.

Sirtidan qaraganda hammasi joyidaga o'xshardi. Ammo... yuragimni toshdek ezib yotgan juda ham ulkan g'ussa bor ediki, undan sira ham qutula olmayotgandim... Meni Hakim Nazarichning mash'um so'zlari tinmay ta'qib etardi: "Gulruh sizga omonat, do'stim!

Men... bilasizmi, o'ylab ko'rib... bir qarorga kelganimdan keyin albatta uni qidirib boraman. Albatta boraman! Ungacha omonatimni ehtiyot qiling, sizdan birgina o'tinchim shu!..";

Shunday kunlarning birida ertalab eshik qo'ng'irog'i jiringladi.

Hali soqol olishga ham ulgurmagandim. Yelkamga sochiqni tashlagancha borib eshikni ochdim.

Ostonada... Hakim Nazarich turardi!

Haykalday qotib qoldim.

U o'ziga xos nazokatli tabassumi bilan kulimsiradi:

- Bezovta qilmadimmi?

Men uni bir amallab uyga taklif qildim. To'g'risi, boshida Hakim Nazarich bilan birga sovuq o'lka nafasi kirib kelgandek etim junjikib ketdi. Biroq bu hol tez o'tib ketdi.

- Qaynoq, achchiqqina choyni o'rnini hech qanday ichimlik bosa olmaydi-da, - dedi Hakim Nazarich dasturxon atrofida o'tirganimizda.

- Butunlay keldingizmi? - deb so'radim undan, chunki avzoyidan shunga ishora borday edi.

- Hali butunlay keldim, deya olmayman. Picha vaqt bor bunga, - dedi Hakim Nazarich. - Ammo ishlarimni bir yoqlik qildim.

- Aytganday, Po'lat Damirovich qanday? - so'radim.

- Po'lat Damirovich ancha vaqt o'ziga kelolmay yurdi. Men bilan urishib, ishdan bo'shab ketdi. Ammo hozir tuzuk, hatto juda yaxshi desam ham bo'ladi, Aleksandra Pavlovna vahima qilgan to's-to'polonlar yuz bermadi, u har qalay, tilini tiya oldi. Aytishadi-ku, idishning toshib chiqishiga so'nggi tomchi yetmay turganida ham puldorlar aql bilan ish yuritadilar deb. Yaqinda er-xotin biznikiga kelishdi. Bilasiz-ku, Kseniya Sergeevna bilan Aleksandra Pavlovnaning o'zaro bordi-keldilari bor. Po'lat Damirovichni o'shandan buyon endi ko'rishim edi. O'ziga kelishi ancha qiyin bo'lgan chog'i, bechora pati yulingan burgutday shumshayib qolibdi. Aftidan, unga endi baribir edi. Lekin ko'p o'tira olmadi. Hali ham mendan xafa ekanligi, arazi tarqalmaganini, bu yerga xotining qistovi bilan kelganini sezdirib qo'ydi...

- Hakim aka, o'sha qurilish haqiqatan ham Ahmadbeyga tegishli edimi? - deb so'radim undan.

- Ha, shaxsan Ahmadbeyga tegishli edi. U menga ustozday bo'lib qolgandi. Bundan ancha yillar ilgari otam aytgan qizga uyulanmasdan uydan chiqib ketib, ko'cha-ko'ya daydib yurgan vaqtlarimda u meni qanoti ostiga olgan. Obdon ezib ishlatdi ham, ish o'rgatdi ham. Tajribam ortdi. Mustaqlil ish yuritishni ham eplardim. Shundan keyin u inon-ixtiyorini menga berib qo'ydi.

Buning isbotiga misol sifatida o'sha qurilishni aytishim mumkin. Ahmadbey kerakli mablag' bilan ta'minlab turardi, lekin men iqtisod qilish, mablag'ning bir qismini urib qolish maqsadida ishga haqiqiy quruvchi-ishchilarni emas, mo'may daromad ilinjida izg'ib yurgan, noqonuniy kelib qolgan migrantlarni, gasterbayterlarni ishga yollardim. Buning hammasi ochko'zlik oqibati edi.

Buni mo'may daromad qarshisida dovdirab qolish desa ham bo'ladi. Afsuski, buni kechroq tushundim... - Hakim Nazarich yerga qaraganicha jim bo'lib qoldi.

- Xudo qarag'agan sho'rliklarni haliyam ezib ishlatyapsizmi? - dedim avzoyim buzilib.

- Yo'q. Bugun roppa-rosa bir oy bo'ldi ularga javob berib yuborganimga. Barisini imkonim darajasida rozi qildim... Mana bu esa...

- Hakim Nazarich ichki cho'ntagidan chek daftarchasini oldi-da, orasidan bir varag'ini yirtib, qo'limga tutdi: - Mana bu sizning ish haqingiz...

Men undan ko'zimni uzmay, tikilib turaverdim.

- Tushuning, o'sha vaqtda boshqa ilojim yo'q edi! - dedi u zorlanganday bo'lib.

Shunda ham qilt etmadim.

Kutilmaganda u o'rnidan turdi. Men ham qo'zg'aldim.

Eshik oldigacha jim bordik.

- Davron, - dedi Hakim Nazarich ostonaga yetganida taqqa to'xtab. - Gulruhni qanday topsam bo'ladi?

Ko'zlarimdan o't chiqib ketdi. Ammo o'zimni bosdim. Axir u menga "omonat"; deb topshirilgan edi. Nima bo'lsa bo'lar. Hammasi taqdir hukmiga havola!

- Gulruh hozir ishda, - dedim. - Yarim soatlardan keyin chiqib qolsa kerak.

- Ishxonasi atrofida kutib tura qolaylik, - dedi Hakim Nazarich.

Yo'lga tushdik.



This is not registered version of TotalDocConverter

Havo boshimni qo'ndirib qo'ygan quyukning kumushang yog'dusi daraxt yaproqlarida, yo'l chetidagi uylarning derazalarida jilva qilardi.

Faqat mening ko'nglim osmonini quyuq bulut qoplagandi. Har bir tashlagan qadamim g'ussali istiqbolim sari yetaklayotgandek tuyilardi.

- Shu yerda tura qolaylik, - dedim Gulruh ishlaydigan kasalxona darvozasidan picha berida to'xtab.

- Xo'p-p...

E, xudo, buni qarang, Hakim Nazarichning yuzi shu qadar o'zgarib ketgandiki!.. Burun kataklari pir-pir uchishini qarang.

Ko'p o'tmasdan Gulruh kasalxona darvozasidan chiqdi. Meni ko'rди, qo'lini silkiб qo'ydi. Hakim Nazarichga e'tibor bermadi yo e'tibor bersa ham tanimadi.

Gulruh tez-tez yurib kelaverdi, kelaverdi, kelaverdi, atigi ikki qadam qolganda birdan taqqa to'xtadi.

- Hakim aka?!

E, xudo, namuncha baqirmasa? Shunchalik xursand bo'lib ketadi, deb o'ylamagandim...

- Omonmisiz, Gulruh?

Ular qo'l berib ko'rishishdi.

- Men shoshib turgandim. Boraqolay, - dedim o'zimni ortiqcha sezib.

Gulruh menga hayron bo'lib qaradi.

Hakim Nazarich Gulruhni tirsagidan tutib chetga olib chiqdi. Uning:

- Toshkentning eng zo'r restoraniga taklif qilsangiz yo'q demasdim, Gulruh, - deganini eshitdim.

"Ustomon! Xotinboz!";

Ketishim kerak, bu yerda turish noqulay, ammo keta olmasdim. Tosh bog'langandek oyoqlarimni yerdan uzolmasdim. Qaramayin, derdim, ammo nigohlarimni olib qocholmasdim, lahza sayin uzoqlashayotgan Gulruhning ortidan qarab turardim.

"Yana biroz yurishsa katta yo'lga chiqishadi. Keyin duch kelgan mashinaga o'tirishadi-yu, ko'zdan g'oyib bo'lishadi"; - miyamda faqat shu fikr gir-gir aylanardi.

Bir mahal... ular yurishdan to'xtashdi.

Gulruh bosh egib turar, Hakim Nazarich nimalarnidir kuyib-pishib so'zlardi. "Ket! Ketsang-chi bu yerdan, - derdim o'zimga o'zim.

- Nega qaqqayib turibsanz?! Nimadan umidvor bo'lyapsanz? Saodatli kunlaring tugadi, tamom bo'ldi. Nahotki shuni sezmayotgan bo'lsang?!";

Bir mahal... ular yana yurishda davom etishdi.

Hech esimdan chiqmaydi, Gulruh ikki marta ortiga qarab qo'ydi. Men bo'lsam es-hushidan ayrilgan ovsardek... tutun ichida...

tuman ichida turgandek... ikki sharpadan boshqa hech narsaga, hech kimga parvo qilmasdan turaveribman, turaveribman...

Bir mahal...

Yo rabbim!

Ko'zlarimga ishonmasdim! Bu qachon ro'y berganiga aqlim bovar qilmasdi! Gulruh, nozik-nihol malagim, suv yuzida suzib yurgan nilufarim men tomon shamoldek yelib kelardi!..

Men Gulruh tomon otildim...

Tamom.

AvvalgiII- qismB Keyingi